

Olim NARZULLAYEV



# ENERGETIKA HUQUQI

O'quv qo'llanma

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**O.X.NARZULLAYEV**

# **ENERGETIKA HUQUQI**

**O‘quv qo‘llanma**

**TOSHKENT–2021**

**O.X.NARZULLAYEV**

# **ENERGETIKA HUQUQI**

**O'quv qo'llanma**

Muharrir M.Talipova  
Tex. muharrir N.Niyazova  
Sahifalovchi B.Haydarov

Bosishga ruxsat etildi 15.07.2021.  
Qog'oz bichimi 60x841/16. TIMES garniturasini,  
Shartli bosma tabog'i 11,8. Nashr tabog'i 8,9  
Adadi 100. Buyurtma № 12-08

«IMPRESS MEDIA» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent sh. Qushbegi ko'chasi, 6-uy.





## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	<b>6</b>
<b>1-mavzu: GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA ENERGETIKA HUQUQINI O'RGANISH</b> .....	<b>9</b>
1.1. Energetika huquqi fanining predmeti va uning o'ziga xos xususiyatlari .....	9
1.2. Energetika huquqining huquq sohasida tutgan o'rni.....	14
1.3. Elektr energiya bilan ta'minlash konsepsiyasi .....	20
<b>KAZUSLAR</b> .....	26
<b>TEST</b> .....	27
<b>NAZARIY SAVOLLAR</b> .....	29
<b>2-mavzu: ENERGETIKA HUQUQINING MANBALARI</b> .....	<b>29</b>
2.1. Energetika huquqi manbalarining tushunchasi va tizimi .....	30
2.2. Energetika huquqi manbalarining tasniflanishi .....	30
2.3. O'zbekiston Respublikasi qonunlari – energetika huquqining maxsus manbasi sifatida.....	32
<b>KAZUSLAR</b> .....	33
<b>TEST</b> .....	36
<b>NAZARIY SAVOLLAR</b> .....	38
<b>3-mavzu: ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDAGI DAVLAT BOSHQARUVI</b> .....	<b>39</b>
3.1. Energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi davlat siyosati .....	39
3.2. Energetika sohasida davlat boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlari.....	42
3.3. Energetikaga oid munosabatlarni tartibga solishda davlat boshqaruv va nazorati.....	44
3.4 Energetika sohasida maxsus va alohida vakolatli davlat organlari tizimi .	47
3.5 Energetika vazirligining asosiy vazifalari .....	50
3.6 Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi .....	53
3.7 Energetika sohasida alohida vakolatlarga ega bo'lgan davlat organlari .....	56
<b>KAZUSLAR</b> .....	59
<b>TEST</b> .....	60
<b>NAZARIY SAVOLLAR</b> .....	63
<b>4-mavzu: ENERGETIKA SOHASIDA SHARTNOMAVIY MUNOSABATLAR</b> .....	<b>64</b>
4.1. Energiya ta'minoti shartnomasi va.....	64
uning o'ziga xos xususiyatlari .....	64
4.2 Energiya ta'minoti shartnomasining predmeti.....	67
4.3 Energiya iste'moli va energiya ishlab chiqaruvchilar .....	71
<b>KAZUSLAR</b> .....	74
<b>TEST</b> .....	78
<b>NAZARIY SAVOLLAR</b> .....	80

<b>5-mavzu: ENERGETIKA SOHASIDA EKOLOGIK TALABLARNI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY HOLATI. ENERGETIK XAVFSIZLIK MASALALARI.....</b>	<b>81</b>
5.1. Energetika sohasida ekologik huquqiy talablar va nazoratni amalga oshirishning zarurati .....	81
5.2 Atmosfera havosini muhofaza qilish talablari .....	85
5.3 Suv ob'ektlari muhofazasini ta'minlash .....	87
5.4 Yer resurslari muhofazasini ta'minlovchi .....	87
ekologik talablari .....	87
5.5 Chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasida ekologik talablari.....	89
5.6 Energetika sohasida davlat ekologik ekspertizasi .....	91
5.7 Energetik xavfsizlikni ta'minlash.....	92
KAZUSLAR.....	95
T E S T .....	97
NAZARIY SAVOLLAR .....	101
<b>6-mavzu: AN'ANAVIY ENERGIYA RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH .....</b>	<b>102</b>
6.1 Hozirda an'anaviy elektr energiyasining holati .....	102
6.2 Energetika sohasida yer osti boyliklaridan foydalanishni huquqiy ta'minlash zarurati .....	104
6.3 Neft va gazni qidirish, ishlab chiqarish hamda qazib olish .....	108
6.4 Tabiiy gaz va elektr energiyasini aholi va tadbirkorlik sub'ektlarga sotish mexanizmini yanada takomillashtirish.....	110
6.5 Elektr-energetika sektori ko'mir yonilg'isining asosiy iste'molchisi .....	111
6.6 Suv-energetika resurslaridan foydalanish (gidroenergiya – tabiiy suv energiyasi).....	113
KAZUSLAR.....	119
TEST .....	121
NAZARIY SAVOLLAR .....	124
<b>7-mavzu: QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH .....</b>	<b>125</b>
7.1 Qayta tiklanuvchi energiya manbalari tushunchasi va ulardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari .....	125
7.2 Qayta tiklanuvchi energetika texnologiyalarini O'zbekiston sharoitida qo'llash.....	126
7.3 Quyosh energiyasi .....	128
7.4 Shamol energiyasi va kichik suv oqimlardan foydalanish .....	131
7.5 Kichik suv oqimlari energiyasi .....	133
KAZUSLAR.....	134
TEST .....	136
NAZARIY SAVOLLAR .....	138

<b>8-mavzu: ATOM ENERGIYASIDAN FOYDALANISH SOHASINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH</b> .....	<b>139</b>
8.1 Atom energiyasidan foydalanishni huquqiy tartibga solish asoslari .....	139
8.2. Atom energiyasi ekologik toza energiya hisoblanadi .....	142
8.3. Atom energiyasidan foydalanishni nazorat qilish .....	142
KAZUSLAR .....	145
TEST .....	145
NAZARIY SAVOLLAR .....	149
<b>9-mavzu: BIOGAZ TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH</b> .....	<b>151</b>
9.1 Energetikada biogazdan foydalanish zarurati .....	151
9.2 Biogaz qurilmasini sotib olish, o‘rnatish va ishlatish .....	152
9.3 Biogaz qurilmalari ekspluatatsiyasining xavfsizlik qoidalari .....	156
KAZUSLAR .....	157
TEST .....	158
NAZARIY SAVOLLAR .....	161
<b>10-mavzu: ENERGETIKA SOHASIDAGI QONUN TALABLARINI BUZGANLIK UCHUN YURIDIK JAVOBGARLIK</b> .....	<b>162</b>
10.1 Energetika sohasidagi qonun talablarini uchun javobgarlikni tushunchasi, mohiyati va turlari .....	162
10.2 Umumiy foydalanishdagi elektr, issiqlik, gaz tarmoqlariga o‘zboshimchalik bilan ulanish .....	166
10.3 Gazdan foydalanish qurilmasiga gazni ruxsatsiz ochib berish yoki gaz iste’mol qilishning belgilangan tartibiga rioya qilmaslik .....	167
10.4 Elektr, issiqlik energiyasi, gaz, vodoprovoddan foydalanish qoidalarini buzish .....	169
KAZUSLAR .....	170
TEST .....	173
NAZARIY SAVOLLAR .....	178
<b>ADABIYOTLAR RO‘YXATI</b> .....	<b>179</b>

## KIRISH

Umumiy uyimiz biosfera barqarorligini asrash hozirgi vaqtda eng muhim va dolzarb umum sayyoraviy ekologik muammolardan biridir. Chunki, tabiiy resurslardan normasiz foydalanish, antropogen omillarning tabiatga keltirilgan salbiy ta'siri va boshqa sabablar natijasida ekotizimlarga kuchli ta'sir ko'rsatilmoqda, juda ko'p tur o'simlik va hayvonlar yo'qolib ketmoqda. Inson tabiatsiz – yashamaydi. U barcha mahsulotlarni tabiatdan oladi. Yer yuzida 7 mlrddan ziyod inson kislorod bilan nafas oladi, kislorodning manbai esa o'simliklardagi fotosintez jarayonidir.

Ta'kidlash kerakki, mamlakatning taraqqiyoti ko'p jihatdan mamlakat energiya (tabiiy) resurslari bilan qanchalik ta'minlanganligiga chambarchas bog'liq. Ko'mir, neft, tabiiy gaz, torf, o'tin, slanets, suv, elektr va yadro energiyasi, shamol va quyosh energiyasi energetika resurs(manba)lari hisoblanadi.

Xalqaro miqyosda aholining o'sishi tabiiy resurslar va qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash, barqaror rivojlanish sharoitida ilm-fan yutuqlari innovatsion texnologiyalarini joriy etgan holda normativ-huquqiy bazani shakllantirgan holda taraqqiyotga erishish talab etiladi.

Barqaror rivojlanish va ekologiya zamonaviy iqtisodiy va ko'p jihatdan siyosiy hayot bizga dunyoning ko'p qirrali sohalariga energiya ta'sirining yetarlicha “daliliy materiallari”ni, yorqin misollarini taqdim etmoqda. “Energetika siyosati”, “Energetika xartiyasi”, “Energetika strategiyasi”, “Energiya xavfsizligi”, “Energetika diplomatiyasi”, “Energiya (energiya tejamkor) iqtisodiyot” “kollayder” iboralari nafaqat kundalik gazetalar va taniqli jurnallarning sahifalarida, balki mustahkam monografik tadqiqotlar sarlavhalariga ham kiritilmoqda. Shuningdek, alohida tadqiqotlar olib borilmoqda. AQSHning Jorj Vashington Universiteti Huquq maktabi magistraturasida Ekologiya va Energiya huquqi yo'nalishi 40 yildan buyon faoliyat olib borib ushbu sohada yetuk mutaxassislarni tayyorlab kelmoqda. Ushbu yo'nalish doirasida “Energiya huquqi”, “Energiya va atrof muhit”, “Tabiiy resurslar huquqi”, “Qattiq va havfli chiqindilar nazorati”, “Neft va gaz huquqi”, “Atom energiyasi huquqi” singari predmetlar o'rganiladi. Buyuk Britaniyaning “Energetika huquqi” bo'yicha eng yaxshi dasturlarga ega bo'lgan universitetlaridan Qirolicha Mariya (Kvin Mari) nomidagi London Universiteti Huquq maktabi sanaladi. Daniya universiteti (Shotlandiya)

energetika, neft va tabiiy resuslar bo'yicha fanlar o'tilgan va bunga 1977 yilda asos solingan. Shu sohadagi bilimlarni chuqurlashtiradigan 23ta maxsus modul fanlari asosida o'tiladi.

So'nggi to'rt yilda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan energiyadan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish, energiya va resurslarni tejoychi yangi texnologiyalarni jadal joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilib salmoqli islohotlar amalga oshirilib huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda. Umuman elektr energiyasi va energiyadan foydalanish sohasidagi munosabatlar va uning huquqiy asoslarini yaratilishi yangi bosqichni boshlab berdi. 200dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar va standartlar ishlab chiqilib hayotga joriy etilmoqda. Mutlaqo yangi maxsus normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 21 maydagi "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 9 sentabrdagi "Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi PQ-4779-sonli "Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, 2019 yil 22 avgustdagi PQ-4422-sonli "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 23 iyuldagi 452-sonli "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarining va ulardan ishlab chiqariladigan energiyaning davlat hisobini yuritish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilinib hayotga joriy etildi.

Normativ-huquqiy hujjatlar borasida xorijiy tajribaga e'tibor qaratadigan bo'lsak, hozirgi kunga qadar dunyodagi 50 ta davlatda "Muqobil energiya manbalari to'g'risida"gi qonun qabul qilgan va hozirda muqobil energiyadan foydalanish bo'yicha munosabatlar huquqiy tartibga solingan.

Aholining hayot darajasi va sifatini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı ishlar yildan-yilga ehtiyoj ortib borayotgan energiya resurslarini ishonchli manbalar bilan ta'minlashni talab qilmoqda. Respublikamizda tabiiy boyliklar uran xom ashyosining ulkan zaxirasi bo'la turib, amalda atom energetikasi salohiyati ishga

solinmagan. Energiya bilan barqaror ta'minlash, energetika sektorini diversifikatsiya qilish, atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish va ushbu yo'nalishlarga ilg'or innovatsion texnologiyalarni joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 iyuldagi PF-5484-sonli "O'zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni qabul qilindi.

Adabiyotlarda ta'kidlanishicha, atom energiyasi zaxiralari bitmas-tuganmas, chunki kelajakda ko'p elementlar atomlaridan ham energiya olish imkoni topiladi. Kelajakda energiyaga bo'lgan ehtiyoj termoyadro energiyasini ishga solish yo'li bilan qondiriladi. Termoyadro reaktorining ishga tushirilishi odamzodning energiya muammolarini hal etadi, energiyaga bo'lgan ehtiyojni qanoatlantiradi.

Xulosa o'rnida, respublikamizning barqaror rivojlanishi yangi energiya texnologiyalari va energetika huquqining rivojlanishi, tadqiq etilishi, innovatsion texnologiyalar, uning huquqiy asoslarini ishlab chiqish va joriy qilish ishlarini yuqori darajaga ko'tardi. Energiya bilan barqaror ta'minlash, undan foydalanish va ushbu yo'nalishlarga ilg'or innovatsion texnologiyalarni joriy etish eng muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi.



# **1-mavzu: GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA ENERGETIKA HUQUQINI O'RGANISH**

## **1.1. Energetika huquqi fanining predmeti va uning o'ziga xos xususiyatlari**

Sivilizatsiya tarixida samarali texnologiyalarni joriy etish alohida ahamiyatga ega. XX asr insoniyatning energiya ehtiyoji turli shakllarda o'lgan o'sishi bilan e'tirof etiladi. Ushbu tendensiya XXI asrda ham davom etmoqda. E'tirof etish lozimki, energetiklar insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotini ta'minlash bo'yicha o'zlarining tarixiy vazifasini bajarib kelmoqdalar. Shu bilan birgalikda energetiklarning jamiyat, hozirgi va kelajak avlodlar oldida mas'uliyati tobora ortib bormoqda.

Mamlakatning taraqqiyoti ko'p jihatdan mamlakat energiya resurslari bilan qanchalik ta'minlanganligiga chambarchas bog'liq. Ko'mir, neft, tabiiy gaz, torf, o'tin, slanets, suv, elektr va yadro energiyasi, shamol va quyosh energiyasi energetika resurslari hisoblanadi.

Energiya muammosi ko'plab boshqa jihatlarga ega, ular orasida eng umumiy jihatlardan birini ta'kidlash lozim: energiya (keng ma'noda) mavjud bo'lgan barcha narsalarning boshlanishi sifatida qaralishi mumkin. Xar bir kishi energiya falsafasini tushunishi kerak. Energiya barcha sohalarga kirib bordi, bizning butun hayotimiz energiya bilan bog'liq.

Va, energiya iste'moli inson hayotining zaruriy shartidir. Nobel mukofoti sovrindori, Fanlar akademiyasining akademigi P.P.Kapitsa ta'kidlaganidek: "Insoniyat kelajagi o'zini qanday energiya bilan ta'minlashiga bog'liq". "Energiya" nima? Bu hammamizga yaxshi ma'lumdek bo'lib ko'rinadi, chunki kundalik hayotda va ilmiy tadqiqotlarda "energiya" so'zini ishlatamiz. Biz har doim bu nimani anglatishini bilamizmi? Va eng muhimi - bu qayerdan kelib chiqqan. Energetikaga taalluqli barcha ijtimoiy munosabatlarning markazida energiya turadi. "Adabiyotlarda hozirchalik energetika bilan energiya o'rtasidagi farqqa unchalik e'tibor berilmayati".

"Energiya" - (yunoncha *energeia* - harakat (aslida) - qadimgi yunon falsafasining atamasi, ma'nosi:

- 1) harakat, amalga oshirish;
- 2) faoliyat.



Har qanday ko‘rinishdagi materiya, xususan, jism yoki jismlar tizimini tashkil etuvchi zarralar harakatining hamda bu zarralarning o‘zaro va boshqa zarralar bilan ta’sirlarning miqdoriy o‘lchovi .

“Energiya” tushunchasining o‘zi ham murakkab: “yerg” (erg) - bu atamaning ikkinchi qismi, aslida harakat (ish) ma’nosini anglatadi va asl “in” - “v” dan kelib chiqqan “en” ushbu harakatning tizimning ichki qismidagi yo‘nalishini ta’kidlaydi. Energiya - bu effekt (hodisa) yoki tabiat hodisalari guruhi, turli xil moddalar (materiallar) tomonidan namoyish etilgan (ko‘rsatilgan), shuningdek hodisalarning o‘zi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu tushunchani Aristotel tomonidan kiritilganligi ta’kidlangan.

Energetika – energiyaning har xil turlarini hosil qilish, ularni bir turdan ikkinchi turga o‘zgartirish, muayyan masofaga uzatish va yetkazib berish, ulardan barcha sohalarida foydalanishni hamda shular bilan bog‘liq nazariy va amaliy muammolarni hal qilishni o‘z ichiga olgan xalq xo‘jaligi, fan va texnika sohasi. “Energetikani sanoatning alohida sohasi deb qarab, uni energiya bilan bog‘liq faoliyatlarning umumlashgan nomlanishi, deb tushunish lozim” .

Tabiatning eng muhim asosiy qonuniyatlaridan biri; unga ko‘ra, har qanday berk tizimda energiya yo‘qdan bor bo‘lmaydi va yo‘qolib ketmaydi, faqat bir turdan ikkinchi turga aylanib turadi.

Yuqorida aytib o‘tilgan “energiya” tushunchasi nafaqat tabiiy fanlarda, balki umumiy falsafiy fanlarda xam o‘rganiladi. Zamonaviy iqtisodiy va ko‘p jihatdan siyosiy hayot bizga dunyoning ko‘p qirrali sohalariga energiya ta’sirining etarlicha “daliliy materiallari”ni, yorqin misollarini taqdim etmoqda. “Energetika siyosati”, “Energiya xavfsizligi”, “Energetika diplomatiyasi”, “Energiya (energiya tejamkor) iqtisodiyot” iboralari nafaqat kundalik gazetalar va taniqli jurnallarning sahifalarida, balki mustahkam monografik tadqiqotlar sarlavhalariga ham kiritilgan.

Energiya o‘zida materiyaning muayyan xususiyatini – foydali ishni amalga oshirish, tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlari uchun shart – sharoit yaratib berish imkoniyatini ifodalaydi. Energiya bilan ta’minlovchi tashkilotdan energiyani iste’molchiga berib turish tutashtirilgan tarmoq mavjud bo‘lgandagina amalga oshirilishi mumkin .

Xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar va milliy qonunchiligimizda “Energetika resurslari” va “tabiiy resurslar” tushunchasiga turli xil qarashlar mavjud, ushbu tushunchalar murakkab va noaniq, ayni paytda

chambarchas bog'liqdir. "Tabiiy resurslar (ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan o'zlashtirilgan tabiat ob'ektlari" .

Energiya resurslari - ko'mir, gaz, neft va yadro mahsulotlari - bular haqiqatan ham muhim resurslardir (ular qattiq, suyuq yoki gazli bo'lishi muhim emas). Ammo, boshqa tomondan, elektr energiyasi (shuningdek, issiqlik energiyasi) bunday materialni qayta ishlash (yoqilg'i) mahsulidir. Hidroelektr stansiyalarida to'g'on ortidagi suvning potensial energiyasi tepadan tushib turbina pichoqlarini aylantiradi va elektr energiyasi mexanik energiya orqali hosil bo'ladi. Ushbu holatni hisobga olgan holda energiyani buyum deb hisoblash mumkin emas, chunki u materiyaning harakatlanish shakllarining umumiy miqdoriy o'lchovidir.

Elektr energiyasiga kelsak, bu "ijobiy, manfiy zaryadlarning elektronlar va boshqa elementar zarralarning zanjir reaksiyasi sifatiga egaligi, ishlatilishi mumkin bo'lmagan, lekin uni ishlab chiqarish imkoniyati to'g'risida oldindan bilib, iste'mol qilinishi va yo'q qilinishi mumkin bo'lgan harakati" (A.A. Jusupov). Energiyani moddiy tushunishni rad etish mulk rejimini ushbu maxsus fuqarolik huquqi ob'ektiga tatbiq etishning iloji yo'qligi bilan belgilanadi (N.Zaichenko).

O.Oqyulovning ta'kidlashicha, energiya odatdagi moddiy ne'mat sifatida tushunilishi mumkin emas. Energiya o'zida moddiylik xususiyatini namoyon etib, o'zida muayyan moddiylik holati (tok kuchlanishi, suvning hararoti)ni ifoda etadi. Ushbu xususiyatlar insonlar foydali natijalarga erishishini, turli xildagi texnik operatsiyalarni amalga oshirishini ta'minlash, ishlash va dam olish uchun zaruriy sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Energiyani fizik xususiyatlaridan kelib chiqib, boshqa tovarlar kabi omborlarda va maxsus idishlarda ko'p miqdorda to'plash va saqlab turishning imkoni yo'q. Energiyaning foydali xususiyatlari undan foydalanish, uni iste'mol qilish jarayonida namoyon bo'ladi. Foydalanish natijasi sifatida bajarilgan ish yoki amalga oshirilgan texnologik operatsiyalarni ko'rsatib o'tish mumkin. Biroq, bunda energiyaning o'zi biror-bir mahsulot yoki boshqa shakliga aylanmaydi, balki yo'q bo'lib ketadi. Energiyaning mavjud bo'lganligi va undan foydalanilganligi ulchov asboblarning ko'rsatkichlarida aks etadi xolos .

Xorijiy olimlardan R.Savatiyer shunday yozadi, "yuridik jihatdan energiya faqat majburiyat shaklida ifoda etilishi mumkin. Bu har doim umumiy xususiyatlar bilan belgilanadigan, faqat uni ishlatish natijalarida ifodalanadigan va o'lchov birligiga muvofiq sotiladigan ashyodir. Majburiyatning muhim jihati sifatida, u hech qachon mulk huquqi ob'ekti bo'lishi mumkin emas."

S.M.Korneyevning fikricha, energiya moddiy dunyoning oddiy predmeti sifatida kurilmaydi, u materiyaning ma'lum holat berilgan (tok bosimi, suv temperaturasi va boshqalar) o'ziga xos xususiyatidir. Energiyani moddiy dunyoning oddiy ob'ekti sifatida, narsa deb hisoblash mumkin emas; bu moddaning va materiyaning o'ziga xos holati (kuchlanish, suv harorati va boshqalar) berilgan xususiyatdir. Ushbu xususiyat foydali ishlarni bajarish, odamlarning ishi va dam olishlari uchun zarur sharoitlarni yaratishda (yoritish, shamollatish, isitish va boshqalar) topiladi .

Insoniyat taraqqiyotida kishilarning turli energiya manbalariga bo'lgan ehtiyojlari ularni tabiiy manbalar – o'tin, ko'mir, torf va b. yoqilg'ilardan, shamol, suv oqimi energiyasi (shamol va suv tegirmonlari)dan foydalanishga majbur qildi. Keyinchalik fan va texnika taraqqiyoti, fan – texnika inqilobi tufayli XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab asosan elektr energiyasiga ehtiyoj juda oshib ketdi. Ana shu omillar energetikani jadal rivojlantirishni taqozo qiladi.

Energiya resurslari yoqilg'i (ko'mir, neft, tabiiy gaz, torf, o'tin, slanets) va yoqilg'i bo'lmagan vositalar (suv, shamol, quyosh energiyasi va boshqalar)ga bo'linadi. Yoqilg'i bilan bog'liq energiya resurslari tiklanmaydigan, yoqilg'i bilan bog'liq bo'lmaganlari esa tiklanadigan resurslar hisoblanadi.

Energetikaning tabiiy resurslari (ko'mir, neft, tabiiy gaz) jahon mamalatlari bo'yicha notekis taqsimlangan. O'zbekistonda 20 issiqlik elektr stansiyalari, 27 gidroelektr stansiyalar ishlab turibdi .

“Elektr energetikasi” va “yoqilg'i-energetika kompleksi” atamalari ko'pincha yoqilg'i-energetika majmuasining xom ashyo sanoatini anglatadi, bu aslida noto'g'ri. “Yoqilg'i-energetika kompleksi” tushunchasining o'zi energiyaga keng qamrovli yondashishni nazarda tutadi va uning vazifasi xom ashyo emas, balki energiya ishlab chiqarishdir. Boshqa tomondan, biz juda yaxshi tushunamizki, yoqilg'i-energetika resurslarisiz energiyani xosil qilib bo'lmaydi.

Yoqilg'i-energetika sohasining o'zga xos xususiyatlari mavjud. Jumladan:

Birinchidan, yoqilg'i-energetika kompleksi iqtisodiyotda barqaror ahamiyatga ega. Bu hozirgi paytda ham, kelajakda ham iqtisodiyot, ishlab chiqarish va hayotning asosidir. Ushbu majmua holati butun jamiyat barqarorligi va xavfsizligiga ta'sir qiladi. Bu nafaqat iqtisodiyotda, balki siyosatda ham eng muhim omil.

Ikkinchidan, yoqilg'i-energetika kompleksi tabiat, yer va yer osti boyliklari bilan chambarchas bog'liq. Yer, yer osti boyliklari, ko'mir, neft, gaz, uran va boshqalar.

Uchinchidan, yoqilg'i-energetika kompleksi ko'pincha mineral tabiiy resurslarni qazib olish, qayta ishlash va tashishning ulkan sohasidir.

To'rtinchidan, yoqilg'i-energetika kompleksi - bu energiya manbalari va etkazib berish tizimlarining cheklanganligi - tabiiy monopoliyalarning mavjudligi, bu huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlarini keltirib chiqaradi.

Beshinchidan, biz bu yerda iqtisodiy jihatdan kuchli sub'ektlar va iqtisodiy jihatdan zaif sub'ektlarning iqtisodiy munosabatlaridagi ishtirokini ko'ramiz, bu ham ushbu sohadagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishga ta'sir qiladi.

Oltinchidan, yoqilg'i-energetika majmuasidagi ko'plab aloqalarning xalqaro mohiyatini, millatlararo komplekslarning mavjudligini hisobga olish kerak.

Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasining "Elektr energetikasi to'g'risida"gi qonunida faqat elektr energiyasi va energiya "maxsus tovarlar" ekanligi to'g'risida aniq ma'lumot mavjud. Ya'ni elektr energiyasi - bir vaqtning o'zida hosil qilinishi va iste'mol qilinishi bilan tavsiflanadigan alohida turdagi tovar hisoblanadi.

Biroq, M.M.Agarkov va S.M.Korneyevlar energiya tovar emas deb ta'kidlaydilar. Bu huquqiy tartibga solishning mustaqil ob'ekti. Energiya umumiy va mavhum tushuncha. Energiya shunchaki mavjud emas. Energiya ham uning manbai va tashuvchisiz mavjud bo'lmaydi. Energiyaning har xil turlari mavjud: mexanik, issiqlik, elektr, fizik, kimyoviy va boshqa ko'plab turlar. Faqat Fuqarolik Kodeksi nuqtai nazaridan qaralmasligi kerak.

Energiya murakkab, tarmoqlararo ahamiyatga ega. Tabiatda ko'plab energiya turlari mavjud. Biroq, bugungi kunda munosabatlar faqat inson uchun foydali bo'lgan, odamlar tomonidan kundalik hayotda va kasbiy faoliyatda foydalaniladigan yoki aksincha taqiqlangan energiya turlariga nisbatan amalga oshiriladi. Energiya shakllarining har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ular foydalanishni huquqiy tartibga solishda ma'lum xususiyatlarni belgilaydi (xavfsizlik talablari, energetika sohasini saqlash, energiyani etkazib berish (uzatish) tartibi va usuli, uning sifatini aniqlash va boshqalar). Energiyaning o'ziga xos xususiyati bu uning bir shakldan ikkinchisiga o'tish qobiliyatidir, bu ham energetik munosabatlarni tartibga solishda tegishli huquqiy xususiyatlarni talab qiladi.

Energiyaning uchta asosiy tushunchasi mavjud: ulardan biri energiyani o'ziga xos tovar sifatida ko'rib chiqiladi; ikkinchisi energiya moddiy bo'lmagan tabiatning xossasi; uchinchi olimlar energiyani huquqiy tartibga solishning mustaqil ob'ekti sifatida ko'rib chiqishni taklif qilmoqdalar.

Energetika huquqining predmetini belgilash murakkab bo'lib, O'zbekiston huquq tizimida oldindan, bu boradagi ijtimoiy munosabatlar element sifatida vujudga kelgan, ijtimoiy munosabatlarning eng muhim va tuzilgan sohalarini o'z ichiga olgan maxsus huquq tarmog'i hisoblanadi.

Energetik huquq predmeti bo'lib, xususiy va ommaviy huquq sub'ektlarini energetik resurslarni qidirish (qidirish), qazib olish, ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, taransport qilish, taqsimlash, sotish va iste'mol qilishni bilan bog'liq xo'jalik, investitsion va tartibga solish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

## **1.2. Energetika huquqining huquq sohasida tutgan o'rni**

O'tgan asrning, ya'ni 20 asr 50-yillaridan boshlab, huquq fanining ko'pgina yo'nalishlari shakllana boshladi. Shular jumlasidan energetika huquqini ham kiritish mumkin. Ushbu huquqning alohida huquq sohasi sifatida shakllanishi o'tgan asrning 70-yillariga to'g'ri keladi.

O'tgan asrning 70-yillarida jahonda energetik inqiroz yuz berdi. Ushbu inqiroz Neftni eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti (OPEC) a'zolarining harakati natijasida neftning narxi bir necha barobar ko'tarilib ketdi.

Neftni eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti (OPEC) harakatlari neft iste'mol qiladigan davlatlarda energetik xafsizlik masalalarini tartibga solishga, ushbu sohda qonun hujjatlari qabul qilishga undadi. Bu esa, o'z o'rnida energetika huquqini shakllanishiga turtki bo'ldi.

Har qanday huquq sohasi kabi, energetika huquqi ham ma'lum bir sohada yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi.

Ayrim holatlarda yuridik fanda va amaliyotda terminlarni ishlatilishi muhimligini inobatga olgan holda, energetik huquq tushunchasini aniqlashtirish energetika huquqiga doir jami qonun hujjatlar va mazkur soxadagi xalqaro huquqiy aktlarni chuquroq o'rganish va to'g'ri qo'llash uchun boshlang'ich nuqta bo'lishi lozim.

Energetik huquq normalari ham imperativ, ham dispozitiv xarakterga ega. Bundan kelib chiqib energetika huquqining metodi bo'lib, ikkita

“klassik” metodlar majmuasidan iborat-ma’muriy huquqiy va fuqaroviy huquqiy.

Energetik huquqning umumiy huquqiy tizimda o’rnini aniqash muhim ahamiyatga ega. Alohida tarmoqqa va institutga ajratishning asosiy mezonini bo‘lib huquqiy tartibga solishning predmeti bo‘lib hisoblanadi. “Huquq tarmog‘i bir xil ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalarni, institutlarni majmuasidir. U sistemani tashkil etuvchi aloqalarning yuqoriroq darajasini aks etiradi, ma’lum bir butunligi, avtonomligi bilan xarakterlanadi”

Energetika sohasidagi munosabatlar nafaqat milliy qonunchilik normalari balki xalqaro huquqiy normalar bilan tartibga solinadi. Bundan kelib chiqib, energetika huquq ko‘psistemalik xarakteriga ega chunki milliy huquq va xalqaro huquq, turli huquq tizimi mohiyatidir.

Akademik V.S.Nersesyans takidlashicha “huquq tizimini tarmoqlarga, institutlarga va boshqa tuzilmaviy elementlarga tartibga solishning predmeti va metodiga ko‘ra ajratishi huquqni va qonunchilikni predmetli differentsiatsiya qilishning asosiy, bosh yuridik tuzilmasini tashkil etadi”. Energetika huquqi huquqiy normalar kompleksi sifatida quyidagi ma’muriy, fuqaroviy, ekologik va soliq huquq tarmoqlarining institutlari va normalari hamda konstitutsion va jinoyat huquqning ayirim normalar kiradi. Shuningdek, energetika huquqi tarkibiga xalqaro huquqiy hujjatlar, ya’ni alohida huquq tizimi-xalqaro huquq normalari kiradi.

Bundan kelib chiqib, energetika huquqini energetik resurslarni qidirish (izlash), qazib olish, ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, transport qilish, taqsimlash, sotish va iste’mol qilishni bilan bog‘liq xo‘jalik, investitsion va tartibga solish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar kompleksi sifatida qaralishi kerak.

Ta’kidlash kerakki, energiya sohasidagi munosabatlarning huquqiy ahamiyati aniqlash uchun, avvalo, energetika huquqining predmetini tashkil etadigan ijtimoiy munosabatlar doirasini belgilash kerak bo‘ladi. Energetika sohasidagi jamoat aloqalarini aniqlash va bu sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish uchun asosdir.

Ta’kidlash kerakki, yuridik adabiyotlarda ushbu masala bir necha bor ko‘tarilgan. Energetika sohasidagi jamoatchilik bilan bog‘liq munosabatlar doirasiga yuridik adabiyotlarda keltirilgan qarash, ya’ni umumiy ijtimoiy munosabatlar “tarmoq” (energetika) jamoasi bilan bog‘langan.



Yu.O.Jo'rayev, energetika huquqi boshqa huquqlar (masalan, fuqarolik, mehnat) singari uchta sifatda namoyon bo'lishi kerak. U: 1) shakllanayotgan huquq tarmog'i, 2) yuridik fanlar turi; 3) o'quv kursi kabi sifatlarda namoyon bo'ladi. Energetika huquqini yuridik fanlar turi hamda o'quv kursi, deb to'liq ishonch bilan aytish uchun uning huquq tarmog'i sifatidagi holatiga e'tibor qaratish lozim. Agar ma'lum bir huquq tarmog'i to'liq shakllangan va rivojlanayotgan huquq tarmog'i bo'lsa, unda uning yuridik fani va o'quv kursi sifatida tan olinganligiga hech shubha bo'lmaydi. Huquq tarmog'i bo'lib shakllanmagan huquqiy institutlar majmuasini yuridik fani turi hamda o'quv kursi, deb tan olishni shartli ravishda amalga oshirish mumkin. Shu boisdan ham Energetika huquqini alohida o'quv darsi sifatida amaliyotga joriy etish katta foydadan xoli emas.

Energetika huquqidan o'quv darsi dasturi shu sohadagi huquq tarmog'i o'zida mujassam qilgan yoki mujassam qilishi lozim bo'lgan huquq institutlarning hajmiga mos bo'lishi (yoki umuman mos kelishi) lozim. Demak, o'quv kursini amalga oshirish hamda bunda darslik tayorlash shakllanayotgan Energetika huquqining institutlariga asoslanishi kerak bo'ladi. Shu o'rinda Energetika huquqining tarkibiy institutlari qanday nomlanishini aytib o'tish joiz bo'ladi. Avvalo, mazkur huquq institutlari: umumiy va maxsus institutlarga bo'linishini ta'kidlab o'tish lozim. Bunda umumiy institutlarga: energiyaga nisbatan mulkchilik masalalari; energetika sohasida davlat boshqaruvi va nazorati; insonning energiyaga bo'lgan huquqi; energetika sohasidagi qonunchilikni buzganlik uchun yuridik javobgarlik kabi institutlar kiradi.

Energetika huquqining maxsus institutlariga: energiya hosil qilish huquqining vujudga kelishi, amal qilishi va tugatilishi; energiyani uzatish, taqsimlash, sotish munosabatlarini tartibga solish; energiyani iste'mol qilishni huquqiy tartibga solish; energiya ob'ektlarining tabiat (resurslar)dan foydalanish va atrof muhitga ta'sir qilishni huquqiy tartibga solish; energiya ob'ektlari va faoliyatlari xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslari; muqobil energiyaga doir munosabatlarni huquqiy tartibga solish; energetika xalqaro huquqiy normalari va xalqaro hamkorlik kabi institutlar kiradi.

Sh.X.Fayziyev fikriga ko'ra, energiya ishlab chiqarish insoniyatning mavjud bo'lishi va rivojlanishining zaruriy vositasi hisoblanib, tabiat va atrof tabiiy muhitga ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan insonning maishiy va ishlab chiqarish faoliyati issiqlik va elektroenergiya sohasiga shu qadar mustahkam kirib keldiki, insoniyat ularsiz yashay olishini tasavvur etib



bo'lmaydigan holatga kelib qoldi va unda tugamaydigan resurs sifatida foydalanmoqda. Boshqa tomondan, inson o'z e'tiborini tobora energetikaning ekologik jihatlariga qaratib, ekologik toza energetik resurslarni ishlab chiqishga qaratmoqda.

V.F.Popondopulo, energetika huquqi va energetika qonunchiligi masalalarini ko'rib chiqib, energetik munosabatlarni energiya ishlab chiqarish, uzatish va iste'mol qilish, shu jumladan elektr energiyasi va uning boshqa turlari bilan bog'liq munosabatlar sifatida qaraydi.

V.F.Yakovlev, P.G.Laxno ta'kidlashicha, energetika - bu iqtisodiyotning bir sohasi va ushbu sohada mavjud bo'lgan munosabatlar, shu jumladan, birinchi manbalarni izlash, qidirish, energiyani ishlab chiqarish, uzatish (tashish), taqsimlash va ishlatish (iste'mol qilish) bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar. Energetika to'g'risidagi qonun hujjatlari joriy etilishining asosini anglatadi. Shuni ta'kidlash kerakki, V.F. Yakovlev, P.G.Laxno, mamlakatning yoqilg'i-energetika kompleksining ta'rifi qazib olish (ishlab chiqarish), qayta ishlash, o'zgartirish jarayonida bajaradigan funksiyalarining birligiga asoslanib, tegishli energetika tarmoqlari, korxonalari va tashkilotlari tizimi sifatida berilgan. Energiya tashuvchilar va energiya resurslaridan foydalanish, saqlash, tashish va tarqatish, shu jumladan energiya resurslari bilan aholi va mamlakat iqtisodiyoti ehtiyojlarini qondirish, xalqaro majburiyatlarni bajarish va atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida energiya inshootlarini qurish va ulardan foydalanish bilan bog'liq jarayonlar hisoblanadi.

A.G. Lisitsin-Svetlanovning ta'kidlashicha, neft-gaz kompleksining iqtisodiy tuzilmalari ishtirokida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar butun ishlab chiqarish va iqtisodiy sohalarni ham qamrab oladi. Chunonchi, neft va gaz konlarida geologik qidiruv ishlari, ularni o'zlashtirish va uglevodorod xomashyosini qazib olish, ularni nafaqat davlat ichida, balki davlatlararo bitimlar shartlari asosida quvur tarmoqlari yordamida iste'molchiga etkazish bilan bog'lik masalalar.

O.A.Gorodov ta'kidlashicha, energetika huquqi predmeti sohasining asosiy yo'nalishi energetika sohasida rivojlanayotgan ijtimoiy munosabatlar bo'lib hisoblanadi. Energiya resurslari, energiya turlarini ishlab chiqarish, uzatish va foydalanish, ushbu turdagi energiyani ishlab chiqarish va ulardan foydalanish bilan bog'liq holda paydo bo'ladigan boshqa munosabatlar, sarmoya kiritish, ekologik talablar va xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq boshqa masalalar.

Shunday qilib, energetika qonunchiligi normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlar doirasini belgilab, ushbu munosabatlar,

xususan, energiya resurslarini qidirish, qazib olish, ishlab chiqarish, qayta ishlash, etkazib berish, saqlash, tashish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan munosabatlarni qamrab oladi deb aytishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasida energetika huquqining ilmiy-nazariy va institutsional asoslari, energetik sektorini huquqiy negizi, uni ilmiy-nazariy va amaliy tartibga solishning takomillashtirish muammolari, energetika sohasiga oid huquqiy munosabatlarni rivojlantirishning strategik yo'nalishlari va uning o'ziga xos xususiyatlari, energetik qonunchilik talablarini buzishga qarshi kurashish, energetika sohasida xalqaro hamkorlikning ahamiyati roli va o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalar o'rganiladi.

Ta'kidlash kerakki, Universitetlar va biznes maktablaridagi yuridik maktablarning o'quv dasturlari energetik aloqalarni o'rganishga bag'ishlangan fanlarni o'z ichiga oladi. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti yuridik fakultetida, Sankt-Peterburg universiteti yuridik fakultetida elektr energetikasi bo'yicha magistrlik dasturi, Moskva davlat xalqaro munosabatlar institutining Energetika siyosati va diplomatiyasi xalqaro institutida "Energetika huquqi" maxsus kursi o'qitilmoqda. Yoqilg'i-energetika majmuasini huquqiy tartibga solish bo'limi tashkil etildi, uning doirasida Yevropa Ittifoqining energetika qonuni, yoqilg'i-energetika kompleksining ekologik jihatlarini xalqaro huquqiy tartibga solish, yoqilg'i-energetika kompleksidagi shartnomaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solish, neft va neft mahsulotlarini dengiz orqali tashishning huquqiy jihatlarini, yoqilg'i-energetika majmuasida xalqaro savdoni huquqiy tartibga solish va boshqalar bo'yicha maxsus kurslar o'qiladi. Oliy iqtisodiyot maktabi "Rossiyada va dunyoda energiya va resurslar sanoatini tartibga solish" magistrlik dasturini amalga oshirmoqda. Energiya huquqi markazi Rossiya Fanlar Akademiyasi Davlat va huquq institutida 2001 yilda tashkil etilgan. "Energetika huquqi" fani Rossiya Fedratsiyasida (2001 yildan boshlab) Moskva davlat universitetida "Tadbirkorlik huquqi" kafedrasidan o'tiladi (yu.f.n.P.G.Laxno), Berlin Texnika universitetida (prof. F.Yu.Zekker), Ukraina Texnika Davlat universitetida o'tib kelinadi.

Ta'kidlash lozimki, dunyoning ko'pgina universitetlari Huquq maktablarida "Energetika huquqi" predmeti talabalar uchun ancha yillardan buyon o'qitilib kelinmoqda. Ba'zi universitetlarda energetika huquqi bo'yicha magistratura yo'nalishlari faoliyat yuritib kelmoqda. Masalan, AQSHning Jorj Vashington Universiteti Huquq maktabi magistraturasida Ekologiya va Energiya huquqi yo'nalishi 40 yildan

buyon faoliyat olib borib ushbu sohada yetuk mutaxassislarni tayyorlab kelmoqda. Ushbu yo'nalish doirasida "Energiya huquqi", "Energiya va atrof muhit", "Tabiiy resurslar huquqi", "Qattiq va havfli chiqindilar nazorati", "Neft va gaz huquqi", "Atom energiyasi huquqi" singari predmetlar o'rganiladi. AQSHning Vermont Universiteti Huquq maktabi magistraturasining Energiya huquqi yo'nalishida energiya va ekologiya huquqiga oid 50 dan ortiq fanlar o'qitilib, ushbu sohada nafaqat AQSH, balki dunyoning eng ilg'or Huquq maqtablari sirasiga kiradi.

Buyuk Britaniyaning "Energetika huquqi" bo'yicha eng yaxshi dasturlarga ega bo'lgan universitetlaridan Qirolicha Mariya (Kvin Mari) nomidagi London Universiteti Huquq maktabi sanaladi. Ushbu universitet Huquq maktabi magistraturasining Energiya va tabiiy resurslar huquqi yo'nalishi energiya huquqiga oid ko'plab modullarni taklif qiladi. Ushbu modullar o'qitilishida energetika biznesi sohasida mashhur bo'lgan Ekson, British gaz, Shell kompaniyalari vakillari ham o'z leksiylari bilan qatnashadilar.

Doktor Vinogradov S.V. Daniya universiteti (Shotlandiya) energetika, neft va tabiiy resurslar bo'yicha fanlar o'tilgan va bunga 1977 yilda asos solingan. Shu sohadagi bilimlarni chuqurlashtiradigan 23ta maxsus modul fanlari asosida o'tiladi. Bu yo'nalish bo'yicha 100dan ortiq talaba tahsil oladi. Bu sohada ushbu unversitetda bir qancha mutaxassislar chetdan kelishadi. Jumladan, Osiyo, Lotin Amerikasi, Afrika, janubiy Yevropa, MDH va boshqalar.

Alohida ko'rsatib o'tish joizki, O'zbekiston energetika tizimi Markaziy Osiyo Birlashgan energetika tizimining o'rtasida joylashib, birlashgan energetik tizimning asosiy bo'g'ini hamda regionda elektr energiya va quvvat bozorining ilg'or (aktiv) qatnashchisi bo'lib qoladi. Elektr va issiqlik energiyalari ishlab chiqaruvchi IESlarning birlamchi energiya resurslarining tarkibida gaz yoqilg'isining ulushi -94%, mazut - 2 %, ko'mir - 4 % gachani tashkil etadi. Yaqin kelajakda yoqilg'i balansida ko'mirning ulushi 11 - 12 % tashkil etadi.

Har qanday huquq sohasi kabi, energetika huquqi ham ma'lum bir sohada yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi. Chunonchi, mamlakatlarda uglevodorod xom ashyosining jahon miqyosidagi zaxiralari kamayib borayotgan sharoitda, atrof muhitni muhofaza qilish va ulardan foydalanish, energiya samaradorligi va energiyaning tiklanadigan manbalarini rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani barqaror rivojlantirish va ularning faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida energiya samaradorligi, energiyaning

tiklanadigan manbalarini joriy etish va rivojlantirish, yoqilg'ini qazib olish, ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, tashish va iste'mol qilish, energiya va uning manbalari sohasida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, nazorat qilish va ularning o'zaro hamkorligini ta'minlash bilan bog'liq masalalar.

### **1.3. Elektr energiya bilan ta'minlash konsepsiyasi**

O'zbekiston Respublikasining elektr energiya bilan ta'minlash konsepsiyasiga ko'ra, 2030 yilgacha bo'lgan davrda Respublikada elektr energiyasiga bo'lgan talabning yillik o'sishi 6-7 foizga teng bo'ladi. Ayni paytda respublika energiya iste'moli 69 mlrd.kVt.s (2018) tashkil etadi, ishlab chiqarishi 64 mlrd.kVt.s tashkil etadi. Demak, ishlab chiqarish va talab o'rtasidagi farq 5 mlrd.kVt.s tashkil etadi. 2030 yilga kelib respublika iste'moli 2030 yilga borib 117 milliard kVt/soat (2018 yilga nisbatan 1,9 baravar ko'p) bo'lishi prognoz qilinmoqda. Shu bilan birga aholining elektr energiyasiga bo'lgan talabi – 21,9 mlrd.kVt.s (2018 yilga nisbatan 1,8 baravar ko'p), iqtisodiy sektorning elektr energiyasiga bo'lgan talabi – 85,0 mlrd.kVt.s (2018 yilga nisbatan 2,2 baravar ko'p) bo'lishi kutilmoqda .

Energetika, odatda mavjud tushunchaga muvofiq, energetik resurslar, turli xil enegiyalarni ishlab chiqarish, qaytash ishlash, o'tkazish va ishlatish qamrab oluvchi xalq xo'jaligini bir tarmog'ini tashkil etadi . Demak, energetika iqtisodiyot tarmog'i (xalq xo'jaligi tarmog'i) va ushbu tarmog' doirasida mavjud ijtimoiy munosabatlar ularni tartibga soluvchi energetika huquqi normalarni qo'llaniladigan yuqorida aytilagan munosabatlarni asosini tashkil etadi. Mazkur holatda enegiya va energetik resurslar o'zi nima ekanligini tushunish o'ta muhimdir.

“energetik resurslar” va “tabiiy resurslar” tushunchalar nisbati.

Aynan “energetik resurslar” tushunchasi orqali “jismoniy shaxslar va hukumat, hukumatlar va davlatlar o'rtasida ma'lum energetik resurslarni ishlab chiqarish va ishlatishga taalluqli bo'lgan huquq va majburiyatlar taqsimlanishi”-deb energetika huquqini aniqlashdiradi Avstraliya huquqshunosi A.Bredbruk. Aniqki, normalar majuasini “nimagadir taalluqli bo'lgan huquq va majburiyatlar taqsimlanishi” sifatida nazariy yondoshishning o'zi milliy doktrinaga yotdir, lekin shunga qaramasdan, energetik resurslarni asosiy element sifatida ko'rsatib o'tilishi juda muhim va ahamiyatlidir.



Avstraliya olimi, energetik resurslarni o'zi nima degan savolga javobni birlamchi va ikkilamchi energiya manbalarini (tugaydigan va tugamaydigan manbalar bilan birgalikda) sanab o'tish orqali javob beradi. Ushbu ro'yxatga neft, tabiiy gaz, ko'mir, uran, quyosh energiyasi, shamol energiyasi, to'lqinlar, gidroenergetika, biomassa, vodorod yoqiliq, geotermal energetika va elektroenergiyalar kiritilgan. Muallif energetik resurslar ro'yxatiga energiya tejashni kiritganini ko'rsatib o'tish muhimdir. Mazkur tarza yondoshish mantiqiylikdan mahrum emas, chunki tejab qolingan energiya bu o'sha energiya, farqi tejab qolingan energiya ko'mir yonishi natijasida yoki shamol harakati tufayli olinmagan bo'lib, energiyani iste'mol etish darajasini kamaytirish chora tadbirlarini qo'llash oqibatida olingan.

Energiya o'zi nima ekanligini aniqlash yurispudensiyaning doirasidan chiqishini aniq ko'rinib turganligi uchun turli xil ensiklopediya va ma'lumotnomalarga havolalar bilan cheklanib qolamiz: "turli xil materiyalar harakatining umumiy miqdoriy o'lchovi"; "materiyaning asosiy xususiyatlaridan biri-uning harakati o'lchovi, ishni ishlab chiqarish qobiliyati"; "harakat va jismlar o'zaro harakati xarakteristikasi, ularni tashqi muhitda o'zgarishlarni amalga oshirish qobiliyati, materiyaning miqdoriy o'lchovi".

Resurslar "zaxirasi, biror bir narsa manbasini" tashkil etganligi uchun, umumiy holda energetik resurslarni energiyaning manbasi sifatida ifodalash mantiqan to'g'ri bo'lgan bo'lar edi. Energetik resurslar to'liq tabiiy resurslar tarkibiga kiradimi yoki ular chegarasidan chiqadimi degan savolga javob aniq emasligi ko'rinib turadi. Shunga qaramay, ushbu masaladagi aniqlik muhim yuridik ahamiyatga ega, chunki ushbu savolga javob, qay darajada energetik resurslar yuzasidan bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar va tabiiy resurslar bo'yicha bo'ladigan munosabatlar doirasi, tartibga solinadigan normalari bilan qamrab olinishi hamda tabiiy resurslarni ishlatishni huquqiy tartibga solish umumiy prinsiplari energetik resurslardan foydalanish bilan bog'liq holda amalga oshadi.

Umumiy ma'noda tabiiy resurslar "ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanishining mazkur bosqichida jamiyat talablarini qondirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan tabiat kuchi va jismi". Shu bilan birga tabiiy resurslarning quyosh energiyasi, yer qa'ri issiqligi, yer va mineral resurslar, o'simlik resurslar, hayvonat olami resurslar kabi turlarga ajralib

turadi. Mazkur holatda yuqorida ko'rsatilgan resurslarni kelib chiqishining tabiiyligini takidlab o'tish lozim, chunki o'zini namoyon bo'lishi bilan ular u yoki bu tabiiy jarayonlarga bog'liqdir.

Tabiiy resurslar kategoriyasini ajratish yer osti boyliklaridan foydalanishni o'rganishda, ya'ni "tabiiatdan foydalanuvchilar ehtiyojini qondirish uchun tabiiy resurslarni ishlatish bo'yicha ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar sistamasini tashkil etuvchi" tabiiy resurslar huquqi haqida xulosa qilishga ko'mak beradi. Shu bilan birga tabiiy resurslar huquqi, tabiat muhofazasi huquq bilan birga kengroq tizimni, ya'ni egologik huquq tizimining bir qismi sifatida qaraladi.

Ma'lum bir energoresurslar yoki energiya manbalari inson faoliyati natijasida namoyon bo'ladi (ammo ular tabiiy muhitda namoyon bo'lishi ham mumkin). Bular qatoriga elektr va bug' energiyasini kiritishi mumkin. Energiya texnologik omillar va inson faoliyatining natijasidir.

Bundan tashqari, yer qarida bo'lgan neft, gaz va ko'mir kabi tabiiy resurslar o'zining huquqiy xususiyatiga ko'ra qazib olib bo'lingan neft, gaz va ko'mirdan farqlanadi. Birinchi holda, ular tabiiy resurslarni tashkil etib, ularni huquqiy maqomi yer osti boyliklari to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi, ikkinchi holda esa ular tovar sifatida qaralib, yer osti boyliklar qonun hujjatlari qo'llanilmaydi, ammo ularga bo'lgan mulk huquqini o'tishini va ularni tovar sifatida bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish masalalarini tartibga soluvchi fuqaroviy, boj, taransport va boshqa qonun hujjatlari qo'llanilishi mumkin. Ikkala holda ham, tabiiy resurs va tovar bo'lgan holda ham, neft, gaz va ko'mir energiyaning manbasi, ya'ni energetik resurs bo'lishdan to'xtamaydi. Boshqacha qilib aytganda, energetik resurslar huquqiy maqomi ular yer qarida joylashgan yer osti boyligi bo'lgandida ham, yer ostidan qazib olinib, tovar sifatida foydalanilganida ham qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasiga ko'ra, tabiiy resurslarga (zahiralarga) yer, yer osti boyliklar, suv o'simlik dunyosi va hayvonat dunyosi kiradi. Lekin, bu ro'yxat to'liq emas. Shunday bo'lsa ham, ushbu resurslarni vujudga kelishi tabiiy bo'lib, inson faoliyatining natijasida yuzaga kelmagan. Bu esa o'z o'rnida mazkur tushunchaga tabiiy vujudga kelish asosiga ega bo'lgan enegiya manbalari (energetik resurslar) kiritish mumkin degani. Shu bilan birga, ushbu

ro'yxatga qazib olib bo'lingan neft, gaz, ko'mir va boshqa tabiiy boyliklar kiritish mumkinmi degan savolga aniq javob topish mushkildir.

Qonun hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Yer osti boyliklari to'g'risida" qonuni yer osti boyliklari davlat mulk ekanligini takidlaydi. Shu bilan birga, yer qaridan olingan foydalik qazilmalar va boshqa resurslar davlat mulki, mahaliy hokimiyat mulki va boshqa shaxslar mulki bo'lishi mumkin.

Qonun hujjatlarini mazmunini taqqoslash enegetik resurslar tabiiy resursga muvofiq bo'lmagan, lekin ularga o'xshash bo'lgan jismlar va xodislar majmuasini tashkil etashi haqida xulosa qilish mumkin. Bu esa milliy huquqiy tizim elementi sifatida energetik huquqni tabiiy resurs huquqidan farqlash uchun dalil bo'ladi.

Takidlash lozimki, O'zbekiston Respubilkasi qonunchiligida u yoki bu energetik resusrlarni tabiiy resurslar toifasiga kiritish masalasi aniq javob topilmaydi. Qazib olib bo'lingan qazilma boyliklar (neft, gaz, ko'mir) tabiiy resurslar sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkinmi. Ushbu holda javob yo'q, qazib olingan qazilma boyliklar tabiiy resurs maqomini saqlab qolmaydi, chunki, aks holda ushbu ob'ektlar bilan bo'ladigan barcha munosabatlar yer osti boyliklar va tabiatni muhofaza qilish qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi lozim bo'lar edi.

"Energetik resurslar" tushunchasining xalqaro huquqiy hujjatlarda turli xil talqin qilinishi va milliy qonunchilikda tushunchani yaxshi yoritilmaganligi hamda "tabiiy resurslar" tushunchasi bilan nisbatga olinishi, bir tarafdin ushbu tushunchalarni murakkabligi va ko'p ma'noligi haqida, ikkinchi tarafdin ularning uzviy bog'liqligidan dalolat beradi. O'tkazilgan tahlil huquqiy jihatdan energetik resusrlarni asosiy turlarini farqlashga yordam beradi. Quyidagi turlarni farqlash mumkin:

1. Tabiiy energetik resurslar, o'zi ichiga yer qa'ri energetik resusrlari, quyosh, shamol, suv oqimi energiyalarini qamrab oladi;

2. Xosila energetik resurslar, qazib olingan qazilma boyliklar va ularning qayta ishlash natijasidagi mahsulotlar, elektr va issiqlik energiyasi;

3. Energiya tejash o'ziga xos "bilvosita" energetik resurs. A.Bredbruk ta'kidlaganidek, "tejab qolingin energiya ishlab chiqarilgan energiya kabi inson ehtiyojlarini qondirishda samarali bo'lib, ushbu



ma'noda energiya tejash energiyani birlamchi manbalarini ishlatishning ekvivalentidir” .

Yuqorida keltirilgan energiya resurslarini turlarining jami majmuasi energetika sohasidagi munosabatlarni va bundan kelib chiqib, uning predmetini aniqlashga asos bo'ladi.

Shu o'rinda energetika huquqida o'rganiladigan energetika sohasidagi yo'nalishlar ya'ni energetika tarmoqlari klassifikatsiyasi quyidagi yo'nalishlardan iborat bo'ladi. Jumladan:

neft-gaz sanoati, xususan neft-gaz kompaniyalari, neftni qayta ishlovchilar, neftni transportirovka qilish va uni iste'molchilarga yetkazish;

gaz sanoati, jumladan tabiiy gazni qidirish tadbirlari, gazni ishlab chiqarish, taqsimlash va sotish;

elektroenergetika, elektroenergiyani ishlab chiqarish, elektr energiyasini taqsimlash va sotish;

yadro energetikasi;

muqobil energiya manbalari, gidroelektroenergiya, quyosh, shamol energiyasidan iborat qayta tiklanadigan energetika sanoati, xususan mazkur energiya manbalarini ishlab chiqarish, ularni taqsimlash va sotish sanoati kabilardir. Energiyani vujudga keltiruvchi asosiy manbalar - tabiiy resurslar ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, tabiiy resurslardan energetika sohasida foydalanish – tabiiy resurslarni tejash, ulardan oqilona foydalanish va tabiiy resurslarni bevosita energiya sifatida emas, ikkilamchi ishlab chiqarishga jalb qilish asosida sun'iy energiya ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Energetika huquqi energetik resurslar bo'yicha turli xil munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu munosabatlarni belgilash uchun iqtisodiyotning energetik sohasining iqtisodiy xarakteristikasiga murojaat qilish muhim. Shu bilan birga energiya manbalarining turli xilligini inobatga olish lozim, chunki, faoliyatning u yoki bu qirralari ma'lum bir resurslar uchun dolzarb bo'lishi va shu paytning o'zida boshqa resurslar uchun ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. Masalan, qayta ishlash va saqlash neft sektorida muhim ahamiyatga ega bo'lib, elektroenergetika sohasiga muhim emas. Yer osti energetik resurslar uchun ularga bo'lgan mulk huquqi muhim ahamiyatga ega bo'lsa, quyosh va shamol energiyasi uchun mulk huquqi masalasi umuman ko'tarilmaydi.

Hozirgi zamonda energetika ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas qismiga aylanib, unga bogʻliq munosabatlar tom maʼnoda ijtimoiylik kasb etmoqda.

Davlatning iqtisodiy potensialini kuchaytirishda yer, yer osti boyliklari, suv va boshqa resurslar qanchalik zarur boʻlsa, energetika ham shunchalik darajada beqiyos manba hisoblanadi. Zero, energiyasiz sanoat, qishloq xoʻjaligi, mudofaa, xavfsizlikni taʼminlash va boshqa sohalarni rivojlantirish mumkin emas. Shuningdek, eng muhimi insonlar madaniy-maishiy hayotining mazmun va mohiyati energiyaga bogʻlanib qolmoqda. Shu boisdan ham energiya va uning manbalariga taalluqli ijtimoiy munosabatlarni huquq normalari bilan tartibga solish, ularni tizimlashtirish hamda bu normalarning huquq tizimida tutgan oʻrni alohida ajratib koʻrsatish, qolaversa ularda maxsus huquq tarmogʻiga xos belgi va sifatlar mavjud yoki mavjud emasligi nuqtai nazardan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb boʻlib hisoblanmoqda.

Demak, energiya moddiy ashyo sifatiga ega boʻlgani uchun uning huquqiy maqomida mulkka xos tavsiflar alohida oʻrinda turadi. Energiya mulk huquqi obʻektlarga tegishli barcha belgi va xususiyatlarga ega boʻlishi kerak.

Energiya va uni hosil qilish bilan bogʻliq aksariyat faoliyatlar ekologik xavf manbai kabi omilga ega boʻladi. Insoniyat energiya olishning ekologik xavfsiz usullariga oʻtmoqda, lekin tabiatga zugʻum oʻtkazib energiya olish amalini ham rivojlantirmoqda.

Energiya hosil qilish jarayonlari uch toifadagi ijtimoiy munosabatlarni oʻz ichiga qamrab oladi: suvdan foydalanish, moddiy ashyolar (neft, gaz, koʻmir) va muqobil manbalardan (tiklanuvchi) foydalanish.

Suv obʻektlari tabiat obʻektlari boʻlgani uchun ulardan foydalanib energiya hosil qilish suv toʻgʻrisidagi (ekologik) qonunchilik bilan tartibga solinadi.

Energiya hosil qilishda mavjud moddiy (ashyo) resurslardan foydalanish borasidagi munosabatlarni fuqarolik, xoʻjalik kabi qonunchilik normalari tartibga soladi.

Tiklanuvchi tabiiy resurslar (quyosh energiyasi, shamol)dan foydalanib energiya hosil qilish, oʻziga xos faoliyat boʻlib, bunda energiya yaratuvchi manbalar tabiiy yoki moddiy resurslar maqomiga ega

bo'lmaydi. Shuning uchun bu yerda ekologik qonunchilikni tadbiq etib bo'lmaydi. Bunda hosil bo'lgan energiyaga nisbatan vujudga kelgan munosabatlarga (masalan, uzatish, iste'mol qilish) fuqarolik, xo'jalik va energetika qonunchiligi normalari qo'llaniladi.

## KAZUSLAR

1. Tadqiqotchi "Fuqarolik huquqi" kafedrasida muqaddam energetika huquqi huquq tarmog'i sifatida mavjud bo'lmaganligini hamda energetika bo'yicha munosabatlar fuqarolik huquqi bilan tartibga solinganligini ta'kidladi. U bu haqda yuridik adabiyotda o'qigan ekan. Boz ustiga ushbu tadqiqotchining so'zlaridan energetikaga oid munosabatlar mulkiy tusda bo'lganligi ya'ni, fuqarolik huquqi predmeti ekanligi anglashildi.

– Aytinch, energetika huquqi mustaqil huquq tarmog'i sifatida mavjud bo'lishga haqlimi?

– Energetika huquqini huquq tarmog'i va o'quv kursi sifatida shakllanishi va mavjud bo'lishi asosida nima yotadi?

2. TDTU o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanida talabalar energetika huquqi manbalari sifatida energetika huquqini huquq tarmog'i sifatida rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shayotgan olimlarning ilmiy maqola va asarlarini ham kiritish lozimligi to'g'risidagi fikrlarni ilgari surdilar. Maruzachi, bu borada o'z fikrini, talabalarning asosiy g'oyasidan chetlashmasdan, ammo ularnikidan boshqacha tarzda ifoda etdi.

Aytinch, energetika huquqi manbalari sifatida hissa qo'shayotgan qaysi olimlarning ilmiy maqola va asarlarini bilasiz?

Energetika huquqi manbasi tushunchasi qaysi me'yoriy-huquqiy hujjat bilan tartibga solinadi va uning tizimiga baho bering?

Maruzachi va talablar tayangan rasmiy hujjat, ilmiy maqola hamda asarlarga asoslanib, masalani yechimini toping?

3. Imtihon vaqtida talabalardan biri energetika huquqida huquqiy tartibga solish metodlari davlat ekologik nazoratini amalga oshiruvchi inspektorlar tomonidan o'rnatilishini ta'kidladi.

– Energetika huquqida huquqiy tartibga solish metodlari deganda nima tushuniladi va ularni qo'llash amaliyotiga misol keltiring?

– Davlat va huquq nazariyasida huquqiy tartibga solishning asosiy metodlarini qo'llagan holda mazkur masalani yechimini toping?

4. Nazorat ishlaridan birida energetika huquqi tizimi Vazirlar Mahkamasi, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Suv xo‘jaligi vazirligi, hokimiyatlardan tashkil topgan deb yozilgan.

– Energetika huquq tizimi yordamida masalani huquqiy yechimini toping?

–Energetika huquqi tizimi qismlarini bunday bo‘lishini amaliy jihatini, nazariy jihatdan asoslantirib bering?

5. N. ismli bir olim tabiiy ob‘ektlarni insonni o‘rab turadigan moddiy dunyoning elementi emas, degan fikr bilan, o‘z nazariyasini amaliyotga tatbiq etmoqchi bo‘ldi. Unga qarshi boshqa olim tabiiy ob‘ektlar moddiy dunyoning elementi va unga nisbatan oqilona munosabatda bo‘lish kerakligini olg‘a surdi. Ikki olim o‘rtasiga O‘zbekiston ekologik harakati qo‘shildi va bu holatga oydinlik kiritmoqchi bo‘ldi.

– Aytingchi qaysi olimning fikri amaldagi qonunchilikka zid keladi?

– O‘zbekiston ekologik harakatining vakolatiga olimlarnig mazkur bahsiga qo‘shilib fikr bildirishi amaldagi qonunchilikka to‘g‘ri keladimi?

6. “Obod nur” mahalla fuqarolar yig‘ini tomonidan, Angren shahri hududida joylashgan 9-ko‘mir shaxtasi tomonidan elektr energiyasidan sanoat maqsadlarida foydalanishni cheklash to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

Bunga asosiy sabab, shu hududda yashovchi aholigi yetkazilayotgan elektr energiyasi sifati pastligi ekanligi ko‘rsatildi.

“Obod nur” mahalla fuqarolar yig‘ini tomonidan bunday qaror qabul qilishga o‘rinlimi?

Elektr energiyasidan sanoat maqsadlarida foydalanish masalasi amaldagi qonunchilikda qanday tartibga solingan?

Muammoni to‘g‘ri hal qilib unga huquqiy baho bering.

## TEST

1. “Energiya” termin bu..... ma’nosini bildiradi?

A) lot.mavjud bo‘lmoq

B) gek.-harakat

V) arb-yoritmoq

G) To‘g‘ri javob yo‘q.



2. Ekologiya huquqi (fani)nazariyasidan kelib chiqib, energetika – bu.... ?

A) insoning xo‘jalik-iqtisodiy faoliyati sohasi, barcha turdagi energetika resurslarini shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanishi uchun xizmat qiluvchi yirik tabiiy va sun‘iy tizimlar majmui.

B) xalq xo‘jaligida energetika resurslari, energiyaning turli xillarini ishlab chiqarish, o‘zgartirish, o‘zlash va qo‘llashni o‘z ichiga oladigan sohadir.

V) Eng muhim sohasi bu elektroenergetikadir.

G) barcha energiya turlari majmuyidir.

3. Energetika quyidagi yirik qismlarga ajratiladi:

A) Elektroenergetika, Issiqlik energetikasi

B) Hidroenergetika, Yadroviy energetika

V) Muqobil, kumir, neft, gaz energetikasi,

G) A va B

4. Mamlakatimizning elektr energiyasiga bo‘lgan talabi 2030 yilda joriy yilga nisbatan .... ziyod kilovatt-soatni tashkil etadi.

A) 2,5 barobar oshadi va 120 milliarddan

B) 2 barobar oshadi va 105 milliarddan

V) 1,5 barobar oshadi va 115 milliarddan

G) 3 barobar oshadi va 150 milliarddan

5. O‘zbekiston Respublikasining “Energiyadan oqilona foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilingan yilni aniqlang?

A) 1996 yilda B) 1997 yilda V) 1998 yilda G) 1999 yilda

6. O‘zbekiston Respublikasining “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilingan yilni aniqlang?

A) 1996 yilda B) 1997 yilda V) 1998 yilda G) 1999 yilda

7. “Muqobil energiya manbalari to‘g‘risida” qonuni... .?

A) Osiyo quyosh energiyasi forumining oltinchi yig‘ilishida

B) “Elektr energetikasi to‘g‘risida”gi qonunda

V) “Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmonda

G) “Xalqaro quyosh energiyasi instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorda

8. O‘zbekistonda quyosh energiyasining yalpi salohiyati ... neft ekvivalentidan ortiqdir.

A) 61 milliard tonna

B) 51 milliard tonna

V) 71 milliard tonna

- G) 81 milliard tonna
9. Energetika huquqi fan va o'quv kursi sifatida?
- A) Kompleks fan tarmog'i
- B) Tadbirkorlik huquqi faniga taalluqli
- V) Fuqarolik huquqiga taalluqli
- G) To'g'ri javob yo'q
10. Energetika huquqining metodi ?
- A) Fuqarolik-huquqiy metod.
- B) Ma'muriy-huquqiy metod.
- V) A va B
- G) To'g'ri javob yo'q

## NAZARIY SAVOLLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlarida (ma'ruzalarida) energetika va energiyadan oqilona foydalanish sohasiga oid muammolar va ularni hal etishga qaratilgan g'oyalar va chora-tadbirlarni izohlab bering?

Muhokama qiling.

2. Davlat va huquq nazariyasiga asosan huquq sohalari ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish jarayonida tutgan o'rni va ishtiroki darajasi doirasi nuqtai nazaridan mustaqil va kompleks (majmualashgan yoki keng qamrovli, keng tarmoqli) huquq sohalariga bo'linishi mumkin. Energetika huquqini kompleks huquq sohasi deb e'tirof etamiz.

Mazkur masalani amaldagi qonun hujjatlari va ilmiy-nazariy qarashlarga asosan muhokama qiling.

3. Osiyo quyosh energiyasi forumining oltinchi yig'ilishida energetika muammolari haqida ta'kidlangan. Bu borada energetika sohada qanday muammoli masalalarga e'tibor qaratilgan tahlil qiling.

Mazkur masalani amaldagi qonun hujjatlari va ilmiy-nazariy qarashlarga asosan muhokama qiling.

4. Energiya manbalari inson faoliyati natijasida namoyon bo'ladi. Bu borada "tabiiy energetik resurslar" va "tabiiy resurslar" tushunchalarini bir biriga nisbatini tahlil qiling, batafsil to'xtalib o'ting va uning energetika huquqidagi ahamiyati nimada, ko'rinadi.

Mazkur masalani amaldagi qonun hujjatlari va ilmiy-nazariy qarashlarga asosan muhokama qiling.

### **2-mavzu: ENERGETIKA HUQUQINING MANBALARI**

## **2.1. Energetika huquqi manbalarining tushunchasi va tizimi**

Energetika huquqining manbalari – deganda energiyani ishlab chiqarish, yetkazib berish, sotish, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish hamda ekologik xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladigan qonunchilik hujjatlari tushuniladi.

Energetika huquqining manbasi sifatida qaralayotgan huquqiy hujjat quyidagi talablarga javob berishi kerak: vakolatli davlat organlari tomonidan qabul qilinganligi; belgilangan doirada majburiy ahamiyat kasb etishi; energetika va ekologik qoida-talablarni belgilashi; rasmiy shakl, tuzilish, amal qilish muddatlari va boshqa belgilar ega bo'lishi kerak.

“Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi qonunda belgilanganidek, “qonunda belgilangan shaklda qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida qonun hujjatlari normalarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjat normativ-huquqiy hujjat deb hisoblanadi” .

Energetikaga oid munosabatlarni tartibga soluvchi konstitutsiyaviy qoidalar, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining farmon va qarorlari, Maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari hamda mahalliy davlat hokimiyat organlarining me'yoriy hujjatlari yig'indisi qonunchilik hujjatlari tizimini tashkil etadi.

Mustaqillik yillarida respublikada energetikaga oid munosabatlarni tartibga soladigan qariyb 100 dan ortiq qonun va 500 dan ortiq qonun osti hujjatlari qabul qilindi.

## **2.2. Energetika huquqi manbalarining tasniflanishi**

Energetika huquqining manbalari keng qamrovli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishi uchun ham ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

1) yuridik kuchi bo'yicha: konstitutsiyaviy normalar, qonunlar va qonunosti me'yoriy hujjatlar;



2) tartibga solish yoʻnalishlari boʻyicha: energetika sohasida boshqaruv, energiyadan oqilona foydalanish qonunchiligi; energetik xavfsizlikni taʼminlash qonunchiligi.

3) tartibga solish predmeti boʻyicha: umumiy va maxsus energetika qonunchilik hujjatlari.

4) tartibga solish holati boʻyicha: moddiy va protsessual ahamiyatidagi qonunchilik hujjatlari;

5) qoʻllanilish doirasi boʻyicha: xududiy-mintaqaviy; respublika miqyosida; xalqaro miqyosidaga manbalar va hokazo.

“Normativ-huquqiy hujjatlar toʻgʻrisida”gi qonunda normativ-huquqiy hujjatlar quyidagi turlarga ajratiladi: a) Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi; b) Oʻzbekiston Respublikasining qonunlari; v) Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari; g) Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari; d) Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari; ye) vazirliklar, davlat qoʻmitalari va idoralarning hujjatlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Energetikaga oid qonunchilik hujjatlari murakkab tizimga ega boʻlib, oʻz mazmun-mohiyatiga koʻra ularni uch asosiy qismga boʻlib oʻrganamiz: energetika huquqining konstitutsiyaviy asoslari; energetika sohasidagi Oʻzbekiston Respublikasining qonunlari tizimi; Energetika sohasidagi qonunosti meʼyoriy hujjatlar tizimi.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida tabiat-jamiyat tizimidagi oʻzaro munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus qoida-talablar ham belgilangan boʻlib, energetika huquqi manbalarining poydevorini tashkil etadi. Konstitutsiyaning 55-moddasida “Yer, yer osti boyliklari, suv, oʻsimlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralarning umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur”ligi mustahkamlangan boʻlib, u davlat ekologik siyosatining asosiy tamoyillarini oʻz ichiga oladi. Ushbu konstitutsiyaviy qoidaning ahamiyati shundaki, birinchidan, mustaqilligimizni moddiy asosini tashkil etuvchi tabiiy boyliklarining xalqimizning boyligi, mulki ekanligi, ikkinchidan, tabiiy resurslardan faqat oqilona foydalanish zarurligi, uchinchidan, respublikamiz tabiati davlat muhofazasiga olinganligi, yaʼni ekologik-huquqiy munosabatlarni davlat tomonidan kafolatlanishi kabi muhim tamoyillarni mustahkamlaydi.

### **2.3.O‘zbekiston Respublikasi qonunlari – energetika huquqining maxsus manbasi sifatida**

Respublikamiz mustaqilikka erishgandan so‘ng energetika sohasida quyidagi qonunlar qabul qilindi: O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to‘g‘risida”, “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”, “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”, “Chiqindilar to‘g‘risida”, “Elektr energetikasi to‘g‘risida”, “Energiyadan oqilona foydalanish to‘g‘risida”, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”, “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”, “Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to‘g‘risida”, “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”, “Standartlashtirish to‘g‘risida”, “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida”, “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida”gi qonunlar va boshqalar.

Ushbu qonunlarda ekologik muhitni muhofaza qilish, energiyadan oqilona foydalanish va energetik xavfsizligikni ta‘minlash bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarning maqsadi, vazifasi, ob‘ekt va sub‘ektlari, tabiiy resurslarning huquqiy holati, ushbu sohada yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari, majburiyatlari, erkinliklari, kafolatlari va vakolatlari, qonunchilik talablarini buzganlik uchun yuridik javobgarlik chora-tadbirlari belgilangandir.

Energiyadan oqilona foydalanishni ta‘minlashda turli huquq sohalarining normalari ham yordamga keladi: O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Fuqarolik, Soliq, Mehnat kodeksi va boshqalar.

Qonun osti me‘yoriy hujjatlarimizning asosiy maqsadi va vazifasi, konstitutsiyaviy tamoyillar, qonunlarda belgilangan maxsus qoida-talablarni amalda qo‘llanilishini osonlashtirish, ma‘muriy hududlarning tabiiy holati asosida me‘yoriy qoida-talablarni belgilash, ularning hayotiyiligini ta‘minlash va asosiy qoida-talablarni barcha yuridik va jismoniy shaxslarga yetkazishdan iborat bo‘ladi.

Energetika huquqining qonun osti me‘yoriy hujjatlari ham murakkab tizimga ega bo‘lib, quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi mumkin: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari; maxsus vakolatli davlat boshqaruv

organlarining me'yoriy hujjatlari (qaror, nizoim, yo'riqnoma, normativ va standartlar); mahalliy davlat hokimiyat organlarining me'yoriy hujjatlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari amaldagi qonun hujjatlari asosida qabul qilinib, energiyadan oqilona foydalanish, energetik xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq qoida-talablarni belgilaydi va begilangan doirada umum majburiy ahamiyat kasb etadi.

Energetika sohasida maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi organlari o'z vakolatlari doirasida me'yoriy hujjatlarni qabul qilib, qoida-talablarni belgilaydi.

## KAZUSLAR

1. Yoqilg'i-energetika kompleksini modernizatsiya qilish hamda texnologik qayta jihozlash, elektr energiyasi va tabiiy gaz (keyingi o'rinlarda energiya resurslari deb ataladi) yetkazib berish va iste'mol qilish sohasida shartnoma majburiyatlariga so'zsiz rioya etish, shuningdek, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish - mamlakatimizda olib borilayotgan, eng avvalo, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini jadal rivojlantirish, investitsiyaviy jozibadorlik va ishbilarmonlik faolligini oshirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni samarali amalga oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, mazkur sohalarda to'planib qolgan jiddiy kamchilik va muammolar energiya resurslari bo'yicha debitor qarzdorlikni keskin kamaytirishga va elektr energetika va gaz tarmoqlarini yanada rivojlantirish, ijro ishi yuritish samaradorligini oshirishga imkon bermagan.

Qonuniylikni va ijro intizomini mustahkamlash ishlarida yo'l qo'yilgan kamchiliklar oqibatida 2016 yil va 2017 yilning I choragi davomida sodir etgan huquqbuzarliklari uchun "O'zbekenergo" AJ va "O'ztransgaz"AKning 665 nafar, Sud departamentining 36 nafar xodimi jinoiy javobgarlikka tortilgan.

Yuqoridagi masalalar yuzasidan, huquqbuzarlik profilaktikasining ahamiyati, huquqbuzarlikni oldini oluvchi davlat organlarining ish shakli tizimini tahliliy ko'rib, amaliyot materiallariga huquqiy baho bering?

Bu borada huquqbuzarlik profilaktikasini "O'zbekenergo" AJ va "O'ztransgaz" amalga oshirishi kerakmi va u qanday shaklda bo'lishi kerak?

2.Qashqadaryo. 2020 yilning 16 fevral kuni Koson tuman Tinchlik MFY hududidan o'tgan, hozirgi kunda harakatdan to'xtagan gaz quvurining umumiy qiymati 84.630.000 so'mlik 806 metr qismi noma'lum shaxslar tomonidan o'g'irlab ketilgan.

Mazkur holat yuzasidan Koson tuman IIB huzuridagi Tergov bo'limi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 169-moddasi 3- qismi "v" bandi (o'g'irlik) bilan jinoyat ishi qo'zg'atilgan.

Olib borilgan tergov-tezkor harakatlari davomida, 84 dona quvurlarni Koson tumanida yashovchi A.A., o'z boshqaruvida bo'lgan "DAF" rusumli yuk avtomashinasida Samarqand viloyatiga olib ketayotgan vaqtida aniqlanib, quvurlar tegishli tartibda hujjatlashtirilib olingan. Davom ettirilgan choralar natijasida, mazkur jinoyatni 37 yoshli A.D. va 53 yoshli Sh.K., lar o'zaro oldindan jinoiy til biriktirib, chilangarlik bilan shug'ullanuvchi 36 yoshli B.N., bilan kelishib, quvur kesish apparati (rezak) bilan kesishganligi, 25 yoshli Ya.M. va uning 9 nafar tanishlari kesilgan 84 dona gaz quvurlarini yuk avtomashinasiga yuklaganligi aniqlangan.

Yuqorida ko'rsatilgan amaliyot hujjatlarida, Koson tuman IIB huzuridagi Tergov bo'limi tomonidan jinoyat ishini qo'zg'atish va jinoyatlarni tergov qilish va ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlarini tahlil qilib bering ?

3.Rossiya fuqarolari Chudakov va Semenov foydali qazilma konlarini ochuvchi deb e'tirof etish (foydali qazilma konlarini ochish huquqini olish uchun) uchun O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi huzurida Kon ochuvchilar ishlari bo'yicha markaziy idoralararo komissiyasiga buyurtma bilan murojaat qiladi. Buyurtmada foydali qazilma koni, uning topilishi tarixi, geologiya-razvedka ishlarining turli bosqichlarida ob'ektning ochilishi va o'rganilishida qatnashgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd etadi. Lekin komissiya buyurtmada zarur

ma'lumotlar taqdim etilmagan va xorijiy fuqarolar kon ochuvchilar deb tan olinmaydi degan sabab bilan uni qabul qilmaydi.

– Komissiyaning harakatlari qonuniymi bu borada qonunchilik qanday ko'rsatma beradi?

– Kimlar va qanday tartibda kon ochuvchilar deb e'tirof etiladi?

4. Xususiy korxonamizning asosiy faoliyat turi pishgan g'isht ishlab chiqarish hisoblanadi. 2010 yil 1 yanvardan boshlab korxonaning ishlab chiqarish uskunalari to'liq modernizatsiyalandi, ya'ni ko'mirda ishlash texnologiyalariga almashtirildi. O'zdavneftgazinspeksiyaning xulosasiga asosan bizga, Prezidentning 2009 yil 19 iyundagi PQ-1134-son qaroriga ko'ra, barcha soliq to'lovlari bo'yicha imtiyozlar berilgan.

Biz pishgan g'isht ishlab chiqarish uchun yer qa'ridan foydalanganlik solig'i solinadigan foydali qazilmalarni kavlab olganimiz uchun yer qa'ridan foydalanganlik solig'ini to'lovchi hisoblanamizmi?

2. Bizning korxonamiz, asosiy faoliyatdan tashqari, yog'och va aluminiy profilidan eshik va romlar tayyorlash bilan shug'ullanadi; ulgurji va chakana savdo qiladi; qurilish pudrat ishlarini bajaradi.

U mazkur faoliyat turlari bo'yicha umumbelgilangan soliqlarni to'lashi shartmi yoki yagona soliq to'lovini to'lashi mumkinmi?

Ushbu holatga huquqiy baho bering.

5. 2006 yil 16 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kioto bayennomining musaffo rivojlanish mexanizmi doirasida investitsiya loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2006 yil 6 dekabrda N°PQ-525 sonli qarorining ayrim bandlarini amaldagi qonunchilikka muvofiqligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqish uchun yubordi.

Xatda ko'rsatilishicha:

– Qarorning 2-bandi, "1-ilovaga muvofiq, Vazirlar Mahkamasi huzurida Kioto bayennomani to'g'ri rivojlantirish mexanizmi bo'yicha qo'mitalararo kengash tuzish.

Qo'mitalararo kengashga quyidagi asosiy funksiyalarni yuklash:

Kioto bayennomani to'g'ri rivojlantirish mexanizmidan foydalanishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

to'g'ri rivojlantirish mexanizmi bo'yicha milliy darajadagi dasturlarni tanlash va qo'llash bo'yicha qoida va tartibini tasdiqlash;

milliy darajadagi dasturlarni to'g'ri rivojlanish mexanizmi bo'yicha, vakolatli organlar tomonidan o'tkazilgan ekspertiza natijalari asosida tasdiqlash;

to'g'ri rivojlanish mexanizmi bo'yicha dastur ishtirokchilari o'rtasida chiqindilarni sotib olishni qisqartirish bo'yicha Kelishuv loyihasini tasdiqlash O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni va "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun talablariga zid".

– Sizning fikringizcha, haqiqatdan ham ushbu qaror yuqorida sanalgan qonunlar talablariga zidmi?

– Konstitutsiyaviy sud shu kabi murojaatlarni ko'rib chiqishga vakolatlami?

– Oliy Majlis O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qoidalarini ko'rib chiqishga haqlimi?

– Sizningcha, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qanday qaror qabul qilishi mumkin?

## TEST

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida atrof tabiiy muhit muhofazasiga bevosita taalluqli nechta modda mavjud?

A) 5 ta

B) 4 ta

V) 6 ta

G) 1 ta

2. Konstitutsiyamizga muvofiq fuqarolar atrof tabiiy muhitga.....munosabatda bo'lishga majburdirlar.

A) ehtiyotkorona

B) tejamkor

V) oqilona

G) avaylab

3. Yer kodeksi energetika huquqining manbai bo'la oladimi?

A) ha

B) yo'q

V) qisman

G) agarda Oliy Majlisda tasdiqlansa

4. O'zbekiston Respublikasining "Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida"gi qonuni qachon qabul qi-lingan?

A) 1997 yil 25 aprel

B) 1993 yil 9 dekabr



V) 1992 yil 9 dekabr

G) 1993 yil 8 dekabr

5. Qonunchilik hujjatlarining tizimi tavsifiga ko'ra, energetika huquqi manbalari .....ga bo'linadi.

A) kodifikatsiyalashgan va oddiy

B) qonun va qonun osti normativ-huquqiy hujjatlar

V) umumiy va maxsus qonunchilik

G) to'g'ri javob berilmagan

6. Huquqiy tartibga solish holati bo'yicha ekologik qonunchilik qanday tasniflanadi?

A) umumiy va maxsus qonunchilik

B) kodifikatsiyalashgan va kodifikatsiyalashmagan

V) moddiy va protsessual ahamiyatidagi qonunchilik hujjatlari

G) xududiy-mintaqaviy, respublika va xalqaro miqyosida huquqiy hujjatlar

7. Yuridik kuchi bo'yicha energetika huquqi manbalari qanday turlarga ajratiladi?

A) Konstitutsiya, qonunlar va qonun osti me'yoriy hujjatlar

B) umumiy va maxsus qonunlar

V) kodifikatsiyalashgan va oddiy qonunchilik

G) moddiy va protsessual qonunlar

8. O'zbekiston Respublikasining "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida" gi qonunining maqsadi... ?

A) qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

B) muqobil energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

V) quyosh, shamol energiyasi, yer harorati (geotermal), suv oqimlarining tabiiy harakati energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

G) quyosh, shamol energiyasi, yer harorati (geotermal)dan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

9. O'zbekiston Respublikasining "Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to'g'risida" gi qonunining maqsadi... ?

A) atom energiyasi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

B) atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

V) atom energiyasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

G) atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Respublikaning chorvachilik va parrandachilik xo'jaliklarida biogaz qurilmalari qurishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorining maqsadi ?

A) iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya sig'imini qisqartirish, energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari dasturini ijro etish yuzasidan, respublikaning chorvachilik va parrandachilik xo'jaliklarida biogaz qurilmalari qurishni rag'batlantirish

B) respublikaning chorvachilik va parrandachilik xo'jaliklarida biogaz qurilmalari qurishni rag'batlantirish

V) iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya sig'imini qisqartirish, energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari dasturini ijro etish

G) iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya sig'imini qisqartirish

## NAZARIY SAVOLLAR

1. Energetika huquqi manbalariga ta'rif bering.
2. Energetika huquqi manbalarining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Energetika huquqi manbalarining tizimi qanday?
4. Energetika huquqining konstitutsiyaviy asoslariga misol keltirib tushuntirib bering.
5. Energetika huquqining maxsus manbasi sifatida qonunlarning ahamiyatini izohlab bering.
6. Qonun osti me'yoriy hujjatlarning energetika huquqidagi ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
7. Xalqaro-huquqiy hujjatlar energetika huquqining manbai bo'la oladimi?
8. Energetika sohasida O'zbekiston imzolagan qanday xalqaro-huquqiy hujjatlarni bilasiz?

### **3-mavzu: ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDAGI DAVLAT BOSHQARUVI**

#### **3.1. Energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi davlat siyosati**

2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta‘minlash konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra, ilg‘or xalqaro tajribani va jahon elektr energetikasi rivojlanishining zamonaviy tendensiyalarini hisobga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasida o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish va elektr energetika tarmog‘ini yanada mutanosib rivojlanishini ta‘minlash alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, mamlakatning elektr energetika tarmog‘ini o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirish maqsadlari va yo‘nalishlarini, ustuvor yo‘nalishlarini va ko‘rsatmalarini, shuningdek, elektr energetika tarmog‘ida davlat siyosatining amaliy ruyobga chiqarishning ma‘lum bosqichlarida uning samaradorligini ta‘minlash mexanizmlarini va maqsadlarga erishishni kafolatlaydi.

Energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi davlat siyosati haqida so‘z ketganda, ta‘kidlash lozimki, har bir davlat o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish uchun o‘ziga xos va o‘ziga mos islohotlarni amalga oshiradi. Bu o‘rinda mamlakatimizda elektr energetika sohasida olib borilayotgan islohotlar jamiyat hayotida dolzarb ahamiyatga ega. Binobarin, O‘zbekiston Respublikasi energetikasini isloh qilishning asosiy maqsadlari iqtisodiyotning barqaror faoliyati va rivojlanishini ta‘minlash, elektr energiyasini hosil qilish va uning tejamkorligini oshirish, iste‘molchilarga sifatli va uzluksiz elektr energiyasi yetkazib berishdir.

Elektr energetika tizimining barqaror rivojlanishiga erishish, aholining elektr va issiqlik energiyasiga bo‘lgan ehtiyojini ta‘minlash davlat organlarining muhim vazifalaridandir. Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi iqtisodiy va huquqiy o‘sishda o‘zining ijobiy ta‘sirini ko‘rsatadi. Albatta, soha rivoji uchun davlat tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishi, shu jumladan, bu boradagi islohotlarning huquqiy asosini yaratishi lozim. Boshqacha aytganda, davlat tomonidan nafaqat elektr energiyasi bilan ta‘minlovchilar, balki uni iste‘mol qiluvchilarning huquq va manfaatlarini ham himoya qilishga qaratilgan huquqiy normalar tizimini qabul qilish dolzarb ahamiyatga ega.

Energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni ta‘kidlab o‘tish lozim.

Jumladan: 1) atrof-muhitni muhofaza qilish; 2) chora-tadbirlarni amalga oshirish; 3) davlat dasturlarni amalga oshirish; 4) ishlab chiqarishni kengaytirishni rag'batlantirish; 5) qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish; 6) xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, energetika sohasidagi qonunchilikda bir qancha yo'nalishlarda davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilangan. Chunonchi:

- elektr energetikasi;
- qayta tiklanuvchi energiya,
- atom energiyasidan foydalanish sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 30 sentyabdagi "Elektr energetikasi to'g'risida"gi Qonuni(4-moddasi)ga ko'ra, elektr energetikasi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasining elektr energetika xavfsizligini ta'minlash;

- yagona elektr energetikasi tizimining xavfsiz va ishonchli ishlab turishini ta'minlash, iste'molchilarning elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantirish;

- iste'molchilarning hududiy elektr tarmoqlaridan teng foydalanishini ta'minlash;

- energiya hosil qiluvchi quvvatlarni va elektr tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash, rivojlantirish jarayonlariga investitsiyalar jalb qilish;

- elektr energiyasini hosil qilish, uzatish va sotish bo'yicha boshqaruv hamda xo'jalik aloqalari tizimiga bozor prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish;

- elektr energetikasining mutanosib rivojlanishini ta'minlash;

- elektr energiyasidan va yoqilg'i-energetika resurslaridan oqilona foydalanish.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 21 maydagi "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni(4-moddasi)ga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilash va chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

– mamlakatning energetika xavfsizligini mustahkamlash, yoqilg‘i-energetika balansining qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalangan holda elektr, issiqlik energiyasi va biogaz ishlab chiqarishga doir qismini diversifikatsiyalash;

– qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasiga innovatsion texnologiyalarni, ilmiy-texnikaviy ishlanmalarni joriy etishni, qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarining energiya jihatdan samaradorligini oshirishni, ularning ishlab chiqarilishini kengaytirishni va mahalliyashtirishni rag‘batlantirish;

– qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishning sinab ko‘rilgan texnologiyalari asosida energiya ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishga tadbirkorlik sub‘ektlarini jalb etishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish;

– qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqaruvchilarni, shuningdek qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qurilmalarini ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish;

– qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 9 sentabrdagi “Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni(4-moddasi)ga ko‘ra, atom energiyasidan foydalanish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

– mazkur sohadagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

– milliy yadroviy infratuzilmani rivojlantirish;

– atom energiyasidan foydalanish chog‘ida fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ini, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini himoya qilish, shuningdek atrof-muhitni muhofaza qilish;

– atom energiyasidan foydalanish ob‘ektlarini jisman himoya qilishga doir tadbirlarni amalga oshirish;

– atom energetikasini uzoq muddatli rivojlantirish;

– mazkur sohada innovatsion texnologiyalar, ilmiy-texnikaviy ishlanmalar joriy etilishini rag‘batlantirish;

– mazkur sohada kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tashkil etish;

- xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Uzoq muddatli energetika siyosati mavjud bo‘lib, quyidagilar hisoblanadi:

- energetika xavfsizligi;
- iqtisodiyotda energiyadan samarali foydalanishni ta‘minlash;
- energiyadan tejamkorlik va samarali foydalarinsh;
- energetika sohasining ekologik xavfsizligi ta‘minlash.

### **3.2. Energetika sohasida davlat boshqaruvining o‘ziga xos xususiyatlari**

Energetika sohasida davlat boshqaruvining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

birinchidan, energetika manbalaridan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi ma‘muriy boshqaruv bilan bir qatorda boshqaruvning boshqa tizimlari ham amal qiladi.

ikkinchidan, energetika manbalaridan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi bir organ qo‘lida mujassamlashgan(Energetika vazirligi).

uchinchidan, energetika manbalaridan foydalanishda davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi energetika vazirligi qayta tiklanuvchi energiya manbalari va yaroviy energetika sohasida vakolatli organ hisoblanadi, energiya turlari issiqlik energiyasi manbalaridan foydalanishni alohida organ amalga oshiradi.

Energetika manbalaridan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi organlarining ijroiya etish va farmoyish berish faoliyati energiteka to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini ta‘minlashga qaratilgan.

Energetika sohasida davlat boshqaruvi ma‘lum bir shakllarda va usullarda amalga oshiriladi. Ushbu boshqaruvning shakllari bo‘lib, huquq ijod qilish, ijro etish va huquqni muhofaza qilish faoliyati hisoblanadi.

Energetika sohasida davlat boshqaruvi shakli sifatida huquq ijod qilish – atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, energiya resurslardan foydalanish va energetik xavfsizlikni ta‘minlash sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni huquq normalari orqali tartibga solishga qaratilgan faoliyat.

Huquqni ijod qilishda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi (Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo‘mitasi, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasi, Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasi) Qonunchilik palatasi qo‘mitalari: o‘z tashabbusi bilan yoki Qonunchilik palatasining topshirig‘iga binoan O‘zbekiston



Respublikasi qonunlarining hamda o'zining vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan Qonunchilik palatasi boshqa qarorlarining loyihalarini ishlab chiqadi; qonun loyihalarining dastlabki tarzda ko'rib chiqilishini va ularni Qonunchilik palatasida ko'rib chiqishga tayyorlashni amalga oshiradi; qonunlarning loyihalari yuzasidan xulosalar beradi, qonun loyihasini Qonunchilik palatasining majlisi kun tartibiga kiritish, uning ustida ishlashni davom ettirish yoki asoslantirilgan holda uni rad etish to'g'risida Kengashga takliflar kiritadi; xulosalar va takliflar beradi; kiritilgan qonun loyihalarini ko'rib chiqish bo'yicha ishchi guruhlarini tuzadi, ularning tarkibiga davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining, ilmiy muassasalarning vakillarini, mutaxassislar va olimlarni, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning rahbarlarini jalb etadi; qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ektlari vakillarining ular tomonidan kiritilgan qonun loyihasiga taalluqli masalalar yuzasidan fikrlarini eshitadi; kiritilgan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, shuningdek Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar matniga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritish yuzasidan takliflar tayyorlaydi; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari rahbarlarining O'zbekiston Respublikasi qonunlari, boshqa qonun hujjatlari hamda qo'mitalarning qarorlari ular tomonidan qanday bajarilayotgani haqidagi axborotlarini eshitadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati (Budjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi, Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi, Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi) vazifalari va funksiyalarini, faoliyatini tashkil etish hamda uni amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi, xo'jalik boshqaruvi organlari, tashkilot hamda muassasalar, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolar bilan hamkorlik qilish tartibini belgilaydi.

Ijroiya organlari huquq ijod qilish yo'li bilan qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarida qonunlarda belgilangan qoidalarni yanada rivojlantirib, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni belgilaydilar.

Energetika sohasida davlat boshqaruvi shakli sifatida ijro etish – davlat hokimiyati organlari tomonidan huquq ijod qilish orqali ishlab chiqilgan va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlardagi talablarni amalda tatbiq etish hamda davlat energetika siyosatini ta'minlashga qaratilgan faoliyat. Davlat boshqaruv organlarining ijroiya faoliyati qonun hujjatlarini amalga oshirish bo'yicha amaliy faoliyati hisoblanadi.

Masalan, energetika uchun yer uchastkalarini ajratib berish va muhofaza qilish qoidalariga rioya etishni nazorat qilish va hakazo.

Energetika sohasida davlat boshqaruvi shakli sifatida huquqni muhofaza qilish – huquqni muhofaza qilish sohasida maxsus vakolatli davlat organlarining mamlakatda energetikaga oid huquq-tartibotni ta'minlashga qaratilgan faoliyati. Energetika manbalaridan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi organlari huquqni muhofaza qilish faoliyati orqali energetika resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilish qoidalari buzilgan taqdirda aybdor shaxslarni jinoiy, ma'muriy va intizomiy javobgarlikka tortish masalasi huquqni muhofaza qilish organlari yoki u ishlaydigan tashkilotning ma'muriyati oldiga qo'yiladi, agar nazorat organlari ma'muriy javobgarlikka tortish huquqiga ega bo'lsalar, ushbu masalani hal qiladilar, sud organlarida yetkazilgan zararni undirish bo'yicha da'vo arizalarini qo'zg'atadilar, foydalanuvchilarning buzilgan huquqlarini tiklashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradilar.

### **3.3. Energetikaga oid munosabatlarni tartibga solishda davlat boshqaruv va nazorati**

Energetikaga oid munosabatlarni tartibga solishda davlat boshqaruv organlari boshqarish usullarini, ya'ni ijtimoiy munosabatlar sub'ektlariga davlat ta'sir ko'rsatish usullarini qo'llaydilar. Ular tarkibiga ruxsat berish, rozilik berish, majburiy ko'rsatmalar, man qilish kabilar kiradi.

Davlat boshqaruvining ruxsat berish usuli asosan energetik resurslardan foydalanishni tashkil etishda qo'llaniladi. Energetika resurslardan maxsus foydalanish faqat vakolatli davlat organlarining ruxsati asosida vujudga keladi.

Rozilik berish (sankiyalash) usuli deb, davlat organlarining foydalanuvchilar tomonidan tayyorlagan me'yorlarni hamda foydalanishga oid boshqa qoida va tartiblarni tasdiqlashi va rozilik berishi tushuniladi. ("Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasi).

Majburiy ko'rsatmalar berishda, energetika sohasida davlat boshqaruv organlarining vakolat doirasida qabul qilgan qarorlari energetika munosabatlar sub'ektlariga nisbatan majburiy hisoblanadi.

Energetika sohasidagi munosabatlar tartibga solinishi boshqarilishida, energetik nazorat muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Energetika sohasida nazoratning turlari to'rtta turda amalga

oshiriladi. Bular quyidagilardan iborat:

- davlat nazorati;
- idoraviy nazorat;
- ishlab chiqarish nazorati;
- jamoatchilik nazorati.

Energetika sohasida nazorat usullari quyidagilardan iborat.

Kuzatish - o'rganish va ma'lumotlarni to'plash;

Umumlashtirish - zararli va xavfli ta'sirlarni aniqlash, tahlil qilish asosida ma'lumotlarni tasniflash.

Baholash - zararli, xavfli va noqonuniyligini aniqlash.

Ruxsatnoma berish - yuridik va jismoniy shaxslarga litsenziya berish;

Ogohlantirish, cheklash va to'xtatish - ekologik xavfli va zararli xo'jalik va boshqa faoliyatni cheklash, vaqtincha to'xtatib qo'yish va bekor qilish;

Javobgarlikka tortish - talablarni buzgan, yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan ma'muriy-huququqiy javobgarlik choralari qo'llash.

Energetika sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiradigan organlarning doirasi kengdir. O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq, energetika sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiradigan organlar umumiy va maxsus hamda alohida vakolatga ega bo'lgan davlat organlariga bo'linadi. Maxsus vakolatga ega bo'lgan organlar o'z navbatida tarmoqlararo va bir tarmoqqa oid turlarga bo'linadi.

Umumiy vakolatga ega bo'lgan organlar qatoriga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va mahalliy davlat hokimiyati organlari kiradi. Ular ijtimoiy sohada davlat boshqaruvini amalga oshirish bilan bir vaqtda energetika oid ma'lum masalalarni hal qiladilar. Shuning uchun ham, ular umumiy vakolatga ega bo'lgan organlar deb nomlanadilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- energetika ohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash;
- davlatning energetikaga oid dasturlarini tasdiqlash;
- energetikaga oid qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish;
- energetika to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi ustidan

nazoratni muvofiqlashtirib borish;

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa masalalarni hal qilish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining energetika sohasidagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

– energetika sohasida yagona siyosat yuritish;  
– energiya resurslaridan foydalanishni tartibga solish; energetikadan foydalanish qoidalarini belgilash, respublika ahamiyatiga molik tabiiy resurslarning zahiralarini tasdiqlash;

– davlatlararo munosabatlarni rivojlantirish hamda O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa tadbirlarni amalga oshirish.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining elektr energetikasi sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

– elektr energetikasini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

– elektr energetikasi ob’ektlarini joylashtirish to‘g‘risida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qarorlar qabul qiladi;

– kelgusi yil uchun hududiy elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan taqdim etiladigan elektr energiyasi iste‘moli hajmlarini kelishib oladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari tezkor-dispatcherlik boshqaruviga, shuningdek elektr energiyasini hosil qilish, uzatish va taqsimlashga aralashishga haqli emas.

Energetika sohasida davlat boshqaruvida Vazirlar Mahkamasining vakolatlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (98-moddasi), O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Qonun Yangi tahrirdagi qonunda, O‘zbekiston Respublikasining 2009 yil 30 sentyabdagi “Elektr energetikasi to‘g‘risida”gi Qonunda, O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 21 maydagi “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 9 sentabrdagi “Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunning tegishli moddalarida belgilangan.

### **3.4 Energetika sohasida maxsus va alohida vakolatli davlat organlari tizimi**

Maxsus vakolatli davlat organlariga energetika sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi vazirlik, davlat qoʻmitalari va idoralari kiradi. Ularning faoliyati asosan energetikga oid munosabatlar (yer osti boyliklari, tabiiy energetik resurslar, geologiya, elektr va issiqlik energiyasi, koʻmirni ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va isteʼmol qilish, neft, gazni qazib olish, ularni qayta ishlash, tashish, tarqatish, sotish) munosabatlarni tartibga solish bilan bogʻliq boʻlganligi sababli, maxsus vakolatli organlar deb nomlanadilar. Ular tarmoqlararo, yaʼni bir necha tarmoqlarni va bir necha tabiiy energetik resurslarni idora etuvchi organlarga hamda tarmoqqa oid organlarga boʻlinadi.

Energetika sohasida maxsus vakolatli davlat organlari deganda aynan energetika sohasidagi munosabatlari bilan shugʻillanuvchi maxsus vakolatlangan davlat organlari tizimi tushuniladi.

Energetika sohasida maxsus vakolatli davlat organlari tizimiga Oʻzbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qoʻmitasi,

Oʻzbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qoʻmitasi, Oʻzbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qoʻmitasi organlari kiritilgan.

Elektr energetikasi sohasidagi maxsus vakolatli organ:

yagona elektr energetikasi tizimining xavfsiz va ishonchli ishlab turishini hamda isteʼmolchilarning elektr energiyasiga boʻlgan ehtiyojlari qanoatlantirilishini taʼminlaydi;

elektr energetikasini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqadi;

elektr energiyasini hosil qilish va uning isteʼmoli balansini shakllantirishda ishtirok etadi hamda elektr energiyasi tariflari yuzasidan takliflar kiritadi;

yagona elektr energetikasi tizimining ishlab turishi rejimini belgilaydi;

magistral elektr tarmoqlarini boshqaradi;

energiya hosil qiluvchi quvvatlarni va elektr tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash, rivojlantirish tadbirlarini amalga oshiradi;

yagona elektr energetikasi tizimining tizim operatori (bundan buyon matnda tizim operatori deb yuritiladi), elektr energiyasining yagona xarid qiluvchisi, magistral elektr tarmoqlari korxonasi faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi;



elektr energetikasi sohasidagi normativ hujjatlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

yuridik shaxslarning elektr energetikasi ob'ektlaridan foydalanishni tashkil etishi ustidan texnik va texnologik nazoratni amalga oshiradi;

elektr energetikasi sohasida texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ishlarini muvofiqlashtiradi;

elektr energetikasi sohasidagi sinov laboratoriyalarining ishlarini tashkil etadi;

elektr energetikasi ob'ektlaridagi ilmiy tadqiqot, sozlash, ta'mirlash va muhandislik-loyiha ishlarini muvofiqlashtiradi;

elektr energiyasi va yoqilg'i-energetika resurslaridan oqilona foydalanish, shuningdek qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish chora-tadbirlarining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etadi;

elektr energetikasi sohasida mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasiga doir ishlar muvofiqlashtirilishini amalga oshiradi.

Elektr energetikasi sohasidagi maxsus vakolatli organ qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Energetika sohasida davlat boshqaruvining maxsus vakolatli organlari ichida markaziy o'rinni O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi egallaydi.

Kuchli energetika siyosati milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish uchun zamin yaratadi. Shu munosabat bilan hozirgi vaqtda yoqilg'i-energetikadek iqtisodiyotning yetakchi sohasida tarkibiy o'zgarishlar, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlari davom etmoqda. Davlatimiz rahbarining 2019 yil 1 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi yoqilg'i-energetika sohasini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5646-sonli qaroriga binoan O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining tashkil etilishi ushbu yo'nalishda muhim qadam bo'ldi.

Energetika vazirligi elektr va issiqlik energiyasini, ko'mirni ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va iste'mol qilish, shuningdek neft, gazni qazib olish, ularni qayta ishlash, tashish, tarqatish, sotish va ulardan foydalanish jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solinishini amalga oshiradi. Energetika vazirligi oldiga bir qator, vazifalar qo'yilgan:

- energetika sohasini muvofiqlashtirish;
- mahsulot taqsimoti bo'yicha bitimlar tuzish va ularning bajarilishini nazorat qilish;

– energiya manbalarini qazib olish va ishlab chiqarish jarayonlariga

xususiy kapitalni jalb qilish;

– DXSHni (davlat-xususiy sherikligi) rivojlantirish;

– raqobatbardosh biznes muhitini shakllantirish, energiya manbalarini ishlab chiqarishni ko‘paytirish va diversifikatsiya qilish maqsadida tarif siyosatini takomillashtirish;

– energetika sohasida zamonaviy korporativ boshqaruvni, shu jumladan, Jahon bankining ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishni nazarda tutuvchi taklifini hisobga olgan holda joriy etish.

Energetika sohasini isloh qilish maqsadida “O‘zbekenergo” AJda tubdan qayta qurish amalga oshirildi.

1) “O‘zbekenergo” AJ negizida uchta:

2) “Issiqlik elektr stansiyalari,

3) “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari”

4) “Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etildi.

Ushbu qayta tashkil etishdan maqsad elektr energiyasini ishlab chiqarish, tashish, taqsimlash va sotishni tashkil etishning zamonaviy usullariga o‘tishdir.

2019 yilning may oyida O‘zbekiston Respublikasining “Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi, shuningdek, “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonunlarining qabul qilinishi mamlakat elektr energetikasi sohasida muhim qadam bo‘lib, bu qayta tiklanadigan energiya manbalari sohasidagi loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirish uchun huquqiy asos yaratadi.

Energetika vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasida Qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Energetika vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, Osiyo Taraqqiyot Banki)ning texnik ko‘magi bilan mamlakatni 2020 – 2030 yillarda yoqilg‘i va energiya bilan ta‘minlash konsepsiyasini ishlab chiqildi.

Xalqaro konsultant – “MottMacDonald” (Buyuk Britaniya) bilan birgalikda O‘zbekistonda elektr energiyasini, shu jumladan qayta tiklanadigan energiya manbalari sohasini uzoq muddatli rivojlantirish bo‘yicha bosh reja (MasterPlan) ishlab chiqildi.

Shuningdek, neft va gaz tizimini keng miqyosda qayta tashkil etishning eng muhim jarayoni boshlandi. Bu borada, birinchi navbatda, “O‘zbekneftgaz” tarkibidan chiqarilib aksiyalari davlat ixtiyoriga o‘tkazilayotgan “O‘ztransgaz”ni istisno etganda, “O‘zbekneftgaz”ga qo‘shma kompaniyalarni birlashtirish yo‘li bilan boshqaruv tizimidagi ortiqcha oraliqlar qisqartirildi.

### **3.5 Energetika vazirligining asosiy vazifalari**

2020 – 2030 yillarda O‘zbekiston yoqilg‘i-energetika ta‘minoti strategiyasini va 2019–2021 yillarda elektr energetikasini kompleks raqamlashtirish dasturini ishlab chiqish boshlangan bo‘lib, unda korxonalar resurslarini rejalashtirishni avtomatlashtirish va dispetcherlik nazorati va ma‘lumotlarni yig‘ish jarayonlari ko‘zda tutilgan.

O‘zbekistonda elektr energetika sohasini rivojlantirishning asosiy ustuvor masalalaridan biri – to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan holda issiqlik elektr stansiyalari (IES), atom energetikasi, qayta tiklanadigan energiya manbalari (QTEM) kabi sohalarda ishlab chiqarish ob‘ektlarini rivojlantirish hisoblanadi.

Yaqinda qabul qilingan qonunga muvofiq, davlat-xususiy sheriklik (DXSH) shartlari asosida bir qator investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha ishlar olib borilyapti.

Energetika vazirligi, shuningdek energiya tejashni doimiy ravishda rag‘batlantirishga, tegishli texnologiyalarni joriy etishga va energiya tejashning ahamiyati to‘g‘risida aholining xabardorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ham amalga oshirmoqda.

Shuni ham ta‘kidlash kerakki, mamlakatda yana bir muhim loyiha – “Elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimini (ASKUE) joriy etish” hamda “Tabiiy gazni hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi” jadal sur‘atlar bilan amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2021 yil birinchi choragiga qadar 7 milliondan ortiq iste‘molchilarga zamonaviy elektr hisoblagichlar va 2021 yil birinchi yarim yilligiga qadar 3,5 milliondan ortiq iste‘molchilarga tabiiy gaz hisoblagichlarni o‘rnatish ishlari yakunlanadi.

“O‘zenergoinspeksiya” mutaxassislarining fikricha, bugungi kunda har bir uyda yiliga o‘rtacha 400 kVt/soat elektr energiyasini tejash imkoniyati mavjud. Agar har bir oila 400 kVt elektr quvvatini tejasa, u holda respublika bo‘yicha tejalgan elektr quvvati miqdori 1,8 mlrd. kVt

soatni tashkil qiladi. Shu tarzda tejalgan elektr energiyasi, masalan, Jizzax yoki Sirdaryo viloyatlarini yil davomida elektr energiyasi bilan ta'minlashga yetadi.

O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining asosiy vazifalari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasining energetika xavfsizligini ta'minlashga, iqtisodiyot tarmoqlari va mamlakat aholisini yoqilg'i-energetika resurslari bilan barqaror ta'minlashga, tiklanadigan energiya manbalarini keng taraqqiy ettirish va rivojlantirishga qaratilgan yoqilg'i-energetika sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

elektr va issiqlik energiyasi, ko'mirni ishlab chiqarish, tashish, taqsimlash va iste'mol qilish, shuningdek, neft, gaz va ularni qayta ishlash mahsulotlarini qazib chiqarish, qayta ishlash, tashish, taqsimlash, sotish va foydalanishning davlat tomonidan tartibga solinishini amalga oshirish;

respublikada energetika sohasini yagona normativ-huquqiy va texnikaviy tartibga solish;

yoqilg'i-energetika kompleksini strategik rejalashtirish va rivojlantirishning muvozanatlangan tizimini yaratish va rivojlantirish, energiya resurslari ishlab chiqarishni ko'paytirish va diversifikatsiyalash, ishlab chiqarishning o'zaro bog'liq qisqa, o'rta va uzoq muddatli prognozlarini, barcha turdagi energiya resurslarini yetkazib berish va iste'mol qilish, shuningdek, energetika tarmog'ini kompleks rivojlantirishning maqsadli dasturlarni ishlab chiqish;

davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, energiya resurslari bozorida qulay raqobat va ishchanlik muhiti shakllanishini rag'batlantiruvchi tarif siyosatini takomillashtirish hisobiga yoqilg'i-energetika tarmog'ida investitsion jozibadorlikni oshirish;

yoqilg'i-energetika sohasida investitsion loyihalar amalga oshirilishini muvofiqlashtirish, energiya resurslarini qazib chiqarish va ishlab chiqarish jarayonlariga xususiy kapitalni faol jalb qilish, xalqaro moliya institutlari, donor mamlakatlar, kompaniyalar, banklar va boshqa tuzilmalar bilan hamkorlikni yo'lga quyish;

energetika sohasida zamonaviy korporativ boshqaruvni, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini, boshqaruvning samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish chiqimlarini kamaytirish uchun hisob va nazoratni, energetika tarmog'i tashkilotlari moliyaviy-xo'jalik faoliyatining shaffofligini joriy etishga ko'maklashish;

neft-gaz va elektr energetika sohasi tashkilotlarining ishlab chiqarish jarayonlariga innovatsion texnologiyalar joriy qilinishini rag'batlantirish, energiya samaradorligi va energiya resurslarini tejash darajasini oshirish;

energetika sohasida muhandis-texnik va boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkillashtirish;

Vazirlikning faoliyati va asosiy yo'nalishlari bilan bog'liq masalalar bo'yicha mahsulotni taqsimlash to'g'risidagi kelishuvlarni amalga oshirish;

energiyaning tiklanadigan manbalaridan foydalanish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

atom energetikasini rivojlantirish va undan foydalanish sohasida yagona davlat siyosatini hamda strategik yo'nalishlarni ishlab chiqish;

davlat organlari va tashkilotlarida zamonaviy energiya tejaydigan, undan samarali foydalanadigan texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, energiya resurslaridan samarali foydalanish monitoringini yuritish;

atom elektr stansiyalarini qurish bilan birga atomdan tinchlik yo'lida foydalanishni rivojlantirish, energetika va respublika iste'molchilarining energiya ta'minoti sohasida davlat siyosatini amalga oshirish (tabiiy gaz, suyultirilgan gaz, neft mahsulotlari, ko'mir, elektr energiyasi va boshqalar);

iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, iqtisodiyotning energiya sarfi hajmini pasaytirish sohasida yagona davlat siyosatini olib borish, shuningdek, energiya tejovchi ilg'or texnologiyalar faol joriy etilishini rag'batlantirish;

energiya samaradorligini oshirish maqsadida, shu jumladan ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish va o'tkazish orqali investitsiya loyihalari bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

davlat organlari va tashkilotlarida, shu jumladan iqtisodiyot tarmoqlari tashkilotlarining ishlab chiqarish jarayonlariga zamonaviy energiya samarador va energiya tejovchi texnologiyalar joriy etilishini rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, shuningdek, energiya resurslarini sarflash samaradorligi monitoringini amalga oshirish;

xalqaro tajribani hisobga olib va zarur bo'lganda, xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda, energetika auditori sohasidagi mutaxassislar va energetika xizmatlarini yetkazib beruvchilar malakasini oshirish uchun treninglar tashkil etish;



energiya auditorlari faoliyatini tashkil etish tartibini belgilash, yoqilg'i-energetika resurslari iste'molchilari majburiy energetik tekshiruvdan o'tkazilishi va tegishli tavsiyalar bajarilishining monitoringini, shuningdek, energiya servis kompaniyalari faoliyati monitoringini amalga oshirish.

Ma'lumki, tabiiy energetik resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish sohasida hamda ekologik ekspertizani, nazoratni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi maxsus vakolatli organ sifatida alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 15 yanvardagi 29-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq faoliyati tashkil etiladi.

### **3.6 Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi**

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash sohasida davlat boshqaruvini olib borish;

atrof muhitning qulay ekologik holatini, ekologik tizimlar, tabiiy komplekslar va alohida ob'ektlar muhofaza qilinishini, ekologik sharoitning sog'lomlashtirilishini ta'minlash;

chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi yuzasidan davlat nazoratini amalga oshirish, mahalliy davlat hokimiyati organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan mustahkam hamkorlikda maishiy chiqindilarni yig'ish, tashish, utilizatsiya qilish, qayta ishlash va ko'mish borasida ta'sirchan tizimni tashkil etish;

yer, yer osti boyliklari, suv, o'rmonlar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, hayvonot va o'simlik dunyosini muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish, atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi yuzasidan davlat ekologik nazoratini o'rnatish;

ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish ishlarini muvofiqlashtirish, tabiatni muhofaza qilish va resurslarni tejash borasida yagona siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda idoralararo hamkorlikni ta'minlash;

ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat kadastri va monitoringini, shuningdek, yovvoyi hayvonlar, yovvoyi o'simliklarni ko'paytirish va saqlash pitomniklarining, zoologiya va botanika kolleksiyalarining davlat hisobini yuritish;

ekologik tarbiya, targ'ibot va ta'limni, shuningdek, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasida mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;

atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi huquqbuzarliklar bo'yicha profilaktika o'tkazish;

ekologiya va atrof muhit muhofazasi masalalarida jamoatchilik va fuqarolik jamiyati institutlari bilan mustahkam hamkorlikni, qulay atrof muhitga bo'lgan fuqarolar huquqini ta'minlash.

Energetika sohasida tabiiy resurslarni muhofaza qilish, yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish, foydali qazilmalarni kavlab olish bilan bog'liqlashlar, geologik qidiruv ishlarini amalga oshirishda maxsus vakolatli organ O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi alohida ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 27 apreldagi 315-sonli qarori bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi to'g'risidagi nizomga muvofiq faoliyatini tashkil etadi.

Quyidagilar Davlat geologiya qo'mitasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

yer qa'rini geologik o'rganish, foydalanish va muhofaza qilish, shuningdek, konchilik munosabatlarini boshqarish borasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

respublikaning mineral-xom ashyo bazasini, birinchi navbatda yer osti suvlari, qimmatbaho, rangli, nodir, kamyob metallar va uranning, shuningdek, uglevodorod xomashyosining mineral-xom ashyo bazasini jadal rivojlantirish, mineral xom ashyoning yangi turlarini va ularning konlarini tezkor izlash;

geologiya-qidiruv ishlarining samaradorligi va natijadorligini oshirish, foydali qazilmalar zaxirasi o'sishini ta'minlash va joylarda sanoatning yangi quvvatlari yaratilishini inobatga olib iqtisodiyot tarmoqlarining mineral-xom ashyo bazasini qayta to'ldirish;

geologik o'rganish va foydali qazilmalar konlarini sanoat yo'li bilan o'zlashtirish sohasida faol investitsiya siyosatini yuritish va qulay investitsiya iqlimi yaratish;

raqobatbardosh mahsulotlar bo'yicha zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil qilish uchun birinchi navbatda respublika hududlarida sanoatda faoliyat ko'rsatayotgan tarmoqlarning xom ashyo manbalarini diversifikatsiyalash bo'yicha takliflar tayyorlash;

mineral-xom ashyo bazani rivojlantirish va qayta to'ldirishning uzoq muddatli, o'rtacha muddatli va yillik davlat dasturlari monitoringi olib borilishini va nazorat qilinishini ta'minlash, yer qa'rini geologik o'rganish metodikasini o'rganish natijalari hajmi, sifati va ishonchligini xolisona baholash;

unumdorligi yuqori bo'lgan zamonaviy geologiya-qidiruv asbob-uskunalarini tezkor joriy qilish, ilg'or texnika va innovatsion texnologiyalar bilan ta'minlash hisobiga geologiya tarmog'ini modernizatsiyalash bo'yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish;

geologiya sohasi uchun oliy, o'rta maxsus va kasb-hunar ma'lumotiga ega bo'lgan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish yuzasidan tizimli choralarni amalga oshirish, shuningdek, mehnatni rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi energetika sohasida ayniqsa atom energiyasidan foydalanish xavfsizligini davlat tomonidan tartibga soluvchi maxsus vakolatli organi hisoblanadi. Shuningdek, konchilik munosabatlarida maxsus vakolatli organ hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 1 fevraldagi 75-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq faoliyati tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

atom energetikasi va yadro texnologiyalari ob'ektlarida radiatsiya va yadro xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarida sanoat xavfsizligi sohalarida yagona davlat siyosatini yuritish bo'yicha ishni muvofiqlashtirish va nazoratni amalga oshirish;

sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi, yer qa'ridan foydalanishda ishlarni olib borish xavfsizligi hamda istirohat bog'lari attraksionlaridan foydalanish borasidagi qonun hujjatlari va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshirish;

sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligini ta'minlash borasida respublikada yoqilg'i-energetika kompleksi va iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini yanada rivojlantirish bo'yicha strategik rejalar va dasturlarni ishlab chiqishda ishtirok etish;

atom energiyasidan foydalanish sohasida litsenziyalash, sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat nazorati organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

sanoat xavfsizligini ekspertizadan va akkreditatsiyadan o'tkazish tizimini takomillashtirish, shuningdek, atom energiyasidan foydalanish ob'ektlarining va (yoki) atom energiyasidan foydalanish sohasidagi faoliyatning xavfsizligini asoslash yuzasidan ekspertiza qilishni tashkil etish;

sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi, yer qa'ridan foydalanishda ishlarni xavfsiz yuritish hamda istirohat bog'lari attraksionlaridan foydalanish borasidagi normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni belgilangan tartibda ishlab chiqish va qabul qilish;

xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan mustahkam hamkorlikni amalga oshirish, shuningdek, soha faoliyatiga taalluqli bo'lgan xalqaro shartnomalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining majburiyatlari bajarilishini ta'minlash;

texnika va texnologiyalarning jadal rivojlanishini hisobga olgan holda sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi, yer qa'ridan foydalanishda ishlarni olib borish xavfsizligi sohalarida faoliyatni amalga oshiruvchi mutaxassislarning malakasini oshirish.

Ta'kidlash joizki, "Elektr energetikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy hayotiga tatbiq etilishi nafaqat elektr va issiqlik energetikasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish borasida, balki shu sohadagi ishlab chiqaruvchilar hamda iste'molchilar huquq va manfaatlarini himoya qilishda ham dolzarb ahamiyatga ega.

### **3.7 Energetika sohasida alohida vakolatlarga ega bo'lgan davlat organlari**

Energetika sohasida alohida vakolatlarga ega bo'lgan davlat organlari normativ-huquqiy hujjatlarda keltirib o'tiladi. Asosan energetika sohasida nazorat va xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq masalalarda davlatning vakolatli organlari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining

2019 yil 9 sentabrdagi “Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan.

Atom energiyasidan foydalanish xavfsizligini davlat tomonidan tartibga solish bo‘yicha alohida vakolatlarga ega bo‘lgan davlat organlari tizimiga quyidagilar kiradi:

- 1) O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi;
- 2) O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi;
- 3) O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi;
- 4) O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi;
- 5) O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi;
- 6) O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi;
- 7) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Hidrometeorologiya xizmati markazi;
- 8) O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;
- 9) O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;
- 10) O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi;
- 11) O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi.

Atom energiyasidan foydalanish xavfsizligini davlat tomonidan tartibga solish bo‘yicha alohida vakolatlarga ega bo‘lgan davlat organlari o‘z vakolatlari doirasida:

atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalarni ishlab chiqadi hamda ularni maxsus vakolatli organ bilan kelishilgan holda tasdiqlaydi;

yadroviy qurilmalarni va (yoki) saqlash punktlarini joylashtirish uchun maydonchalarni tanlash to‘g‘risidagi qarorni qabul qilishda ishtirok etadi;

atom energiyasidan foydalanish ob‘ektlarining va (yoki) atom energiyasidan foydalanish sohasidagi faoliyatning xavfsizligini asoslash yuzasidan ekspertizani tashkil qilishda ishtirok etadi;

yadroviy, radiatsiyaviy, sanoat, yong‘inga oid, sanitariya-epidemiologik va ekologik xavfsizlik talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati hamda tekshiruvini amalga oshiradi;

atom energiyasidan foydalanish ob‘ektlarining jisman himoya qilinishi, shuningdek davlat boshqaruvi organlarining va boshqa yuridik shaxslarning avariya o‘ld shayligi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi.



Energetika sohasida atrof muhitni muhofaza qilishga oid ayrim ekologik talablar ekologiya sohasidagi boshqa qonun hujjatlarida ham o‘z aksini topgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2009 yil 30 sentyabdagi “Elektr energetikasi to‘g‘risida”gi Qonuni elektr energetikasi tizimining xavfsizligini, yoqilg‘i-energetika resurslaridan oqilona foydalanishni, elektr energetikasi ob‘ektlarini qurish, ishga tushirish va foydalanishdan chiqarish tartibini, elektr energetikasi ob‘ektlaridan foydalanishni tashkil etishi ustidan texnik va texnologik nazoratni amalga oshirishni, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish chora-tadbirlarining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etishni, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik oqibatlariga olib kelishi mumkin bo‘lgan iste‘molchi yuridik shaxslarga nisbatan elektr energiyasi iste‘molini cheklash kabi muhim masalalar tartibga solingan.

O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 25 apreldagi “Energiyadan oqilona foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni esa, yuridik va jismoniy shaxslarning yoqilg‘i qazib olish, yoqilg‘i, issiqlik va elektr energiyasi hosil qilish, ularni qayta ishlash, saqlash, tashish, taqsimlash va sarflash bilan bog‘liq faoliyatini tartibga soladi. Mazkur qonun energiya hosil qilish va uni sarflash chog‘ida energiyadan samarali va ekologik jihatdan xavfsiz foydalanilishini ta‘minlash, energiya jihatidan samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishni, arzonroq neft mahsulotlari, tabiiy gaz, ko‘mir va boshqa turdagi tabiiy yoqilg‘ilarni qazib olish va hosil qilishni rag‘batlantirish; energiya hosil qilish va uni sarflash miqdori hamda sifatini o‘lchash va hisobga olishning aniq, to‘g‘ri, bir xil bo‘lishini ta‘minlash; energiyaning samarali hosil qilinishi va sarflanishi hamda uning sifati ustidan, energetika asbob-uskunalarining, energiya bilan ta‘minlash va energiyani sarflash tizimlarining texnikaviy holati ustidan davlat tekshiruvi hamda nazoratini amalga oshirishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 27 dekabrda “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni 24-moddasida korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlaridan biri sifatida energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, yoqilg‘i-energetika resurslarini tejash, ekologik jihatdan toza energiya manbalaridan foydalanish chora-tadbirlarini ko‘rish ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 6 maydagi “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni XIV bobida (56-59-moddalar) ham suv ob‘ektlaridan sanoat maqsadlarida va energetika ehtiyojlari uchun

foydalanishga oid ekologik talablar belgilangan. Xususan, 59-moddasi suv ob'ektlaridan gidroenergetika ehtiyojlari uchun foydalanish tartibini belgilaydi. Unga muvofiq, suv ob'ektlaridan gidroenergetika ehtiyojlari uchun foydalanish iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari manfaatlari hisobga olinib, qishloq va suv xo'jaligi organlari bilan kelishilgan holda, shuningdek, agar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida, tegishli hollarda esa, qishloq va suv xo'jaligi hamda tabiatni muhofaza qilish organlarining qarorida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, suvlardan kompleks va oqilona foydalanish talablariga rioya qilingan holda amalga oshiriladi. Gidroenergetika korxonalarini: suv ob'ektlarining foydalanish qoidalarida belgilangan ish rejimiga, shu jumladan suv omborlarini to'ldirish va ishga tushirish, ulardan suv chiqarish hamda suvning yuqori va quyi sathi o'zgarishining rejimiga rioya etishi; sanitariya va tabiat muhofazasi maqsadlarida suv omborlaridan suv chiqarib turilishini ta'minlashi shart.

Qonunda maxsus vakolatli davlat organlari huquqiy maqomi, ularning vakolatlari, elektr energiyasini hosil qilish, uzatish, taqsimlash, sotish va iste'mol qilish masalalari alohida boblarda o'z ifodasini topgan, elektr energiyasi iste'molchilarining huquq va majburiyatlari belgilab berilgan. Ilk bor qonun yo'li bilan iste'molchilarga elektr energiyasi uzatishni to'xtatish qoidalari belgilab berilgan. Unga ko'ra, hududiy elektr tarmoqlari korxonasi yoki uning elektr ta'minoti korxonasi tegishli shartnomada belgilangan rejim buzilganda, hududiy elektr tarmoqlariga elektr qurilmalari o'zboshimchalik bilan ulanganda, elektr energiyasini hisobga olish asboblariga qasddan shikast yetkazilganda yoki hisobga olish asboblarining ko'rsatkichlari o'zgartirilganda, foydalanilgan elektr energiyasi uchun elektr ta'minoti shartnomasida belgilangan muddatlarda haq to'lanmaganda iste'molchiga elektr energiyasi uzatishni belgilangan tartibda to'xtatishi mumkin.

## **KAZUSLAR**

1. "Zarafshonneftgaz" qo'shma korxonasi Vazirlar Mahkamasiga foydali qazilmalarni kavlab olish bilan bog'liq bo'lmagan yer osti inshootlarini qurish va ulardan foydalanish uchun ruxsatnoma berish to'g'risida murojaat qilgan. Vazirlar Mahkamasini "Zarafshonneftgaz" qo'shma korxonasi murojaatini qanoatlantirib, unga 5 yilga ruxsat berdi. Oradan 1 yil o'tgach "Zarafshonneftgaz" qo'shma korxonasi Vazirlar Mahkamasini sudga berib, ularga berilgan ruxsatnoma qonuga zid ravishda berilganligini vaj qildi.

- Aytingchi, Vazirlar Mahkamasini ustidan sudga da'vo arizasi bilan murojaat etish mumkinmi?
- Agar mumkin bo'lsa bu holda sud qanday qaror qabul qiladi?
- “Zarafshonneftgaz” qo'shma korxonasi qaysi qonun hujjatiga asosan o'z talabini keltirgan va Vazirlar Mahkamasini qaysi xatti-harakatini qonunga zid deb keltirmoqda?

2. Surxondaryo viloyati ekologiya va atrof muhofaza qilish qo'mitasi mansabdor shaxslari “Surxon-gidro-ingeo” MCHJni qurilish ishlarini to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilgan.

Surxondaryo viloyati tabiatni muhofaza qilish qo'mitasining xulosasiga ko'ra, “Surxon-gidro-ingeo” MCHJ o'z qurilish ishlarini loyihasini atrof tabiiy muhitga, xususan suvlarga ta'sir ko'rsatayotganligini inobatga olib, o'z faoliyatini Surxondaryo viloyati tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi bilan kelishi kerak edi.

Ammo, “Surxon-gidro-ingeo” MCHJ, Surxondaryo viloyati ekologiya va atrof muhofaza qilish qo'mitasi qarorini amaldagi qonunchilikka zid ravishda chiqarilgan deb sudga uni bekor qilish to'g'risida da'vo arizasi bilan murojaat qilgan.

- Sud bu holda qanday qaror qabul qiladi?
- Surxondaryo viloyati tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi o'z qarorini qaysi qonun hujjatiga asosan chiqargan?
- “Surxon-gidro-ingeo” MCHJ o'z da'vo arizasida qaysi qonun hujjatiga asosan vaj keltirgan?

3. Ekologiya va atrof muhofaza qilish raisi atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning dolzarb masalalarini muhokama qilish hamda tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish maqsadida Qishloq xo'jaligi vaziri, Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi raisiga yozma ravishda murojaat etib, majlisga taklif etadi. Ko'rsatilgan vazirlik, qo'mita rahbarlari majlisga o'zlari kelmay, boshqarma boshliqlarini yubordilar.

- Ushbu rahbarlarning harakatlari qonuniymi?
- Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisining huquq va majburiyatlari qaysi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan?

## TEST

1. Energetika huquqining tamoyillarini quyidagi tizimga bo'lishimiz mumkin?

A) Davlat va huquqning umumiy tamoyillari va maxsus tamoyillar.

B) Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga oid tamoyillari, Tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan tamoyillar.

V) Qonuniylik, ijtimoiy adolat, oshkoralik, ishontirish va majburlov choralarining hamkorligi, shaxslarning huquq va burchlarining birligi va boshqalar.

G) Barcha javob tugʻri

2. Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlarini belgilash qaysi davlat organi vakolati hisoblanadi?

A) Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

B) Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati

V) Tabiatni muhofaza qilish davlat qoʻmitasi

G) mahalliy davlat hokimiyati organlari

3. Ekologik ekspertiza qaysi davlat organi tomonidan oʻtkaziladi?

A) Yer resurslari davlat qoʻmitasi

B) Sanoatda va konchilikda ishlarni bexatar olib borish qoʻmitasi

V) Ekologiya va atrof muhofaza qilish davlat qoʻmitasi

G) Ichki ishlar vazirligi

4. Xitoy va Hindiston kabi ayrim mamlakatlarda esa barpo etilayotgan fotoelektr stansiyalarda bir kilovatt-soat elektr energiyasi tannarxini ... ga qadar tushirish vazifasi qoʻyilayotibdi.

A) 11-12 sent B) 8-9 sent V) 35 sent G) Toʻgʻri javob yoʻq.

5. Energetik huquq predmeti boʻlib.....?

A) xususiy va ommaviy huquq subʼektlarini energetik resurslarni qidirish (qidirish)

B) qazib olish, ishlab chiqarish

V) qayta ishlash, saqlash, taransport qilish taqsimlash, sotish va isteʼmol qilishni bilan bogʻliq xoʻjalik, investitsion va tartibga solish.

G) Barcha javoblar toʻgʻri

6. Elektr energetikasi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlari quyidagilardan iborat: 1. Oʻzbekiston Respublikasining elektr energetika xavfsizligini taʼminlash, yagona elektr energetikasi tizimining xavfsiz va ishonchli ishlab turishini taʼminlash, isteʼmolchilarning elektr energiyasiga boʻlgan ehtiyojlarini qanoatlantirish 2. Isteʼmolchilarning hududiy elektr tarmoqlaridan teng foydalanishini taʼminlash, energiya hosil qiluvchi quvvatlarni va elektr tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash, rivojlantirish jarayonlariga investitsiyalar jalb qilish 3. Elektr energiyasini hosil qilish,

uzatish va sotish bo'yicha boshqaruv hamda xo'jalik aloqalari tizimiga bozor prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish 4. Elektr energiyasi sohasida xo'jalik aloqalari ta'minlamaslik. 5. elektr energetikasining mutanosib rivojlanishini ta'minlash, elektr energiyasidan va yoqilg'i-energetika resurslaridan oqilona foydalanish

A) 1, 2, 3. B) 1, 2, 3, 4, 5. V) 1, 2, 3, 5, G) 1, 4, 5.

7. O'zbekiston Respublikasining "Elektr energetikasi to'g'risida"gi qonunda elektr energetikasi sohasida davlat tomonidan tartibga solishni o'z vakolatlari ... amalga oshiradi.

A) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi B) Qonun hujjatlarida belgilanadigan elektr energetikasi sohasidagi maxsus vakolatli organ V) Qonun hujjatlarida belgilanadigan elektr energetikasi sohasidagi davlat nazorati organi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari. G) Barcha javoblar to'g'ri.

8. "Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi normativ-huquqiy hujjat nomi va qabul qilingan yili ?

A) Qaror, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2020 yil B) Qaror, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 2002 yil V) Qonun, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis, 2003 yil G) Farmoyish, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2013 yil

9. «O'zbekiston Respublikasi energetikasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish to'g'risida»gi normativ-huquqiy hujjatda bellgilangan ustuvor yo'nalishlari sifatida...

10. Energetika tarmoqlarini monopoliyadan chiqarish tadbirlarini amalga oshirish 2. Sohani davlat tomonidan tartibga solish darajasini kamaytirish 3. Elektr energiyasini sotish sohasida raqobat muhitini yaratmaslik 4. Xo'jalik yurituvchi subektlarning elektr uzatish liniyalariga bog'lanishi uchun teng imkoniyat va shart-sharoit yaratish 5. Energetika tarmog'ining yirik korxonalarini aksiyalashtirish 6. Elektr energetikasi sohasiga xizmat qiluvchi qo'shimcha va ijtimoiy sohaga oid korxonalar, tashkilotlarni xususiyashtirish 7. Chet el investitsiyalarini keng jalb qilish hamda elektr energiyasi hosil qilish, uzatish va sotish bo'yicha boshqaruv tizimiga bozor tamoyillarini tatbiq qilish A) 1, 2, 3, 6 B) 1, 2, 4, 5, 6, 7 V) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7 G) 1, 2, 4, 5, 6, 7



## NAZARIY SAVOLLAR

1. Elektr energetikasi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlarida Oʻzbekiston Respublikasining elektr energetika xavfsizligini taʼminlash, yagona elektr energetikasi tizimining xavfsiz va ishonchli ishlab turishini taʼminlash, isteʼmolchilarning elektr energiyasiga boʻlgan ehtiyojlarini qanoatlantirish, isteʼmolchilarning hududiy elektr tarmoqlaridan teng foydalanishini taʼminlash muhim ahamiyatga ega boʻlib hisoblanadi.

Yana qanday masalalar elektr energetikasi sohasida davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlari sifatida qaraladi?

2. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlari nimalardan iborat ?

3. Gaz manbalaridan foydalanish va taqsimlash tizimida davlat siyosati ?

4. Koʻmir sanoatini boshqarishda davlat siyosati va qonunchilikni takomillashtirish sohasida qanday chora tadbirlar amalga oshirildi?

5. Atom energiyasidan foydalanish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlari quyidagilardan iborat?

## **4-mavzu: ENERGETIKA SOHASIDA SHARTNOMAVIY MUNOSABATLAR**

### **4.1. Energiya ta'minoti shartnomasi va uning o'ziga xos xususiyatlari**

Mamlakatimizda o'tkazilayotgan islohotlar natijasida xilma-xil mulk shakllariga asoslangan iqtisodiy tizim vujudga kelmoqda. Xususiyl mulkning konstitutsion darajada tan olinishi mulkdorlar sinfining vujudga kelishida muhim asos bo'ladi. Ma'lumki, bunday sharoitda faoliyat yuritish shartnomaviy-huquqiy munosabatlarga asoslangan bo'ladi.

Shartnoma deganda, avvalo, nafaqat yuridik fakt, balki moddiy, nomoddiy manfaatlar to'g'risidagi huquqiy munosabat, tomonlarning o'zaro kelishuvini aks ettiruvchi hujjat tushuniladi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi shartnoma bilan bog'liq barcha qoidalarni o'zida mujassamlashtirib, barcha mulkchilik shaklidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga xizmat qilib kelmoqda.

Shartnomalar ichida, energiya ta'minoti shartnomasi o'zining predmetiga ko'ra alohida ahamiyatga ega. Mazkur shartnoma predmeti hisoblangan energiya ham fuqarolik huquqining boshqa ob'ektlaridan o'ziga xos belgilar bilan ajralib turadi. Energiya bilan ta'minlash energiya bilan ta'minlovchi tashkilotga tegishli bo'lgan maxsus vositalar – tutashtirilgan tarmoqlar orqali yetkazib beriladi. Energiya ta'minoti shartnomasiga ko'ra, muayyan simlar, quvurlar (elektr va issiqlik tarmoqlari)ning mavjud bo'lishi va ular umumiy tarmoqqa ulangan bo'lishi shart. Energiya bilan ta'minlash tutashtirilgan tarmoq mavjud bo'lgandagina amalga oshirilishi mumkin.

Energiya o'zida moddiylik xususiyatini namoyon etib, o'zida muayyan moddiylik holati (tok kuchlanishi, suvning hararoti)ni ifoda etadi. Ushbu xususiyatlar insonlar foydali natijalarga erishishini, turli xildagi texnik operatsiyalarni amalga oshirishini ta'minlash, ishlash va dam olish uchun zaruriy sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Energiyaning mavjud bo'lganligi va undan foydalanilganligi ulchov asboblarining ko'rsatkichlarida aks etadi.

Energiya bilan ta'minlovchi tashkilotning mulkdor sifatidagi vakolatlarining asosiysini energiyani tasarruf etish huquqi tashkil etadi. Bu huquq energiyani sotib oluvchi (abonent) larga sotish (uzatish) yoxud boshqa bitimlar (masalan, qarz) tuzish orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga energiya bilan ta'minlovchi tashkilot energiyaning muayyan

miqdoridan o'zining ehtiyojlarini qondirishda foydalanadi. O'zi qabul qilib olayotgan energiyaga egalik qilish, foydalanish va uni tasarruf etish bo'yicha abonentning vakolatlari energiyani amaldagi qoidalar va shartnoma shartlariga rioya qilgan holda, o'ziga tegishli uskunalar ishlashini ta'minlagan holda o'zining xohishiga ko'ra, turli texnologik ehtiyojlar: isitish, issiq suv bilan ta'minlash va shu kabilarga yo'naltirish imkoniyatiga egaligida namoyon bo'ladi.

Jadal rivojlanish shunday darajaga yetib keldiki, bu davrda (XIX-XX) energiya ta'minoti iqtisodiyotni rivojlantirishning zaruriy vositasiga aylandi, chunki bu davrga kelib, mashina va asbob-uskunalar, uy-joylar, qurilish va ishlab chiqarish ob'ektlarining barchasi energiyaga muhtoj bo'lib qoldi. Shunday sharoitlarda iste'molchilarga energiya berib turishni huquqiy jihatdan tartibga soluvchi energiya ta'minoti shartnomasi yuzaga keldi. Energiya ta'minoti shartnomasi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Energiyadan foydalanish o'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 yanvardagi 22-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Elektr energiyasidan foydalanish" va "Tabiiy gazdan foydalanish Qoidalari", Issiqlik energiyasidan foydalanish Qoidalari (O'zR VM 22.08.2009 y. 245-son), Aholi va ijtimoiy soha ob'ektlariga kundalik hayotda foydalanish uchun suyultirilgan uglevodorod gazini yetkazib berish tartibi to'g'risida Nizom (O'zR VM 10.08.2018 y. 646-son) bilan tartibga solinadi.

Umuman olganda, energetika sohasiga oid amaldagi qonunchilikni 2 ta asosiy guruhga ajratish mumkin:

1. ommaviy-huquqiy normalar (ma'muriy-huquqiy normalar);
2. xususiy-huquqiy normalar (fuqaroviy-huquqiy normalar);

Chunki, mazkur sohadagi ijtimoiy munosabatlar davlat yo'li bilan ham, shartnomaviy usulda ham huquqiy tartibga solinadi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 29-bo'lim 6-paragrafi normalari iste'molchilarni elektr energiyasi bilan ta'minlash bilan bog'liq munosabatlarga nisbatan qo'llashga qaratilgan. Fuqarolik kodeksida energiya ta'minoti shartnomasi tushunchasi, energiya ta'minoti shartnomasini tuzish va muddatini uzaytirish, energiya miqdori va energiya ta'minoti shartnomasining energiya miqdori to'g'risidagi shartini buzish oqibatlari, energiya sifati va tarmoqlar, asbob va uskunalarni saqlash va ishlatish bo'yicha abonentning majburiyatlari, energiya haqini to'lash, abonent tomonidan energiyaning boshqa shaxsga berilishi, energiya ta'minoti shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish,

energiya ta'minoti shartnomasi bo'yicha javobgarlik hamda energiya ta'minoti shartnomasi qoidalarini tutashtirilgan tarmoq orqali ta'minlash borasidagi boshqa munosabatlarga nisbatan qo'llash masalalariga oid normalar belgilangan.

Aksariyat huquqiy adabiyotlarda energiya ta'minoti shartnomasining alohida shartnoma turi sifatida ajralib chiqishi mazkur shartnomaning o'ziga xos ob'ekti energiya va uni uzatish usuli tutashtirilgan tarmoq orqali yuborilishi bilan bevosita bog'liq, deb ko'rsatilgan. Energiyani tutashtirilgan tarmoq orqali ta'minlash shartnoma bo'yicha majburiyatni bajarishning texnik xususiyati, ya'ni shartnomani bajarish usuli hisoblanib, bu fuqarolik huquqiy shartnomaning bir turi sifatida ajratish uchun alohida belgi bo'lib hisoblanmaydi. Bu borada energiya ta'minoti shartnomasini oldi-sotdi shartnomasining alohida turi sifatida ajratib ko'rsatish asosi—bu shartnomaning ob'ekti bo'lgan energiyaning o'ziga xosligidan kelib chiqadi, degan fikr tarafdorlariga qo'shilish mumkin. Aynan ob'ektning o'ziga xosligi tutashtirilgan tarmoq orqali energiya bilan ta'minlashga oid munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus normalarni talab etadi. Ommaviy shartnoma sifatida mazkur shartnoma energiya iste'molchilarining barchasi bilan tuziladi, biroq bunda ayrim shart-sharoitlar hisobga olinishi lozim. Ular, eng avvalo, shartnoma predmeti — ishlab chiqirish jarayoni iste'mol bilan chambarchas bog'liq bo'lgan energiyaning quyidagi xususiyatlari va tabiiy xossalaridan kelib chiqadi: energiyani jamlash va muayyan miqdorda saqlab turish mumkin emas; energiyani iste'mol qilinishi uni olish bilan bir vaqtda sodir bo'ladi, shuningdek, olingan energiyani qaytarib bo'lmaydi; energiya ishlab chiqarish jarayoni uzluksiz bo'lib hisoblanadi; energiyani transportirovka qilish faqat tutashtirilgan tarmoq orqali amalga oshiriladi.

Energiya ta'minoti shartnomasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri mazkur shartnomada iste'molchining (abonentning) bir necha qo'shimcha majburiyatlari belgilanadi: shartnomada nazarda tutilgan energiya iste'mol qilish tartibiga rioya etish; tasarrufidagi energetika shoxobchalaridan foydalanish xavfsizligini ta'minlash; o'zi foydalanadigan energiya iste'mol qiluvchi asbob va uskunalarning sozligini ta'minlash.

Hududiy elektr tarmoqlari korxonalarini elektr energiyasini iste'molchilarga taqsimlash va sotishni amalga oshiradi. Buning uchun elektr energiyasining yagona xarid qiluvchisidan shartnoma asosida elektr energiyasini oladi. Elektr energiyasining yagona xarid qiluvchisi elektr

energetikasi sohasidagi maxsus vakolatli organning bo‘linmasi bo‘lib, energiyasini hosil qiluvchi (ishlab chiqaruvchi) korxonalar bilan elektr energiyasini xarid qilish bo‘yicha, elektr energiyasini hududiy elektr tarmoqlari korxonalariga sotish bo‘yicha shartnomalar tuzadi. Mantiqan xulosa qilsak, predmeti energiya bo‘lgan elektr energiyasini hosil qiluvchi va elektr energiyasini yagona xarid qiluvchisi o‘rtasidagi, elektr energiyasini yagona xarid qiluvchi va hududiy elektr tarmoqlari korxonalari o‘rtasida tuziladigan mazkur shartnomalarda “energiya bilan ta‘minlovchi tashkilot” va “abonent”, “iste‘molchi” sifatida qaysi tarafni belgilashdagi noaniqlik shartnoma bo‘yicha javobgarlik masalalari yuzaga kelganda qonunni qo‘llash amaliyotida ayrim muammolarni keltirib chiqaradi.

Shuningdek, energiya bilan ta‘minlovchi tashkilotning energiya yetkazib berish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tabiiy monopoliya sub‘ekti ekanligi tufayli shartnomaning muayyan shartlari (masalan, energiya bilan ta‘minlovchi tashkilot bilan tuzilgan shartnomaviy munosabatlarda iste‘molchilar huquqi bilan bog‘liq masalalar, xususan, energiyaning miqdori, bahosi bilan bog‘liq masalalar) davlat tomonidan tartibga solinishi, energiya ta‘minotini shartnomaviy huquqiy tartibga solish belgilangani holda, qonunchilikda fuqarolik kodeksiga nisbatan qonun va boshqa qonunosti hujjatlarining ustunligi tadbirkorlarning shartnoma tuzish erkinligi prinsipi bilan bevosita bog‘liq ayrim muammoli holatlarni keltirib chiqaradi.

#### **4.2 Energiya ta‘minoti shartnomasining predmeti**

Energiya huquqiy maqomida uning shartnomali munosabatlar predmeti bo‘lib mavjud bo‘lishi ham diqqatga sazovordir. Aytaylik, yer osti boyliklarining foydalanishga jalb qilinmagan zaxiralarini xo‘jalik shartnomasisiz tassavvur qilish mumkin, biroq hosil bo‘lgan energiya o‘ziga nisbatan xo‘jalik shartnomasini tuzishni talab etadi.

“Elektr energiyasidan foydalanish” qoidalariga muvofiq, abonent va energiya ta‘minoti tashkiloti o‘rtasidagi shartnomada quyidagilar nazarda tutiladi:

- shartnoma predmeti;
- iste‘mol qilishning belgilangan rejimlariga rioya qilishning va elektr energiyasi sifati ko‘rsatkichlarini kelishishning majburiyligi;
- tarmoqlar va energiya uskunalarning balans bo‘yicha mansublik chegaralari;



- elektr energiyasi uchun haq to'lash bo'yicha iste'molchilarning tarif guruhlari;

- iste'molchining tasarrufidagi tarmoqlar va energiya uskunalaridan, hisobga olish priborlaridan foydalanishning xavfsizligini va ularning sozligini hamda energiya ta'minotining ishonchliligini ta'minlash;

-subabonentlarni abonentning tarmog'iga ulash (iste'molchining nomi, quvvati, hisobga olish priborlari, tariflar va boshqa ma'lumotlar);

- alohida shartlar;

- ahdlashuvchi tomonlarning javobgarligi;

- nizolarni hal etish tartibi;

- tomonlarning rekvizitlari.

Energiya bilan ta'minlovchi tashkilot eng asosiy majburiyati tutashtirilgan tarmoq orqali energiyani berib turish hisoblanadi. Shu bilan birga energiya bilan ta'minlovchi tashkilot energiyani energiya ta'minoti shartnomasida nazarda tutilgan miqdorda va taraflar kelishgan energiya berish tartibiga amal qilgan holda berish turishi lozim. Energiyaning miqdori o'lchov asboblari ko'rsatkichlari bilan aniqlanadi. energiyasi "kilovatt"da hisoblansa, energiya ta'minlovch bergan va abonent qabul qilgan gazning miqdor "kubometr"da aniqlanadi.

Energiya bilan ta'minlovchi tashkilot tutashtirilgan tarmoq orqali abonentga energiya ta'minoti shartnomasida nazarda tutilgan miqdorda va taraflar kelishgan energiya berish tartibiga amal qilgan holda energiya berishi lozim. Energiya bilan ta'minlovchi tashkilot bergan va abonent qabul qilgan energiya miqdori o'lchov asboblari ko'rsatkichlari bilan aniqlanadi.

Qonun hujjatlarida energiya bilan ta'minlovchi tashkilotning majburiyatlari aniq belgilab quyilgan. Masalan "Issiqlik energiyasidan foydalanish" Qoidalariga muvofiq, issiqlik ta'minoti tashkiloti quyidagilarga majbur:

- shartnomaga muvofiq iste'molchiga issiqlik energiyasi uzluksiz berilishini ta'minlash, issiqlik manbai kollektorlaridan berilayotgan issiqlik manbalari parametrlarining (bug' va issiq suv) shartnomaga muvofiqligini ta'minlash, ularning:

- bug' bo'yicha (bosim va harorat) - (Q) 5 foizga;

- issiqlik beruvchi quvurda suv harorati bo'yicha - (Q) 3 foizga;  
suv bosimi bo'yicha:

- issiqlik beruvchi quvurda - (Q) 5 foizga;

- orqaga qaytadigan quvurda - (Q) 20 kPa chetga chiqishiga yo'l qo'ymaslik;

- issiqlik to'liq yetkazib berilmaganligi to'g'risida iste'molchilarning yozma arizalarini iste'molchilardan ariza olingan kundan boshlab 10 kun muddatda ko'rib chiqish;

- issiqlik ta'minoti tashkilotining aybi bilan texnologik maqsadlardagi to'liq yetkazib berilmagan energiya qiymatini qoplash. To'liq yetkazib berilmagan energiya hajmi iste'molchining vakili ishtirokida issiqlik ta'minoti tashkiloti tomonidan aniqlanadi va dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Energiya ta'minoti shartnomasida abonentning o'zi qabul qiladigan energiyaning shartnomada belgilangan miqdorini energiya bilan ta'minlovchi tashkilotning energiyani shartnomada belgilanmagan miqdorda berishni ta'minlash bilan bog'liq xarajatlarini qoplash sharti bilan o'zgartirish huquqi nazarda tutilishi mumkin.

Energiyadan turmushda foydalanadigan fuqaro energiya ta'minoti shartnomasiga muvofiq abonent bo'lgan taqdirda u energiyadan o'zi uchun zarur bo'lgan miqdorda foydalanishga haqli.

Energiya bilan ta'minlovchi tashkilot beradigan energiyaning sifati standartlashtirish bo'yicha qonun hujjatlarida yoki energiya ta'minoti shartnomasida belgilangan talablarga javob berishi lozim.

Energiya ta'minoti shartnomasiga muvofiq, abonentga quyidagi majburiyatlar yuklatiladi:

1. Energiya bilan ta'minlovchi tashkilot bergan energiya haqini o'z vaqtda to'lash;

2. Shartnomada nazarda tutilgan energiya iste'mol qilish tartibiga rioya etish;

3. Tasarrufidagi energetika shoxobchalaridan foydalanish xavfsizligini ta'minlash;

4. O'zi foydalanadigan energiya iste'mol qiluvchi asbob va uskunalarning sozligini ta'minlash.

Abonent ishlatilayotgan energetika tarmoqlari, asbob va uskunalarning zarur texnikaviy holati va xavfsizligini ta'minlashi, energiya ishlatishning belgilangan tartibiga amal qilishi, shuningdek avariya, yong'inlar, energiyani o'lchash asboblaridagi nosozliklar va energiyadan foydalanish paytida kelib chiqadigan boshqa buzilishlar to'g'risida energiya bilan ta'minlovchi tashkilotga darhol xabar berishi lozim.

Energiya ta'minoti shartnomasiga muvofiq energiyadan turmushda foydalanadigan fuqaro abonent bo'lgan taqdirda, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, energetika tarmoqlari, shuningdek

energiya iste'molini hisobga olish asboblarning zarur texnik holati va xavfsizligini ta'minlash majburiyati energiya bilan ta'minlovchi tashkilot zimmasiga yuklatiladi.

Energiya yetkazib berish shartnomasi shartlarini buzgan energiya yetkazib beruvchi nafaqat real zararni, balki boy berilgan foydani ham to'laydi.

Agar energiya berishdagi uzilishlar quvvat va energiya yetishmasligi sababli energiya bilan ta'minlovchi tashkilot tomonidan qonun hujjatlari asosida iste'molni tartibga solish natijasida yuz bergan bo'lsa, energiya bilan ta'minlovchi tashkilot aybdor bo'lgan taqdirdagina shartnoma majburiyatlarini bajarmagani yoki tegishli darajada bajarmagani uchun javob beradi.

Energiya berishdagi uzilishlarga, energiya berishni to'xtatish yoki cheklashga taraflar kelishuviga muvofiq yo'l qo'yiladi, abonentga qarashli energetika qurilmalarining qoniqarsiz ahvoli avariya xavfini keltirib chiqarishi mumkinligi yoki fuqarolar hayoti va xavfsizligiga tahdid tug'dirayotgani davlat energetika nazorati organi tomonidan tasdiqlangan hollar bundan mustasno. Energiya bilan ta'minlovchi tashkilot abonentni energiya berishdagi uzilishlar, energiya berishni to'xtatish yoki cheklash to'g'risida ogohlantirishi lozim.

Abonent bilan kelishmasdan va uni ogohlantirmasdan, biroq unga darhol xabar bergan holda energiya berishni vaqtincha uzib qo'yish, to'xtatish yoki cheklashga energiya bilan ta'minlovchi tashkilot tizimida avariyaning oldini olish yoki uni tugatish uchun kechiktirib bo'lmaydigan choralarni ko'rish zarur bo'lgan hollarda yo'l qo'yiladi.

Energiya ta'minoti shartnomasiga muvofiq energiyadan turmushda foydalanadigan fuqaro abonent bo'lgan taqdirda u energiya bilan ta'minlovchi tashkilotga ma'lum qilish va foydalanilgan energiya haqini to'liq to'lash sharti bilan shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

Energiya ta'minoti shartnomasiga muvofiq energiyadan turmushda foydalanadigan fuqaro abonent bo'lgan taqdirda abonent o'zi foydalangan energiya haqini to'lamagani tufayli energiya bilan ta'minlovchi tashkilot shartnomani bajarishdan bir tomonlama bosh tortish huquqiga ega, bunda u shartnomani bajarishdan bosh tortishdan kamida bir oy oldin abonentni bu haqda ogohlantirishi lozim.

Energiya ta'minoti shartnomasiga muvofiq yuridik shaxs abonent bo'lgan hollarda energiya bilan ta'minlovchi tashkilot abonent shartnomani jiddiy buzgan taqdirda shartnomani bajarishdan bir

tomonlama bosh tortishga haqli, qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan hollar bundan mustasno.

### **4.3 Energiya iste'moli va energiya ishlab chiqaruvchilar**

Energiya ob'ekti (elektr toki, iste'molga mo'ljallangan gaz, issiq suv va shu kabilar) hosil qilindi, ishlab chiqildi. Bunda energiyaning qanday manbalardan, ya'ni an'anaviy manbalar (gidro elektr stansiyalari, toshko'mir yoki boshqa odatdagi manbalar) yoki muboqil manbalar (quyosh, shamol vositasida yoxud boshqa yangi texnologik usullar)dar hosil qilinganligidan qat'iy nazar muomalaga kiritish boshqacha aytganda iste'mol qilish zarurati yuzaga keladi. Zero, har qanday energiya ham iste'mol maqsadlari uchun ishlab chiqiladi. Energiyani iste'mol qilish uchun esa energiya ishlab chiqaruvchilari – energiya ta'minotchilari o'zlari ishlab chiqargan energiya manbalarini - iste'molchilarga yetkazib berishlari (berib turishlari) zarur. Bu jarayonsiz energiya munosabatlarni tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki, energiyaning ishlab chiqishdan maqsad ham aynan undan ishlab chiqarish, xo'jalik va maishiy maqsadlarda foydalanish hisoblanadi. Shu bois mazkur jarayonni huquqiy tartibga solish bozor munosabatlari sharoitida alohida o'rin tutadi.

Ta'kidlash lozimki, huquqshunoslikda ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning ikki usuli: normativ-huquqiy hujjatlar vositasida tartibga solish va shartnomalar vositasida tartibga solish ajratiladi. Shartnomaviy tartibga solish tegishli munosabatlarni dispozitivlik tamoyilidan kelib chiqib, taraflarning o'z xatti-harakatlarini oldindan belgilangan shartlar asosida tartibga solishlarini anglatadi. Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy munosabatlarda, xususan, bir taraf tomonidan yaratilgan mahsulotni, tovarni ikkinchi tomonga haq evaziga yetkazib berishni shartnomalar orqali tartibga solish maqbul va ishonchli huquqiy tartibga solish vositasi sifatida qaraladi. Shu sababli bugungi kunda o'ziga xos yangi ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi sifatida namoyon bo'lib borayotgan energiya munosabatlarini shartnomaviy-huquqiy tartibga solish masalalari ham o'ziga xos dolzarflik kasb etadi.

Energiya munosabatlarini shartnomaviy tartibga solish – mazkur munosabatlar sub'ektlarining energiyadan foydalanish borasidagi vakolatlarini belgilash, energiya ob'ektlarini muomalaga kiritish asoslari va tartibini o'rnatish hamda ushbu munosabatlar sub'ektlarining huquq va majburiyatlarini buzganlik uchun javobgarlik masalalarini qamrab oladi.

Hozirda energiya ishlab chiqaruvchi ob'ektlarni qurish va ularni ishga tushirish munosabatlari, energiya liniyalari va tarmoqlarini qurib abonent bilan ta'minotchini bog'lash munosabatlari pudrat va xizmat ko'rsatish shartnomalari bilan tartibga solinmoqda. Biroq bu holatda mazkur qurilishlar energiya munosabatlariga qaratilganligi e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Bunda energiyani abonentga berib turishda yangi liniyalar va tarmoqlarni qurib ishga tushirishda energiyadan foydalanuvchilarning manfaatlarini ta'minlanishi muhimdir.

Yuqorida ta'kidlanganidek, energiya munosabatlarini shartnomaviy-huquqiy tartibga solishda energiya ta'minoti shartnomasi asosiy va markaziy o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 468-moddasiga ko'ra, energiya ta'minoti shartnomasiga muvofiq energiya bilan ta'minlovchi tashkilot tutashtirilgan tarmoq orqali abonentga (iste'molchiga) energiya berib turish majburiyatini oladi, abonent esa qabul qilingan energiya haqini to'lash, shuningdek shartnomada nazarda tutilgan energiya iste'mol qilish tartibiga rioya etish, tasarrufidagi energetika shoxobchalaridan foydalanish xavfsizligini hamda o'zi foydalanadigan energiya iste'mol qiluvchi asbob va uskunalarning sozligini ta'minlash majburiyatini oladi.

Amaldagi qonunchilik va milliy sivilistika mazkur shartnomani oldi-sotdi shartnomasining alohida turi sifatida qaraydi. Buning asosiy sababi bu shartnomaning maqsadi – mol-mulk (ashyo, moddiy ne'mat)ni bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tkazishga qaratilganligi hisoblanadi. Chunki, mazkur shartnomaga ko'ra, energiya bilan ta'minlovchi tashkilot energiya abonentga berib turadi. Mazkur shartnoma predmeti va tovarni topshirish usuli (bunda tovarni topshirish usuli ustuvorlikka ega) nuqtia nazardan oldi-sotdi shartnomalari guruhida alohida va mustaqil shartnoma sifatida e'tirof etiladi.

Biroq mazkur shartnoma bir qator o'ziga xos xususiyatlari bilan oldi-sotdi shartnomasining boshqa turlaridan farq qiladi. Bunday xususiyatlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

Shartnoma ob'ekti – energiya (elektr toki, gaz, issiq suv) o'ziga xosligi, odatdagi usulda foydalanish va egallashning imkoni mavjud emasligi hamda xavfliligi jihatidan oldi-sotdining boshqa turlaridan farq qiladi.

Yetkazib berish (berib turish) usuli – tutashtirilgan tarmoq orqali amalga oshiriladi. Shu o'rinda energiya va uning turlari tutashtirilgan tarmoq orqali emas, balki an'anaviy usulda maxsus vositalar, moslamalar va idishlar orqali oldi-sotdi qilinishini ham esdan chiqarmaslik lozim.



Masalan, maishiy iste'mol uchun maxsus ballonlarda gaz sotilishi, avtomobillarga gaz qo'yib berilishi (propan, metan)da ham energiya fuqarolik muomalasiga kiritiladi. Biroq bunda tovarni sotib oluvchiga topshirish usuli odatdagi oldi-sotdi munosabatlariga xos bo'lgan umumiy qoidalarga asosan amalga oshirilganligi sababli, energiyani bunday usulda sotilishi oldi-sotdining umumiy qoidalari asosida tartibga solinadi. Bunday farqli ravishda tutashtirilgan tarmoq orqali energiyani sotish munosabatlari – FKdagi alohida va mustaqil energiya ta'minoti shartnomasi orqali tartibga solinadi. Ta'kidlash lozimki, “tutashtirilgan tarmoq” – energiyani ishlab chiqaruvchi – energiya bilan ta'minlovchi va abonentni bevosita bog'laydigan uskunalar – gaz va issiq suv quvurlari, elektr toki simlaridan iborat bo'ladi.

Abonentga nisbatan sotib olingan (qabul qilingan) energiyadan foydalanish (iste'mol qilish) tartibiga rioya etish majburiyati – bunday majburiyat oldi-sotdining boshqa turlarida qo'llanilmaydi. Darhaqiqat, energiyadan foydalanish uchun abonent ma'lum ma'noda fizika, kimyo va xavfsizlik qoidalaridan xabardor bo'lmog'i zarur. Albatta, bunday ma'lumotlar umumiy ta'lim maktablarida dars mashg'ulotlarida o'tiladi va barcha abonentlar uni biladilar, deb hisoblanadi. Bundan tashqari, abonent bilan shartnoma tuzilganda unga ilova sifatida energiyadan foydalanish qoidalari ilova qilinadiki, mazkur ilovalarda ham energiyaning tegishli turidan foydalanish haqida ma'lumotlar mavjud bo'ladi.

Ommaviyligi (asosan fuqaro abonent bo'lganda), ayni paytda fuqaro abonent bo'lgan qo'shilish shartnomasi ham hisoblanishi. Sivilistikada, mazkur shartnomaning ommaviyligi xususida muayyan bahs va munozaralar mavjud. Ko'plab huquqshunos olimlar bu shartnoma abonent fuqaro bo'lgandagina ommaviydir, degan fikrni bildirishadi va o'z fikrlarini asosi sifatida yuridik shaxslar bilan ta'minlovchi tashkilot shartnoma tuzishga majbur emas, buning uchun yuridik shaxs tegishli tartibda limitga ega bo'lmog'i zarurligini bildirishadi. Ularning e'tiroficha, elektr energiyasi avvalo fuqarolarning maishiy ehtiyoji, ular turmushining farovonligi uchun xizmat qilmog'i zarur. Yuridik shaxslar bilan energiya ta'minoti shartnomasi esa alohida shartlar va tartibda, ular foydalanidan energiyaning turi va sifatidan kelib chiqadi.

Energiya ta'minoti munosabatida asosiy masalalardan biri shartnomaning namunaviy shakli asosida abonentlar bilan shartnoma tuzish hisoblanadi. Biroq bunda shartnomada taraflarning barcha huquq va majburiyatlari kiritilmaydi. Ko'p hollarda energiya bilan ta'minlashda

elektr energiyasini uzib qo'yish va cheklash bilan bog'liq holatlar tegishli qonun osti hujjatlariga havo qilish orqali shartnomada belgilanadiki, bunda abonentlar energiya uzish yoki cheklash holatlari xususida tasavvurga ega bo'lmagan holda shartnomani imzolaydilar.

FKning 477-moddasida belgilangan energiya bilan ta'minlovchilarning kuchaytirilgan mulkiy javobgarligi bugungi bozor qonuniyatlari hamda shartnomaviy munosabatlarda taraflarning tengligi tamoyilidan kelib chiqadi. Biroq FKning 477-moddasida abonentga zarar yetkazish belgilangan tartib va jadvallar asosida cheklash va uzilishlar natijasida yuz berishganda cheklangan javobgarlik, ya'ni real zararni qoplash nazarda tutilganligini esdan chiqarmaslik lozim.

Hozirda energiya munosabatlarini shartnomaviy-huquqiy tartibga solishda muayyan amaliy muammolar yuzaga kelayotganligi e'tirof etish lozim. Bunda shartnoma yuzasidan sifati lozim darajada bo'lmagan energiya yetkazib berish yoki miqdor jihatidan kam bo'lgan energiya yetkazib berish, tadbirkorlik sub'ektlari bilan energiya ta'minoti shartnomalarini tuzishni asossiz rad etish holatlari uchraydi. Masalan, muammolardan biri sifatida yangi qurilayotgan ob'ektlar va uy-joylarni tarmoqqa ulashda energiyaning quvvati yetmayotganligi bunda, energiya bilan ta'minlovchi tashkilot liniyalar va tarmoqlarning qancha abonentga mo'ljallanganligi hisobga olinmayotganligi.

Shuningdek, energiya munosabatlarni shartnomaviy tartibga solishda tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatdan o'tkazishda yangi tashkil topayotgan tadbirkorlik sub'ektlariga o'zi uchun alohida boshqa liniya va tarmoqni o'z hisobidan qurish kabi asossiz talab belgilanishi holatlari uchramoqda.

## **KAZUSLAR**

1. Da'vogar - "Toshkent elektr tarmoqlari korxonasi" OAJ Toshkent shahar iqtisodiy sudiga da'vo ariza bilan murojaat qilib, javobgar "Toshkent tramvayi" UK hisobidan qayta hisob-kitob qilingan elektr energiyasi haqqi 131.569.920,0 so'm undirishni so'ragan.

Toshkent shahar iqtisodiy sudining 2014 yil 24 dekabrda hal qiluv qaroriga ko'ra da'vo talablari qisman qanoatlantirilib, javobgar "Toshkent tramvayi" UK hisobidan qayta hisob-kitob qilingan elektr energiyasi haqqi uchun 26.683.956 so'm undirilgan.

Mazkur hal qiluv qaroridan norozi bo'lib, javobgar "Toshkent tramvayi" UK tomonidan apellyatsiya shikoyati berilgan bo'lib, unda sudning hal qiluv qaroriga o'zgartirish kiritib undiriladigan asosiy qarzni

1.160.215,29 so‘m miqdorida belgilashni so‘ragan.

Bugungi sud majlisida arizachi-javobgar “Toshkent tramvayi” vakillari apellyatsiya shikoyatini quvvatlab, uni qanoatlantirib berishni so‘rab, da‘vogar “Toshkent elektr tarmoqlari korxonasi” OAJ tomonidan undiriladigan summaga rozi emasliklarini bildirib, undiriladigan asosiy qarzni 1.160.215,29 so‘m miqdorida belgilashni so‘ragan.

Da‘vogar vakili apellyatsiya shikoyatiga e‘tiroz bildirib, uni qanoatlantirishni rad etishni va birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini o‘zgarishsiz qoldirishni so‘radi.

Prokuror yordamchisi da‘vogarning da‘vo talablari asosiligi hamda uni keyingi taqdim etilgan hisob-kitoblarga asosan 26.683.956 so‘m miqdorida qanoatlantirish lozimligi haqida fikr bildirdi.

Apellyatsiya instansiya sudi taraflar vakillarining tushuntirishlarini tinglab, ishdagi hujjatlarni o‘rganib chiqib, quyidagilarga ko‘ra arizachi-javobgarning apellyatsiya shikoyatini qanoatlantirishni rad etishni, birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini o‘zgarishsiz qoldirishni lozim topdi:

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining (keyingi o‘rinlarda - FK) 234-moddasi 2-xatboshisiga asosan majburiyatlar – shartnomadan, ziyon yetkazish natijasida hamda ushbu Kodeksda ko‘rsatilgan boshqa asoslardan kelib chiqishi nazarda tutilgan.

Ish hujjatlaridan ko‘rinishicha, mazkur holatda majburiyatlar energiya ta‘minoti shartnomasidan kelib chiqqan.

Da‘vogar va javobgar o‘rtasida 01.01.2014 yilda elektr energiyasi yetkazib berish va undan foydalanish haqida 0432-sonli shartnoma tuzilgan hamda shartnoma asosida da‘vogar tomonidan javobgarga elektr energiyasi yetkazib berilgan.

Da‘vogar - “Toshkent shahar elektr tarmoqlari korxonasi” OAJning xodimlari tomonidan 2014 yil 16 oktabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.08.2009 yildagi 245-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Elektr energiyasidan foydalanish qoidalariga”ga asosan javobgar hududida elektr energiyasidan foydalanish qoidalariga rioya qilinganlik holati tekshirilgan.

Dalolatnoma asosida:

hisobga olishni nazorat qilish pribori, o‘lchov transformatorlari ulanishi va hisobga olishni nazorat qilish priborlaridan tashqari elektr qabul qilgichlar ko‘z bilan ko‘rib aniqlanmaydigan yashirin yo‘l bilan (yashirin elektr simlari, pereklyuchatellar montaj qilinishi va shu kabilar) ulanishi sxemalari o‘zgargan taqdirda, - hisobga olishning nazorat

priborlari oxirgi almashtirilgan yoki ulanish sxemalari tekshirilgan kundan boshlab, biroq da'vo muddatidan ortiq bo'lmagan muddatda iste'molchi elektr tarmog'idan uzib qo'yiladi va energiya ta'minoti shartnomasida ko'rsatilgan iste'molchining ish soatlari soni hisobga olingan holda elektr qabul qilgichlarning ulangan quvvati bo'yicha hisobga olinmagan elektr energiyasi miqdori qiymati hisob-kitob qilinadi:

Shundan kelib chiqqan holda, da'vogar tomonidan hisoblagichning quvvati bo'yicha 131.569.920 so'm hisoblangan.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 14-moddasiga binoan, agar qonun yoki shartnomada zararni kamroq miqdorda to'lash nazarda tutilmagan bo'lsa, huquqi buzilgan shaxs o'ziga yetkazilgan zararning to'la qoplanishini talab qilishi mumkin. Zarar deganda, huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo'lgan xarajatlari, uning mol-mulki yo'qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar), shuningdek bu shaxs o'z huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) tushuniladi. Agar huquqni buzgan shaxs buning natijasida daromad olgan bo'lsa, huquqi buzilgan shaxs boshqa zarar bilan bir qatorda boy berilgan foyda bunday daromaddan kam bo'lmagan miqdorda to'lanishini talab qilishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 333-moddasiga ko'ra, qarzdor aybi bo'lgan taqdirda majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, javob beradi.

Shunga ko'ra, birinchi instansiya sudi da'vogarning mazkur elektr energiyasi bo'yicha hisoblagichlar bo'yicha plombalar buzilmaganligini, ulardagi elektr ko'rsatkichlari bo'yicha hisob-kitoblarga ko'ra birinchi hisoblagichdagi ko'rsatkichlar bo'yicha 7.945.158 so'm, ikkinchisi bo'yicha 8.790.756 so'm, transformatoridagi elektr quvvatining yuqolishi bo'yicha 9.948.042 so'm, jami 26.683.956 so'm hisoblanganligini inobatga olib, da'voning ushbu qismini qanoatlantirishni asosli deb topgan.

Apellyatsiya instansiya sudida arizachi-javobgar "Toshkent tramvayi" tomonidan ASKUE "714274" va "889076" raqamli elektr hislagichdagi mavjud ko'rsatkichlarni hisobga olib jami 1.160.215,29 so'm miqdorida elektr energiyasidan foydalanganlik uchun qarzni hisoblab taqdim etishgan bo'lsa-da, mazkur hisoblagichlarni qachon o'rnatilganligi, mazkur ko'rsatkichlar bo'yicha elektr tarmoqlari korxonasi to'lovlarni amalga oshirib kelinganligini tasdiqlovchi yetarli

dalillar sudga taqdim etilmadi.

Shuning uchun apellyatsiya instansiya sudi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 55-moddasiga ko'ra, ishda ishtirok etuvchi har bir shaxs o'z talab va e'tirozlariga asos qilib keltirayotgan holatlarni isbotlashi kerak, degan talabidan kelib chiqib, arizachi-javobgar tomonidan sudga taqdim etilgan hisob-kitoblarni oqibatsiz qoldirishni lozim topdi.

Yuqoridagilarga asosan, apellyatsiya instansiyasi birinchi instansiya sudi tomonidan asosli ravishda hal qiluv qarori qabul qilingan deb hisoblaydi.

Iqtisodiy sudning hal qiluv qarorini o'zgartirish yoki bekor qilish uchun asos bo'ladi:

- 1) ish uchun ahamiyatli holatlarning to'liq aniqlanmaganligi;
- 2) iqtisodiy sudi aniqlangan deb hisoblagan ish uchun ahamiyatli holatlarning isbotlanmaganligi;
- 3) hal qiluv qarorida bayon qilingan xulosalarning ish holatlariga muvofiq kelmasligi;
- 4) moddiy yoki protsessual huquq normalarining buzilganligi yoxud noto'g'ri qo'llanilganligi.

Mazkur holatni muhokama qiling.

2. Energiya jihatidan samaradorlik hamda energiya sifatining normativ hujjatlarda belgilangan ko'rsatkichlariga rioya etilishi ustidan davlat tekshiruv va nazorati bozor iqtisodiyoti sharoitida o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Shu manoda, energetika va energiyadan foydalanishda davlat tekshiruv qaysi davlat organlari tomonidan amalga oshirilishini hamda, ularning vakolatlarini aniq huquqiy ifodalab ko'rsatib bering.

Muhokama qiling.

3. Ayrim yuridik va ilmiy adabiyotlarda "energetika", "energiya", "energetika xavfsizligi" va umuman energetika sohasidagi davlat boshqaruvi tushunchalariga aniqlik kiritilib tegishli tariflar beriladi. Muallifini va ilmiy ishini ko'rsatgan holda "energetika", "energiya", "energetika xavfsizligi" umuman energetika sohasida davlat boshqaruvi tushunchalariga berilgan turli ta'riflarni keltirib o'zingizni ta'rifingizni ham bering.

Muhokama qiling.

4. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi "BLACK GOLD" qo'shma korxonasi va tuman elektr ta'minoti korxonasi o'rtasida elektr ta'minoti shartnomasi tuzildi. Shartnomada "BLACK GOLD" qo'shma korxonasi



bir yil davomida 4000 Kvt elektr energiyasi sarflashi lozimligi, agar sarflangan elektr energiyasi shartnomasida ko'rsatilgan limitlardan oshib ketsa ortiqcha sarflangan elektr energiyasi uchun penya to'lashi lozimligi shartnomada qayd etildi. "BLACK GOLD" qo'shma korxonasi esa ularda ishlab chiqarish hajmining ko'p miqdorda bo'lganligi bois elektr energiyasidan shartnomada ko'rsatilgan 4000 Kvt o'rniga 4800 Kvt sarflagan va sarflangan 800 Kvt uchun to'lovni amalga oshirgan. Tuman elektr ta'minoti korxonasi xodimlari tomonidan tekshiruv olib borilganda ushbu holat ma'lum bo'ldi va ortiqcha sarflangan 800 Kvt uchun penya to'lashi kerakligi haqida xulosa tayyorlanib, ushbu holat bo'yicha sudga murojat qildilar.

Sudda ish ko'rish chog'ida "BLACK GOLD" qo'shma korxonasi shartnomada ko'rsatilgan limitdan ortiqcha elektr energiyasi sarflagan bo'lsada, ortiqcha sarflangan elektr energiyasi haqini o'z vaqtida to'laganligini shuning uchun penya to'lamasligini bayon qildi. Shuningdek, "BLACK GOLD" qo'shma korxonasi agar u sarflagan ortiqcha elektr energiyasi uchun haqni to'lamaganda penya to'lashi mumkinligini ta'kidladi va o'z fikrini davom ettirib, ortiqcha sarflagan elektr energiyasi uchun haqni o'z vaqtida to'laganligi uchun penya to'lash noqonuniy ekanligini bildirdi.

Lekin, sud ishni atroflicha o'rganib, "BLACK GOLD" qo'shma korxonasidan tuman elektr ta'minoti korxonasi foydasiga penya to'lashi kerakligi to'g'risida qaror qildi. "BLACK GOLD" qo'shma korxonasi esa qarordan norozi bo'lib apelatsiya tartibida ish ko'rib chiqilishini talab qildi. Fikringizcha taraflar o'rtasida yozma ravishda tuzilgan ushbu shartnomaning mohiyati qanday, u qonun talablari asosida tuzilganmi?

### TEST

1.O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning qaysi bir nutqida energetikaga oid konseptual muammolar atroflicha yoritilgan ?

A) 22 noyabr 2013 yildagi Osiyo quyosh energiyasi forumining oltinchi yig'ilishidagi nutqida

B) 16 may 2015 yildagi "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q"nomli ma'ruzasida.

V) 18 yanvar 2014 yildagi yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi

G) 13 sentabr 2014 yildagi, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo

mamlakatlar davlat rahbarlari kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqida.

2.2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish ning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining qaysi yo'nalishlarining tegishli bandlarida energetikaga oid masaldalarga alohida e'tibor qaratilgan?

A) 3.5., 4.6. B) 3.1., 4.5. V) 3.6., 4.4. G) 3.2., 4.3.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, muqobil energiya manbalarini keng miqyosda o'zlashtirish barchamiz uchun g'oyat dolzarb ahamiyatga ega. Shu boisdan bu yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlari va tajriba-innovatsion loyihalarni birgalikda, xususan, investitsiyalar kiritish hisobidan amalga oshirishga tayyor ekanimizni bildiramiz degan g'oyalari qaysi chiqishlarida bayon etilgan?

A)BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida

B)Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga bag'ishlangan selektordagi nutqida

V) SHOSga a'zo davlatlarning 7 mintaqaviy yig'ilishidagi nutqida

G) Ostonadagi Islom tashkiloti davlatlari forumidagi nutqida

4. Energetika munosabatlarni tartibga solinishi yo'nalishlari bo'yicha energetika huquqi manbalari to'g'ri tasniflangan javobni aniqlang.

A) muqobil energiya manbalari va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonunchilik

B) hududiy-mintaqaviy, respublika va xalqaro miqyosidagi qonunchilik

V) energiyadan oqilona foydalanish, energetika to'g'risidagi va energetik xavfsizilikni ta'minlash sohasidagi qonunchilik

G) umumiy va maxsus energetik qonunchilik

5. Yuridik kuchi bo'yicha energetika huquqi manbalari qanday turlarga ajratiladi?

A) Konstitutsiya,energetikaga oid qonunlar va qonun osti me'yoriy huquqiy hujjatlari

B) energetikaga oid umumiy va maxsus qonunlar

V) energetikaga oid kodifikatsiyalashgan va oddiy qonunchilik

G) energetikaga oid moddiy va protsessual qonunlar

6.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasiga binoan yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar.....dir, deb qayd etilgan.

A) umumdavlat mulki

B) umummilliy boylik

V) xalq mulki

G) munitsipal mulki

7. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining qaysi moddalarida energiya ta'minotiga oid masalalar o'z ifodasini topgan?

A) 468-478 moddalarida B) 413-421 moddalarida

V) 568-575 moddalarida G) 667-776 moddalarida

8. O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanishni qaysi olimlar nechanchi yillarda tajriba sinovlari o'tkazgan?

A) R.Kavchin, I.Novikov 1945 yillarda

B) U.Oripov, S.Azimov 1950 yillarda

V) T.Ayubov, S.Oripov 1955 yillarda

G) K.Maksimov, R.Ivanov 1960 yillarda

9. Energetika huquqining ob'ektlariga nisbatan mulk huquqi qaysi qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi?

A) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

B) O'zR Fuqarolik kodeksi va "Mulkchilik to'g'risida"gi qonun

V) O'zR "Elektr energetikasi to'g'risida"gi qonun va har bir muqobil energiya ob'ektlariga oid qonunlar

G) A,B,V javoblar to'g'ri

10. Energetika resurslarni davlat nomidan tasarruf etishni ..... amalga oshiradilar.

A) Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari va maxsus vakolatli davlat organlari

B) Oliy Majlis

V) Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi

G) Prezident

### NAZARIY SAVOLLAR

1. Energiya ta'minoti shartnomasi va uning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiling?

2. Energiya ta'minoti shartnomasining mazmuni va shartnomaviy munosabatlarda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish masalalari?

3. Energiya munosabatlarini shartnomaviy-huquqiy tartibga solish muammolari?

4. Energiya munosabatlarini shartnomaviy-huquqiy tartibga solishda fors major holatlari va uning huquqiy oqibatlarini tahlil eting ?

5. Energiya ta'minoti shartnomasi va boshqa shartnomalardan farqi va o'ziga xos xususiyatlari, predmeti nimalardan farq qiladi, tahlil eting ?

## **5-mavzu: ENERGETIKA SOHASIDA EKOLOGIK TALABLARNI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY HOLATI. ENERGETIK XAVFSIZLIK MASALALARI**

### **5.1. Energetika sohasida ekologik huquqiy talablar va nazoratni amalga oshirishning zarurati**

Zamonaviy energetika huquqiga oid munosabatlar to'rt asosiy ustunga ega. 1) ekologik huquqi, 2) shartnoma huquqi, 3) biznes huquqi, 4) raqobat huquqi, 5) belgilangan xavfsiz, arzon, samarali va ekologik toza energiya ta'minoti.

Uglevodorod xom ashyosining jahon miqyosidagi zaxiralari kamayib borayotgan sharoitda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini oshirishning eng muhim omili sifatida muqobil energiya manbalaridan amalda foydalanish bo'yicha ishlanmalar jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda. Shu munosabat bilan, so'nggi yillarda aynan muqobil energiya manbalarini faol o'zlashtirish davlat ekologik siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib qolmoqda. Bu yo'nalish yashil energiya ham deb, yuritiladi, yashil energiya - bu quyosh nuri, shamol yoki suv kabi tabiiy resurslardan hosil bo'lgan har qanday energiya turi.

“Muqobil energiya resurslarini izlash va joriy etish ishlari talab darajasida emas, umuman, ushbu sohada zudlik bilan hal qilinishi lozim bo'lgan ko'plab muammolar to'planib qolgan”. Shuningdek, “Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4512-sonli Farmon asosida ham Toshkent shahrida Xalqaro quyosh energiyasi institutini tashkil qilindi, shuningdek, “Muqobil energiya manbalari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini ishlab chiqish vazifasi belgilab berildi.

Energetik xavfsizlikni huquqiy ta'minlashda qo'yidagi hujjatlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to'g'risida”gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining “Elektr energetikasi to'g'risida”gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining “Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida”gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to'g'risida”gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining “Metrologiya to'g'risida”gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ekologik xavfsizlik to'g'risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida”gi qarori, O'zbekiston Respublikasining “Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to'g'risida”gi qonuni, O'zbekiston



Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Atom energiyasidan tinchlik yoʻlida foydalanish sohasidagi xalqaro shartnomalar boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasining majburiyatlarini bajarish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Elektr tarmogʻi xoʻjaligi obʻektlarini muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qarori.

Energetika sohasida atrof muhitni muhofaza qilishga oid ekologik talablarni belgilovchi qonunchilik tizimi qoʻyidagicha tizimga ega. Chunonchi, Oʻzbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi qonuni, Oʻzbekiston Respublikasining “Atmosfera havosini muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi qonuni, Oʻzbekiston Respublikasining “Chiqindilar toʻgʻrisida”gi qonuni, Oʻzbekiston Respublikasining “Gidrotexnik inshootlarning xavfsizligi toʻgʻrisida”gi qonuni, Oʻzbekiston Respublikasining “Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish toʻgʻrisida”gi qonuni, Oʻzbekiston Respublikasining “Ekologik ekspertiza toʻgʻrisida”gi qonuni, Oʻzbekiston Respublikasining “Radiatsiyaviy xavfsizlik toʻgʻrisida”gi qonuni va boshqalar.



Hozirda samaradorligi boʻyicha quyidagicha tartiblangan:

- 1) Shamol kuchi
- 2) Geotermik
- 3) Gidroenergetika
- 4) Yadro

5) Quyosh energiyasi


Атроф муhitni muhofaza qilishga oid

ekologik talablarni belgilashda Oʻzbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi qonuni asosiy meʼyoriy hujjat hisoblanadi. “Tabiatni muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi Qonunning 4-moddasiga binoan, tabiatni muhofaza qilish qonunlari talablarini buzganlik uchun javobgar boʻlish tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga erishish prinsiplaridan biri hisoblanadi. Qonunning 12-moddasiga binoan, Oʻzbekiston Respublikasi aholisi tabiiy resurslardan oqilona foydalanishi, tabiat boyliklariga ehtiyotlik bilan munosabatda boʻlishi, ekologiya talablariga rioya etishi shart hisoblanadi. Qonunning 23-moddasida tabiiy resurslardan foydalanish talablarini muttasil buzadigan foydalanuvchi tabiiy



resurslardan foydalanish huquqidan mahrum etilishi mumkinligi belgilangan. Qonunning 29-moddasida esa, ekologik nazorat oldiga atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof tabiiy muhitni sog'lomlashtirish, tabiatni muhofaza qilishga doir qonunlar talablari va atrof tabiiy muhit sifatining normativlariga rioya etish borasidagi dasturlar hamda ayrim tadbirlar bajarilishini tekshirish vazifasi ham qo'yilganligi ko'zda tutilgan.

Qonunning 10-bobida xo'jalik faoliyati va boshqa yo'sindagi faoliyatga doir ekologiya talablari belgilangan. Unda korxonalar, inshootlar va boshqa ob'ektlarni joylashtirish, loyihalash, qurish, rekonstruksiyalash, ulardan foydalanish va ularni tugatishga doir ekologiya talablari (41-modda), radioaktiv va kimyoviy moddalarni ishlatish paytidagi ekologiya talablari (42-modda), tabiatni shovqin, tebranish, elektromagnit maydonlari va boshqa zararli fizik ta'sirlardan muhofaza qilish (43-modda), tabiatni nazorat etilmaydigan va zararli biologik ta'sirlardan muhofaza qilish (44-modda), tabiatni chiqindilar bilan ifloslanishdan muhofaza qilish (45-modda) bilan bog'liq talablar belgilab qo'yilgan. Xususan, Qonunning 43-moddasida tabiatni elektromagnit maydonlari ta'siridan muhofaza qilish masalasi belgilab berilgan bo'lib, unga muvofiq, mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, ayrim shaxslar zararli ishlab chiqarish shovqinlari, tebranish, elektromagnit maydonlarining va zararli fizik ta'sirlar ko'rsatuvchi boshqa omillarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish choralarini ko'rishlari shart.



**O'zбекистон Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, vazirliklar va idoralar elektr tarmog'i xo'jaligi ob'ektlari joylashgan joylarda ishlarni amalga oshirayotgan o'zlariga qarashli korxonalar, tashkilotlar va muassasalar**



Guvohi bo'lganimizdek, mazkur qonun tabiatdan foydalanish va muhofaza qilish bilan bog'liq ekologik talablarga oid umumiy normalarni mustahkamlaydi, ekologik talablarga rioya etish majburiyatini belgilab beradi; ekologik talablarga rioya etmaslikning huquqiy oqibatini ko'zda tutadi va b.q.

O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 27 dekabrda "Ekologik nazorat to'g'risida"gi O'RQ-363-sonli Qonuni ham barcha sohalarda, shu jumladan, energetika sohasida ham atrof muhitni muhofaza qilishga oid ekologik talablarga rioya etilishi ustidan davlat, idoraviy, ishlab chiqarish va jamoatchilik ekologik nazorati tizimini belgilab berdi. Ushbu qoidalar umumiy tarzda energetika sohasida ekologik talablarga rioya etilishini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Shuningdek, energetika sohasida atrof muhitni muhofaza qilishga oid ayrim ekologik talablar ekologiya sohasidagi boshqa qonun hujjatlarida ham o'z aksini topgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 30 sentyabrda "Elektr energetikasi to'g'risida"gi Qonuni elektr energetikasi tizimining xavfsizligini, yoqilg'i-energetika resurslaridan oqilona foydalanishni, elektr energetikasi ob'ektlarini qurish, ishga tushirish va foydalanishdan chiqarish tartibini, elektr energetikasi ob'ektlaridan foydalanishni tashkil etishi ustidan texnik va texnologik nazoratni amalga oshirishni, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish chora-tadbirlarining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etishni, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan iste'molchi yuridik shaxslarga nisbatan elektr energiyasi iste'molini cheklash kabi muhim masalalar tartibga solingan.

O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 25 aprelda "Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida"gi Qonuni esa, yuridik va jismoniy shaxslarning yoqilg'i qazib olish, yoqilg'i, issiqlik va elektr energiyasi hosil qilish, ularni qayta ishlash, saqlash, tashish, taqsimlash va sarflash bilan bog'liq faoliyatini tartibga soladi. Mazkur qonun energiya hosil qilish va uni sarflash chog'ida energiyadan samarali va ekologik jihatdan xavfsiz foydalanilishini ta'minlash, energiya jihatidan samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishni, arzonroq neft mahsulotlari, tabiiy gaz, ko'mir va boshqa turdagi tabiiy yoqilg'ilarni qazib olish va hosil qilishni rag'batlantirish; energiya hosil qilish va uni sarflash miqdori hamda sifatini o'lchash va hisobga olishning aniq, to'g'ri, bir xil bo'lishini ta'minlash; energiyaning samarali hosil qilinishi va sarflanishi hamda uning sifati ustidan, energetika asbob-uskunalarining, energiya bilan ta'minlash va energiyani sarflash

tizimlarining texnikaviy holati ustidan davlat tekshiruvi hamda nazoratini amalga oshirishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 27 dekabrda “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni 24-moddasida korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlaridan biri sifatida energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, yoqilg‘i-energetika resurslarini tejash, ekologik jihatdan toza energiya manbalaridan foydalanish chora-tadbirlarini ko‘rish ko‘zda tutilgan.

Yo‘l qo‘yiladigan doiradagi normativlari atmosfera havosiga chiqindilar chiqaruvchi yoki zararli fizikaviy ta‘sir ko‘rsatuvchi har bir doimiy manba uchun ifloslantiruvchi moddalar, biologik organizmlar va fizikaviy ta‘sir ko‘rsatish omillarining har biri bo‘yicha belgilanadi.

Havoni ifloslantiruvchi doimiy manbalardan atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar, normativlari korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan ishlab chiqiladi va tegishincha O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar va biologik organizmlar chiqarishning yo‘l qo‘yiladigan doiradagi normativlarini, doimiy ifloslantiruvchi manbalar fizikaviy omillarining atmosfera havosiga zararli ta‘sir ko‘rsatishining yo‘l qo‘yiladigan doiradagi normativlarini ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 18 fevraldagi 95-sonli “Ekologik xavfsizlik to‘g‘risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida”gi qarori.

## **5.2 Atmosfera havosini muhofaza qilish talablari**

TAQIQLANADI.

Atmosfera havosini muhofaza qilish maqsadida:  
jihozlamadan xo‘jalik va boshqa faoliyatning statsionar ob‘ektlarini loyihalashtirish;  
xo‘jalik yurituvchi va boshqa sub‘ektlar, aholi punktlari hududlarida ishlab chiqarish va iste‘mol chiqindilarini ko‘mish, zararsizlantirish va yoqish.

MAJBUR

energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish,  
yoqilg'i-energetika resurslarini tejash,  
energiyaning ekologik toza manbalaridan foydalanish;  
atmosfera tashlamalarni tozalaydigan inshoot, jihoz va  
uskunalardan, shuningdek, ularni nazorat qilish vositalaridan foydalanish  
qoidalariga rioya etish;

ifloslantiruvchi moddalar tashlamalarini kamaytirish choralarini  
ko'rish;

ifloslantiruvchi moddalarning ruxsat etilgan cheklangan  
tashlamalari statistika hisobotini belgilangan tartibda taqdim etish;

tarkibida ozonni yemiruvchi moddalar bo'lgan buyumlardan  
foydalanish va ularni ta'mirlash, ularning hisobini yuritish hamda ozon  
uchun xavfsiz moddalar bilan almashtirishini ta'minlashga majburdir.

O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 6 maydagi "Suv va suvdan  
foydalanish to'g'risida"gi Qonuni XIV bobida (56-59-moddalar) ham suv  
ob'ektlaridan sanoat maqsadlarida va energetika ehtiyojlari uchun  
foydalanishga oid ekologik talablar belgilangan. Xususan, uning 56-  
moddasida suv ob'ektlaridan sanoat maqsadlarida va issiqlik energetikasi  
ehtiyojlari uchun foydalanuvchi suv iste'molchilarining ishlab chiqarish  
texnologiyasini takomillashtirish, suv ta'minotining aylanma hamda  
takroriy tizimlarini joriy etish orqali suv sarfini kamaytirish va oqindi  
suvlarning oqizib yuborilishini tugatish chora-tadbirlarini ko'rish  
majburiyatlari ham belgilangan. Qonunning 59-moddasi suv  
ob'ektlaridan gidroenergetika ehtiyojlari uchun foydalanish tartibini  
belgilaydi. Unga muvofiq, suv ob'ektlaridan gidroenergetika ehtiyojlari  
uchun foydalanish iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari manfaatlari hisobga  
olinib, qishloq va suv xo'jaligi organlari bilan kelishilgan holda,  
shuningdek, agar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining  
qarorida, tegishli hollarda esa, qishloq va suv xo'jaligi hamda tabiatni  
muhofaza qilish organlarining qarorida boshqacha tartib nazarda  
tutilmagan bo'lsa, suvlardan kompleks va oqilona foydalanish talablariga  
rioya qilingan holda amalga oshiriladi. Gidroenergetika korxonalarini: suv  
ob'ektlarining foydalanish qoidalarida belgilangan ish rejimiga, shu  
jumladan suv omborlarini to'ldirish va ishga tushirish, ulardan suv  
chiqarish hamda suvning yuqori va quyi sathi o'zgarishining rejimiga  
rioya etishi; sanitariya va tabiat muhofazasi maqsadlarida suv  
omborlaridan suv chiqarib turilishini ta'minlashi shart.

### **5.3 Suv ob'ektlari muhofazasini ta'minlash**

TAQIQLANADI.

Suv ob'ektlarini muhofaza qilish maqsadida:

suv ob'ektlarining suvni muhofaza qilish zonalari hamda sanitariya-muhofaza zonalari hududlarida xavfli ob'ektlarni joylashtirish;

yer osti suvli gorizontlariga hamda sug'orish maydonlariga tozalanmagan va zararsizlantirilmagan oqava suvlarni tashlash;

shahar va posyolka kanalizatsiya tizimlariga mahalliy tozalash inshootlarida oldindan tozalamasdan kanalizatsiya tizimiga qabul qilish talablariga javob bermaydigan ishlab chiqarish oqava suvlarini tashlash;

suv ob'ektlariga ishlab chiqarish, maishiy va boshqa chiqindilarni tashlash, shu jumladan suv ob'ektlari va ularning sohillarini chiqindilar bilan ifloslantirish;

oqava suvlarning suv ob'ektlariga va joy relefiga ko'plab chiqarilishi; ichimlik, xo'jalik-maishiy va davolash maqsadlarida foydalaniladigan yoki foydalanish uchun istiqbolli bo'lgan yer osti suvlarini to'yintirish va olish sohasida kimyoviy, bakteriologik yoki radiatsiyaviy ifloslanish manbai bo'lgan chiqindilarni ko'mish;

yer osti suvlarini ifloslantirish.

**MAJBUR**

Faoliyati natijasida oqava suvlar hosil bo'ladigan xo'jalik yurituvchi va boshqa sub'ektlar:

ifloslantiruvchi moddalarning suv ob'ektlari va joy relefiga tashlash normativlariga rioya etilishini, shuningdek, ularni kamaytirish chora-tadbirlarining amalga oshirilishini ta'minlaydi;

tuproq yuzasidagi ifloslangan suvlarning yer osti suv gorizontlariga sizib o'tishining oldi olinishini ta'minlaydi;

neft va neft mahsulotlarini to'plash tizimlarining germetikligini ta'minlaydi.

### **5.4 Yer resurslari muhofazasini ta'minlovchi ekologik talablari**

TAQIQLANADI.

Muhofaza qilish maqsadida:

aholi punktlarida atmosfera havosini chang, zararli gazlar, badbo'y anqiydigan moddalar bilan ifloslantiruvchi manba hisoblangan jinslar uyumlari va chiqindi saqlagichlarni joylashtirish;

yer osti boyliklaridan o'zboshimchalik bilan foydalanish;

yer usti va yer osti boyliklari yaxlitligini buzish bilan bog'liq bo'lgan ishlarni davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasi olingunga qadar bajarish;

agar yer osti boyliklarining holati odamlar hayoti va sog'ligiga xavf tug'dirsa, ulardan foydalanish bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish;

tog'-kon ajratmasidan tashqarida foydali qazilmalarni qazib olish bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarda foydali qazilma konlarini qazish va yer qa'ridan foydalanish;

alohida ilmiy va madaniy qimmatga ega bo'lgan noyob geologik ochiq tog' jinslari, mineralogik hosilalar, palenontologiya ob'ektlari va boshqa yer qa'ri uchastkalarining yaxlitligini buzadigan har qayday faoliyat;

yer qa'ri belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olinmagan holda, uni geologik jihatdan o'rganish ishlarini amalga oshirish man etiladi.

#### MAJBUR

Yer qa'ridan foydalanuvchilar:

yer qa'ridan belgilangan maqsadga muvofiq foydalanish;

ishlarni yer qa'ridan foydalanish loyihasiga muvofiq amalga oshirish;

yer qa'rini to'liq geologik o'rganish, undan oqilona, kompleks foydalanish va muhofaza qilish;

suv olish joylari uchastkalarida va ularga tutash hududlardagi yer osti suvlarining rejimi bo'yicha kuzatuvlar amalga oshirilishi;

yer qa'ridan foydalanishda buzilgan yer uchastkalarining keyinchalik ulardan foydalanish uchun yaroqli holatga keltirilishi;

yer qa'ridan foydalanganlik uchun to'lovlar o'z vaqtida to'lanishini ta'minlashga majburdir.

Umumlashtirilgan ekologik-huquqiy talablar ixtisoslashtirilgan holda "Er osti boyliklari to'g'risida"gi qonunida o'z aksini topgan va ular quyidagilardan iborat:

-tog'-kon sanoatidagi ishlarni (qidiruv, kovlash va rekultivatsiya qilish) er qa'ridan foydalanish loyihasiga muvofiq olib borish va uni ekologik ekspertizadan o'tkazish;

-er qa'rini to'la-to'kis o'rganish, er osti boyliklaridan oqilona va kompleks foydalanish hamda ularni muhofaza qilish;

-konlarning foydali qazilmalar mo'l uchastkalarini tanlab ishlatish, mineral xom ashyo qazib olish va uni qayta ishlashda foydali qazilmalarning normativdigidan ortiq nobudgarchiligiga yo'l qo'ymaslik;

-er osti boyliklaridan foydalanish bilan bog‘liq ishlarning zararli ta‘siridan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish;

-er osti boyliklaridan foydalanish chog‘ida buzilgan er uchastkalarini ulardan keyinchalik boshqa maqsadlarda foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish;

-ichimlik suvi sifatida foydalaniladigan suv to‘plash va er osti suvlari to‘planadigan maydonlarda tog‘-kon sanoati va maishiy chiqindilarning yig‘ilib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik;

-alohida ilmiy va madaniy qimmatga molik er osti boyliklari uchastkalarini davlat qo‘riqxonalari va yoxud tabiat yoki madaniyat yodgorliklariga mo‘ljallab ajratib olish;

-chet ellik investorlar er osti boyliklaridan foydalanish davomida atrof-muhitni muhofaza qilish va ishlarni ekologik jihatdan bexatar olib borishlari hamda er usti yoxud er osti uchastkalarini bosqichma-bosqich bexatar qilib qaytarib berishlari va qonun-hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa ekologik-huquqiy chora-tadbirlarni olib borish.

## **5.5 Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasida ekologik talablari**

TAQIQLANADI.

Saqlash va ko‘mib tashlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi hududiga chiqindilarni, shu jumladan chetdan radioaktiv chiqindilarning har qanday turlarini olib kirish.

O‘zbekiston Respublikasida utilizatsiya qilish uchun tegishli texnologiyalar mavjud bo‘lgan chiqindilarni ko‘mib tashlash.

chiqindilarni aholi punktlari yerlarida, tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlarda va moddiy madaniy meros ob‘ektlari joylashgan yerlarda, aholining hayoti va sog‘ligiga, shuningdek, tabiatni muhofaza qilish ob‘ektlariga hamda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga zarar yetkazish xavfiyuzaga kelishi mumkin bo‘lgan boshqa joylarda saqlash;

sanoat va maishiy chiqindilarni maxsus texnik moslamalarsiz zararsizlantirish;

ko‘milgan chiqindilarni o‘zboshimchalik bilan chiqarib olish;

Chiqindilarni qayta ishlash, ularni poligonlarda ko‘mib tashlash va saqlash davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasi bo‘lgan taqdirda amalga oshiriladi.

Chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylari davlat kadastri qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuritiladi.



O'zbekiston Respublikasi hududida hosil bo'ladigan chiqindilar pasportlanishi lozim.

Xavfli chiqindilar ularning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berilgan ekologik sertifikatini hamda ruxsatnoma mavjud bo'lgan taqdirda, maxsus jihozlangan transport vositalarida tashiladi.

Xavfli chiqindilar ularni to'plash, saqlash, utilizatsiya qilish, ko'mish va/yoki yo'q qilish joylariga:

xavfli chiqindilar pasporti mavjud bo'lganda;

maxsus jihozlangan va maxsus belgilar bilan ta'minlangan transport vositalari mavjud bo'lganda;

xavfli chiqindilarni tashish va topshirish uchun tashiladigan xavfli chiqindilar miqdori, tashish maqsadlari va manzili ko'rsatilgan hujjatlar mavjud bo'lganda tashiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, radiatsiyaviy xavfsizlik - fuqarolar va atrof-muhitning ionlashtiruvchi nurlanishning zararli ta'siridan muhofazalanganlik holati hisoblanadi.

Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi davlat nazorati O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi davlat nazorati organlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi, chiqindi bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bundan mustasno.

Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi jamoatchilik nazorati O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanish ob'ektlari qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda davlat ekologik, radiatsiya-gigiyena va texnikaviy ekspertizasidan o'tkazilishi shart.

## **5.6 Energetika sohasida davlat ekologik ekspertizasi**

Energetika sohasida atrof muhitni muhofaza qilishga oid ekologik talablar qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarda ham o'z ifodasini topgan. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7 sentabrdagi 541-sonli "Atrof muhitga ta'sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan Nizomda davlat ekologik ekspertizasi amalga oshiriladigan faoliyat turlarining to'rt toifadagi ro'yxati belgilangan bo'lib, ular tizimida energetika bilan bog'liq faoliyat turlari quyidagicha mustahkamlangan:

- I toifasi (yuqori daraja xavfli);
- II toifasi (o'rtacha darajada xavfli);
- III toifasi (past darajada xavfli);
- IV toifasi (mahalliy ta'sir ko'rsatish).

1) Atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning I toifasiga kiradigan (yuqori darajada xavfli) faoliyat turlari. Atom stansiyalari, yadroviy reaktorli qurilmalar, atom sanoati chiqindilari va boshqa radioaktiv chiqindilarga ishlov berish yoki utilizatsiya qilish qurilmalari, neft va neft mahsulotlarini saqlash hajmi bo'yicha I va II toifadagi bazalar, Respublika va viloyatlararo ahamiyatga ega bo'lgan suv o'tkazgichlar, suv omborlari va to'g'onlar, kon-boyitish fabrikalari, 30 MVt dan ortiq quvvatga ega bo'lgan gidroelektrostansiyalar, ruda va kimyoviy xomashyoni qazib olish konlari, qazib olishda hosil bo'ladigan konlarni rekultivatsiya qilish ishlari, yoqilg'i resurslarini (neft, gaz, ko'mir va boshqalar) qidirish, razvedka qilish, qazib olish va quduqlarni jihozlash ishlari, qora va rangli metallurgiya zavodlari, Respublika va davlatlararo ahamiyatga ega bo'lgan elektr uzatish liniyalari, zaharli chiqindilarni, shuningdek, shlam va shlaklarni to'plash yoki ko'mish poligonlari, respublika ahamiyatiga ega bo'lgan neft va gaz quvurlari, shuningdek, neft va gazni qayta ishlash korxonalari, yer osti gaz omborlari, yer ostida ishqor bilan yuvish poligonlari, shuningdek, zich holatda ishqor bilan yuvish texnologiyasidan foydalanadigan korxonalar, radioaktiv moddalar (izotoplar) ishlab chiqarish, ularni ishlatish va saqlash (tibbiyot tizimi bundan mustasno) korxonalari, 300 MVt yoki undan ortiq quvvatga ega bo'lgan issiqlik, foto, shamol elektr stansiyalari va boshqa yondirish qurilmalari.

2) Atrof muhitga ta'sir ko'rsatishning II toifasiga mansub (o'rtacha darajada xavfli) faoliyat turlari. Viloyatlararo ahamiyatga ega bo'lgan yer osti suvlarini olish inshootlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ahamiyatga ega bo'lgan elektr uzatish liniyalari, suv

oʻtkazish quvvati sekundiga 50 kub metrdan ortiq boʻlgan magistral kanallar, daryolar va loyiha boʻyicha hisoblangan quvvati sekundiga 20 kub metrdan ortiq boʻlgan kollektorlar, Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ahamiyatiga ega boʻlgan neft va gaz quvurlari, Dambalar, koʻmir kuli omborlari, neft va gaz konlarini seysmik jihatdan razvedka qilish (seysmik va elektr razvedkasi bundan mustasno) ishlari, issiqlik quvvati soatiga 100 MVtdan 300 MVtgacha boʻlgan issiqlik elektr stansiyalari va boshqa energetik yondirish qurilmalari, geofizik va geologik tadqiqotlarni seysmik va elektr razvedka qilish ishlari.

3) Atrof muhitga taʼsir koʻrsatishning III toifasiga kiradigan (past darajada xavfli) faoliyat turlari, avtomobilga yonilgʻi va gaz quyish stansiyalari, neft va neft mahsulotlarini saqlash hajmi boʻyicha III toifadagi bazalar, biogaz qurilmalari, biotexnologiyalardan foydalanuvchi (shu jumladan pillani qayta ishlovchi) korxonalar, Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ahamiyatiga ega boʻlgan yer osti suvlarini chiqarish inshootlari, tuman va shahar (Toshkent shahri bundan mustasno) ahamiyatiga ega boʻlgan elektr uzatish liniyalari, tuman va shahar (Toshkent shahri bundan mustasno) ahamiyatiga ega boʻlgan gaz quvurlari, quvvati 30 MVt va undan kam boʻlgan gidroelektrostansiyalar, koʻmir va koʻmir briketlarini ishlab chiqarish korxonalar va ularni saqlash omborlari, elektr asbob-uskunalarini yigʻish va taʼmirlash, metallga ishlov berish korxonalar (shu jumladan sexlari), quvvati 100 MVtdan kam boʻlgan issiqlik, shuningdek, foto, shamol elektr stansiyalari va boshqa yondirish qurilmalari.

### **5.7 Energetik xavfsizlikni taʼminlash**

Energiyadan oqilona foydalanish sohasidagi munosabatlar 1997 yil 25 aprelda qabul qilingan “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi toʻgʻrisida toʻgʻrisida”gi qonun va Oʻzbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Energiyadan oqilona foydalanish sohasida huquqiy tartibga solish: Energiya hosil qilish va uni sarflash chogʻida energiyadan samarali va ekologik jihatdan xavfsiz foydalanishini taʼminlashga oid munosabatlarni tartibga soladi.

Plotinalar, gidroelektr stansiyalar binolari, suv tashlash, suv boʻshatish, suv oʻtkazish va suv chiqarish inshootlari, tunnellar, kanallar, nasos stansiyalari, suv omborlari qirgʻoqlarini, daryolar va kanallar oʻzanlarining qirgʻoqlari va tubini toshqin hamda yemirilishlardan

muhofaza qilish uchun mo'ljallangan inshootlar, sanoat va qishloq xo'jaligi tashkilotlarining suyuq chiqindilar saqlanadigan joylarini o'rab turuvchi inshootlar bilan bog'liq masalalar alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Gidrotexnika inshootlari - to'g'onlar (plotinalar), gidroelektr stansiyalar binolari, suv tashlash, suv bo'shatish, suv o'tkazish va suv chiqarish inshootlari, tunnellar, kanallar, nasos stansiyalari, suv omborlari qirg'oqlarini, daryolar va kanallar o'zanlarining qirg'oqlari va tubini toshqin hamda yemirilishlardan muhofaza qilish uchun mo'ljallangan inshootlar, sanoat va qishloq xo'jaligi tashkilotlarining suyuq chiqindilar saqlanadigan joylarini o'rab turuvchi inshootlar.

1999 yil 20 avgustda qabul qilingan "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida to'g'risida"gi qonun alohida ahamiyatga ega. Ushbu qonunning maqsadi gidrotexnika inshootlarini loyihalashtirish, qurish, foydalanishga topshirish, ulardan foydalanish, ularni rekonstruksiya qilish, tiklash, konservatsiyalash va tugatishda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi.

Bugungi kunda inson hayoti va faoliyati uchun qulay ekologik vaziyatni vujudga keltirish, ekologik va energetik xavfsizlikni ta'minlash, tabiat va energiya resurslaridan oqilona foydalanish, ularni ekologik-huquqiy muhofaza qilish, odamlarning salomatligi va iqtisodiy turmush tarzini yanada yaxshilash dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Demak, xavfsiz energiya ta'minoti - bu qazib olinuvchi moddalarga asoslangan energiya resurslarini (yoqilg'ini) asta-sekin qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan almashtirishga qaratilgan ekologik siyosatning asosiy maqsadlaridan biridir.

"Elektr energetikasi to'g'risida"gi Qonuni elektr energetikasi tizimining xavfsizligini, yoqilg'i-energetika resurslaridan oqilona foydalanishni, elektr energetikasi ob'ektlarini qurish, elektr energiyasi iste'molini cheklash kabi muhim masalalar tartibga solingan. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 25 apreldagi "Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida"gi Qonuni esa, energiya hosil qilish va uni sarflash chog'ida energiyadan samarali va ekologik jihatdan xavfsiz foydalanilishini ta'minlash, neft mahsulotlari, tabiiy gaz, ko'mir va boshqa turdagi tabiiy yoqilg'ilarni qazib olish va hosil qilishni rag'batlantirish; energiya hosil qilish va uni sarflash miqdori hamda sifatini o'lchash va hisobga olishning aniq, to'g'ri, bir xil bo'lishini ta'minlash ustidan davlat tekshiruvi hamda nazoratini amalga oshirishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 9 sentabrdagi “Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 26 iyun “Atom energiyasidan tinchlik yo‘lida foydalanish sohasidagi xalqaro shartnomalar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining majburiyatlarini bajarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror bilan belgilangan talablarga ko‘ra, atom energiyasidan foydalanishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ini, jismoniy hamda yuridik shaxslarning mol-mulkini himoya qilish, shuningdek atrof-muhitni muhofaza qilish ustuvorligi;

xavfsizlikning ta‘minlanishi;

axborotning ochiqligi;

yadroviy qurol va boshqa yadroviy portlovchi qurilmalar ishlab chiqarishning taqiqlanishi.

Atom energiyasidan foydalanish xavfsizligini davlat tomonidan tartibga solishni atom energiyasidan foydalanish xavfsizligini davlat tomonidan tartibga soluvchi maxsus vakolatli organ va atom energiyasidan foydalanish xavfsizligini davlat tomonidan tartibga solish bo‘yicha alohida vakolatlarga ega bo‘lgan davlat organlari amalga oshiradi.

Atom energiyasidan foydalanish xavfsizligini davlat tomonidan tartibga solish radiatsiyaviy ta‘sirdan fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlashga, jismoniy hamda yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, mol-mulkini himoya qilishga, shuningdek atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilganidir.

Atom energiyasidan foydalanish xavfsizligini davlat tomonidan tartibga solish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalarni ishlab chiqish, tasdiqlash, amalga kiritish hamda amalga oshirish;

atom energiyasidan foydalanish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash;

atom energiyasidan foydalanish sohasidagi ruxsat berish faoliyati;

atom energiyasidan foydalanish ob‘ektlarining va atom energiyasidan foydalanish sohasidagi faoliyatning ushbu sohada belgilangan normalar va qoidalarga muvofiqligini baholash;

atom energiyasidan foydalanish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati;

atom energiyasidan foydalanish ob‘ektlarining xavfsizligini, jisman himoya qilinishini ta‘minlash ustidan, shuningdek davlat boshqaruvi



organlarining hamda atom energiyasidan foydalanish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi boshqa yuridik shaxslarning avariya o'ldirish shayli ustidan davlat nazorati va tekshiruv;

atom energiyasidan foydalanish ob'ektlari va (yoki) atom energiyasidan foydalanish sohasidagi faoliyat xavfsizligini asoslash yuzasidan ekspertizani tashkil etish.

### **KAZUSLAR**

1. Toshkent shahrida joylashgan kimyo zavodlaridan birida Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan davlat ekologik nazorati amalga oshirildi. Ushbu nazorat amalga oshirilgach, bir oydan so'ng mazkur zavodning zararli ta'siridan shikoyat qilib fuqarolar zavodda jamoat ekologik nazoratini o'tkazish talabi bilan murojaat qilishdi. Biroq, zavod ma'muriyati yaqinda Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan davlat ekologik nazorati o'tkazilganligini ro'kach qilib, fuqarolarni zavod hududiga kirishiga hamda jamoat ekologik nazoratini amalga oshirishlariga to'sqinlik qildi.

– Kimyo zavodi ma'muriyatining xatti-harakatlari qonuniymi?

– Davlat ekologik nazoratining amalga oshirilganligi jamoat ekologik nazoratining amalga oshirilishiga to'sqinlik qiluvchi holat bo'lib xizmat qilishi mumkinmi?

2. Samarqand shahrida joylashgan sement zavodlaridan birida zavod mehnat jamoasi tomonidan jamoat ekologik nazorati amalga oshirildi hamda zavod sexlaridan birining ishchilar salomatligiga hamda atrof tabiiy muhitga ziyon yetkazayotganligi tufayli ishni to'xtatish to'g'risida xulosa berdi. Biroq, zavod ma'muriyatida ushbu masala muhokama qilinganda bunday qaror zavod faoliyatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanib, jamoat nazorati xulosasi talablari rad etildi.

– Mehnat jamoasi jamoat ekologik nazoratini amalga oshirishga haqlimi?

– Jamoat ekologik nazorati xulosasining yuridik kuchi qanday baholanadi?

– Zavod ma'muriyatining xatti-harakatlari qonuniymi?

3. Fuqaro T. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga e'tiroznoma yubordi. O'z e'tiroznomasida tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan unga yuklangan vazifani bajarmaganini vaj qildi. Chunki uning fikriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza



qilish davlat qo‘mitasi har yilning 15 aprel kuni atrof tabiiy muhit holati to‘g‘risida milliy ma‘ruza chop etish yuklatilgan, ammo Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi o‘ziga yuklatilgan majburiyatni bajarmasdan, shu bilan fuqaro T. ning huquq va manfaatlariga zarar yetkazgan, chunki u tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lib, tabiat bilan bog‘liq loyihaga 150 000 000 mln. so‘m investitsiya kiritgan va atrof tabiiy muhitning holati to‘g‘risida ma‘lumotga ega bo‘lmasdan ancha zarar ko‘rgan.

Shuning unga yetkazilgan zararni qoplashni so‘ragan.

– Aytingchi, fuqaro T. o‘z e‘tirozini keltirganda qaysi qonun hujjatiga asosan vaj qilgan?

– Mazkur masalani huquqiy hal eting va fuqaro T.ga huquqiy maslahat bering?

4.O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi ing Toshkent shahar boshqarmasi (Da‘vogar) “QORA DARYO” OAJ(Javobgar)ga nisbatan Toshkent shahar xo‘jalik sudiga da‘vo arizasi bilan murojaat qilgan.

Da‘vo arizasida da‘vogar javobgar (“QORA DARYO” OAJ) korxonasida o‘tkazilgan tekshiruv natijasiga ko‘ra tabiatni muhofaza qilishga doir qonunlar talablari va atrof tabiiy muhit sifatining normativlariga rioya etish borasidagi dasturlar hamda ayrim tadbirlar bajarilmaganligi uchun javobgarning faoliyatini to‘xtatishni so‘ragan.

Javobgar o‘z e‘tiroznomasida O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasini o‘z vakolati doirasiga kirmaydigan vazifalarni bajarib, noqonuniy ravishda javobgar faoliyatini tekshirib, sudga murojaat qilgan. Chunki tabiatni muhofaza qilishga doir qonun talablari va atrof tabiiy muhit sifatining normativlariga rioya etish borasidagi dasturlar hamda ayrim tadbirlar bajarilmaganligi tekshirish da‘vogarning vazifasiga kirmaydi, vaxolanki o‘tkazilgan tekshiruv va uning xulosasi noqonuniy degan fikrga kelgan.

Sud da‘vogarning fikrini va javobgarning e‘tirozini tinglab da‘vogar da‘vo talabini qanoatlantirmagan.

– Aytingchi, sud qonuniy qaror chiqarganmi?

– O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi to‘g‘ri tekshiruv o‘tkazganmi yoki yo‘qmi, amaldagi qonun hujjatlariga ko‘ra o‘z fikringizni asoslang?

5. O‘zbekiston Respublikasi Hidrometeorologik tadqiqotlar Markazi boshqarmasining qayta tayinlangan rahbarlaridan biri o‘z xodimlariga

Toshkent viloyatidagi barcha tabiiy ob'ektlar holati ustidan davlat nazoratini amalga oshirishni buyurdi.

– Ushbu rahbarning buyrug‘i qonuniymi?

– Ekologiya nazorati sohasidagi davlat organlarining vakolatlari va funksiyalari qaysi normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi?

## T E S T

1. Quyidagilar energetika sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo‘nalishlari deb hisoblanadi. 1. Energetika tarmoqlarini monopoliyadan chiqarish tadbirlarini izchil amalga oshirish, davlat tomonidan tartibga solish darajasini pasaytirish, elektr energiyasini sotish sohasida raqobat muhitini yaratish, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning elektr uzatish liniyalariga bog‘lanishlari uchun teng imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratish, 2. Energetika tarmog‘ining yirik korxonalarini sotish, 3. Ijtimoiy infratuzilma ob’ektlarini, loyihalash, qurilish-montaj va tuzatish ishlarini olib boruvchi korxonalar va tashkilotlarni jadal sur’atlarda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, ular negizida mulkchilikning nodavlat shakllaridagi korxonalar, shu jumladan xususiy korxonalar tashkil etish 4. Energetika korxonalarini aksiyalashtirish, ishlab chiqaruvchi quvvatlar va elektr tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, texnika bilan qayta jihozlash va yanada rivojlantirish jarayonlariga chet el investitsiyalarini keng jalb qilish, 5. Elektr ishlab chiqarish, uni uzatish va sotish bo‘yicha boshqaruv tizimiga va xo‘jalik aloqalariga bozor tamoyillari va mexanizmlarini joriy etish, energetika quvvatlari va ko‘mir sanoatining o‘zaro bog‘liq va mutanosib rivojlanishini ta‘minlash. A) 1, 2, 3, 4, 5. B) 1, 3, 4, 5. V) 1, 2, 3, 5, G) 1, 4, 5.

2. Energetika bilan bog‘liq tushunchalar “1. Elektr energetikasi, - elektr energiyasini hosil qilish, uzatish, taqsimlash, sotish va iste‘mol qilish sohasi, 2. Yagona elektr energetikasi tizimi - elektr energiyasini hosil qiluvchi korxonalar, magistral elektr tarmoqlari, hududiy elektr tarmoqlari majmui va ularning tezkor-dispetcherlik boshqaruvi, 3. Elektr energetikasi ob’ektlari - elektr energiyasini hosil qiluvchi korxonalar, shuningdek elektr tarmog‘i xo‘jaligi ob’ektlari, 3. Elektr energiyasini hosil qiluvchi korxonalar - yagona elektr energetikasi tizimiga ulangan

statsionar elektr stansiyalari (issiqlik elektr stansiyalari, issiqlik elektr markazlari, gidroelektrostansiyalar, shuningdek qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanadigan boshqa elektr stansiyalari), 4. Elektr tarmog‘i xo‘jaligi ob‘ektlari - elektr energiyasini uzatishni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan elektr uzatish liniyalari, transformator podstansiyalari, taqsimlash punktlari, 5. magistral elektr tarmoqlari - elektr energiyasining mintaqalararo va (yoki) davlatlararo uzatilishini ta‘minlash uchun foydalaniladigan elektr tarmog‘i xo‘jaligi ob‘ektlari majmui, 6. hududiy elektr tarmog‘i - tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xududi doirasidagi elektr tarmog‘i xo‘jaligi ob‘ektlari majmui.” berilgan?

A) “Elektr energetikasi to‘g‘risida”gi qonunda B) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 22 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi energetikasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish to‘g‘risida”gi farmonida V) “Energiyadan oqilona foydalanish to‘g‘risida”gi qonunda G) “Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni

3. Jamoat nazorati bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy asos.... hisoblanadi?

A) “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida” gi qonuni 26.08.2015, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi, qonuni 14.04.1999

B) “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun 09.12.1992, “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun, “Davlat sanitariya nazorati to‘g‘risida”gi qonuni 03.07.1992, “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi Qonun 27.12.2013

V) “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonuni, “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida”gi qonuni

G) Barcha javoblar to‘g‘ri

4. Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazorati kim tomonidan amalga oshiriladi ?

A) O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar, Sog‘liqni saqlash, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirliklari va davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari tomonidan.

B) O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitalari, va Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan.

V) A va B javoblar to‘g‘ri.

G) Faqat Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

5. Ekologik nazorat tizimini ko‘rsating ?

A) Davlat atrof tabiiy muhit holatini kuzatib borish xizmati

B) Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazorati

V) Idoraviy, ishlab chiqarish va jamoat nazorati

G) Barcha javoblar to‘g‘ri

6. Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi idoraviy ekologik nazorati deganda nimani tushunasiz ?

A) Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi nazoratini korxonalar, birlashmalar, tashkilotlarning ekologiya xizmati tomonidan amalga oshirilishi va tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni tiklash, atrof tabiiy muhitni sog‘lomlashtirish, tabiatni muhofaza qilishga doir qonunlarning talablari bajarilishi yuzasidan dasturlar hamda ayrim tadbirlar ijrosini tekshirish.

B) Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning ekologiya xizmati shu vazirlik, davlat qo‘mitasi yoki idora tasarrufidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyati ustidan tabiatni muhofaza qilish sohasidagi nazoratni amalga oshirishi.

V) Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi ekologik nazoratni jamoat birlashmalari, mehnat jamoalari, fuqarolar tomonidan amalga oshirilishi.

G) Bunday ekologik nazorat turi mavjud emas.

7. Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi ishlab chiqarish ekologik nazorati deganda nimani tushunasiz ? A) ekologik nazorati xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan o‘z xo‘jalik faoliyatida va boshqa faoliyatda amalga oshiriladi.

B) Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning ekologiya xizmati shu vazirlik, davlat qo‘mitasi yoki idora tasarrufidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyati ustidan tabiatni muhofaza qilish sohasidagi nazoratni amalga oshirishi.

V) Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi ekologik nazoratni jamoat birlashmalari, mehnat jamoalari, fuqarolar tomonidan amalga oshirilishi.

G) Bunday ekologik nazorat turi mavjud emas.

8. Yerlarning ishlab chiqarish chiqindilari va boshqa chiqindilar, kimyoviy va radioaktiv moddalar, oqova suvlar bilan ifloslanishi, shuningdek tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsadidagi yerlardan, suv fondi yerlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini qanday organ amalga oshiradi?

A) O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi    B) O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi

V) O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi

G) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

9. Atmosfera ifloslanishi, yer usti suvlarining, tuproqning ifloslanishi monitoringi qaysi organ tomonidan amalga oshiriladi ?

A) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Hidrometeorologiya xizmati markazi tomonidan.

B) O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan.

V) O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan.

G) O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi tomonidan.

10. "Ekosan" bu .... dir.

A) Xalqaro tashkilot

B) Mahalliy jamg'arma

V) Respublika jamg'armasi

G) Xalqaro jamg'arma

11. Energetika sohasini tartibga soluvchi davlat organlari tizimi deganda biz... tushunamiz

A) Energetika sohasini tartibga soluvchi Umumiy vakolatli davlat organlarini

B) Energetika sohasini tartibga soluvchi maxsus va alohida vakolatli davlat organlarini

V) Energetika sohasini tartibga soluvchi tarmoq organlarini

G) A va B

## NAZARIY SAVOLLAR

1. Energetika sohasida ekologik huquqiy talablar va nazoratni amalga oshirishning zarurati?

2. Energetika sohasida atrof muhitni muhofaza qilishga oid ekologik talablarning huquqiy asoslari: tizimli tahlil?

3. O'zbekiston Respublikasida Gidorotexnika inshootlarning xavfsiligi talablari?

4. Energetik xavfsizlikni huquqiy ta'minlash?

5. Mintaqaviy energetik xavfsizlik masalalari?



## **6-mavzu: AN'ANAVIY ENERGIYA RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

### **6.1 Hozirda an'anaviy elektr energiyasining holati**

Hozirgi vaqtda respublikaning mavjud ishlab chiqarish quvvati 12,9 GVtni tashkil etadi, shundan: issiqlik elektr stansiyasi - 11 ming MVt yoki 84,7 foiz; gidroelektrstansiya - 1,85 ming MVt yoki 14,3 foiz; blok stansiyalari va izolyatsiyalangan stansiyalar -133 MVt dan ortiq yoki 1 foiz.

Asosiy generatsiya manbalari 11 ta Issiklik elektr stansiyasi, shu jumladan 3 ta issiklik elektr markazi hisoblanadi. Zamonaviy tejamkor elektr energiya bloklarining quvvati 2825 MVt yoki Issiklik elektr stansiyasi umumiy quvvatining 25,6 foizini tashkil etadi.

2019 yilda respublika ichida ishlab chiqarilgan elektr energiyasining 89,6 foizi Issiklik elektr stansiyasi tomonidan ishlab chikarilgan. Shu bilan birga, yagona elektr energetika tizimining maksimal yuklamalar soatlarida energobloklarning umumiy kuvvati 8,6 ming MVt ni tashkil etdi.

Gidroenergetika 42 GES, shu jumladan umumiy kuvvati 1,68 GVt (umumiy GES quvvatining 90,8 foizi) bo'lgan 12 ta katta, 0,25 GVt (13,5 foiz) umumiy quvvati 28 KGES va 0,5 MVt bo'lgan 2 ta mikro GESlarni o'z ichiga oladi. Suv oqimi buylab quvvati 532 MVt (4 ta katta - 317 MVt va 26 KGES- 215 MVt) bulgan 30 ta gidro elektr stansiyalari faoliyat ko'rsatmoqda. Suv omborlarida umumiy quvvati 1,4 GVt bo'lgan 10 ta GES mavjud. Respublikaning gidro potensialidan foydalanish darajasi 27 foizni tashkil etadi.

Elektr energiyasini ishlab chiqarish manbalaridan yetkazib berish quyidagilarni o'z ichiga oluvchi 35-500 kV magistral tarmoqlar orqali amalga oshiriladi:

Respublika buyicha elektr energiyasini taksimlash va iste'molchilarga yetkazib berish quyidagilarni o'z ichiga oluvchi 0,4-110 kVt taqsimlash tarmoqlari orqali amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, elektr tarmoqlari ob'ektlarining asosiy qismi 30 yildan ortiq vaqt mobaynida ekspluatatsiya qilinmoqda. Jumladan, asosiy va taqsimlovchi tarmoqlarning 66 foizi, podstansiyalarning 74 foizi va

transformator punktlarining 50 foizdan ortig'i 30 yildan ortiq vaqt mobaynida ekspluatatsiya qilinmoqda. Bu esa elektr energiyasini taqsimlash va yetkazib berishda texnologik yo'qotish darajasining oshishiga olib keluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Respublika elektr energiya tizimi shartli ravishda 5 ta xududiy energiya uzelliga bo'lingan:

Shimoli G'arbiy (Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati);

Janubi G'arbiy (Kashqadaryo, Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyati);

Janubiy (Surxondaryo viloyati);

Sharqiy (Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari);

Markaziy (Jizzax, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shaxri).

2019 yil qish mavsumida yagona elektr energetika tizimining maksimal yuklamalar soatlarida yuklama 10,4 ming MVtni, minimal va maksimal yuklama o'rtasidagi fark 2,3 ming MVtni tashkil etdi.

Shu bilan birga, mavjud tartibga solish kuchlarini yetarli emasligi IES energobloklarining kunlik ko'shimcha kayta ishga tushirilishiga, mos ravishda, ortiqcha yoqilg'i sarflashga va texnologik uskunalarning qo'shimcha eskirishiga olib keladi.

Bundan tashqari quyidagi asosiy muammolar mavjud:

25 yil avval ishga tushirilgan IES energobloklarining past foydali ish koeffitsiyenti (25-35 foiz) va zamonaviy bug'-gaz uskunasi moslamalariga qaraganda yuqori yoqilg'i sarfi;

elektr ta'minotidagi ko'p sonli o'zilishlarga va elektr energiyasining sifat ko'rsatkichlarini yomonlashishiga olib keluvchi taqsimlovchi tarmoqlar va transformatorlarning yuqori darajada eskirganligi;

mavjud elektr uzatish liniyasi va transformatorlarning asosiy kismining kuch utkazish kobilyatining pastligi iste'molchilarga elektr energiyasini yetarli xajmda yetkazib berish imkoniyatini bermaydi;

elektr energetika ob'ektlarining past darajada avtomatlashtirilganligi va rakamlashtirilganligi texnologik buzilishlarning oldini olish va tezda bartaraf etishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Kuyosh energiyasining ulkan salohiyatiga karamay, Respublikada sanoat miqyosida quyosh elektr stansiyalari mavjud emas. Shu bilan birga

respublikaning shamol salohiyati yetarli darajada o'rganilmagan, natijada sanoat miqyosida shamol elektr stansiyalari mavjud emas.

O'z navbatida, respublikada energetikaning ushbu segmentini rivojlantirishning huquqiy asoslarini shakllantirish choralari ko'rilmoqda. Xususan, "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida" va "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'zbekistan Respublikasining qonunlari qabul qilindi, shuningdek, "Elektr energiyasi, shu jumladan, energiyaning kayta tiklanadigan manbalaridan elektr energiyasi ishlab chikaradigan tadbirkorlik subektlarini yagona elektroenergetika tizimiga ulash reglamenti" tasdiqlandi.

## **6.2 Energetika sohasida yer osti boyliklaridan foydalanishni huquqiy ta'minlash zarurati**

Hozirgi paytda qazib olinadigan yoqilg'i turlari - ko'mir, neft, tabiiy gaz va uran - dunyo energiya balansining asosi hisoblanadi, lekin ularning ko'lami har yili kamayib bormoqda. Oxirgi 40 yil ichida, dunyoda qazib olingan organik yoqilg'i, insoniyatning butun tarixi davomida qazib olinganidan oshib ketdi. Va hozirgi zamon darajasida energiya resurslari iste'mol qilinsa, dunyo miqyosida neft zahirasi 50 yilda, tabiiy gaz – 75 yilda, ko'mir – 150 yilda tugashi bashorat qilinmoqda.

Ta'kidlash kerakki, yer osti boyliklari nisbiy tushuncha bo'lib, me'yoriy hujjatlarda u nafaqat tuproq ostidagi, balki er yuzasi va suv ob'ektlari tubida, ya'ni er qa'rida joylashgan mineral moddalardir. Mineral — er yuzida va qa'rida fizik va kimyoviy jarayonlar natijasida vujudga kelgan, kimyoviy tarkibi va fizik xususiyatlari jihatdan deyarli bir xil bo'lgan jins (modda).

Er osti boyliklarining ekologik funksiyasi — ekologik tizimda turuvchi, er ustining tabiiy fundamenti, tuproq va ularni hosil qiluvchi ona jinslarning tarkib topishidagi mineral asosi ekanligi. Mineralning kimyoviy, fizik va biologik emirilishi natijasida ona jinslar hosil bo'ladi va tirik organizmlarning faoliyati natijasida ular tuproqqa aylanadi. Bunday tabiiy jarayon er osti minerallarini ekologik tizimlarda ishtirok etishini ta'minlab beradi.

Er osti boyliklarining iqtisodiy funksiyasi — insonlarning kundalik hayotidagi (energetika, qurilish, sanoat va h.k. jabhalarida) moddiy ehtiyojlarini qondirish maqsadidagi mineral xom ashyoligi.

O‘zbekistonda er osti boyliklaridan 100 dan ortig‘i mineral resurslar sifatida ishlatilib kelinmoqda. Ularning moliyaviy potentsiali 3,3 trln, yillik qazib olishning iqtisodiy ko‘rsatkichi 5,5 mlrd AQSH dollariga tengdir. Shuning uchun ham mineral xom ashyo bizning asosiy boyligimiz hisoblanadi. Ulardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish haqida “O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” degan asarda O‘zbekiston sobiq Ittifoqning mineral xom ashyo bazasi bo‘lgani va undan o‘ta shafqatsizlarcha — “tagi yo‘q bochka” kabi foydalanganliklarini alohida ta’kidlangan. Natijada ular ekologik tizimlarning buzilishiga, “oy landshafti”ga o‘xshash chiqindi moddalar tepaliklarini paydo qilishga, radioaktiv xavfli tegralarni vujudga keltirishga sabab bo‘lganini aytib o‘tgan. Endilikda bunday qayta tiklanmaydigan zaxiralardan qat’iy mezon asosida foydalanish, ularni qazib olish va qayta ishlash chog‘ida isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik kerak. Buning uchun eskirgan qayta ishlash va qazib olish uskunalari yangi texnologiyalar bilan almashtirish, rekonstruksiya qilish zarur. Tog‘-kon sanoatining chiqindilarini o‘zlashtirishni yanada kengaytirish hamda buzilgan erlarni qayta yaroqli holga keltirish talablarini amaliy qo‘llash lozim.

O‘zbekistonda er osti boyliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid bir qator qonun va qonun osti me‘yoriy hujjatlar qabul qilindi. Lekin bu bilan jamiyatdagi ushbu munosabatlarning huquqiy zamini yaratildi, deb bo‘lmaydi. Respublikamiz bozor munosabatlariga o‘tib borar ekan, tabiiy boyliklardan foydalanish va ularni muhofaza qilishni huquqiy tartibga solish o‘zgarib va takomillashib boraveradi. Eng asosiysi, er osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir huquqiy me‘yorlarni amaliyotda qo‘llash mexanizmini to‘liq ishlab chiqishdir. Aks holda qonunlarimiz “tishsiz” bo‘lib qolishi va jamiyatda huquqiy negilizm holati vujudga kelishi mumkin.

Er osti boyliklarining huquqiy holati — er osti boyliklarini muhofaza qilish, mineral xom ashyodan o‘ta samaradorlik bilan foydalanish va uning natijasida buzilgan tabiiy komplekslarni qayta tiklashda yuzaga keladigan munosabatlarni huquqiy tartibga solinishi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida er osti boyliklarining huquqiy holati Konstitutsiyada belgilangan imperativ normalar va uning asosida ishlab chiqilgan umumlashtirilgan normalar (Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida, Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida...), kodifikatsiyalangan (Er kodeksi, Jinoyat kodeksi, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, Fuqarolik kodeksi...) va ixtisoslashtirilgan (Er osti

boyliklari to'g'risida, mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risida) qonunlar va qonun osti normativ hujjatlar asosida tartibga solinadi.

Er osti boyliklaridan huquqiy foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir ijtimoiy munosabatlar ushbu huquq tarmog'ining predmetidir. Er osti boyliklarini huquqiy tartibga solish mazmuni ruxsat beruvchi, oldini oluvchi va taqiqlovchi huquqiy me'yorlar orqali ularni muhofaza qilish va ulardan o'ta samaradorlik bilan foydalanishdir.

Er osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofazalashning ekologik-huquqiy talablari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50, 54 va 55-moddalarida imperativ shaklda o'z aksini topgan. Ularga binoan har bir fuqaro yoki mulkdor atrof tabiiy muhitga (jumladan, er osti boyliklariga) nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishi va ulardan oqilona foydalanishi zarur. Ushbu shartlar kengaytirilgan tarzda tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunda berilgan bo'lib, unga muvofiq (18-modda) er osti boyliklaridan yuridik va jismoniy shaxslar quyidagi ekologik talablar asosida foydalanishlari mumkin: qazilma boyliklarni qazib olishda mineral xom ashyodan kompleks va oqilona foydalanish ta'minlansa; atrof tabiiy muhit va er osti boyliklari ifloslanishining oldi olinsa; foydalanilgan er uchastkalarini rekultivatsiya (qayta tiklash yoki buzilgan erlarni qayta madaniylashtirish ishlarini) qilinsa; qayta tiklanadigan foydali qazilmalardan tabiiy qayta tiklanishga erishilsa.

Er osti boyliklaridan foydalanish huquqi. Er osti boyliklaridan foydalanish huquqi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (respublika ahamiyatiga molik ob'ektlar uchun) litsenziya (ruxsatnoma)si asosida yuridik va jismoniy shaxslarga berilishi mumkin. Er osti boyliklaridan foydalanish muddatlari Er osti boyliklari to'g'risidagi qonunning 22-moddasiga muvofiq muddatli va muddatsiz bo'lishi mumkin. Agarda foydalanish muddati oldindan belgilanib qo'yilmagan bo'lsa, u muddati cheklanmagan hisoblanadi. Aksincha, agarda er osti boyliklaridan foydalanish litsenziyada belgilab qo'yilgan bo'lsa — cheklangan bo'ladi.

Er osti boyliklaridan foydalanishning olti turi mavjud:

- 1) geologik jihatdan o'rganish;
- 2) foydali qazilmalarni kavlab olish;
- 3) texnogen mineral hosilalardan foydalanish;
- 4) foydali qazilmalar bilan bog'liq bo'lmagan er osti inshootlarini qurish hamda ulardan foydalanish; chiqindilarni saqlash va ko'mib tashlash;
- 5) alohida muhofaza etiladigan geologik ob'ektlarni barpo qilish;



6) nodir tosh xom ashyosi namunalarini, paleontologik qoldiqlarni va boshqa geologik kolleksiyabop materiallarni to'plash.

Geologik o'rganish uchun berib qo'yish Qonunning 25-moddasida belgilangan tartibda tasdiqlangan er qa'rini geologik o'rganish loyiha — sxema hujjatlariga binoan amalga oshiriladi. Er qa'rini geologik jihatdan o'rganishga doir ekologik ekspertiza talab qilmaydigan ishlar ro'yxati ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Er qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqi maxsus litsenziyalar asosida amalga oshiriladi. Uning uchun er osti mineral boyliklardan foydalanish maqsadi, kon joylashgan maydon, texnogen hosilalardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan korxonalar loyihalari, qazib olish bilan bog'liq bo'lmagan inshootlarni qurish va ulardan foydalanish, zararli moddalar, radioaktiv chiqindilarni va ishlab chiqarish chiqitlarini joylashtirish huquqlari bo'lishi lozim.

Yuridik va jismoniy shaxslarga er osti boyliklaridan foydalanishning bir yo'la bir necha turi uchun litsenziyalar berilishi mumkin. Vazirlar Mahkamasi tomonidan berilgan litsenziya Er kodeksining 17-moddasiga muvofiq er osti boyliklaridan foydalanuvchilar uchun er uchastkasini ajratishga asos bo'la oladi.

Foydali qazilma konlarini tajriba-sanoat yo'sinida ishlatish (neft va gaz konlari bundan mustasno), er osti chuchuk suvlarini chiqarib olish, nodir tosh xom ashyosi namunalarini, paleontologik qoldiqlarni va boshqa kolleksiyabop geologik materiallarni to'plash uchun litsenziyaga muvofiq berib qo'yiladigan er osti boyliklari uchastkalariga kon ajratmasi talab qilinmaydi.

Geologiya va qidiruv ishlari moliyaviy ta'minlagan yuridik va jismoniy shaxslar qidirib topilgan konni ishlatish uchun litsenziyalar olishda mutlaq huquqqa egadirlar.

Xo'jalik va ro'zg'or ehtiyojlari uchun foydalanishga er osti boyliklarini berib qo'yish Er osti boyliklari to'g'risidagi qonunning 31-moddasi bilan alohida belgilab qo'yilgan. Unga binoan mahalliy xo'jalik ahamiyati uchun zarur mineral xom ashyo va er osti suvlarini qazib olish, er osti inshootlarini qurish maqsadida Vazirlar Mahkamasining maxsus litsenziyasisiz, lekin qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirish mumkin.

Aholi punktlarida, shahar atrofidagi yashil zonalarda, sanoat, transport, aloqa ob'ektlari, er osti mineral suvlarini chiqarib olish zonalarida va alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar doirasida er



qa'ring ayrim uchastkalaridan foydalanish cheklab yoki taqiqlab qo'yilishi mumkin.

Er osti boyliklaridan foydalanuvchilar yer osti boyliklari to'g'risidagi qonuniga muvofiq bir qator huquqlar va majburiyatlarga egadirlar.

Er osti boyliklaridan foydalanish huquqini cheklash, to'xtatib turish va tugatish "Er osti boyliklari to'g'risida"gi qonunning 34-moddasida ko'rsatilgan hollarda va Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda amalga oshiriladi.

### **6.3 Neft va gazni qidirish, ishlab chiqarish hamda qazib olish**

Neft va gazni qidirish, ishlab chiqarish hamda qazib olish bo'yicha bir qancha tashkilotlar faoliyat olib boradi.

Neft va gazni qidirish, ishlab chiqarish hamda qazib olish jarayonida takshilotlar quyidagi uch yo'nalishda vazifalarini amalga oshiradi:

1) O'zbekistonda yangi, barqaror energetik loyihalarni aniqlash, rivojlantirish, ularni ilgari surish hamda mamlakatning neft va gaz bozorida yetakchi maqomiga erishish;

2) atrof-muhit va jamiyatga nisbatan innovatsion hamda ijtimoiy mas'ullikni amalga oshirish;

3) tabiiy resurslardan oqilona samarali foydalanish.

Gaz sanoati — yer bag'ridan tabiiy gaz chiqarish, qattiq va suyuq yoqilg'ilardan sun'iy gaz olish, aholi va sanoat ta'minoti uchun quvurlardan gaz yuborish hamda gazdan kimyoviy mahsulotlar olish sanoati. Gazning asosiy turi yer bag'ring 200—7000 m chuqurlikdagi g'ovak jinslarida bo'ladigan yonuvchi tabiiy gazdir. Sun'iy gazlar qattiq va suyuq yoqilg'ini termik yo'l bilan qayta ishlash hamda ko'mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida hosil qilinadi.

Ta'kidlash kerakki, "O'zbekneftgaz" AJ aksiyadorlik jamiyati 1992 yilda o'z faoliyatini yagona neft-gaz kompaniyasi sifatida boshlagan. Uning oldida uglevodorodlarni qazib chiqarish hajmini jiddiy oshirish uchun mavjud imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanish, ular bilan ichki bozorni ta'minlash, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulot ishlab chiqarish uchun neft va gazni qayta ishlash bo'yicha texnologik jarayonlarni chuqurlashtirish, import o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarish va eksport bozorlariga chiqish, neft-gaz sohasiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish kabi vazifalar turgan.

Mamlakatda “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”, “Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilinib, Davlatimiz rahbarining “Neft va gaz konlarini razvedka qilish hamda ularni qazib chiqarishga bevosita xorijiy sarmoyalarni jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni va sohani rag‘batlantiruvchi qator boshqa hujjatlar e‘lon qilinishi bilan tarmoq uchun barqaror qonuniy asoslar yaratildi. “O‘zbekneftgaz” faoliyatining dastlabki yillarida Ko‘kdumaloq, Urg‘in, Janubiy Tandircha va boshqa konlar tez sur‘atlarda o‘zlashtirishga tayyorlanib, foydalanishga topshirildi.

Geologiya-qidiruv ishlarini kuchaytirish — uzoq yillarga yetadigan ishonchli xom ashyo bazasini yaratishning bosh omilidir. Asosiy maqsad — uglevodorodlarning sanoat zahiralari ko‘payib borishi ularni qazib olish hajmlaridan ortib ketishidan iborat. Buning uchun kompaniya neft va gaz konlarini izlash bo‘yicha yangi uslub va ilg‘or texnologiyalardan keng foydalana boshladi. O‘sha yillarda olib borilgan ishlar mamlakatning Buxoro-Xiva va Surxondaryo mintaqalari bu borada yuksak istiqbollarga ega ekanligini tasdiqladi. Jumladan, Ustyurtda boy zahiralari aniqlanib, uning hududida Surg‘il, Sharqiy Berdax, Uchsoy kabi yirik tabiiy gaz konlari ochildi.

Soha rivojlanishining yana bir muqobil yo‘nalishi — yuqori tezlikdagi piroliz texnologiyasi asosida yonuvchi slanetsdan sintetik neftni ishlab chiqarishdir. “O‘zbekneftgaz” AJ tomonidan 2015-2019 yillar davomida jami 54 ta investitsion loyihalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Shu bois respublikada xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Eng ahamiyatli investitsion loyihalar qatorida “Gazprom” va “Lukoil” (Rossiya), “CNODC” (Xitoy), “Petrovietnam” (Vetnam), “KNOC” (Janubiy Koreya Respublikasi), “SASOL” (Janubiy Afrika Respublikasi), Orol loyihasi bo‘yicha kompaniyalar Konsorsiumi va boshqa kompaniyalar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalarni aytib o‘tish mumkin.

Neft va gazni qazib chiqarish korxonalarida qator ochiq neft-gaz konlarini ishga tushirish hamda noan‘anaviy va qiyin chiqarib olinadigan zahiralarni qazib olish ishlari ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib, bu o‘z navbatida konlar xususiyatlarini o‘rganib chiqish, mahsuldor qatlamlarni ochish va uglevodorodlar oqimini jadallashtirish uchun eng samarali va maqbul texnologik vositalarni tanlab olishni talab qiladi.

Ochilgan aksariyat konlardagi gaz tarkibida oltingugurtning ko‘pligi bilan ajralib turadi. Gazli konidagi oltingugurtsiz gaz zaxiralarining bora-bora tugab borishi va shu sabab zudlik bilan kam oltingugurtli va yuqori

oltingugurtli gazlarni qazib chiqarishni tashkil etish ehtiyoji tabiiy gazni oltingugurtdan tozalash uchun mo'ljallangan gazni qayta ishlash zavodining qurilishini talab etar edi.

1972 yilda Muborak gazni qayta ishlash zavodining birinchi navbati ishga tushirildi va bu bilan O'zbekistonda gazni qayta ishlashga asos solindi. Bundan tashqari, respublikada intensiv ravishda o'zlashtirilayotgan neft va gaz konlari (Gazli, Sho'rton, Ko'kdumaloq, Zevarda, Qandim, Dengizko'l, Xavzaq, G'arbiy Alan, Urga va boshqalar) neft va tabiiy gaz qazib chiqarish hajmlarini oshirish, mazut, dizel yoqilg'isi, texnik neft moylarini ishlab chiqarish hajmlarini sezilarli darajada kengaytirish, ularni yaqin va uzoq xorij mamlakatlariga eksport qilish imkonini berdi.

Gaz sanoatining rivojlanishi bilan bir qatorda gazdan foydali komponent - neftni qayta ishlash zavodlari uchun qimmatbaho xom ashyo sanalmish gaz kondensatini ajratib olish hajmlari ortib bordi.

#### **6.4 Tabiiy gaz va elektr energiyasini aholi va tadbirkorlik sub'ektlarga sotish mexanizmini yanada takomillashtirish**

Tabiiy gaz va elektr energiyasini aholi va tadbirkorlik sub'ektlarga sotish mexanizmini yanada takomillashtirish, ularning iste'moli uchun to'lovlarning o'z vaqtida va to'liq undirilishini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 iyun "Tabiiy gaz va elektr energiyasini sotish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilingan.

Unga ko'ra, 2020 yil 1 avgustdan majburiy ijro byurosining elektr energiyasi va tabiiy gaz iste'molini nazorat qilish va hisobga olishning zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlari, shuningdek, muqobil energiya manbalarining joriy etilishini tashkil etish va ushbu jarayonlar ustidan monitoring o'tkazishga doir vazifa va vakolatlarini - O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligiga o'tkazildi.

Elektr energiyasi va tabiiy gaz uchun to'lovlarning o'z vaqtida va to'liq undirilishini ta'minlash, iste'molchilarning qarzdorligi kamaytirish, shuningdek, elektr energiyasi va tabiiy gaz sotuvi va iste'molini hisobga olish bo'yicha vazifa va vakolatlarini - tegishli "Hududiy elektr tarmoqlari" AJning hududiy korxonalariga va "Hududgazta'minot" AJning hududiy gaz ta'minoti tashkilotlariga berilgan.

Elektr energiyasi va tabiiy gazni ehtiyot qilish va ulardan oqilona foydalanish yuzasidan iste'molchilarning huquqiy madaniyati va

mas'uliyatini oshirish choralari ko'rishga doir vazifa va vakolatlarini - tegishli O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligiga, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJga va "Hududgazta'minot" AJga yuklatildi.

## 6.5 Elektr-energetika sektori ko'mir yonilg'isining asosiy iste'molchisi

O'zbekiston ko'mir sanoati tashkil topishi ikkinchi jahon urushi boshlangunga qadar ochilgan Markaziy Osiyodagi eng yirik Angren konining sanoat o'zlashtirilishi boshlanishiga to'g'ri keladi. Kondan foydalanish 1940-1943 yillarda oltita shaxta joylashmasi bilan yerosti usulida boshlangan. Ko'mir ochiq koni qurilishi 1941 yilda boshlangan. 1948 yilda Angren ochiq koni foydalanishga topshirilgan va ushbu sana O'zbekiston ko'mir sanoati rivojlanishining boshlanishi hisoblanadi, chunki mazkur ochiq kon nafaqat Respublikada, balki butun O'rta Osiyoda ham asosiy va eng yirik ko'mir qazish korxonasi hisoblanadi.

Ko'mir tarmog'i islohotlari 1994 yildan, O'zbekiston Respublikasi "O'zbekko'mir" AJ o'zining butun faoliyati mobaynida O'zbekistonda ko'mir qazib olish va yetkazib berish ishlarini amalga oshirib kelmoqda. Hozirda ko'mir tarmog'i xodimlari tomonidan yiliga 4 mln tonnadan ortiq ko'mir qazib olinadi. Elektr-energetika sektori ko'mir yonilg'isining asosiy iste'molchisi bo'lib, umumiy ko'mir iste'molining 85 foizidan ortig'i ushbu tarmoq hissasiga to'g'ri keladi. Sanoat korxonalari, ijtimoiy va kommunal, o'quv sohalari, aholi ham qattiq yonilg'iga talabni yuzaga keltiradi. Hozirgi vaqtda ko'mirning katta qismi Angren kul rang ko'mir konidan qazib olinadi. Shuningdek "Shargunko'mir" ko'mir tarmog'i tarkibida Surxondaryo viloyatida toshko'mir konlarini qazib olmoqda.



Respublika iqtisodiyotini ta'minlashda neft-gaz sektori birlamchi yoqilg'i-energetika resurslarining 97% ni yetkazib bermoqda. Birlamchi yoqilg'i-energetika resurslarini iste'mol qilishda ko'mirning ulushi 2,5%



ga to'g'ri keladi.

Hozirgi vaqtda ko'mir tarmog'ini ustuvor rivojlantirish doirasida asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- zamonaviy tog'-kon transport texnikasi qo'llanilishi, ko'mir sanoati korxonalarini modernizatsiyalash, tiklash va texnik qayta ta'minlash, elektr energiya ishlab chiqarish tarkibida ko'mir hissasini ko'paytirish hisobiga ko'mir qazib olishni bosqichma-bosqich oshirish;

- yuqori qo'shimcha qiymatli yakuniy mahsulot olish uchun ko'mirni qayta ishlashning ustuvor yo'nalishlarini tanlash;

- aholiga va budjet tashkilotlariga yetkazib beriladigan ko'mir qazib olish hajmlarini va sifatini oshirish;

- ko'mir tarmog'i korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, operatsion chiqimlar, debitorlik va kreditorlik qarzlari kamaytirilishini ta'minlaydigan moliya mexanizmlarini joriy qilish, moddiy-texnik yangilanish va rivojlanish uchun vositalar bilan ta'minlash;

- istiqbolli zonalarda geologiya-qidiruv ishlarini o'tkazish asosida ko'mir xom ashyosining zaxira bazasini oshirish;

- ko'mir tarmog'ini malakali kadrlar bilan ta'minlash.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida ko'mir sanoatini modernizatsiya qilish, rivojlantirish va ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik va texnologik qayta jihozlashga alohida e'tibor qaratilmoqda, ko'mir qazib olish hajmini oshirish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda har yili xonadonlarga 1 million tonna, ijtimoiy soha ob'ektlariga 400 ming tonna ko'mir yetkazib beriladi. Yangi Angren va Angren issiqlik elektr stansiyalarida energiya ishlab chiqarish uchun 4 million tonna ko'mir yoqiladi.

Bu borada keyingi yillarda ko'mir sanoatida geologiya qidiruv va kon yuzini ochish ishlarini jadallashtirish, ko'mir konlarining yangi ufqlarini ishlab chiqishga faol jalb etish yo'li orqali ko'mir qazib olish zaxiralari va hajmlarini oshirishga yo'naltirilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 iyundagi PQ-3054-sonli "Ko'mir sanoatini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish dasturi to'g'risida"gi qarori qabul qilingan. Ta'kidlash lozimki, respublika aholisi va budjet tashkilotlarini sifatli ko'mir va ko'mir briketlari bilan uzluksiz ta'minlash, ko'mir mahsulotlarini yetkazib beruvchi va taqsimlovchi tashkilotlar mas'uliyatini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 30 dekabr 422-sonli



“Respublika aholisi va budget tashkilotlariga ko‘mir mahsulotlari yetkazib berish mexanizmini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan.

## **6.6 Suv-energetika resurslaridan foydalanish (gidroenergiya – tabiiy suv energiyasi)**

Mamlakatimizda suv-energetika resurslaridan samarali foydalanish, gidroenergetika tizimida zamon talabiga mos boshqaruv usullarini joriy etishni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Gidroenergiya – tabiiy suv energiyasi sifatida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ilm–fan taraqqiyoti jadallashgan bugungi kunda, xalq xo‘jaligida gidroenergetika tarmog‘i va uning ko‘lami butunlay yangicha mazmun va mohiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston bu borada amaliy tajribaga ega va diyorimizdagi suv resurslari biz uchun noyob tabiat ne‘mati hisoblanadi.

O‘zbekiston gidroenergetika resurslariga boy mamlakat hisoblanadi. Bu borada respublikamizda o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lgan gidroenergetika resurslari yiliga 27,4 milliard kilovatt/soat elektroenergiya ishlab chiqarish hajmiga tengligini aytishning o‘zi kifoya. Shu bilan birga, hozirda mamlakatimiz gidroenergetika salohiyatining atigi 6,5 milliard kilovatt/soati yoki 23,7 foizi o‘zlashtirilgan, xolos.

Gidroenergetika resurslari tabiiy, ekologik toza va qayta tiklanuvchi energiya manbai bo‘lgani sababli ulardan foydalanishni har tomonlama kengaytirish respublikamizning zamonaviy taraqqiyot strategiyasiga mosdir. Bu sanoat va kommunal korxonalar, qishloq xo‘jaligi va hududlarda aholining elektr energiyasiga bo‘lgan oshib borayotgan ehtiyojini kafolatli qoplashni, mamlakatimizdagi organik yoqilg‘i zaxiralaridan oqilona foydalanish va ularni tejashni, shuningdek, atrof-muhitga zararli chiqindilar chiqarilishi kamaytirilishini ta‘minlaydi.

Bugungi kunda O‘zbekiston gidroenergetika sohasi 36 ta gidroelektrostansiyalarni o‘z ichiga oladi, ulardan 25 tasi qirq-sakson yil muqaddam ishga tushirilgan va o‘zining texnik resurslarini deyarli o‘tab bo‘lgan, asbob-uskunalar va inshootlar modernizatsiya va rekonstruksiya muhtojdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 maydagi 2017-2021 yillarda gidroenergetikani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risidagi PQ-2947-sonli qarori respublikamizning gidroenergetika salohiyatidan samarali foydalanish, elektr energiya ishlab

chiqarish tarkibida qayta tiklanuvchi gidroenergetik resurslar ulushini oshirish, yangi ekologik toza ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish hamda mavjud gidroelektrostansiyalarni texnik va texnologik qayta jihozlash maqsadida qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 maydagi “O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish to‘g‘risida” PF-5044-sonli Farmoni va “O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyati faoliyatini tashkillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2972-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 iyundagi “O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyati faoliyatini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 407-sonli qarori ijrosiga muvofiq tashkil etilgan.

“O‘zbekgidroenergo” AJning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- gidroelektrostansiyalarda elektr energiyasi ishlab chiqarish sohasida yagona texnik siyosatni amalga oshirish, gidrotexnik inshootlardan xavfsiz va samarali foydalanishni ta‘minlash, shuningdek, gidroenergetika ob‘ektlarini markazlashtirilgan texnologik boshqarish;

- gidroenergetika salohiyatini kompleks o‘zlashtirish asosida gidroenergetika sohasini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda respublikamizning energetika balansi tarkibida gidroenergetikaning ulushini ko‘paytirishni ta‘minlash;

- yirik, o‘rta, kichik va mikro gidroelektrostansiyalarni loyihalashtirish va qurish sohasida zamonaviy va har tomonlama chuqur asoslangan ilmiy-texnik yechimlar asosida yangi gidroelektrostansiyalar qurish va ishlab turganlarini modernizatsiyalash bo‘yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

- yangi gidroelektrostansiyalar qurish va ishlab turganlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirishga xorijiy investitsiyalar va ilg‘or texnologiyalarni jalb etish bo‘yicha xalqaro kompaniyalar va moliya institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish;

- respublikamizning suv salohiyatiga tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lishni ta‘minlash, gidrotexnika inshootlarini qurish va ulardan foydalanishda mavjud flora va faunani saqlash, shuningdek, mamlakatimizning iqlim, tabiiy va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda suv resurslarini samarali boshqarish;

□ gidroenergetika sohasida oliy va oʻrta maxsus maʼlumotga ega boʻlgan kadrlarni tizimli asosda tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish.

“Oʻzbekgidroenergo” AJ mamlakatimizda gidroenergetika salohiyatini yanada rivojlantirish va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, gidroenergetika salohiyatini kompleks oʻzlashtirish asosida gidroenergetika sohasini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish borasida respublikadagi yagona tashkilot hisoblanadi.

“Oʻzbekgidroenergo” AJning tashkiliy tuzilmasi tarkibida aksiyadorlik jamiyatlari, unitar korxonalar mavjud.

“Oʻzbekgidroenergo” AJning tizim tashkilotlari, “Oʻrta Chirchiq GESlari kaskadi” UK, “Chirchiq GESlari kaskadi” UK, “Qodiriya GESlar kaskadi” UK, “Toshkent GESlari kaskadi” UK, “Quy Boʻzsuv GESlar kaskadi” UK, “Farhod GES” UK, “Samarqand GESlari kaskadi” UK, “Shahrixon GESlar kaskadi” UK, “Andijon GES” UK, “Tuyamoʻyin GES” UK, “Toʻpolang GES” UK, “Andijon GES -2” UK, “Ohangaron GES” UK, “Hisorak GES” UK, “Ertoshsoy GES” UK, “Tuyaboʻgʻiz kichik GES” UK, “Katta Fargʻona kanalidagi kichik GESlar kaskadi” UK, “Qamchiq GES” UK.

Aksiyadorlik jamiyatlari

“Gidroproyekt” AJ, “Cuvsanoatmash” AJ, “Gidromaxsusqurilish” AJ, “Oʻzbekgidroenergoqurilish” AJ.

“Gidroproyekt” AJ – gidrotexnik loyihalashtirish va qurish, gidroenergetik, gidrotexnik obʼektlarni kompleks loyihalashtirish, yuqori xavfli obʼektlar va potensial xavfli sanoat tarmoqlarida loyiha-qidiruv va tajriba-laborator ishlarini kompleks amalga oshirish asosiy faoliyat turi hisoblanadi. 1931 yil mart oyida Birinchi Oʻrta Osiyo energetika qurultoyida Oʻrta Osiyo respublikalarining elektrifikatsiya bosh rejasi qabul qilinishi Gidroproyekt institutining tashkil etilishiga turtki berdi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 maydagi PF-5044-son Farmoni asosida Jamiyat “Oʻzbekgidroenergo” AJning tashkiliy tuzilmasi tarkibiga kirdi.

“Cuvsanoatmash” AJ 1955 yil Toshkent tajriba mexanika ekskavator taʼmirlash zavodi sifatida ish faoliyatini boshlagan. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 maydagi PF-5044-son Farmoniga asosan, “Oʻzbekgidroenergo” AJning tizim tashkiloti

sifatida faoliyat olib bormoqda. “Suvsanoatlash” AJ GESlar uchun zaruriy gidrotexnika jihozlarini yasash bilan shugʻullanadi. Respublikada yagona tashkilot hisoblanadi.

“Gidromaxsusqurilish” AJ - ixtisoslashtirilgan korxonalar 1961 yil tashkil etilgan. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 maydagi PF-5044-sonli Farmoni hamda 2017 yil 18 maydagi PQ-2972-sonli Qarori asosida “Gidromaxsusqurilish” aksiyadorlik jamiyati “Oʻzbekgidroenergo” AJ tarkibiga kiritildi. Hozirgi vaqtda jamiyat yuqori malakali mutaxassislar, zamonaviy uskunalar va texnologiyalarga, xodimlarning katta tajribasiga tayanib, quyidagi maxsus ishlarni bajarib kelmoqda: turli kesimlarda yer osti joylarni qurish; karer va avtoyoʻllarda ochik burgʻulash-portlatish ishlari, tuproqni yumshatish, konturli portlatish ishlarini qoʻllagan holda kotlovanlardagi maxsus ishlar; maxsus gidrotexnik ishlar; baland inshootlarni (balandligi 130 m gacha boʻlgan gradiren) qurish; quduqlarni burgʻulash va ularni 300 m gacha chuqurlikka suvga joylashtirish; tunnellar va koʻpriklar qurish va boshqalar.

“Oʻzbekgidroenergoqurilish” AJ – 1932 yilda “Chirchikstroy” shaklida tashkil etilgan. Uning asosiy faoliyati Chirchiq daryosida ikki zinali gidroelektrostansiya qurish, azot oʻgʻitini ishlab chiqaruvchi yirik korxonalar qurishdan iborat edi. 1934 yilda “Chirchikstroy” shu nomdagi davlat qurilish-montaj trestiga aylantiriladi. 1957 yilda esa “Oʻzbekgidroenergostroy” tresti sifatida qayta tashkil etiladi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 maydagi PF-5044-sonli Farmoni hamda 2017 yil 18 maydagi PQ-2972-sonli Qarori asosida “Gidromaxsusqurilish” aksiyadorlik jamiyati “Oʻzbekgidroenergo” AJ tarkibiga kiritildi. Korxonaning asosiy faoliyati quyidagilardan iborat: qurilish-montaj, maxsus qurilish va montaj, taʼmirlash ishlari, shu qatorda gidrotexnik va boshqa maxsus ishlar; taʼmirlash-tiklash, transport, poligrafik xizmatlar; kadrlarni tayyorlash va boshqalar.

Aytish joizki, gidroelektrostansiyalarning umumiy sonidan yiliga oʻrtacha 5,2 milliard kilovatt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatiga ega 28 tasi “Oʻzbekenergo” aksiyadorlik jamiyati tizimiga kiradi, yiliga oʻrtacha 1,3 milliard kilovatt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatiga ega 8 ta gidroelektrostansiya esa Suv xoʻjaligi vazirligi tasarrufidagi “Oʻzsuvenergo” birlashmasi tasarrufidadir.

Mamlakatimiz energetika tizimining barqaror va ishonchli faoliyatini ta'minlash maqsadida "O'zbekenergo" aksiyadorlik jamiyatining quyidagi huquqlari saqlab qolindi:

mavjud Milliy dispetcherlik markazi orqali "O'zbekgidroenergo" aksiyadorlik jamiyati korxonalarini tezkor-dispetcherlik boshqarish masalalarini yaxlit muvofiqlashtirish;

"O'zbekgidroenergo" aksiyadorlik jamiyati korxonalari tomonidan ishlab chiqariladigan elektr energiyasini yuz foiz xarid qilish.

Farmon ijrosi doirasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekgidroenergo" aksiyadorlik jamiyati faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori bilan tashkil etilayotgan "O'zbekgidroenergo" aksiyadorlik jamiyatining tuzilmasi tasdiqlandi va uning ustav jamg'armasini shakllantirish va ta'sis hujjatlarini tasdiqlash bilan bog'liq tegishli topshiriqlar berildi.

"O'zbekgidroenergo" aksiyadorlik jamiyatiga respublikamizda va xorijda, jumladan, yetakchi xorijiy injiniring, konsalting va qurilish kompaniyalari bilan hamkorlikda investitsiya loyihalarini hamkorlikda amalga oshirish uchun konsorsiumlar va ixtisoslashgan sho'ba korxonalar tashkil etishga ruxsat berildi.

"Gidroloyiha" aksiyadorlik jamiyati "O'zbekgidroenergo" aksiyadorlik jamiyatining investitsiya loyihalari bo'yicha loyihaoldi va loyihalash hujjatlarini ishlab chiqish borasida bosh loyihalovchi etib belgilandi, "To'polangsuvGESqurilish" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga esa xalqaro moliyaviy institutlar va donor mamlakatlarning shartlari asosida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalaridan tashqari "O'zbekgidroenergo" aksiyadorlik jamiyati ob'ektlarini qurish va modernizatsiya qilish bo'yicha bosh pudratchi funksiyalari yuklandi.

O'z navbatida, "Gidroloyiha" aksiyadorlik jamiyatiga "O'zbekgidroenergo" aksiyadorlik jamiyati bilan kelishilgan holda, gidroenergetika ob'ektlarini qurish va modernizatsiya qilish bo'yicha investitsiya loyihalari doirasida loyihaoldi va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish uchun eng yaxshi mahalliy va xorijiy ixtisoslashtirilgan loyiha va injiniring tashkilotlarini, shuningdek, yetakchi mutaxassislar va ekspertlarni, subpudratchilar sifatida ularning ishini muvofiqlashtirgan holda, shartnoma asosida jalb etish huquqi berildi.



Gidroenergetika sohasining oliy va oʻrta maxsus maʼlumotli, kasb-hunarga ega malakali kadrlarga boʻlgan talabini aniqlash va ularni respublikamizning oliy taʼlim muassasalari va kasb-hunar kollejlari, idoraviy mansubligidan qatʼi nazar, tayyorlash boʻyicha masʼul organ funksiyalari “Oʻzbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyatiga yuklandi.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi, Oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi markazi, Oʻzbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi va “Oʻzbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyatiga boshqa manfaatdor vazirlik, idoralar va xoʻjalik birlashmalari bilan birgalikda bajarish uchun quyidagi topshiriqlar berildi:

gidroenergetika sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash borasida oliy maʼlumot yoʻnalishlari va mutaxassisliklari, oʻrta maxsus, kasb-hunar yoʻnalishlari, kasblari va mutaxassisliklari roʻyxatini hamda ularni tayyorlovchi oliy taʼlim muassasalari va kasb-hunar kollejlari aniq belgilash;

gidroelektrostansiyalarda, gidrotexnika va gidroenergetika bilan bogʻliq korxonalar va tashkilotlarda majburiy oʻqish, amaliyot va tajriba oʻtashni kiritgan holda, taʼlim standartlari, oʻquv rejalari va dasturlarini zamonaviy talablar va xalqaro tajriba asosida tanqidiy qayta koʻrib chiqish;

har yili ixtisoslashtirilgan oliy va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalariga qabul kvotalarini shakllantirish davomida 2017-2021 yillarda gidroenergetikani yanada rivojlantirish boʻyicha qabul qilingan Dastur amalga oshirilishini inobatga olgan holda, gidroenergetika sohasining malakali mutaxassislarga boʻlgan haqiqiy talabini inobatga olish;

oliy taʼlim muassasalari va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining tanlagan kasblari va mutaxassisliklari boʻyicha gidroenergetika sohasidagi korxonalar va tashkilotlarda ish bilan taʼminlanishlari ustidan nazorat, shuningdek, birinchi navbatda, oʻrta maxsus va kasb-hunar taʼlimi muassasalari rahbarlari javobgarligini oshirishning amaliy mexanizmlarini taʼminlash.

## KAZUSLAR

1. Xususiy korxonamizning asosiy faoliyat turi pishgan g'isht ishlab chiqarish hisoblanadi. 2010 yil 1 yanvardan boshlab korxonaning ishlab chiqarish uskunalari to'liq modernizatsiyalandi, ya'ni ko'mirda ishlash texnologiyalariga almashtirildi. O'zdavneftgazinspeksiyaning xulosasiga asosan bizga, Prezidentning 2009 yil 19 iyundagi PQ-1134-son qaroriga ko'ra, barcha soliq to'lovlari bo'yicha imtiyozlar berilgan.

Biz pishgan g'isht ishlab chiqarish uchun yer qa'ridan foydalanganlik solig'i solinadigan foydali qazilmalarni kavlab olganimiz uchun yer qa'ridan foydalanganlik solig'ini to'lovchi hisoblanamizmi?

2. Bizning korxonamiz, asosiy faoliyatdan tashqari, yog'och va aluminiy profilidan eshik va romlar tayyorlash bilan shug'ullanadi; ulgurji va chakana savdo qiladi; qurilish pudrat ishlarini bajaradi.

U mazkur faoliyat turlari bo'yicha umumbelgilangan soliqlarni to'lashi shartmi yoki yagona soliq to'lovini to'lashi mumkinmi?

Ushbu holatga huquqiy baho bering.

2. Da'vogar aksiyadorlik jamiyati "O'zelektropriborsavdo" Toshkent shahar xo'jalik sudiga murojaat qilib, javobgar "O'zenergonazorat" ishlab chiqarish korxonasidan ortiqcha to'langan 169600 so'mni undirib berishni so'ragan. "O'zenergonazorat" ishlab chiqarish korxonasi bilan 2007 yil 31 dekabrda tuzilgan shartnomaga asosan "O'zelektropriborsavdo" elektroenergiyadan foydalangan va 2008 yil 1 iyulgacha 2,2 so'm tarif bo'yicha nosanoat iste'molchi (5-chi tarif guruhi bo'yicha) sifatida to'lagan. 2008 yil 27 iyunda yangi Preyskurant PR 34-01-98 amalga kiritilishi bilan "O'zenergonazorat" bir tarafdama qo'shimcha kelishuvsiz va xabar qilinmasdan uni 5-guruhdan 6-guruh iste'molchiga o'tkazilgan va da'vogarning hisob raqamidan 240000 so'm akseptsiz tartibda olingan.

Oliy xo'jalik sudi raisi o'rinbosarining protestini, ish materiallarini o'rganib va muhokama qilib, quyidagi asoslarga ko'ra protest qanoatlantirilishi lozim deb topdi.

Sudlov hay'ati apellyatsiya instansiyasining "O'zelektropriborsavdo" OTAJ 5-guruh elektr iste'molchidan 6-guruhga o'tkazish haqida xulosalarining qonuniyligini tekshirish asosida ko'rib chiqib Toshkent shahar xo'jalik sudining qarorini bekor qilgan. Apellyatsiya instansiyasining xulosasiga lozim darajada baho berilmasdan, tarifni tasdiqlovchi me'yoriy hujjat O'zbekiston

Respublikasi Adliya vazirligidan 2008 yil 23 oktabrda ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng kuchga kirganligi inobatga olinmagan.

Ushbu holat nizoni mohiyati bo'yicha hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Ish hujjatlarida Energetika va elektrifikatsiya vazirligi tasdiqlagan 2008 yil 9 oktabrda Moliya vazirligi bilan kelishilgan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2008 yil 23 oktabrda 512-sonli "Elektr va issiqlik energiyasi iste'molchilari tarif guruhlari hahida"gi Nizom ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida Adliya vaziri o'rinbosarining 11.01.1999 yildagi 20-014172/5-sonli xati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 9 oktabrdagi 469-sonli qarorining 1-bandiga asosan vazirlik, davlat qo'mitasi va idoralarning umummajburiy tUSDagi me'yoriy hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vaqtdan boshlab kuchga kiradi va ijro etiladi, agar hujjatda uni ijro etishning kechroq muddati ko'rsatilmagan bo'lsa. Shu bilan bog'liq ravishda "Elektr va issiqlik energiyasi iste'molchilari tarif guruhlari hahida"gi Nizomni amal qilish kuchi sanasi 2008 yil 23 oktabrda Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan uni o'tkazilgan sana bo'lib hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, Nizom or'aga qaytarish kuchiga ega emas, u amalga kiritilgunga qadar 1991 yil yanvardan boshlab kuchga kiritilgan "Elektr va issiqlik energiyasiga tariflar" 09-01-sonli Preyskurant amalda bo'lgan. Shu sababli, da'vogarning noqonuniy ushlab qolingani summalarini qaytarish haqidagi talabi qanoatlantirilishi lozim, chunki "Elektr va issiqlik energiya iste'molchilari tarif guruhlari haqida"gi Nizom 2008 yil 23 oktabrda ro'yxatdan o'tkazilib 2008 yil iyun-avgust oylarida vujudga kelgan energiya ta'minoti xizmati haqini to'lash bilan bog'liq munosabatlarga tadbir etilmaydi.

3. Rossiya fuqarolari Chudakov va Semenov foydali qazilma konlarini ochuvchi deb e'tirof etish (foydali qazilma konlarini ochish huquqini olish uchun) uchun O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi huzurida Kon ochuvchilar ishlari bo'yicha markaziy idoralararo komissiyasiga buyurtma bilan murojaat qiladi. Buyurtmada foydali qazilma koni, uning topilishi tarixi, geologiya-razvedka ishlarining turli bosqichlarida ob'ektning ochilishi va o'rganilishida qatnashgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd etadi. Lekin komissiya buyurtmada zarur ma'lumotlar taqdim etilmagan va xorijiy fuqarolar kon ochuvchilar deb tan olinmaydi degan sabab bilan uni qabul qilmaydi.

– Komissiyaning harakatlari qonuniymi bu borada qonunchilik qanday ko‘rsatma beradi?

– Kimlar va qanday tartibda kon ochuvchilar deb e‘tirof etiladi?

Muhokama qiling.

4. Neft gaz sohasida masxusus vakolatli organ tomonidan gazni va neftni yer ostida saqlash litsenziyasi “Moyqo‘rg‘on” tashkilotiga 15 yil muddatga beriladi. Lekin sud litsenziyada tomonidan mazkur litsenziya qonuniy kuchga ega emas deb topiladi.

– Sizningcha mazkur holatda qaysi organning harakatlari qonuniy emas?

Muhokama qiling.

5. Toshkent shahrida yashovchi fuqaro Ya. o‘z uyi hovlisida 15 metr chuqurlikdagi neft zahirasiga tegishli qurilmalar o‘rnatib, daromad olish ilinjida uni sotishga kirishdi.

– Mazkur holatda fuqaro Ya. yer osti neft zahirasidan foydalanishga haqlimi?

Mazkur holatni muhokama qiling.

6. Foydali qazilma konlarni qazib olish uchun ixtisoslashgan tashkilot tomonidan alohida muhofaza etiladigan geologik ob‘ekt qurish O‘zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasiga yer qa‘ri uchastkalaridan foydalanish huquqining davlat ro‘yxatidan o‘tkazishganligi; davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasini taqdim etgan. Qo‘mita hujjatlarni taxlil qilib foydalanish huquqini ro‘yxatdan o‘tkazgan va litsenziya bergan.

– Sizning fikringizcha fuqaro yana qanday hujjatni taqdim etishi zarur edi.

## TEST

1. “Konchilikdagi qutqaruv qismlari xamda ochiq neft va gaz favvoralarining oldini olish hamda ularni bartaraf etish xizmatlari” bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarini tartibga soladigan normativ huquqiy hujjat?

A) “Elektr energetikasi to‘g‘risida”gi qonunda

B) “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”gi qonunda

V) “Energiyadan oqilona foydalanish to‘g‘risida”gi qonunda

G) Neft sanoatida yong‘in xavfsizligi Qoidalarida

2. Neftning ximiyaviy tarkibi nimalardan iborat bo‘ladi?

A) Uglevodorod(79-88) V) Vodorod(11-14) G) Kislorod boshka xom ashyo maxsulotlar

- D) Barcha javoblar tugri
3. Jahon neft zahirasi qancha miqdorni tashkil etadi(2000y.)?  
 A) 140 mlard tonna V) 180 mlard tonna G) 240 mlard tonna D) 340 mlard tonna tugri
4. Neftni sanoatlashgan tarzda qazib olish texnologiyasini yaratgan olim(lar)?  
 A) E.Dreykom V) aka-uka Nobellar G) I.A.Ikonitskaya D) I.F.Kazmin
5. Neftni sanoatlashgan tarzda qazib olish ishlari O‘zbekistonda ... olinar edi ?  
 A) 1885 yilda boshlangan. Neft Farg‘ona vodiysida joylashgan Chimion qishlog‘i yaqinidagi ikki burg‘ qudug‘idan qazib  
 V) 1856 yilda boshlangan. Neft Toshkent viloyatida joylashgan Chimyon tog‘ tizidagi ikki burg‘ qudug‘idan qazib  
 G) 1975 yilda boshlangan. Neft Qashqadaryo viloyatida joylashgan Chiroqchi qishlog‘i ikki burg‘ qudug‘idan qazib  
 D) 1919 yilda boshlangan. Neft Navoiy viloyatida qazib
6. O‘zbekistonda Neft sohasida neftni qayta ishlovchi katta tashkilotlar ishga tushirildi? A) 1997 yil — Buxoro neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirildi V) 2000 yil — Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi rekonstruksiya qilinib, qayta ishga tushirildi G) A va B D) 1919 yilda Sho‘rtan korxonasi ishga tushirildi.
7. Energiyadan oqilona foydalanish sohasida huquqiy munosabatlar tartibga solingan. Jumladan: Energiya hosil qilish va uni sarflash chog‘ida energiyadan samarali va ekologik jihatdan xavfsiz foydalanishini ta‘minlashga, energiya jihatidan samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishni arzonroq neft mahsulotlari, tibbiy gaz, ko‘mir va boshqa turdagi tibiy yoqilg‘ilarni qazib olish va uni sarflashga qaratilgan. Normativ huquqiy hujjatni aniqlang ? A) “Elektr energetikasi to‘g‘risida”gi qonunda B) “O‘zbekiston Respublikasi energetikasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish to‘g‘risida»gi farmonda V) “Energiyadan oqilona foydalanish to‘g‘risida”gi qonunda G) “Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonda
8. “Konditsiyalar - yer qa‘ridagi foydali qazilmalar (neft, gaz va gaz kondensatidan tashqari) zaxiralarini hisoblashga doir, foydali qazilmalarning texnologik xossalari, konni ishlatishning konchilik-geologik va boshqa sharoitlari, mineral xom ashyo va uni qayta ishlash mahsulotlarining bozor kon‘yunkturasi, energiya resurslarining narxlari



hisobga olingan texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar bilan asoslantirilgan talablarning majmui” Ushbu asosiy tushuncha qaysi normativ-huquqiy hujjatda keltirilgan?

A) “Elektr energetikasi to‘g‘risida”gi qonunda B) “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”gi qonunda V) “Energiyadan oqilona foydalanish to‘g‘risida”gi qonunda G) Neft sanoatida yong‘in xavfsizligi Qoidalarida

9. Elektr energetikada nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasining asosiy vazifalari etib belgilangan: 1. Elektr energiyasi, issiqlik energiyasi oqilona va samarali ishlab chiqarilishi, 2. Uzatilishi, iste‘mol qilinishini va ko‘mirdan foydalanilishi yuzasidan davlat nazoratini amalga oshirish, 3. Elektr energiyasini, issiqlik energiyasini ishlab chiqarishda, uzatishda, iste‘mol qilishda va ko‘mirdan foydalanishda xavfsizlikni ta‘minlashga yo‘naltirilgan oldini olish chora-tadbirlari amalga oshirilishini nazorat qilish 4. Elektr energiyasi, issiqlik energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, iste‘mol qilish va ko‘mirdan foydalanish sohasida zarur normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqarilishini ta‘minlash. 5 Energetika tekshiruvlari va ekspertizalari o‘tkazish bo‘yicha faoliyatni litsenziyalash. A) 1, 2, 3, B) 1, 2, 3, 4, 5 V) 1, 2, 3, 4 G) 1, 2, 4,

10. Quyidagilar energetika sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo‘nalishlari deb hisoblanadi. 1. Energetika tarmoqlarini monopoliyadan chiqarish tadbirlarini izchil amalga oshirish, davlat tomonidan tartibga solish darajasini pasaytirish, elektr energiyasini sotish sohasida raqobat muhitini yaratish, xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning elektr uzatish liniyalariga bog‘lanishlari uchun teng imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratish, 2. Energetika tarmog‘ining yirik korxonalarini sotish, 3. Ijtimoiy infratuzilma ob‘ektlarini, loyihalash, qurilish-montaj va tuzatish ishlarini olib boruvchi korxonalar va tashkilotlarni jadal sur‘atlarda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish, ular negizida mulkchilikning nodavlat shakllaridagi korxonalar, shu jumladan xususiy korxonalar tashkil etish 4. Energetika korxonalarini aksiyalashtirish, ishlab chiqaruvchi quvvatlar va elektr tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, texnika bilan qayta jihozlash va yanada rivojlantirish jarayonlariga chet el investitsiyalarini keng jalb qilish, 5. Elektr ishlab chiqarish, uni uzatish va sotish bo‘yicha boshqaruv tizimiga va xo‘jalik aloqalariga bozor tamoyillari va mexanizmlarini joriy etish, energetika quvvatlari va ko‘mir sanoatining o‘zaro bog‘liq va mutanosib rivojlanishini ta‘minlash. A) 1, 2, 3, 4, 5. B) 1, 3, 4, 5. V) 1, 2, 3, 5, G) 1, 4.

## NAZARIY SAVOLLAR

1. Energetika sohasida gaz manbalaridan foydalanishni huquqiy ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari: nazariya va amaliyot?
2. Gaz manbalaridan foydalanish va taqsimlash tizimini huquqiy ta'minlash?
3. Energetika sohasida gaz manbalarini huquqiy ta'minlash prinsiplari (umumiy va maxsus) nimalardan iborat?
4. Gaz manbalaridan foydalanish va taqsimlash tizimini fuqarolik asosini qiyosiy tahlil qiling?
5. Energetika sohasida neft boyliklaridan foydalanish sohasida huquqiy munosabatlarning muvofiqlashtirish tendensiyasi bo'yicha qiyosiy tahliliy fikr yuriting?
6. O'zbekiston Respublikasida Energetika sohasida neft mahsulotlarini huquqiy ta'minlash deganda nimani tushunasiz?
7. Neft mahsulotlarini shartnoma asosida davlat tomonidan yetkazib berishni huquqiy ta'minlash masalalari?
8. Energetika sohasida ko'mir manbalaridan foydalanishni huquqiy ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qiling?
9. Ko'mir manbalaridan foydalanishni shartnoma asosida davlat tomonidan litsenziyalashning ahamiyati nimalardan iborat?
10. Energetika sohasida ko'mir manbalaridan foydalanishni huquqiy ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qiling?
11. Ko'mir manbalaridan foydalanishni shartnoma asosida davlat tomonidan litsenziyalashning ahamiyati nimalardan iborat?
12. Ko'mir sanoatini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish sohasida qandan chora tadbirlar amalga oshirildi.
13. Ko'mir sanoati sohasida korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari sohasida fikr mulohazalar bildiring.
14. 2017-2021 yillarda ko'mir sanoatini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish dasturida qanday masalalar belgilangan.
15. Energetika sohasida ko'mir manbalaridan foydalanishni huquqiy ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari. Shu manoda, energetika sohasida ko'mir manbalaridan foydalanishni ahamiyatini ko'rsatib, uni huquqiy ta'minlashining o'ziga xos xususiyatlari va amaliy ahamiyatiga qiyosiy baho bering.

## **7-mavzu: QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

### **7.1 Qayta tiklanuvchi energiya manbalari tushunchasi va ulardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari**

Qayta tiklanuvchi energiya - bu atrof muhit energiya oqimidan olingan energiya manbaidir. Bularga, quyosh, shamol, suv resurslari, geotermal manbalar, sanoat va munitsipal, qishloq xo'jalik chiqindilaridan olingan biogaz kiradi. Qayta tiklanuvchi energiya salohiyati parnik gazlari tashlamalarini kamaytirishning muhim yo'nalishlaridan biri noana'naviy va organik yoqilg'i ishlatilmaydigan qayta tiklanuvchi energiya manb'alaridan foydalanish bo'lishi mumkin.

Quyosh, biogaz, shamol kabi muqobil energiya manbalari foydalanishda zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi mamlakatimiz yoqilg'i-energetika kompleksini yanada diversifikatsiya qilishda o'z hissasini qo'shadi. Shu sababli ham energiya iste'molini qondirish maqsadida uni ishlab chiqarish jadal sur'atlarda ortib borayotgani ayni haqiqat. Shu munosabat bilan energiya tejash borasida yuqori texnologiyali uslublar, ilg'or ilm-fan yutuqlariga asoslangan innovatsion texnologiyalarni joriy etish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu munosabatlarni tartibga solish va tizimlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3012-sonli "2017-2021 yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasining "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi qonuni, 2013 yil 1 martdagi "Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonda noan'anaviy energiya resurslari, jumladan, quyosh energiyasidan keng foydalanish uchun yangi imkoniyatlar ochib berdi. Bu orqali inson va tabiat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash va barqaror rivojlanishga erishishda tabiiy resurslarni tejash, qayta tiklanuvchi, ekologik sof energiya manbalaridan foydalanish va bir qator maqsadlarga erishish ko'zda tutilgan.

Muqobil energiya manbalari bir qancha xususiyatlarga ega bo'lib, atrof muhitga ijobiy va salbiy ta'siri mavjud. Ijobiy tomonlariga to'xtaladigan bo'lsak, eng asosiysi muqobil energiya manbalaridan atmosferaga turli zararli chiqindilar chiqmaydi va yer osti boyliklari

tejaladi. Biroq ushbu manbalar joylashgan yer uchastkalar katta qismni tashkil qiladi. Shuning uchun ham muqobil energiya manbalaridan foydalanuvchi aksariyat davlatlarda yer ustida emas balki, suvda yoki bino inshoot ustida o'rnatilishi yo'lga qo'yilgan. Demak, muqobil energiya manbalaridan foydalanishning ahamiyati tabiiy resurslarni tejashda va atrof muhitga zarar yetkazmaslikda namoyon bo'ladi. Bu esa u yoki bu qonunlarimizga tegishli o'zgartirish yoki qo'shimcha kiritishni taqozo etadi. Zero, ushbu munosabat tobora chuqurlashib va jadallashib borayotgan bir pallada ekologik qonunchiligimizda ba'zi bo'shliqlar hosil bo'layotgandek. Bu borada "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunga nazar tashlasak. Ushbu qonun qabul qilinganiga 23 yil bo'lganligini inobatga olgan holda, bir qator qo'shimcha va o'zgartirishlarga muhtoj. Bularni quyidagicha bayon qilish mumkin. Qonunning 4-moddasida tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga erishish xususida to'xtab o'tilgan. Ushbu moddaga yangi band sifatida, tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga erishish uchun davlat hokimiyati mahalliy idoralari, vazirliklar va idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermerlik va kooperativ xo'jaliklar, shuningdek ayrim shaxslar xo'jalik, boshqaruv hamda boshqa faoliyatni amalga oshirish jarayonida muqobil energiya manbalaridan foydalanish qoidalariga amal qilishlari kerakligi qo'shimcha sifatida kiritilishi maqsadga muvofiq.

## **7.2 Qayta tiklanuvchi energetika texnologiyalarini O'zbekiston sharoitida qo'llash**

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ichida eng yaxshi o'zlashtirilib borayotgani daryolarning energiya salohiyatidir. Keyingi yillarda quyosh va shamol energiyasidan foydalanish bo'yicha bir qator loyihalar amalga oshirildi.

Shu bilan bir vaqtda respublika hozirning o'zida quyidagi qayta tiklanuvchi energetika texnologiyalarini keng qo'llash imkoniyatlariga ega:

- quyosh suv issitish panellari;
- elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun quyosh fotoelektr tizimlari;
- elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun mikrogidroelektr stansiyalari;
- elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun shamol generatorlari;

- elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarish uchun biogaz uskunalari;

- quyosh elektr stansiyalaridan foydalanish;

- quyosh-shamol gibrid (aralash) tizimlari.

Kelajakda quyidagi boshqa turdagi texnologiyalarni ham qo'llash imkoniyatlari qarab chiqilishi kerak:

- geotermal energiyalardan foydalanish;

Qayta tiklanuvchi energiyaning ba'zi texnologiyalar ular ko'pincha qo'shimcha energiya manbai sifatida ishlatilishi mumkin, chunki fotoelektr stansiyalari kechasi energiya ishlab chiqarmaydi, shamol generatorlari esa shamol yo'q paytlarda energiya ishlab chiqarmaydi va h.k..

O'zbekiston dunyoning energiya mustaqilligiga ega davlatlaridan biridir. Sovet ittifoqi parchalanganidan keyin qiyin o'tish davrlarida neft-gaz sohasining sa'i-harakatlari bilan ishlab chiqarish nainki qisqardi, balki tabiiy gaz olish 30 % dan ko'proqqa, neft qazib chiqarish 1995 yil oxirida uch barobarga oshdi, mamlakat energiya mustaqilligi ta'minlandi. Neft-gaz sanoati respublika iqtisodiyotining birlamchi yoqilg'i—energiya resurslariga bo'lgan talabining 97 % ini ta'minlaydi.

Ammo neft-gaz sohasining resurslari bilan ta'minlanganlik bo'yicha real holat boshqacharoq tus olishi mumkin. Ishlatilayotgan 90 ta konning ulushiga (ochilgan konlarning umumiy soni 196 ta) uglevodorod zaxiralarning asosiy qismi tahminan 20ta konda bo'lgan qoldiq zaxiralarning 90 % ga yaqini to'g'ri keladi. Asosiy yirik konlarda qazib olish pasaymoqda yoki shuning arafasida turibdi. Tekshirilgan zaxiralarning asosiy qismi mayda va o'rta konlarga to'g'ri keladi va ular qiyin qazib olinuvchi konlar guruhiga mansub.

Yoqilg'i – energetika mustaqilligini saqlab qolish uchun energetikani rivojlantirishning an'anaviy birlamchi energiya manbalariga asoslangan bir xil qolipdagi yondashuvlaridan chekinish va mamlakat yoqilg'i – energetika balansiga muqobil energiya manbalarini jalb qilish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur.

Osiyo taraqqiyot banki (OTB) ekspertlarining ma'lumotiga ko'ra, rivojlangan davlatlar, shuningdek MDH va Markaziy Yevropa mamlakatlari nisbatan O'zbekiston mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi energiya sarfining eng katta ko'rsatkichiga ega. Ichki yalpi mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi energiya sarfi har 1000 AQSH dollarilik mahsulotga 2,8 dan 4,3 tonna shartli yoqilg'iga oshdi, boshqa mamlakatlarda esa bu ko'rsatkich barqaror kamayib bordi.



Ichki yalpi mahsulotni ko'paytirish rejasi energiya resurslarini ishlab chiqarishni mos ravishda oshirishga olib keladi. Biroq, avval aytganimizdek, energiyani tejash bo'yicha chora-tadbirlarni keng ko'lamda joriy qilmasdan turib, faqatgina an'anaviy energiya manbalariga suyanib, bu masalani hal qilish mushkul. Ammo, energiyani tejash sohasida katta natijalarga erishish energiya iste'moli madaniyatini o'z ichiga olgan xolda, maqsadga qaratilgan har kunlik ishni talab qiluvchi uzoq jarayondir.

Aholi soni va uning ko'payishi (yiliga 2,3%) jihatidan O'zbekiston Markaziy Osiyoda birinchi o'rinda turadi. O'rtacha aholi zichligi 1 kvadrat kilometrda 51,4 kishi to'g'ri keladi. Respublika viloyatlaridagi ko'pgina qishloqlarda iste'molchilarga elektr energiyasi va tabiiy gaz yetkazib berish sifati va hajmida muammolar bor. Cho'pon xo'jaliklari va uylar orasidagi masofa bir necha kilometrni tashkil qiluvchi uzoq qo'rg'onlarda, odatda, markazlashgan energiya ta'minoti yo'q. Hozirgi sharoitda, 1 km elektr tarmog'i o'tkazish tahminan 15000 AQSH dollariga to'g'ri keladigan vaqtda bunday qo'rg'onlarni elektr uzatish tarmog'iga ulash amalda mumkin emas.

Dunyo amaliyotida, qishloq hududlarini energiya bilan ta'minlashda ko'pincha QTEM dan foydalaniladi. Bu tajriba O'zbekistonda ham qo'llanilishi mumkin. Bunda qishloqlarning energiya ta'minoti yaxshilanishi nafaqat yashash qulayliklarini oshirish, balki xususiy tadbirkorlikni rivojdantiradi. Bu esa o'z navbatida yangi ishchi o'rinlari paydo bo'lishiga, turmush darajasining yanada yaxshilanishiga olib keladi.

### **7.3 Quyosh energiyasi**

O'zbekistonning iqlimi va geografik sharoiti quyosh energiyasidan keng sanoat ko'lamida elektr va issiqlik energiyasi olish imkoniyatini beradi.

Quyosh energiyasi – bu qayta tiklanuvchi energiya manbaidir, u amalda ishlatish nuqtai nazaridan kelajagi porloq, qulay va foydalanishda oddiy energiya. O'zbekistonda quyosh energiyasining yalpi salohiyati 51 milliard tonna neft ekvivalentidan ortiqdir, bu esa respublika hududidagi hozirgacha tekshirilgan barcha qayta tiklanuvchi energiya manbalarining 99,7 % iga teng. O'zbekiston hududiga har yili tushayotgan quyosh energiyasi o'zining absolyut qiymatiga ko'ra mamlakatning o'rganilgan barcha uglevodorod xom ashyosi zaxirasidan ko'pdir.

O'zbekistonda havo bir yilda 320 kundan ziyod ochiq bo'lib, mamlakatimiz yil davomida quyoshli kunlarning ko'pligi bo'yicha dunyoning aksariyat mintaqalariga nisbatan ustunlikka ega. Ushbu masala Respublika bo'yicha quyosh energiyasi salohiyatining o'rtacha qiymatlarini xarakterlaydi, lekin konkret hududdagi quyosh energiyasi uskunasi ishlar sharoiti va texnikaviy imkoniyatlari haqida ma'lumot bermaydi. Shunga qaramay, quyosh energiyasining texnikaviy salohiyati Respublikaning energiyaga bo'lgan yillik talabini to'rt barobar qoplaydi, bu esa salohiyatning qanchalik to'g'ri aniqlanganligi borasidagi bahs va munozaralarni yumshatadi. Quyosh energiyasidan foydalanishni qo'llash, uning resurslari va oddiyligi nuqtai-nazaridan kelajagi porloq.

Quyosh energiyasi qurilmalari turli sohalarda qo'llanilishi mumkin. Bu, ayniqsa, markazlashgan elektr va issiqlik energiyasidan uzoqdagi aholi punktlarni energiya bilan ta'minlashning qulay yo'lidir.

Quyosh energiyasidan amalda foydalanishning eng istiqboli porloq sohalari: elektr energiyasi ishlab chiqarish, quduqlardan ichish va sug'orish uchun suv chiqarish, cho'l hududlarda suvlarni chuchuklashtirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini quritish, issiqxona va uylarni isitish, markazdan uzoqda joylashgan uylarni issiq suv bilan ta'minlash, imoratlarni shamollatish va sovutish, toza va yuqori darajadagi issiqqa chidamli mahsulotlar olish uchun yuqori haroratli pechlarni qurish.

O'zbekistonda muqobil energiyadan foydalanishni birinchilardan bo'lib akademiklar Ubay Oripov, Sodiq Azimovlar 1950 yillardan boshlab uylarni isitish, issiq suv bilan ta'minlash uchun quyosh kollektorlarini ishlab chiqishdi va bir necha uylar qurilib tajriba sinovlari o'tkazishdi. Quyosh fotoelementlaridan olingan energiya o'sha davrlarda juda qimmat, yoqilg'ilarning narxi esa aksincha edi. Bugunga kelib vaziyat o'zgardi. Quyosh energiyasidan faqat elektr quvvati olish uchun emas, balki undan kollektorlar orqali suv isitishda, quyosh o'chog'i orqali ovqat, non pishirishda, chuchuk suv olishda, mevalarni quritishda foydalanish mumkin.

Quyosh fotoelektrik stansiyasi yordamida suv chiqarish alohida ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi. Quyosh fotoelektrik stansiyasi yordamida suv chiqarish huquqiy asoslari bo'lib, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonun (06.05.1993 y. 837-XII-son), "Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida"gi Qonun (25.04.1997 y. 412-I-son), "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish

to'g'risida"gi qonun, "Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon (01.03.2013 y. PF-4512-son) kabi normativ-huquqiy hujjatlar alohida ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi.

Hozirda Hindiston va Xitoy davlatlarida 2 milliondan ortiq quyosh o'choqlari mavjud. Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan farmonda 100 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektrik stansiyalarini qurish ta'kidlangan. Bu bilan zavod va fabrikalarni, qishloqlarni, kichik shaharlarni to'la elektr energiya bilan ta'minlash mumkin. Bunday qurilmalar energiyani saqlash akkumulatorlariga ega, quyosh bo'lmagan vaqtlarda, tunda ham elektr quvvati bilan ta'minlash mumkin.

O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan, eng avvalo quyosh energiyasidan foydalanish sohasida ilmiy va eksperimental tadqiqotlar olib borish borasida salmoqli tajriba to'plangan bo'lib, ular yuzasidan bir qancha o'n yillar mobaynida ishlanmalar olib borilmoqda. Respublikada Markaziy Osiyoda o'xshashi yo'q ilmiy-eksperimental markaz - Fanlar Akademiyasining "Fizika-Quyosh" ilmiy ishlab-chiqarish birlashmasi tashkil qilingan bo'lib, uning tadqiqotlari natijalari jahon miqyosida e'tirof etildi.

Issiq suv va issiqlik ta'minoti uchun past potentsialli qurilmalarni yaratish, elektr quvvati olish uchun fotoelektrik va termodinamik o'zgartkichlar, maxsus materiallar sintezi texnologiyalarida, materiallar va konstruksiyalarga termik ishlov berishda quyosh energiyasidan foydalanish bo'yicha ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari ayniqsa faol va samarali olib borilmoqda.

Issiq suv olish uchun quyosh kollektoridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonun (06.05.1993 y. 837-XII-son), "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi qonun, "Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida"gi Qonun (25.04.1997 y. 412-I-son). "Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon, "Elektr va issiqlik energiyasidan foydalanish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" gi Qaror, Issiqlik energiyasidan foydalanish Qoidalari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Quyosh energiyasidan amalda foydalanish uchun O'zbekistonda yaratilgan shart-sharoit va mavjud imkoniyatlar mazkur mintaqadan bu sohadagi ilg'or texnologiyalarni nafaqat respublikamizda, balki butun O'rta Osiyoda tajriba tariqasida joriy etish maydoni sifatida foydalanishga asos bo'lib xizmat qiladi.

To'plangan tajribani e'tiborga olgan holda va tadqiqotlar hamda tajriba-sanoat ishlanmalarini yuqoriroq texnik va ilmiy darajada o'tkazishni yanada davom ettirish, jahon tajribasini hisobga olgan holda O'zbekiston sharoitida muqobil energiya manbalaridan foydalanish borasidagi ayrim yechimlarni amalda qo'llash, shuningdek mazkur soha uchun zamonaviy uskunalar va texnologiyalarni mamlakatimizda ishlab chiqarishni tashkil qilish maqsadida, O'zbekistonda quyosh va biogaz energiyasidan foydalanishni yanada chuqurroq ishlab chiqish va amalda qo'llash uchun ilmiy-eksperimental va moddiy-texnika bazasi yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Fanlar Akademiyasi va manfaatdor vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari bilan birgalikda, to'plangan tajribani hisobga olgan holda quyosh va biogaz energiyasidan foydalanish sohasidagi eksperimental va amaliy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirsin, bunda muqobil manbalardan energiya ishlab chiqarish bo'yicha tajriba loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishga, respublikada tegishli uskunalarni, butlovchi buyumlar va materiallarni ishlab chiqarishni, shuningdek ularga servis xizmati ko'rsatishni tashkil qilishga alohida e'tibor qaratilgan.

Xalqaro quyosh energiyasi instituti faoliyatining asosiy vazifalari va yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

quyosh energiyasidan sanoat ko'lamida foydalanish sohasida yuqori texnologik ishlanmalarni amalga oshirish;

ilg'or va iqtisodiy jihatdan samarali texnologiyalar asosida iqtisodiyotning turli tarmoqlari va ijtimoiy sohada quyosh energiyasi potensialidan amaliy foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqishi;

quyosh energetikasidan iqtisodiyotning turli tarmoqlarida foydalanish, shu jumladan, maxsus materiallarni sintez qilish va ularga termik ishlov berish texnologiyalarini qo'llash bilan bog'liq amaliy tadqiqotlarni o'tkazish;

quyosh energetikasi sohasidagi yirik loyihalar bo'yicha hujjatlarni ishlab chiqish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish.

Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda Xalqaro quyosh energiyasi instituti faoliyatini tashkil etish va uni moliyalashtirish manbalari bo'yicha qaror qabul qilsin.

#### **7.4 Shamol energiyasi va kichik suv oqimlardan foydalanish**

Shamol energiyasi. Dunyoda foydaniladigan qayta tiklanuvchi energiya turlaridan biri shamol energiyasidir. O'zbekistonda shamol

energiyasining yalpi salohiyati 2,2 mln.t.n.e. deb baholangan. Shamol energiyasining imkoniyatlariga baho berishda uni beqarorligi va past tezligi inobatga olinadi. Shuni ta'kidlash lozimki, shamol tezligi bir-birlaridan ancha uzoqda joylashgan O'zbekiston gidrometeorologiya stansiyalarida 10 metrgacha balandliklarda aniqlangan. Bu stansiyalarning joylashishi meteorologik masalalarning ko'pgina funksiyalarini bajarish bilan belgilanadi va bunda shamol bu masalalardan biridir. O'zgidromet ma'lumotlaridan zamonaviy shamol generatorlarining ishlashi uchun zarur bo'lgan 80-100 metrgacha balandlikdagi shamol tezligini aniqlashda foydalanish amalda mumkin emas. O'zbekiston hududining geografik holatiga ko'ra, shamol oqimlari mavsumiy xarakterga ega. Tekisliklarda shamolning yillik o'rtacha tezligi 2,0-5,0 m/sek ni tashkil qiladi.

Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, shamol energiyasiing yalpi salohiyati 3179,2 ming t.sh.yo. (tonna shartli yoqilg'i), texnikaviy salohiyati esa 610,5 ming t.sh.yo.ga teng. Shamolning yalpi salohiyati sarhadlarimizda juda ham notekis; yuqori ko'rsatkich – 1322,3 ming t.sh.yo. Qoraqalpog'iston hududi uchun xarakterli bo'lsa, eng past ko'rsatkich – 6,15 ming t.sh.yo. Farg'ona viloyatida qayd etilgan. Respublika bo'yicha shamol oqimining solishtirma quvvati o'rtacha 84,0 Vt/m<sup>2</sup> bo'lib, Andijon viloyatida – 20,0 Vt/m<sup>2</sup> va Navoiy viloyatida – 104,0 Vt/m<sup>2</sup> ni tashkil etadi.

O'zbekistondagi o'rtacha shamol tezligi shamol generatorlarini baland tog' hududlariga va Orol dengiziga yaqin hududlarga o'rnatish imkonini beradi. Aralash (gibrid) qurilmalardan (shamol generatori bilan quyosh fotoelektr stansiyasi) foydalanish ayniqsa o'ziga jalb qiladi. Bunda quyosh nuri va shamol kuchi bir-birini ham sutka davomida (tunu kun) va ham turli yil fasillarida (yozu qish) to'ldirib, olinadigan energiya tannarxining ma'lum darajada pasayishiga imkon beradi.

Shamol energiyasi salohiyatini aniqlashda shamol tezligining o'rtacha sutkalik qiymatini emas, ayniqsa, o'rtacha o'n kunlik yoki oylik o'rtacha tezligi qiymatini emas, balki shamol generatorlari o'rnatiladigan aniq joyda xar oydagi shamol tezligining o'zgarish dinamikasi va oy davomidagi barqaror bo'lishi haqida ma'lumotlarni to'plash zarur. Shamol energiyasi salohiyatini baholashda Toshkent aviatsiya instituti tamonidan yaratilgan, 50-100m va undan baland yerlarda ishlaydigan "Aerostatik shamol quyosh energiyasi apparati" mutaxassislarni qiziqirmoqda. chunki 10 metrgacha balandlikda shamol batamom yo'q vaqtda 80 metr va undan yuqori balandlikda shamolning tezligi 5-8 m/sek



va undan ko‘proq bo‘lishi mumkin. Umuman olganda, Respublika miqyosida shamol energiyasining salohiyatini aniqlash borasidagi izlanishlar hozirgi zamon talablarini qanoatlantirmaydi.

### **7.5 Kichik suv oqimlari energiyasi**

Energetika va avtomatika institutining ma‘lumotlariga ko‘ra, suv energiyasining salohiyati 2,58 mln. t.sh.yo. deb baholanadi. Shu bilan birga “O‘zbekiston Respublikasida yerlarning cho‘llashishiga qarshi kurashning Milliy harakat dasturi” da (1999 yil) aytilishicha, umumiy suv energiyasi resurslari 7445 MVt quvvatni tashkil etib, bir yilda 26,7 mlrd.kVt/soat ishlab chiqariladi. Bu shartli yoqilg‘i tonnasiga o‘girilganda 3,28 mln. t.sh.yo., yani yuqoridagi ko‘rsatkichdan 30% ortiqdir.

Dasturda ko‘rsatilgan raqamlar yirik GES larni qurishdan olinadigan quvvatlarni ifodalaydi, chunki energiya ishlab chiqarish va tarqatish bo‘yicha kichik GES lar amaliydan ko‘ra, ko‘proq nazariy jihatdan qiziqtiradi. O‘tgan asrning 60 yillari boshida O‘zbekistonda alohida istemolchilar uchun avtonom rejimda ishlaydigan, o‘rnatilgan quvvati 35 MVt bo‘lgan 253 ta kichik GES lar faoliyat ko‘rsatgan.

Kichik va mikro GES lar kamquvvatli gidroenergetik qurilmalar yordamida suv resurslari va gidravlik tizimlar energiyasidan foydalanib elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Keyingi o‘n yil ichida dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida kichik suv energetikasiga talab ortib bormoqda. Kichik va mikro GES larning gidroresurslari turli suv xo‘jaliklaridagi tabiiy sharsharalardan to suv tozalash inshootlarigacha. Hozir ichimlik suvi quvurlarida, shuningdek sanoat va oqova suvlarida ham elektr energiyasi olish misollari bor.

Kichik GES lar yordamida, uncha katta bo‘lmagan suv oqimlaridan ham elektr energiya olish mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish yo‘lidagi samarali yo‘nalishdir.

Daryolarda 650 ta kichik va mikro GES larning (BMT Taraqqiyot Dasturining “O‘zbekistonda qayta tiklanuchi energetikani rivojlantirishning milliy strategiyasini ishlab chiqish bo‘yicha tahliliy tadqiqotlar” loyihasi ma‘lumotlariga asosan) qurilishi va O‘zbekiston hududidan o‘tuvchi irrigatsiya kanallari tarmoqlaridagi sun‘iy va tabiiy suv oqimlari gidroenergiyaning sezilarli darajadagi texnikaviy salohiyatini ta‘minlaydi. Umuman olganda, gidromanbalarning salohiyatini o‘rtacha oylik suv sarfi, suv oqimi tezligi, suv oqimining

nishabligi, oqim sathlaridagi farq, suv oqimining statik yoki ishchi bosimi kabi ko'rsatkichlar bo'yicha aniqlash zarur.

Suv resurslaridan foydalanishda, agrar sohadagi korxonalar kichik GES qurishiga haqlimi?

O'zbekiston Respublikasining "Elektr energetikasi to'g'risida"gi Qonunining 10-moddasiga ko'ra, yagona elektr energetikasi tizimiga ulangan issiqlik elektr stansiyalari, issiqlik elektr markazlari, shuningdek qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanadigan elektr stansiyalari davlat mulki yoki xususiy mulk bo'lishi mumkin. Mazkur qonunning 12-moddasiga ko'ra, yuridik va jismoniy shaxslar o'zi foydalanishi uchun elektr energiyasini hosil qilishi mumkin. O'zi foydalanishi uchun elektr energiyasini hosil qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslarga elektr energiyasini hosil qiluvchi elektr qurilmalarini hududiy elektr tarmog'iga ulash ta'qiqlanadi. Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o'zi foydalanishi uchun hosil qilingan elektr energiyasini boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga sotish qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda o'z elektr tarmoqlari orqali amalga oshirilishi mumkin.

## KAZUSLAR

1. Jizzax iqtisodiy industrial zonada tashkil qilingan "Muqobilenergiya" qo'shma korxonasi elektr tarmog'iga ulanish uchun shartnoma tuzayotganda unga nisbatan elektr energiyasi narxini imtiyozli narxlar asosida chegirma berilishini elektr ta'minoti korxonasidan talab qildi. "Muqobilenergiya" qo'shma korxonasi o'z fikrini erkin industrial zonada ishlab chiqarish faoliyatini boshlayotganligi, shunga asosan u tegishli imtiyozga ega ekanligi bilan asosladi.

Mazkur holatga huquqiy baho bering.

2. Yuridik shaxs A. ya'ni suvdan foydalanuvchi (suv resurslarini suv ob'ektidan olmagan holda ulardan o'z ehtiyojlari uchun foydalanuvchi shaxs).

Jismoniy shaxs B. ya'ni suv iste'molchisi (suv resurslarini suv ob'ektidan olmagan holda ulardan o'z ehtiyojlari uchun foydalanuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.)ga kichik GES ya'ni suv ob'ektlaridan gidroenergetika ehtiyojlari uchun foydalanish mumkin emasligini vaj qilib, sudga da'vo arizasini kiritdi.

Mazkur holatga huquqiy baho bering.

3. Vazirlar Mahkamasining qarori bilan yangi Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari tasdiqlangan, ularda elektr energiyasini kam olganlik uchun jarima undirish nazarda tutilmagan. “Maqbuljon” korxonasi to‘lovlarni o‘z vaqtida to‘lab keladi, doimo oldindan haq to‘laydi. Oy boshlanishiga 10 kun qolganda elektr energiyasini iste‘mol qilishning shartnomaviy hajmlariga bir necha marotaba ularni kamaytirish tomoniga o‘zgartishlar kiritildi, biroq qancha iste‘mol qilinishini aniq hisoblab bo‘lmaydi, shu sababli kam olish hollari yuz berdi.

Yangi Qoidalar kuchga kirganidan keyin, 2009 yil sentabrdan boshlab, elektr energiyasini kam olganlik uchun jarima sanksiyalarini to‘lash talabi RESdan bir necha marta kelib tushganiga qaramay, “Maqbuljon” korxonasi ularni to‘lashni to‘xtatdi.

“ToshshaharETK” AJ, “Maqbuljon” korxonasini yangi Qoidalar qabul qilingan paytdan boshlab Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” 66-son chiqishigacha bo‘lgan davr uchun jarima sanksiyalarini to‘lashdan nohaq bosh tortgan deb hisoblaydi. Buni yangi Qoidalar qabul qilinayotganida Elektr energiyasi iste‘molchilari bilan energiya ta‘minoti tashkilotlari o‘rtasidagi o‘zaro hisob-kitoblar tartibi to‘g‘risida nizomning 14-bandi bekor qilinmagan edi deb asoslaydilar, ushbu bandda kam olganlik uchun sanksiyalar nazarda tutilgan. 14-band faqat 66-son qarorga binoan chiqarib tashlandi, shu bois kam olganlik uchun sanksiyalar 2010 yilning 7 aprelegacha to‘lanishi kerak.

“Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunnda belgilanishicha, yangi normativ-huquqiy hujjat qabul qilinganligi munosabati bilan ilgari qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga zarur o‘zgartirishlar yoki qo‘shimchalar kiritiladi hamda ilgari qabul qilingan barcha hujjatlar yoki ularning qismlari, agar ular yangi normativ ko‘rsatmalarga zid bo‘lsa yoxud yangi hujjat bilan to‘laligicha qamrab olingan yoki amalda o‘z ahamiyatini yo‘qotgan, lekin rasman o‘z kuchini yo‘qotgan deb e‘tirof etilmagan bo‘lsa, o‘z kuchini yo‘qotgan deb e‘tirof etilmog‘i kerak. Binobarin, yangi Qoidalarga zid bo‘lgan barcha narsalar, hatto bu hol rasman o‘z kuchini yo‘qotgan deb e‘tirof etilmasa-da, o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanadi.

Tushuntirib bersangiz, yangi Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari qabul qilinganidan keyin elektr energiyasini kam olganlik uchun sanksiyalarni qo‘llash qonuniymi?

Ushbu holatga huquqiy baho bering.

## TEST

1.O'zbekiston Respublikasining "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan sanani aniqlang ?

A) 21.05.2019 B) 21.05.2020 V) 21.05.2021 G) 21.05.2013

2. Energetika quyidagi yirik qismlarga ajratiladi:

A) Elektroenergetika, Issiqlik energetikasi B) Hidroenergetika, Yadroviy energetika V) Muqobil, kumir, neft, gaz energetikasi, G) A va B

3.Qayta tiklanuvchi energiya manbalari - ... ?

A) atrof-muhitda tabiiy holda qayta tiklanuvchi quyosh, shamol energiyasi, yer harorati (geotermal), suv oqimlarining tabiiy harakati, biomassa energiyasi; B) shamol energiyasi, suv oqimlarining tabiiy harakati, biomassa energiyasi; V) atrof-muhitda tabiiy holda qayta tiklanuvchi quyosh, shamol energiyasi suv oqimlarining tabiiy harakati, biomassa energiyasi; G) atrof-muhitda tabiiy holda qayta tiklanuvchi quyosh, shamol energiyasi, yer harorati (geotermal), biomassa energiyasi;

4.Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi... .?

A) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida amalga oshiriladi. B) maxsus vakolatli davlat organi, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida amalga oshiriladi. V) mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida amalga oshiriladi. G) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradi.

5.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi vakolatiga kirmaydi?

A) qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasida davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi. B) qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi. V) qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi fundamental, yutuqlarni targ'ib qilish uchun sharoitlar yaratadi. G) qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasida xalqaro hamkorlikni muvofiqlashtiradi.

6. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqaruvchilar va qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qurilmalarini ishlab chiqaruvchilar quyidagi huquqlarga ega emas?

A) qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqadi. B) qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi soliq, bojxonaga oid hamda boshqa imtiyozlar va preferensiyalardan foydalanish. V) lokal tarmoqni (elektr, issiqlik va (yoki) gaz tarmog'ini) yaratish. G) lokal tarmoq (elektr, issiqlik va (yoki) gaz tarmog'i) orqali yetkazib beriladigan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan ishlab chiqariladigan elektr, issiqlik energiyasi va (yoki) biogazni realizatsiya qilish uchun yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzish.

7. "Muqobil energiya manbalari to'g'risida"gi qonuni taklif etildi ?

A) Osiyo quyosh energiyasi forumining oltinchi yig'ilishida. B) "Elektr energetikasi to'g'risida"gi qonunda. V) "Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmonida. G) "Xalqaro quyosh energiyasi instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida.

8. O'zbekistonda quyosh energiyasining yalpi salohiyati ... neft ekvivalentidan ortiqdir.

A) 61 milliard tonna B) 51 milliard tonna V) 71 milliard tonna G) 81 milliard tonna

9. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqaruvchilar qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini (nominal quvvati 0,1 MVt va undan ortiq bo'lgan) o'rnatganlik uchun mol-mulk solig'ini to'lashdan hamda ushbu qurilmalar bilan band bo'lgan uchastkalar bo'yicha yer solig'ini to'lashdan ular foydalanishga topshirilgan paytdan e'tiboran ... .

A) o'n yil muddatga ozod etiladi. B) o'n besh yil muddatga ozod etiladi. V) besh yil muddatga ozod etiladi. G) bir yil muddatga ozod etiladi.

10. Amaldagi energetika resurslari tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan yashash uchun mo'ljallangan joylarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar egaligidagi mol-mulkka qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanilgan oydan e'tiboran ... .

A) uch yil muddatga jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i solinmaydi. B) ikki yil muddatga jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i solinmaydi. V) bir yil muddatga jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i solinmaydi. G) o'n yil muddatga jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i solinmaydi.



## NAZARIY SAVOLLAR

1. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni huquqiy negizlari, xarakteri va uning takomillashuvi masalalari? Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni huquqiy ta'minlash masalasini tahlil qiling?

2. O'zbekiston Respublikasining "Muqobil energiya manbalari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinadigan bo'lsa, qanday munosabatalarni tartibga solishi kerak. Bushma masala yuzasidan tahliliy fikr yuriting?

3. Quyosh energiyasidan oqilona foydalanishga oid talablar?

4. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan oqilona foydalanishga oid davlat talablari?

5. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan oqilona foydalanishga oid davlat standartlari mazmun mohiyati?

## **8-mavzu: ATOM ENERGIYASIDAN FOYDALANISH SOHASINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

### **8.1 Atom energiyasidan foydalanishni huquqiy tartibga solish asoslari**

O‘zbekiston Respublikasida 2018 yilda mamlakat atom energetikasini umumiy energetika balansiga kiritish, undan kamida 60 yil davomida xavfsiz foydalanishni ta‘minlagan holda respublika hududida atom elektr stansiyasi barpo etishni nazarda tutuvchi yadro-energetika dasturini amalga oshirishga start berildi .

Mamlakatda mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga va yangilarini tashkil etishga qaratilgan faol investitsiya siyosati, shuningdek, aholining hayot darajasi va sifatini yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar yildan-yilga ehtiyoj ortib borayotgan energiya resurslarini ishonchli manbalar bilan ta‘minlashni talab qilmoqda.

Shu bilan birga, hozirgi vaqtda respublika iqtisodiyoti va aholisining energiya resurslariga bo‘lgan ehtiyoji energiyaning qayta tiklanmaydigan manbalaridan, jumladan, resurslari cheklangan uglevodorod xom ashyolaridan ustun darajada foydalanish hisobiga qoplanmoqda. Vaholanki, mamlakatda uran xom ashyosining ulkan zaxirasi bo‘la turib, amalda atom energetikasi salohiyati ishga solinmagan.

Energiya bilan barqaror ta‘minlash, energetika sektorini diversifikatsiya qilish, atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish va ushbu yo‘nalishlarga ilg‘or innovatsion texnologiyalarni joriy etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 iyuldagi PF-5484-sonli “O‘zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Shuningdek, atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 9 sentabrdagi “Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunning maqsadi atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Ushbu qonunda atom sohasidaga asosiy tushunchalar, ushbu qonunda ishlatilgan, atom energiyasidan foydalanishning asosiy tamoyillari, atom energiyasidan foydalanish ob‘ektlari, bu borada mulk huquqi, faoliyat turlari, bu boradagi munosabatlarni tartibga solish, davlat boshqaruvi, yadroviy qurilmani va (yoki) saqlash punkti, barpo etish, yadroviy

qurilmani va (yoki) saqlash punktini qabul qilib olish, ishga tushirish, ulardan foydalanish hamda ularni foydalanishdan chiqarish, radioaktiv moddalar, yadroviy materiallar, yadroviy yoqilg'i, ishlatib bo'lingan yadroviy yoqilg'i va radioaktiv chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish, atom energiyasidan foydalanish ob'ektlarini jisman himoya qilish, avariya o'ldirish va avariya holatida harakat qilish, radiatsiyaviy ta'sir tufayli yetkazilgan zararning o'rnini qoplash, atom energiyasidan foydalanish sohasidagi xalqaro hamkorlik bilan bog'liq masalalar huquqiy tartibga solingan.

O'zbekiston atom energiyasidan tinchlik yo'lida foydalanish sohasida ilmiy bazaga ega. Xususan, respublikamizda tadqiqot yadro reaktoridan foydalangan holda ilmiy izlanishlar 1959 yildan beri olib borilmoqda. Atom energetikasini rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajribani hamda Xalqaro atom energiyasi agentligi tavsiyalarini hisobga olgan holda atom energiyasidan foydalanish sohasida malakali kadrlarni tayyorlash milliy yadroviy infratuzilmaning g'oyat muhim elementlaridan biri hisoblanadi.

2018 yil 19 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, atom energetikasini rivojlantirish sohasida yagona davlat siyosatini va strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha vakolatli bo'lgan davlat boshqaruvi organi - Atom energetikasini rivojlantirish bo'yicha agentlik ("O'zatom" agentligi) tashkil qilindi, uning asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilangan:

atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha takliflar tayyorlash, shu jumladan, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish;

O'zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, atom energetikasi sohasidagi loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiyalarni, shu jumladan, xorijiy investitsiyalarni jalb etish;

sanoat va ekologiya xavfsizligining xalqaro talablariga javob beradigan zamonaviy texnologiyalar va asbob-uskunalarni joriy etgan holda, atom energetikasi ob'ektlarini loyihalashtirish, qurish va ulardan foydalanish bo'yicha bitimlar va shartnomalar tuzish;

atom fani va yadro texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni, fundamental tadqiqotlar, ilmiy-qidiruv,

tajriba-konstruktorlik va innovatsion ishlar loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish;

tadqiqot va energetika atom reaktorlari, yadro-fizika qurilmalari, yadro materiallari va radiatsiya manbalarini saqlash, radioaktiv chiqindilarni ko'mish punktlarining rivojlanishini va ularning xavfsiz ishlashini ta'minlash;

respublikadagi ob'ektlarning radiatsiyaviy va yadroviy xavfsizligi tizimini boshqa vazirlik va idoralar bilan birgalikda yadro avariyalari va radiatsiyaviy avariya vaziyatlarining oldini olish bo'yicha tadbirlar rejasini ishlab chiqqan holda takomillashtirish;

yadro materiallari va texnologiyalari, radioaktiv materiallar tarqalmasligini ta'minlash, jismoniy himoya qilish hamda yadroviy va radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash tadbirlarini amalga oshirish;

kadrlarni, shu jumladan, yetakchi xorijiy institutlarda tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tashkil etish;

Xalqaro atom energiyasi agentligi, Atom energiyasi bo'yicha Yevropa hamjamiyati va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan xalqaro hamkorlik va o'zaro aloqalarni amalga oshirish;

atom energetikasi sohasiga xorijiy investitsiyalarni va ilg'or texnologiyalarni jalb etish maqsadida manfaatdor vazirlik va idoralar ishtirokida xalqaro moliya institutlari, donor mamlakatlar, kompaniyalar va banklar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 fevraldagi "2019-2029 yillarda O'zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4165-son qarorini ijro etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi yadro-energetika dasturini atom energiyasidan xavfsiz foydalanish talablariga javob beradigan malakali kadrlar bilan o'z vaqtida va to'laqonli ta'minlash muhim hisoblanadi.

Jahon hamjamiyati global energetika ehtiyojlarini qanoatlantirish muammosini hal etishni qayta tiklanadigan energiya manbalarini (quyosh, shamol va suv) rivojlantirish barobarida ayni paytda energetika ishlab chiqarish umumiy hajmining 11 foizidan oshgan atom energetikasini rivojlantirish bilan bog'lamoqda. Dunyoning 5 davlati: Fransiya, Slovakiya, Ukraina, Vengriya va Belgiyada atom energiyasi elektr energiyaga bo'lgan ehtiyojning 40 foizdan ortig'ini ta'minlamoqda.

## **8.2. Atom energiyasi ekologik toza energiya hisoblanadi**

Atom energiyasi ekologik toza energiya hisoblanadi. Atom elektr stansiyalarida (keyingi o'rinlarda - AES) elektr va issiqlik energiyasi olishda ko'mir, mazut, gazda ishlovchi an'anaviy ko'rinishdagi issiqlik elektr stansiyalaridan farqli o'laroq azot oksidi, oltingugurt, uglerod, kul kabi atrof muhitni ifloslantiruvchi moddalar hosil bo'lmaydi.

Atom energetikasini rivojlantirishning foydasiga xizmat qiluvchi asosiy iqtisodiy omillardan biri AESning, uzaytirish imkoni bilan, 60 yildan kam bo'lmagan muddatni tashkil qiluvchi butun ishlash davrida ishlab chiqariladigan elektr energiyasi narxining barqarorligini kafolatlash imkoniyati hisoblanadi.

Dunyoning 31 davlatida atom energiyasidan foydalanilmoqda va ularda umumiy quvvati qariyb 400 GVt bo'lgan 450 dan ortiq energiya bloklari faoliyat ko'rsatmoqda. Hozirgi vaqtda 60 ta yangi energiya bloklari bunyod etilmoqda va ulardan 39 tasi Osiyo mintaqasiga to'g'ri keladi.

Respublika iqtisodiyotining elektr energiyasiga ortib borayotgan ehtiyojini qanoatlantirish maqsadida (2030 yilga borib 117 milliard kVt/soat) 2018 yil 7 sentabr kuni Moskva shahrida O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Rossiya Federatsiyasi Hukumati o'rtasida O'zbekiston hududida atom elektr stansiyasini qurishda hamkorlik to'g'risida bitim tuzildi.

Mazkur Bitimda O'zbekiston Respublikasi hududida har birining belgilangan quvvati 1,2 GVt bo'lgan ikkita energiya blokidan iborat, zamonaviy va xavfsiz III+ avlod referent AES qurish, shuningdek milliy yadro infratuzilmasi, xavfsizlikni davlat tomonidan tartibga solish, atom energetikasi uchun kadrlar tayyorlash tizimini yaratish, yadro yoqilg'isini yetkazib berish, ishlatib bo'lingan yadro yoqilg'isidan foydalanish masalasi yuzasidan hamkorlik qilish nazarda tutilgan.

## **8.3. Atom energiyasidan foydalanishni nazorat qilish**

MAGATening faoliyat doirasiga atom energiyasidan foydalanishni nazorat qilish, jahonning turli mamlakatlarida tinchlik maqsadlarida atom energetikasini yaratish va rivojlantirishga ko'maklashish, shu sohada ilmiy tadqiqotlar o'tkazish kabi vazifalar kiradi. Biroq ayrim davlatlarda atom energiyasidan boshqa maqsadlarda, jumladan, harbiy maqsadlarda foydalanish xavfi paydo bo'lganida, bu tashkilot zimmasiga boshqa



mas'uliyatli vazifalar ham yuklanishi mumkin. Keyingi yillarda bu xalqaro tashkilot o'z zimmasidagi bunday vazifalarni ham muvaffaqiyatli bajarib kelmoqda. Savol tug'ilishi mumkin: MAGATening tashkil etilishiga nima sabab bo'ldi? Shak-shubhasiz, bu, jahonda atom energetikasining paydo bo'lishi bilan bog'liq. Kaluga oblastining Obninsk shahrida qurilgan atom elektr stansiyasi jahondagi birinchi AYES hisoblanadi. U 1954 yil 27 iyun kuni ilk marta sanoat toki bergan. Ikkinchi bo'lib sanoat uchun energiya quvvati 1956 yilda Buyuk Britaniyada ishga tushirilgan atom elektr Stansiya olindi. Oradan bir yil o'tib, AQSHda qurilgan shunday stansiya ham elektr energiyasi bera boshladi. Shundan keyin atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlikni tashkil etish zarurati tug'ildi.

O'tgan yillarda turli mamlakatlarning agentlik doirasidagi aloqalari rivojlanib, xalqaro hamkorlikning ko'p tomonlama dasturlarini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish imkoniyatlari yaratildi. Jumladan, 1969 yilda atom energetikasini xavfsiz rivojlantirishning ishonchli rejimini yaratish bo'yicha xalqaro hamkorlikning kengaytirilgan dasturi qabul qilingan bo'lsa, 1970 yilda yadro axborotining xalqaro tizimi yaratildi. Ayni paytda MAGATE rahbarligi ostida soha olimlarining xalqaro terma yadro eksperimental reaktori loyihasi ustida olib borayotgan ishlari yaxshi samaralar bermoqda. Bu katta loyihada bir qancha mamlakatlarning taniqli olimlari faol ishtirok etmoqdalar.

Dunyoning ko'plab boshqa mamlakatlarida ham Atom Elektr Stansiyalar ishlab turibdi. Hozirgi vaqtda xalq xo'jaligining elektr energiyasidan foydalanmaydigan biror sohasini topish qiyin. Shuning uchun elektr energiyasi ishlab chiqarish yildan yilga ortib bormoqda.

Taqqoslash uchun 1987-yil AQSH ishlatgan energiyasining 19 %, Buyuk Britaniyada 19 %, Yaponiyada 30 %, GFRda 34 %,Fransiyada 76 % Atom Elektr Stansiyalarda ishlab chiqilgan. Lekin 1986-yil aprelda Chernobil (sobiq SSSR) Atom Elektr Stansiya bo'lib o'tgan katta avariya butun dunyo Atom Elektr Stansiyalar kurilishi rejalarini buzib yubordi. AQSHda qurilish ishlari sekinlashtirildi, Skandinaviya mamlakatlarida esa butunlay to'xtaldi. Ammo yer yuzidagi energiya manbalari hisoblanmish — neft, gaz, ko'mir zaxiralari cheklanganligidan Atom Elektr Stansiyalarni takomillashtirishdan boshqa iloj yo'q. Atom energiyasi manbai uran va toriyning yer yuzidagi zaxiralari dunyo xalqlarining energiyaga bo'lgan talabini bir necha ming yillar davomida qondirib turish uchun yetarlidir. Kelajakda Atom Elektr Stansiyasilar

yetarli darajada rivojlanadi va dunyo mamlakatlarining umumiy energetika balansida yetakchi o'rinni egallaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to'g'risida"gi qonunning 23-moddasiga ko'ra, atom energiyasidan foydalanish sohasidagi davlat nazorati va tekshiruv bilan bog'liq masalalar belgilangan. Atom energiyasidan foydalanish sohasidagi davlat nazorati va tekshiruv xavfsizlikni davlat tomonidan tartibga soluvchi organlar va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Atom energiyasidan foydalanish sohasidagi davlat nazorati va tekshiruv atom energiyasidan foydalanish sohasidagi faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar, ularning rahbarlari, boshqa mansabdor shaxslari hamda xodimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida va atom energiyasidan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan talablar buzilishining oldini olishga, ularni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgandir .

Atom energiyasidan foydalanish sohasidagi davlat nazorati va tekshiruv tekshirishlarni tashkil etish hamda o'tkazish, aniqlangan qoidabuzarliklarga barham berish yuzasidan choralar ko'rish, ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotlar, shuningdek boshqa yuridik shaxslar tomonidan mazkur sohadagi faoliyatni amalga oshirish chog'ida majburiy talablar ijrosi ustidan tizimli kuzatish, majburiy talablar ijrosining holatini tahlil va prognoz qilish orqali amalga oshiriladi. Ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot, shuningdek boshqa yuridik shaxs tomonidan atom energiyasidan foydalanish sohasidagi faoliyatni amalga oshirish jarayonida xavfsizlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan majburiy talablarga, litsenziyaning amal qilish shartlariga rioya etilishi, atom energiyasidan foydalanish ob'ektlarining mazkur sohada belgilangan normalar va qoidalarga muvofiqligi tekshirish predmetidir .

Yadroviy qurilmalar va saqlash punktlari uchun yadroviy, radiatsiyaviy, sanoat, yong'inga oid, sanitariya-epidemiologik, ekologik xavfsizlikni ta'minlash ustidan tegishincha davlat nazorati hamda tekshiruvini amalga oshiradigan xavfsizlikni davlat tomonidan tartibga soluvchi organlarning bevosita yadroviy qurilmalardagi va saqlash punktlaridagi doimiy vakilligini nazarda tutuvchi davlat nazorati va tekshiruv rejimi belgilanadi.

## KAZUSLAR

1. Yaponiyaning Fukisima atom elektr stansiyasidan chiqayotgan radiaktiv chiqindi Tinch okeaniga oqizildi. Natijada Okeandagi ekologik muhitga salbiy ta'sir ko'rsatildi. Qo'shni davlatlarning Yaponiyaga qilgan murojatlariga qarshi Yaponiya hukumati tinch okeani hech qaysi davlatning hududiga kirmasligi u neytral hudud hisoblanganligi sababli e'tiroz bildirishga haqqi yo'qliklarini aytdi.

Radiaktiv va energetik chiqindilarni joylashtirish xalqaro miqyosda qanday tartibga solinadi?

Ushbu holatga huquqiy baho bering.

2. O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi va Atom energiyasi bo'yicha Yevropa Hamjamiyati (Yevratom) o'rtasida atom energiyasidan tinchlik yo'lida foydalanish sohasidagi hamkorlik to'g'risida 2003 yil 6 oktabrda Bryussel shahrida imzolangan Bitim bo'yicha O'zbekiston Respublikasining majburiyatlari bajarilishini ta'minlash bo'yicha vakolatli organ etib belgilandi.

Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlikka (MAGATE) va Yevratomga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda axborotlar tayyorlash va ularni (bayonot, hisobotlar, xabarnomalar, hisobotlarga qo'shimcha va tushuntirishlar) taqdim etish O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi belgilandi.

Tegishli millik va xalqaro huquq normalari asosida huquqiy baho bering.

Yuqorida ko'rsatilgan msalalarni qonunchilik va atom energiyasidan tinchlik yo'lida foydalanish sohasidagi xalqaro shartnomalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining majburiyatlarini bajarish chora-tadbirlari to'g'risida hujjatlarga zidligini yoki to'g'ri kelishini huquqiy asoslang?

## TEST

1. O'zbekiston Respublikasining "Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to'g'risida"gi qonunining maqsadi... ?

A) atom energiyasi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

B) atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

V) atom energiyasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

G) atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2. Atom energetikasi bu ... ?

A) atom yadrolarida mavjud bo'lgan va yadroviy reaksiyalar hamda radioaktiv parchalanish chog'ida ajralib chiqadigan energiya.

B) atom energiyasini o'zgartirish yo'li bilan elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi energetika tarmog'i.

V) atom yadrolarida radioaktiv parchalanish chog'ida ajralib chiqadigan energiya.

G) atom elektr stansiyalari, tadqiqot yadro reaktorlari, kritik va subkritik yadroviy stendlari bo'lgan inshootlar hamda majmualar, yadroviy yoqilg'idan va yadroviy materiallardan foydalanish hamda ularni tashish uchun mo'ljallangan qurilmalar.

3. Atom energiyasidan foydalanishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

A) fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini, jismoniy hamda yuridik shaxslarning mol-mulkini himoya qilish, shuningdek atrof-muhitni muhofaza qilish ustuvorligi, yadroviy qurol va boshqa yadroviy portlovchi qurilmalar ishlab chiqarishning taqiqlanishi.

B) A, V, G,

V) xavfsizlikning ta'minlanishi; axborotning ochiqligi;

G) yadroviy qurol va boshqa yadroviy portlovchi qurilmalar ishlab chiqarishning taqiqlanishi.

4. Atom energiyasidan foydalanish ob'ektlari jumlasiga quyidagilar kiradi?

A) yadroviy qurilmalar, saqlash punktlari, yadroviy materiallar, radiatsiyaviy manbalar.

B) ishlatib bo'lingan yadroviy yoqilg'i, radioaktiv chiqindilar.

V) radioaktiv moddalar, yadroviy yoqilg'i; yadroviy reaktorlarning issiqlik ajratuvchi to'plamlari,

G) Barcha javoblar to'g'ri.

5. Atom energiyasidan foydalanish ob'ektlariga bo'lgan mulk huquqi kimlarga beriladi?

A) Jismoniy va yuridik shaxslar.

B) Atom energiyasidan foydalanish ob'ektlari davlat mulkida yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadigan yuridik shaxslar mulkida bo'lishi mumkin.



V) Davlat mulkida yoki yuridik shaxslar mulkida bo'lishi mumkin bo'lgan atom energiyasidan foydalanish ob'ektlarining ro'yxati O'zbekiston Respublikasi VAzirlar mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

G) Atom energiyasidan foydalanish ob'ektlari davlat mulkida yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki Oliy Majlis tomonidan belgilanadigan yuridik shaxslar mulkida bo'lishi mumkin.

6. Atom energiyasidan foydalanish sohasidagi faoliyat turlari jumlasiga quyidagilar kiradi?

A) yadroviy qurilmalarni va (yoki) saqlash punktlarini tadqiq etish, joylashtirish, loyihalashtirish, barpo etish, ulardan foydalanish hamda ularni foydalanishdan chiqarish, radiatsiyaviy manbalarni barpo etish, ulardan foydalanish va ularni foydalanishdan chiqarish, atom energiyasidan foydalanish ob'ektlarining yadroviy, radiatsiyaviy, sanoat, yong'in va ekologik xavfsizligini ta'minlash.

B) yadroviy qurilmalar va (yoki) saqlash punktlari uchun yadroviy materiallarni, uskunalarni hamda texnologiyalarni olib kirish va olib chiqish, mazkur sohada xizmatlar ko'rsatish, radiatsiyaviy vaziyatni monitoring qilish, mazkur sohada mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

V) yadroviy qurilmalar va (yoki) saqlash punktlari uchun uskunalarni konstruksiyalash hamda tayyorlash, atom energiyasidan foydalanish ob'ektlarining va (yoki) mazkur sohada faoliyatning xavfsizligini asoslash yuzasidan ekspertiza o'tkazish, radioaktiv moddalar, yadroviy materiallar va radioaktiv chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish, mazkur sohada ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, atom energiyasidan foydalanish ob'ektlari jisman himoya qilinishini ta'minlash, mazkur sohada davlat nazoratini va tekshiruvini amalga oshirish;

G) Barcha javoblar to'g'ri.

7. Atom energetikasi sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi ?

A) O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish qo'mitasi atom energetikasi sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organidir.

B) O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi atom energetikasi sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organidir

V) O'zbekiston Respublikasi Muqobil energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi vazirlik.



G) O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi atom energetikasi sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organidir.

8. Shaxslarning atom energiyasidan foydalanish ob'ektlarida ishlashiga ruxsat berish?

A) Atom energiyasidan foydalanish ob'ektlarida 27 yoshga to'lgan va bu ish uchun tibbiy jihatdan qarshi ko'rsatmalarga ega bo'lmagan, tegishli malaka talablariga javob beradigan, maxsus vakolatli organ tomonidan beriladigan atom energiyasidan foydalanish sohasidagi ishlarni olib borish huquqini beruvchi ruxsatnomaga ega bo'lgan, shuningdek mazkur ishga, agar ish davlat sirlari va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirdan foydalanish bilan bog'liq bo'lsa, ruxsat olgan shaxslarning ishlashiga yo'l qo'yiladi.

B) Atom energiyasidan foydalanish ob'ektlarida o'n sakkiz yoshga to'lgan va bu ish uchun tibbiy jihatdan qarshi ko'rsatmalarga ega bo'lmagan, tegishli malaka talablariga javob beradigan, maxsus vakolatli organ tomonidan beriladigan atom energiyasidan foydalanish sohasidagi ishlarni olib borish huquqini beruvchi ruxsatnomaga ega bo'lgan, shuningdek mazkur ishga, agar ish davlat sirlari va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirdan foydalanish bilan bog'liq bo'lsa, ruxsat olgan shaxslarning ishlashiga yo'l qo'yiladi.

V) Atom energiyasidan foydalanish ob'ektlarida 37 yoshga to'lgan va bu ish uchun tibbiy jihatdan qarshi ko'rsatmalarga ega bo'lmagan, tegishli malaka talablariga javob beradigan, maxsus vakolatli organ tomonidan beriladigan atom energiyasidan foydalanish sohasidagi ishlarni olib borish huquqini beruvchi ruxsatnomaga ega bo'lgan, shuningdek mazkur ishga, agar ish davlat sirlari va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirdan foydalanish bilan bog'liq bo'lsa, ruxsat olgan shaxslarning ishlashiga yo'l qo'yiladi.

G) Barcha jismoniy shaxslar ishlashlari mumkin.

9. Avariya o'ldirish rejalarini ishlab chiqish tartibi ?

A) Avariya o'ldirish rejalarini ishlab chiqish tartibi, atom energiyasidan foydalanish sohasidagi faoliyatni amalga oshirish chog'ida yuzaga kelgan avariya oqibatlarini tugatish, cheklash yoki kamaytirish choralari, aholini xabardor qilish usullari, shuningdek avariya o'ldirish shaylikni tekshirish choralari maxsus vakolatli organning yoki O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan belgilanadi.

B) Avariya o'ldirish rejalarini ishlab chiqish tartibi, atom energiyasidan foydalanish sohasidagi faoliyatni amalga oshirish chog'ida yuzaga kelgan

avariya oqibatlarini tugatish, cheklash yoki kamaytirish choralari, aholini xabardor qilish usullari, shuningdek avariya o'ld shaylikni tekshirish choralari maxsus vakolatli organning yoki O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining takliflari asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

V) Avariya o'ld rejalarni ishlab chiqish tartibi, atom energiyasidan foydalanish sohasidagi faoliyatni amalga oshirish chog'ida yuzaga kelgan avariya oqibatlarini tugatish, cheklash yoki kamaytirish choralari, aholini xabardor qilish usullari, shuningdek avariya o'ld shaylikni tekshirish choralari maxsus vakolatli organning yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

G) Avariya o'ld rejalarni ishlab chiqish tartibi, atom energiyasidan foydalanish sohasidagi faoliyatni amalga oshirish chog'ida yuzaga kelgan avariya oqibatlarini tugatish, cheklash yoki kamaytirish choralari, aholini xabardor qilish usullari, shuningdek avariya o'ld shaylikni tekshirish choralari maxsus vakolatli organ tomonidan belgilanadi.

10.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.07.2018 y. PF-5484-son "O'zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining maqsadini aniqlangan?

A) Aholi va mamlakat iqtisodiyotining elektr energiyasiga bo'lgan o'sib borayotgan ehtiyojini qondirish.

B) Aholi va mamlakat iqtisodiyotining elektr energiyasiga bo'lgan o'sib borayotgan ehtiyojini qondirish, shuningdek, energiya hosil qiluvchi quvvatlarni ko'paytirish hisobiga energiya bilan barqaror ta'minlash, energetika sektorini diversifikatsiya qilish, atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish va ushbu yo'nalishlarga ilg'or innovatsion texnologiyalarni joriy etish.

V) Energetika sektorini diversifikatsiya qilish, atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish va ushbu yo'nalishlarga ilg'or innovatsion texnologiyalarni joriy etish.

G) energetika sektorini diversifikatsiya qilish, atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish.

## **NAZARIY SAVOLLAR**

1. Energetika sohasida atom energiyasidan foydalanishni huquqiy tartibga solishning mohiyati, mazmuni va ilmiy-nazariy muammolari?

2. Atom energiyasidan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi bo'yicha alohida vakolatlarga ega bo'lgan davlat organlari, muassasalari va tashkilotlarining vakolatlarini tahlil qiling?

3. Atom energiyasidan foydalanish ob'ektlarining xavfsizlik darajasi pasayishiga, atrof-muhit holatining yomonlashuviga yoki boshqa salbiy oqibatlarga sabab bo'luvchi qo'shimcha omillar aniqlangan taqdirda, yadroviy qurilmani va (yoki) saqlash punktini barpo etish masalasini tahlil qiling?

4. Atom energiyasidan foydalanish sohasidagi faoliyat turlarini sharhlab bering?

5. Atom energiyasidan foydalanish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini tahlil qiling?

6. Atom energiyasidan foydalanish bo'yicha tadbirlarda fuqarolarning, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki masalasini ko'rib chiqing?

7. Yadroviy qurilmani va (yoki) saqlash punktini joylashtirish hamda barpo etish to'g'risida qaror qabul qilish masalasini tahlil qiling?

## **9-mavzu: BIOGAZ TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

### **9.1 Energetikada biogazdan foydalanish zarurati**

Yangi qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar va dasturlarda energiya va resurslarni tejovchi yangi texnologiyalarni jadal joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish, aholining qayta tiklanuvchi energiya manbalari haqida xabardorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari foydalanish, fermer xo'jaliklarida chorvachilik va parrandachilik chiqindilarini qayta ishlashni ta'minlovchi muqobil energiya manbalari qurilmalarini o'rnatish, fermer xo'jaliklarida zamonaviy texnologiyalar bo'yicha qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, fermer xo'jaliklari ehtiyojlari uchun, shu jumladan, issiq xonalarni isitish uchun muqobil energiya manbalariga ega bo'lish, xorijiy mamlakatlar tajribasini hisobga olgan holda quyosh hamda biogaz energiyasini ishlab chiqaruvchilar va foydalanuvchilarni rag'batlantirish, ularga soliq va bojxona imtiyozlari va afzalliklar berish bilan bog'liq masalalar o'z aksini topmoqda.

Biogaz qurilmalari, issiq suv olish uchun gelioqurilma, quyosh fotoelektrik stansiyasi yordamida suv chiqarish tizimi, energiya tejamkor suv nasoslari, kichik GES, shamol energiyasi kabi turlardan .

Biogaz haqida, biogaz deyarli arzon ekologik yonilg'i hisoblanib, chorvachilik, parrandachilikni qattiq va suyuq chiqindilaridan hamda o'simliklar va oqar suvlarda xosil bo'ladigan qoldiqlardan olinadi. O'z xususiyatlari buyicha biogaz tabiiy gazga yaqin. Biogaz tabiiy gaz kabi quyidagi jarayonlarda ishatilishi mumkin:

- ovqat tayyorlash;
- elektr va issqlik energiya (issiq suv va uy-joylarni isitish);
- avtomobil yonilg'i sifatida.

Biogaz ishlab chiqarish jarayoni qoldiqlardan yuqori sifatli go'ng hosil bo'ladi. Biogazni nafaqat mollari, parrandalari ko'p bo'lgan fermer xo'jaliklarda, balki xususiy xo'jaliklarda ham olish mumkin.

Agarda bir necha fermalar va xususiy xo'jaliklar bir-biriga yaqin joylashgan bo'lsa, chiqindilarni qayta ishlab chiqarishni markazlashtirib tashkil etish va olingan biogazni ferma va xo'jaliklarga truboprovodlar orqali uzatish iqtisodiy foydaliroq bo'ladi.

Biogaz olish uchun sanoat korxonalarida isitish maxsus tizimlarni mexanizatsiya va avtomatizatsiyalantirishda. Dunyoda qurilmalarni

ikkala turi ham keng tarqalgan. Masalan, Xindiston, Vetnam, Nepal va boshqa mamlakatlarda ko'pincha kichik (oilaviy) Biogaz qurilmasi ishlatiladi. Ulardan olingan gaz, asosan, ovqat tayyorlash jarayonida ishlatiladi. Biogaz qurilmasi ko'pchiligi Xitoyda joylashgan - 40 millionga yaqin, Xindistonda - 3,8 million, Nepalda - 20 ming kichik qurilmalar mavjud. O'rta va katta Biogaz qurilmalarning absolyut ko'rsatkichlari, soni bo'yicha ilg'or o'rinni Germaniya egallaydi (8 ming). G'arbiy Yevropada parrandachilik fermalarning yarmi biogaz bilan isitiladi.

Biogaz qurilmasi har qanday qurilish kabi, mablag', kuch va qo'vvatingizni talab qiladi. Birinchi kubometr biogazni olish bilan foyda kelishini uylamaslik kerak, buning uchun qurilma turg'un ishlashi kerak va sizni bilimdon ega sifatida doimo e'tiboringizda bo'lishi kerak.

Biogaz qurilmasini qurishga qaror qilagan fermer yoki kichik xususiy xo'jalik egasiga rejalash va montaj ishlarining har bir tafsilotlariga e'tibor berish tavsiya etiladi .

Biogaz qurilmasi turg'un, doimiy va ishonchli ishlashi uchun undan foydalanuvchi ekspluatatsiyaning xar bir tafsilotini bilishi kerak. Faqat shu shartlar bajarilganda, quyida berilgan kafolatlarga erishish mumkin. Ya'ni, yonilg'i, elektr energiya, bioo'g'it ishlab chiqazish. Shunindek, qo'shimcha mablag'lar olish imkoniyatlari: biogaz va bioo'g'it sotish, qishloq xo'jalik madaniy o'simliklarining hosildorligini oshirish.

## **9.2 Biogaz qurilmasini sotib olish, o'rnatish va ishlatish**

Biogaz qurilmasini sotib olish, o'rnatish va ishlatish jarayonida quyidagi bosqichlarga ajratib o'rganish mumkin. Birinchidan, bankdan kredit olish: kredit olish uchun talab qilinadigan hujjatlar, kredit shartlari; Ikkinchidan, biogaz qurilmasini sotib olish, oldi-sotdi shartnomasi, ishlab chiqaruvchining muvofiqlik sertifikat, Uchinchidan, chet eldan olinsa bojxona rasmiylashtiruvi, tovarning kelib chiqish sertifikat, invoys, yuk xati; To'rtinchidan, biogaz qurilmasini o'rnatish, hokimiyat ruxsati, qurilish me'yorlari va qoidalari, ekologiya me'yorlari va qoidalari; Beshinchidan, biogaz qurilmasidan foydalanish, texnika xavfsizligi talablari, foydalanish qoidalari, yong'in xavfsizligi; Oltinchidan, biogaz qurilmasidan chiqqan energiyani sotish "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi qonun, "Elektr energetika to'g'risida"gi qonun, "Energiyadan oqilona foydanish to'g'risida"gi



qonun, texnika xavfsizligi talablariga rioya qilingan holda amalga oshiriladi.

Agrar sohadagi korxonalariga biogaz qurilmalarini sotib olishlari uchun moliyaviy mablag'lar ajratilgan, soliq va bojxona sohasida imtiyozlar berish bilan bog'liq me'yoriy-huquqiy asoslar yaratilgan. Jumladan, xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi ishtirokida "Qishloq xo'jaligi korxonalarini qo'llab-quvvatlash. II bosqich" loyihasining "Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish va iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish" qismini amalga oshirish uchun energiyani tejaydigan texnologiyalarni va energiyaning muqobil manbalarini joriy etishga Global ekologik jamg'arma (GEF) trust fondining 12,699 mln. AQSH dollari miqdoridagi grantlari ajratilgan .

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 5 maydagi PQ-2343-son qarori bilan ma'qullangan 2015-2019 yillarda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya sig'imini qisqartirish, energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari dasturini ijro etish yuzasidan, respublikaning chorvachilik va parrandachilik xo'jaliklarida biogaz qurilmalari qurishni rag'batlantirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 25 noyabr kuni 343-sonli "Respublikaning chorvachilik va parrandachilik xo'jaliklarida biogaz qurilmalari qurishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatga ko'ra, chorvachilik va parrandachilik xo'jaliklarida biogaz qurilmalari qurishni rag'batlantirish chora-tadbirlari belgilab berildi.

Biogaz qurilmalaridan foydalanish sohasidagi asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlarga quyidagilar hisoblanadi. Ya'ni, "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi Qonun, "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi qonun, "Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida" gi Qonun, "Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmon (01.03.2013 y. PF-4512-son), "Respublikaning chorvachilik va parrandachilik xo'jaliklarida biogaz qurilmalari qurishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM Qarori, "O'zstandart" agentligi tomonidan "Biogaz qurilmalari. Umumiy texnik shartlar" O'zbekiston Respublikasi Davlat standarti amalga kiritilgan (O'zDSt 2798:2013), O'zbekiston Respublikasining 30.010.2009 y. O'RQ-226-son "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuni (Qonunchilik palatasi tomonidan 24.06.2009 y. qabul qilingan, Senat tomonidan 28.08.2009 y. ma'qullangan).

Ekologik ekspertiza xulosasi (Ekologik ekspertiza deganda rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo‘jalik va boshqa xil faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini belgilash hamda ekologik ekspertiza ob‘ektini ro‘yobga chiqarish mumkinligini aniqlash tushuniladi.). Loyiha oldi va loyiha hujjatlari, Vazirlar Mahkamasining Qarori bilan tasdiqlangan Nizomga ko‘ra, davlat ekologik ekspertizasi natijalari bo‘yicha xulosa tuzilib, u davlat ekologik ekspertizasi ob‘ektini ro‘yobga chiqarish mumkinligi yoki mumkin emasligi to‘g‘risidagi yakunlarni o‘z ichiga olgan bo‘ladi.

Davlat ekologik ekspertizasining xulosasi davlat ekologik ekspertizasi ob‘ektini moliyalash va ro‘yobga chiqarishda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ijro etilishi majburiydir. Davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasi bo‘lmay turib, loyihalarning bank va boshqa kredit tashkilotlari tomonidan moliyalanishi, shuningdek ularning ro‘yobga chiqarilishi taqiqlanadi (14-modda).

Ta’kidlash lozimki, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari Iqtisodiyot vazirligi bilan birgalikda biogaz qurilmalari qurishning hududiy manzilli dasturlarini ishlab chiqadilar va belgilangan tartibda tasdiqlaydilar. Bundan tashqari, mazkur organlar tegishli loyihalarning hujjatlarini keyinchalik Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturiga kiritish uchun ishlab chiqish va taqdim etishda biogaz qurilmalari ishlab chiqarishga ixtisoslashadigan tashkilotlarga ko‘maklashadilar.

Shuningdek belgilanishicha, 2016/2017 o‘quv yilidan boshlab qishloq va suv xo‘jaligi bo‘yicha oliy, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi muassasalarining tegishli o‘quv fanlari dasturlariga “Qishloq xo‘jaligi texnikasi” ta’lim sohasi yo‘nalishlari va “Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash” hamda “Qishloq xo‘jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish” yo‘nalishlari doirasida “Biogaz qurilmalari. Qurish va ulardan foydalanish” mavzulari (bo‘limlar)ni kiritiladi.

Davlat statistika qo‘mitasiga 2016 yil 1 yanvardan boshlab statistika hisobotining amaldagi shakllari doirasida ishga tushirilgan biogaz qurilmalari soni hamda ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmlari hisobi yuritilishi belgilandi.

Belgilanishicha, tiklanadigan energiya manbalaridan foydalangan holda elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi elektr energiyasi iste’molchilari ortiqcha ishlab chiqarilgan elektr energiyasini yetkazib berish uchun yagona elektr energiyasi tizimi (YAEET) bilan parallel

tarzda barqaror ishlashni ta'minlovchi maxsus qurilmalar vositasida ulanishga doir texnik shartlar olingandan va bajarilgandan keyin yagona elektr energiyasi tizimining elektr tarmoqlariga ulanishlari mumkin.

Tiklanadigan energiya manbalaridan foydalangan holda ishlab chiqarilgan, iste'molchilar tomonidan YAEETning elektr tarmoqlariga yetkazib beriladigan elektr energiyasi uchun hisob-kitoblar oxirgi iste'molchilar uchun belgilangan tariflar bo'yicha, elektr ta'minoti korxonalarining elektr energiyasini uzatish bo'yicha xarajatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Bojxona bojidan ozod etish tarzidagi tarif imtiyozi berilgan: O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga ko'ra xalqaro moliyaviy tashkilotlar va xorijiy hukumatning moliyaviy tashkilotlari tomonidan berilgan qarzlari (kreditlar) hisobidan, shuningdek grantlar hisobidan yuridik shaxslar tomonidan bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarga imtiyoz beriladi.

Ehtiyotkorlik choralari qo'rilmaga xizmat ko'rsatish operatsiyalarini amalga oshirishda, ayniqsa ishga tushirish va ishchi rejimga kiritish paytida, ma'lum bir ehtiyotkorlik choralari rioya qilish kerak. Bular quyidagilar:

1. Birlamchi xomashyoni tanlash va tayyorlash o'ta sinchkovlik bilan amalga oshirilishi kerak. Tarkibida zaxarli moddalar mavjud bo'lgan chiqindilarni solish man qilinadi. Chunki, bu nafaqat mikro organizmlar hayoti faoliyatini sundiradi, balki xizmat ko'rsatayotgan xodimlarning organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, shuni hisobga olish kerakki, chiqindilar aksar holda o'g'it sifatida qo'llaniladi.

2. Biogaz bosimining o'zgarishini, ayniqsa yuklash va aralashtirish paytida, kuzatib turish zarur.

3. Reaktor ichidagi biogaz bosimini kamaytirish, kompressor bilan biogazni tortib chiqarib tashlash zarur. Substratning chiqishi juda intensiv tarzda ro'y bermasligi uchun bu ishlarni xomashyodan bo'shatishdan oldin amalga oshirish kerak. Substratni yuklashdan avval biogazning I xammasini chiqarish zarur, bu ishlangan substratni yuklash trubasidan sizib chiqib ketishining oldini olib, aksincha, reaktorni o'z oqimi bilan yuklanishi imkonini beradi.

4. Reaktordan yuk tupik tushirilayotgan, ta'mirlash yoki ichi ko'rikdan o'tkazilayotgan paytda ehtiyotkorlik choralari rioya qilish shart. Yuk tushirilayotgan paytda lyukni ochib, qo'lda yoki nasos yordamida metantankdagi moddalar tushirilishi kerak.

5. Metantenk germetizatsiyasi buzilganda gugurt yoqish, qurilma yaqinida chekish mumkin emas. Metantenk ichini olov bilan yoritish man etiladi.

6. Qurilma ishlayotganda gazoprovod trubalari ustida sinov uchun biogazni yoqib ko‘rish man etiladi. Bu faqat biogaz iste‘molchisining o‘t oldiruvchi uskunasi amalga oshirilishi kerak.

7. Biogaz iste‘mol qiluvchilarining moslamalari amaldagi instruksiyalarga muvofiq bajarilishi kerak.

8. Xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarni elektr toki urishi va elektr razryadlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan portlash vaziyatlarining oldini olish uchun biogaz qurilmaning barcha elektr uskunalari yerga ulangan bo‘lishi kerak.

9. Reaktor joylashtirilgan yerga avtotransportning kirishi va chorvani o‘tishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

### **9.3 Biogaz qurilmalari ekspluatatsiyasining xavfsizlik qoidalari**

1. Reaktorlar, gazgolderlar va ular o‘rnatilgan xonalar yong‘in va portlashdan xavfli binolar kategoriyasiga kiradi.

2. Metan achitish qurilmalarga xizmat ko‘rsatish vaqtida xavfning bosh manbai bu portlash xavfi, yong‘in yuzaga kelishi, biogazdan zaxarlanish, tor joylarda kislorod yetishmasligi, elektr yuritmalari, kompressorlarni xarakterlanadigan qismlarining mavjudligi.

3. Har bir metantenkda surma qopqoq, gidrozatvor bo‘lishi kerak. Zarurat to‘g‘ri, ular yordamida biogaz magistral gazoprovoddan ajratiladi.

4. Achish jarayonida ajraladigan biogaz reaktordan gaz o‘tkazgichga bema’alol o‘tish yo‘liga ega bo‘lishi kerak. Tizimda biogaz bosimi me‘yordan ortiqcha ko‘tarilsa, bosimni avtomatik tarzda tushirishni ta‘minlash kerak.

5. Biogaz qurilmasi yong‘inga qarshi uskunalar bilan jihozlanishi kerak.

Shuning uchun quyidagi qoida va tavsiyalarga rioya qilish kerak: maxsus kiyim, poyabzal, qo‘lqop va rezina qo‘lqoplarda ishlash shart; ferma, metan achitish qurilmasi o‘rnatilgan joy atrofida ovqatlanish mumkin emas; ish tugagach, qo‘llarni sovunlab iliq suvda yuvish; xonalarni xar kuni dezinfeksiya vositalari bilan namlab tozalash zarur.

## KAZUSLAR

1. Issiq suv va issiqlik ta'minoti uchun past potentsialli qurilmalarni yaratish, elektr quvvati olish uchun fotoelektrik va termodinamik o'zgartkichlar, maxsus materiallar sintezi texnologiyalarida, materiallar va konstruksiyalarga termik ishlov berishda quyosh energiyasidan foydalanish bo'yicha ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari ayniqsa faol va samarali olib borilmoqda. Xorijiy mamlakatlar tajribasini hisobga olgan holda quyosh hamda biogaz energiyasini ishlab chiqaruvchilar va foydalanuvchilarni rag'batlantirish, ularga soliq va bojxona imtiyozlari va afzalliklar berish qonunchilikda kuzda tutilganmi, ko'zda tutilgan bo'lsa, bu boradagi masallarni qonunchilik asosida tahlil qiling va sharhlang.

Suv isitish kollektorlari, fotoelektrik qurilmalar yordamida suv chiqarish va energiya tejoychi sug'orish nasoslaridan foydalanish va foydalanuvchilarni rag'batlantirish, ularga soliq va bojxona imtiyozlari va afzalliklar berilmagan. Yoki imtiyozlar va afzalliklar berilgan bo'lsa qanday huquqiy asoslari bor, tahlil qiling.

2. Energetika sohasida bioenergetikadan foydalanish samaradorligini oshirishning huquqiy jihatlari va amalga oshirishning normativ-huquqiy ta'minlash masalalari? Elektr ta'minoti shartnomasi. Elektr ta'minoti korxonalarining majburiyatlari?

Energetikada biogazdan foydalanish va energiyaning muqobil manbalarini joriy etish masalarini qonunchilik hujjatlari asosida tahlil qiling.

3. Umumiy uyimiz biosfera barqarorligini asrash hozirgi vaqtda eng muhim va dolzarb umum sayyoraviy ekologik muammolardan biridir. Chunki, tabiiy resurslardan normasiz foydalanish, antropogen omillarning tabiatga keltirilgan salbiy ta'siri va boshqa sabablar natijasida ekosistemalarga kuchli ta'sir ko'rsatilmoqda, juda ko'p tur o'simlik va hayvonlar yo'qolib ketmoqda. Inson tabiatsiz – yashamaydi. U barcha mahsulotlarni tabiatdan oladi. Yer yuzida 7 mlrddan, ziyod inson kislorod bilan nafas oladi, kislorodning manbai esa o'simliklardagi fotosintez jarayonidir. O'simliklar biosfera barqarorligini asraydi. Biosfera eng katta ekologik tizim bo'lib, u bir qancha ekotizimlardan iborat (cho'l, adir, tog', yaylov, ko'l, daryo. Okean, o'tloq, o'rmon, to'qay va boshqalar). Ana shu ekosistemalarda birgalikda yashovchi turlar biologik xilma-xillikni tashkil qiladi.



Yuqorida keltirilgan ekologik muammoli masalalarda biogaz texnologiyalaridan foydalanishning nazariy amaliy asoslari nimalardan iborat bo'lishi mumkin.

Energetikada biogazdan foydalanish joriy etish masalarini qonunchlik va standartlar asosida tahlil qiling.

### TEST

1. Biogaz tabiiy gaz kabi quyidagi jarayonda ishatilishi mumkin.

- A ovqat tayyorlash
- B) elektr va issiqlik energiya
- V) avtomobil yonilg'isi sifatida
- G) barcha javoblar to'g'ri

2. Yer yuzidagi aholining ... , biomassani hamon yog'och o'tin turida, asosiy yoqilg'isi sifatida foydalanib keladi.

- A) uchdan biriga yaqini (2 mlrd. kishi atrofida),
- B) ikkian biriga yaqini (1 mlrd. kishi atrofida),
- V) turtdan biriga yaqini (0.3 mlrd. kishi atrofida),
- G) uchdan biriga yaqini (0.9 mlrd. kishi atrofida),

3. Biomassa – ... ?

- A) yonuvchan slanets, uran, ko'mir, neft va tabiiy gazdan keyin hozirgi paytda eng oddiy, zahirasi bo'yicha oltinchi o'rindagi energiya manbasidir
- B) tabiiy gazdan keyin hozirgi paytda eng oddiy, zahirasi bo'yicha oltinchi o'rindagi energiya manbasidir
- V) eng oddiy, zahirasi bo'yicha oltinchi o'rindagi energiya manbasidir
- G) yonuvchan slanets, uran, ko'mir, neft va tabiiy gazdan keyin hozirgi paytda eng oddiy, zahirasi bo'yicha beshinchi o'rindagi energiya manbasidir

4. Innovatsion rivojlanish strategiyasiga muvofiq, 2025 yilga kelib, qayta tiklanuvchi va muqobil energiya manbalaridan foydalanib, ...

- A) elektr energiyasi ishlab chiqarish hissasini 20 foizdan ko'proq oshishi ko'zda tutilmoqda.
- B) elektr energiyasi ishlab chiqarish hissasini 30 foizdan ko'proq oshishi ko'zda tutilmoqda.
- V) elektr energiyasi ishlab chiqarish hissasini 40 foizdan ko'proq oshishi ko'zda tutilmoqda.
- G) elektr energiyasi ishlab chiqarish hissasini 70 foizdan ko'proq oshishi ko'zda tutilmoqda.

5. Xitoyda bioenergetika resurslari hajmi gidroenergetika va shamol energetikasiga nisbatan ... .

A) 2-3,5 marta ko'p.

B) 4 marta ko'p.

V) 7 marta ko'p.

G) 8 marta ko'p.

6. Yevropada biomassa asosan, ... .

A) issiqlik ishlab chiqarish uchun foydalaniladi.

B) elektr ishlab chiqarish uchun foydalaniladi.

V) suv uchun foydalaniladi.

G) ishlab chiqarish uchun foydalaniladi.

7. O'zbekistonda bioenergetika sektorini rivojlantirish ijobiy omil bo'lib, qattiq biomassadan elektr energiyasini ishlab chiqarishga "yashil" tarif joriy etish, shuningdek, 2019 yil 21 maydagi O'RQ-539-son "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonunga amal qilinishni ommalashuviga bog'liq. Yevropa mamlakatlari energiya resursida biogaz umumiy iste'molning 20%ini ta'minlayotgan bo'lsa, ...?

A) O'zbekistonda bu ko'rsatkich 1%ga ham yetmaydi

B) O'zbekistonda bu ko'rsatkich 2%ga ham yetmaydi

V) O'zbekistonda bu ko'rsatkich 3 %ga ham yetmaydi

G) O'zbekistonda bu ko'rsatkich 4%ga ham yetmaydi

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Respublikaning chorvachilik va parrandachilik xo'jaliklarida biogaz qurilmalari qurishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori maqsadi nima?

A) iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya sig'imini qisqartirish, energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari dasturini ijro etish yuzasidan, respublikaning chorvachilik va parrandachilik xo'jaliklarida biogaz qurilmalari qurishni rag'batlantirish

B) iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya sig'imini qisqartirish, energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish

V) parrandachilik xo'jaliklarida biogaz qurilmalari qurishni rag'batlantirish

G) biogaz qurilmalari qurishni rag'batlantirish

9. "Respublikaning chorvachilik va parrandachilik xo'jaliklarida biogaz qurilmalari qurishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tumanlar (shaharlar) hokimliklari ... .?

A) O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Qurilish

vazirligining hududiy bo‘linmalari bilan birgalikda biogaz qurilmalari qurish loyihalari tashabbuskorlarining buyurtmanomalari bo‘yicha ruxsat berish tartib-qoidalaridan o‘tish uchun belgilangan tartibda va muddatlarda “yagona darcha” prinsipi bo‘yicha yer uchastkalari ajratilishini va vakolatli tashkilotlar tomonidan qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishga ruxsatnomalar berilishini ta’minlaydi.

B) O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining hududiy bo‘linmalari bilan birgalikda biogaz qurilmalari qurish loyihalari tashabbuskorlarining buyurtmanomalari bo‘yicha ruxsat berish tartib-qoidalaridan o‘tish uchun belgilangan tartibda va muddatlarda "yagona darcha" prinsipi bo‘yicha yer uchastkalari ajratilishini va vakolatli tashkilotlar tomonidan qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishga ruxsatnomalar berilishini ta’minlaydi.

V) “yagona darcha” prinsipi bo‘yicha yer uchastkalari ajratilishini va vakolatli tashkilotlar tomonidan qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishga ruxsatnomalar berilishini ta’minlaydi.

G) O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi, loyiha tashabbuskorlarining buyurtmanomalari bo‘yicha ruxsat berish tartib-qoidalaridan o‘tish uchun belgilangan tartibda va muddatlarda “yagona darcha” prinsipi bo‘yicha yer uchastkalari ajratilishini va vakolatli tashkilotlar tomonidan qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishga ruxsatnomalar berilishini ta’minlaydi.

10. Boshqa turdagi QTEMga va an’anaviy energiya yetkazuvchilarga taqqoslaganda, biogaz quyidagi afzalliklarga ega.

A) B, V, G.

B) Zararli chiqitlar mavjud emas. Biomassa energiya katta qismda, zararli (karbonat angidrid gazlari) chiqitlarini hosil qilmaydi. Bugun foydalanilayotgan ko‘p energiya turlari karbonat angidrid gazi chiqitlarini nazorat qila olmaydi, ya’ni, ozon qatlamiga zarar keltiradigan issiqxona gazlarini ta’siri ko‘payadi, bu sayyoramizdagi global iqlim o‘zgarishiga potensial sababchi bo‘ladi. Mutlaqo ravshanki, biomassa karbonat angidrid gazidan, hech qanday ortiqcha chiqitlar chiqarmaydi. Mo‘l-ko‘l va qayta tiklanuvchan energiya manbaligi. Biomassa serob, qayta tiklanuvchi energiya manbasi hisoblanadi. Chunki u, tirik manbalardan kelgan, hayoti esa davriy, bu mahsulotlar hech qachon tugamaydi, hozircha tirik organizm bor ekan va kimdir, tirik tashkil etuvchi (komponent) chiqindilar energiyaga aylanadi.

V) Qazib olinadigan yoqilg‘i turlariga bog‘liqlikni kamaytirish. Biomassa ko‘pgina xususiy uylarning muqobil yoqilg‘i manbasi

hisoblanib, ularga qazib olinadigan yoqilg'i turlariga bog'liqlikni kamaytiradi.

G) Chiqindixonalar sonini kamaytirish. Ushbu turdagi energiyaning afzalligi, uning ishlab chiqarilishi, atrof-muhitga zarar keltiradigan chiqindidan foydalanib, foyda olishi mumkin. Axlatxonadagi axlat, eng kamida ma'lum qismi, foydali biomassa yaratish uchun yoqib yuborilishi mumkin. Biomassa har xil mahsulotlar yaratish uchun foydalanilishi mumkin. Biomassa energiyasi har tomonlama (universal) har xil shakldagi organik modda turli mahsulotlar yaratish uchun foydalanilishi mumkin.

## NAZARIY SAVOLLAR

1. Biogaz texnologiyalari huquqiy asoslari? Fikringizni huquqiy asoslang?

2. Biogaz texnologiyalaridan foydalanish uchun qanday imtiyozlar bor huquqiy asoslari va mazmuni haqida tuxtaling?

3. Biogaz texnologiyalaridan foydalanish uchun maxsus qonunlarni sharhlang?

4. Biogaz texnologiyalaridan foydalanish uchun bojxona talablari, olib kirilishida, tahlil qiling?

5. Biogazdan energiya olish va sotishning huquqiy asoslari nimalardan iborat bu borada sharh keltiring?

6. Xizmatlar ko'rsatuvchilar bilan, xususan elektr energiyasi ta'minoti - yo'laklar, yerto'lalar, liftlarni yoritish uchun to'lovlar qay tarzda amalga oshiriladi?

7. Davlat va huquq nazariyasiga asosan huquq sohalari ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish jarayonida tutgan o'rni va ishtiroki darajasi doirasi nuqtai nazaridan mustaqil va kompleks (majmualashgan yoki keng qamrovli, keng tarmoqli) huquq sohaslariga bo'linishi mumkin. Energetika huquqini kompleks huquq sohasi deb e'tirof etamiz.

8. Energiyani saqlash va energiya samaradorligini huquqiy ta'minlashning ijtimoiy taraqqiyot munosabatlari? Energetika huquqida asosiy xalqaro akt va shartnomalar, ularning ahamiyati?

9. Energetika sohasida xalqaro hamkorlikning ahamiyati roli va o'ziga xos xususiyatlari. Energetika va energiya xalqaro miqyosda muhofaza qilish ob'ekti?

10. Toshkent viloyat energetika kompaniyasi rahbariyati buyrug'i bilan Chotqol davlat biosfera qo'riqxonasi hududi orqali elektr uzatish

tarmog‘i o‘tkazildi. Viloyat energetika kompaniyasi rahbariyati buyrug‘i qonuniymi?– Bunday buyruqlar chiqarish qanday oqibatlarga olib kelishimi mumkin va ularni chiqarganlik uchun qanday javobgarlik mavjud?

## **10-mavzu: ENERGETIKA SOHASIDAGI QONUN TALABLARINI BUZGANLIK UCHUN YURIDIK JAVOBGARLIK**

### **10.1 Energetika sohasidagi qonun talablarini uchun javobgarlikni tushunchasi, mohiyati va turlari**

Ma‘lumki, jamiyatimiz hayotining eng muhim tamoyillaridan biri qonun ustivorligi hisoblanadi. Uning mohiyati shundan iboratki, “asosiy ijtimoiy, eng avvalo iqtisodiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi, uning barcha qatnashchilari esa hech bir istisnosiz huquq normalarini buzganligi uchun javobgar bo‘ladi”.

Bozor mexanizmining eng asosiy xususiyatidan biri “xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar o‘rtasida ularning iqtisodiy javobgarligi va to‘liq iqtisodiy mustaqilligi asosida” qonun va shartnomalar intizomiga qat‘iy rioya qilish hisoblanadi. Qonun va shartnomalar mazmunida esa ko‘p hollarda fuqarolar va yuridik shaxslar zimmasiga yuklangan majburiyatlar yotadi.

Bu kabi majburiyatlarni amalga oshirish iste‘molchi va elektr ta‘minoti korxonasi o‘rtasidagi tuziladigan elektr ta‘minoti shartnomasida ham narazga tutilgan. Ushbu shartnoma majburiyatlarini bajarish esa, mamlakatimiz iqtisodini rivojlantirish yoqilg‘i energetika resurslaridan samarali va oqilona foydalanish bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu borada elektr energiyasidan unumli foydalanish, uni tejashda ishlab chiqarish sohalarida, maishiy xizmat sohasida ko‘plab imkoniyatlar mavjud.

Biroq, bugungi kunda iste‘molchilarning butun dunyo bo‘yicha yoqilg‘i energetika resurslari tanqis bo‘lgan bir davrda elektr energiyasini tejashga e‘tibor berish o‘rniga ular tomonidan elektr energiyasining isrof qilib sarflanishi va iste‘molchi elektr qurilmalarining avariya xavfi tug‘diradigan yoki odamlar hayotiga xavf soladigan qoniqarsiz texnik holatga keltirilayotganligini guvohi bo‘layapmiz.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va elektr energiyadan oqilona foydalanishni ta‘minlash choralari tizimida qonun hujjatlariga rioya qilmaganlik, energetika sohasidagi qonun talablarni buzganlik uchun yuridik javobgarlik choralari muhim o‘rinni egallaydi.



Yuridik javobgarlik deganda, huquq normalarini buzganlik uchun jazo choralari qo'llash oqibatida huquqbuzarga salbiy oqibatlar tug'dirish va davlat tomonidan huquq talablarini bajarishga majbur etish tushuniladi. Yuridik javobgarlik ijtimoiy javobgarlikning bir turi bo'lib, huquqiy normalarda belgilanadi va davlatning majburlash kuchini qo'llash imkoniyatlari bilan hamisha bog'liq bo'ladi.

Yuridik javobgarlik huquqbuzarlik sodir etilganda va uning salbiy oqibati kelib chiqqanda vujudga keladi. Yuridik javobgarlik davlatning majburlov xarakteridagi choralari huquqqa hilof harakat (yoki harakatsizlik) sodir etgan shaxsga nisbatan qo'llanilishi bilan bog'liq va u huquqbuzarlikka qarshi kurashning muhim huquqiy vositasidir.

Energetikaga doir qonunchilikni buzganlik uchun yuridik javobgarlik o'zining asosiy maqsadi va tamoyillari bilan boshqa qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikdan farq qilmaydi, ammo ma'lum bir o'ziga xos xususiyatlarga ham ega.

Energetika sohasidagi qonun talablarini buzganlik uchun javobgarlik bo'yicha ijtimoiy munosabatlar energetika sohasidagi huquqbuzarlik sodir etilganda vujudga keladi. Energetika sohasidagi huquqbuzarlik deganda energetika resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzuvchi aybli, noqonuniy harakat yoki harakatsizlik tushuniladi. Energetika sohasidagi huquqbuzarlik sodir etilganda atrof tabiiy muhitga hamda u orqali inson salomatligiga zarar yetkaziladi yoki zarar yetkazish xavfi tug'iladi.

Energetika sohasidagi huquqbuzarlik o'zining xavflilik darajasiga qarab jinoiy, ma'muriy, fuqarolik (mulkiy) huquqbuzarlik hamda intizomiy xatti harakat tarzida bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini 181-moddasiga muvofiq mehnat intizomini buzganlik uchun quyidagi jazo choralari qo'llaniladi: xayfsan; o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida jarima; ichki mehnat tartibi qoidalarida nazarda tutilgan hollarda xodimga o'rtacha oylik ish haqining ellik foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida jarima solish; mehnat shartnomasini bekor qilish. Mazkur Kodeksda nazarda tutilmagan intizomiy jazo choralari qo'llashi taqiqlanadi. Mehnat kodeksining 180-moddasi to'rtinchi qismiga muvofiq intizomiy jazo amal qilib turgan muddat mobaynida xodimga nisbatan rag'batlantirish choralari qo'llanilmaslik belgilangan. Bu muddat, O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini 183-moddasiga muvofiq, agar ushbu jazo bir yil o'tmasdan oldin ish beruvchi tomonidan olib tashlanmagan bo'lmasa, bir yildan oshib ketishi mumkin emas.

Intizomiy jazo choralari korxonada, tashkilot, muassasa rahbari yoki ustavda belgilangan boshqa shaxs yoki organ (mulkdor, kollegial organ) tomonidan qo'llaniladi (Mehnat kodeksining 82, 182-moddalari). Intizomiy jazo chorasini qo'llash tartibi quyidagilardan iborat: jazo qo'llanilishidan avval xodimdan yozma ravishda tushuntirish xati olinadi; nojo'ya xatti-harakatining og'irligi, qaysi vaziyatda sodir etilganligi, xodimning oldingi ish faoliyati va xulq-atvori inobatga oliniladi; har bir nojo'ya xatti-harakat uchun faqat bitta intizomiy jazo qo'llanilishi mumkin; agar O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida boshqa muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, nojo'ya xatti-harakat aniqlangandan keyin bir oy ichida ushbu jazo qo'llanilishi mumkin.

Intizomiy jazo chorasini berilganligi to'g'risidagi buyruq yoki qaror xodimga yozma ravishda ma'lum qilinadi va u tanishganligi to'g'risida uning nusxasiga imzo qo'yadi. Intizomiy jazo chorasini berilganligi to'g'risidagi qaror ustidan O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini 184-moddasida belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

Ish beruvchi xodimlardan yetkazilgan zararni undirish to'g'risida qarorni qabul qilishidan oldin uning miqdorini va zararni, kelib chiqish sabablarini aniqlashi lozim. Bu maqsadlarda komissiya tuzilishi hamda xodimdan tushuntirish xati olinishi lozim.

Xodim tomonidan zararning ixtiyoriy ravishda qoplashini yoki uni majburiy undirilishi tartibi O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini 206 va 207-moddalarida o'z aksini topgan. Korxonada, tashkilot va muassasa rahbarining zararni undirish to'g'risidagi qarori zarar yetkazilganligi aniqlangan kundan boshlab bir oy ichida chiqarilishi lozim. Zararning miqdori xodimning o'rtacha oylik ish haqidan ortiq bo'lmasa, korxonada, tashkilot va muassasa rahbarining qaroriga binoan undiriladi, agar zarar miqdori xodimning o'rtacha oylik ish haqidan ortiq bo'lsa, yoki zarar aniqlangan kundan keyin bir oylik muddat o'tgan bo'lsa, zarar sud tartibida undiriladi.

Korxonada, tashkilot va muassasa mol-mulkiga yetkazilgan zararni undirish haqidagi qaror ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Xodimlarning moddiy javobgarlikka tortilishidan qat'iy nazar ularga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llanilishi mumkin.

Energetika sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik eng ko'p qo'llaniladigan javobgarlik turidir. Ma'muriy javobgarlikka tortishga ma'muriy huquqbuzarlik asos bo'ladi. Qonun hujjatlarida ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayri huquqiy, aybli (qasddan yoki

ehtiyotsizlik oqibatida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik ma'muriy huquqbuzarlik deyiladi.

Energetika sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida nazarda tutilgan. Ma'muriy javobgarlik choralari ushbu huquqbuzarlik uchun jinoiy javobgarlikka tortish sabablari bo'lmaganida, qo'llaniladi.

Energetika sohasidagi huquqbuzarliklar uchun quyidagi ma'muriy jazo choralari qo'llaniladi:

- jarima. Uni qo'llashning asosiy tamoyillari O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 25-moddasida belgilangan. Jarimani qo'llash oqibatida ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishda aybdor shaxsdan davlat hisobiga pul undiriladi.

- ma'muriy huquqbuzarlik sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni musodara qilish jazosi tuman (shaxar) sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyasi tomonidan qo'llaniladi (O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 27-moddasi).

Energiya hosil qilish va uni sarflash sohasida shug'ullanayotgan yuridik va jismoniy shaxslar bevosita energiya nobudgarchiligini va energetika jihatidan samarasiz mahsulot ishlab chiqarilishini istisno etadigan mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishning belgilangan energiya jihatidan samaradorligini ta'minlashi shart. Bu talablar buzilganda mansabdor shaxslar:

energiyaning sifat ko'rsatkichlari buzilgan;

energiyaning bevosita nobudgarchiligi asboblari yordamida yoki normativ usul bilan aniqlangan;

energiya sarflanishini asbob yordamida hisobga olish buzilgan;

sertifikatlashtirilmagan energetika asbob-uskunalaridan, energiya ta'minoti tarmoqlari va tizimlarining elementlaridan foydalanilgan;

mavjud ikkilamchi energiya resurslaridan foydalanishning belgilangan ulushi ta'minlanmagan taqdirda ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Energiyadan nooqilona foydalanganlik uchun jismoniy shaxslarning javobgarligi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Energiya ta'minoti shartnomasi bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan hollarda, energiya bilan

ta'minlovchi tashkilot shu tufayli yetkazilgan zararining, abonent esa yetkazilgan haqiqiy zararining o'rnini qoplashi shart.

Agar energiya berishdagi uzilishlar quvvat va energiya yetishmasligi sababli energiya bilan ta'minlovchi tashkilot tomonidan qonun hujjatlari asosida iste'molni tartibga solish natijasida yuz bergan bo'lsa, energiya bilan ta'minlovchi tashkilot aybdor bo'lgan taqdirdagina shartnoma majburiyatlarini bajarmagani yoki tegishli darajada bajarmagani uchun javob beradi.

Energiya yetkazib beruvchilarning kelishmasdan energiya ta'minotini to'xtatib qo'yishi natijasida energiyadan foydalanuvchilarga yetkazilgan zarar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanadi.

Elektr va issiqlik energiyasini behuda sarflash, ya'ni elektr dvigatellaridan, elektr pechlari va boshqa elektr hamda issiqlik uskunalaridan muntazam ravishda, ishlab chiqarish zarurati bo'lmagan holda to'liq foydalanmaslik yoki ularni bekorga ishlatib qo'yish, zichlangan havo, suv va issiqlikning muntazam ravishda nobud bo'lishi, energiya bilan ta'minlovchi tashkilotlarning ruxsatisiz xizmat binolari va boshqa binolarni isitish uchun, shuningdek ishlab chiqarish jarayonida nazarda tutilmagan boshqa maqsadlar uchun elektr energiyasidan foydalanish, yoritish uchun elektr energiyasidan xo'jasizlarcha foydalanish, - mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, - mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

## **10.2 Umumiy foydalanishdagi elektr, issiqlik, gaz tarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ulanish**

Umumiy foydalanishdagi elektr, issiqlik, gaz tarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ulanish yoki ulardan foydalanish qoidalarini boshqacha tarzda buzish yoxud elektr, issiqlik energiyasi, tabiiy gazni hisobga olish asboblariga, shu jumladan ularning plombalariga qasddan shikast yetkazish yoki bunday hisobga olish asboblarining ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida ularga tashqaridan aralashish, - fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n

baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

1000 voltgacha kuchlanishli elektr tarmoqlarini (havo, yer osti va suv osti elektr uzatish, kiritma va taqsimlash qurilmalarini) muhofaza qilish qoidalarini buzish, basharti bu hol iste'molchilarni elektr energiyasi bilan ta'minlashda uzilishga, elektr tarmoqlarining shikastlanishiga yoki xalq xo'jaligiga boshqa xil ziyon yetishiga olib kelsa yoki olib kelishi mumkin bo'lsa, - fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o'ndan bir qismidan ikkidan bir qismigacha, mansabdor shaxslarga esa - ikkidan bir qismidan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

1000 voltdan ortiq kuchlanishli elektr tarmoqlarini muhofaza qilish qoidalarini buzish, basharti bu hol iste'molchilarni elektr energiyasi bilan ta'minlashda uzilishga, elektr tarmoqlarining shikastlanishiga yoki xalq xo'jaligiga boshqa xil ziyon yetishiga olib kelsa yoki olib kelishi mumkin bo'lsa, - fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uchdan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

### **10.3 Gazdan foydalanish qurilmasiga gazni ruxsatsiz ochib berish yoki gaz iste'mol qilishning belgilangan tartibiga rioya qilmaslik**

Gazdan foydalanish qurilmasiga gazni ruxsatsiz ochib berish yoki gaz iste'mol qilishning belgilangan tartibiga rioya qilmaslik yoxud gazdan foydalanish qurilmalarida gaz sarflashning tasdiqlangan solishtirma normalarisiz gaz sarflash yoki bunday normalardan ortiqcha sarflash, -

mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Gazdan foydalanish qurilmalarini gaz sarfini hisobga olmay turib yoki gaz qo'llanib hosil qilinadigan issiqlik energiyasi va mahsulotlarni hisobga olmay turib ishlatish yoxud gazdan foydalanish qurilmasi loyihasida nazarda tutilgan gaz yonish jarayonini avtomat tarzda boshqarib turuvchi vositalarning, issiqlik texnikasi nazorati asboblarining yoki gazdan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlovchi issiqlikdan foydalanish uskunalarining bo'lmasligi (buzuqligi),

mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Gaz iste'mol qiluvchi korxonalar, muassasa va tashkilotlar uchun nazarda tutilgan rezerv yoqilg'i xo'jaligining ishga tayyor emasligi yoki



gazdan foydalanish qurilmalarining belgilangan rezerv yoqilg'i turlarida ishlashga tayyor emasligi, - mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Umumiy foydalanishdagi elektr, issiqlik, gaz yoki suv ta'minoti tarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ulanib olish yoki elektr, issiqlik energiyasi, tabiiy gaz, sovuq yoki issiq suvni hisoblab borish uskunalari atayin zarar keltirish, yoxud hisoblash uskunalari ularning ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida tashqaridan aralashish, jiddiy zarar keltirish holatiga sabab bo'lgan bo'lsa - eng kam oylik ish haqining yetmish besh barobaridan bir yuz ellik barobarigacha jarima yoki ikki yuz qirq soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yilgacha ozodlikni cheklash yoxud bir yilgacha ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanadi.

Umumiy foydalanishdagi elektr, issiqlik, gaz yoki suv ta'minoti tarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ulanib olish yoki elektr, issiqlik energiyasi, tabiiy gaz, sovuq yoki issiq suvni hisoblab borish uskunalari atayin zarar keltirish, yoxud hisoblash uskunalari ularning ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida tashqaridan aralashish, ancha jiddiy zararga olib kelsa, eng kam oylik ish haqining bir yuz ellik barobaridan uch yuz barobarigacha jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan ikki yilgacha ozodlikni cheklash yoxud bir yildan ikki yilgacha ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanadi.

Umumiy foydalanishdagi elektr, issiqlik, gaz yoki suv ta'minoti tarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ulanib olish yoki elektr, issiqlik energiyasi, tabiiy gaz, sovuq yoki issiq suvni hisoblab borish uskunalari atayin zarar keltirish, yoxud hisoblash uskunalari ularning ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida tashqaridan aralashish, juda katta zararga sabab bo'lgan bo'lsa - eng kam oylik ish haqining uch yuz barobaridan besh yuz barobarigacha jarima yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud ikki yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanadi.

Yetkazilgan moddiy zarar qoplansa ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum etish jazosi qo'llanilmaydi.

Ilk bor jinoyat sodir etgan shaxs, agarda jinoyat aniqlanganidan o'ttiz kunlik muddat ichida yetkazilgan moddiy zarar qoplab bersa, javobgarlikdan ozod etiladi.

#### **10.4 Elektr, issiqlik energiyasi, gaz, vodoprovoddan foydalanish qoidalarini buzish**

Umumiy foydalanishdagi elektr, issiqlik, gaz yoki vodoprovod tarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ulanish yoxud elektr, issiqlik energiyasi, tabiiy gaz, sovuq yoki issiq suvni hisobga olish asboblari, shu jumladan ularning plombalariga qasddan shikast yetkazish yoxud bunday hisobga olish asboblari ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida ularga tashqaridan aralashish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, - bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Umumiy foydalanishdagi elektr, issiqlik, gaz yoki vodoprovod tarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ulanish yoxud elektr, issiqlik energiyasi, tabiiy gaz, sovuq yoki issiq suvni hisobga olish asboblari, shu jumladan ularning plombalariga qasddan shikast yetkazish yoxud bunday hisobga olish asboblari ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida ularga tashqaridan aralashish ancha miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo'lsa, -

bazaviy hisoblash miqdorining yetmish besh baravaridan bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Umumiy foydalanishdagi elektr, issiqlik, gaz yoki vodoprovod tarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ulanish yoxud elektr, issiqlik energiyasi, tabiiy gaz, sovuq yoki issiq suvni hisobga olish asboblari, shu jumladan ularning plombalariga qasddan shikast yetkazish yoxud bunday hisobga olish asboblari ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida ularga tashqaridan aralashish ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo'lsa, -

bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan ikki yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yildan ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Umumiy foydalanishdagi elektr, issiqlik, gaz yoki vodoprovod tarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ulanish yoxud elektr, issiqlik energiyasi, tabiiy gaz, sovuq yoki issiq suvni hisobga olish asboblari,

shu jumladan ularning plombalariga qasddan shikast yetkazish yoxud bunday hisobga olish asboblarining ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida ularga tashqaridan aralashish juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo'lsa, -

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud ikki yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Yetkazilgan moddiy zararning o'rni qoplangan taqdirda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi.

Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u jinoyat aniqlangan kundan e'tiboran o'ttiz kunlik muddatda yetkazilgan moddiy zararning o'rni qoplangan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladi.

Umumiy foydalanishdagi elektr, issiqlik, gaz tarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ulanish yoki ulardan foydalanish qoidalarini boshqacha tarzda buzish yoxud elektr, issiqlik energiyasi, tabiiy gazni hisobga olish asboblariga, shu jumladan ularning plombalariga qasddan shikast yetkazish yoki bunday hisobga olish asboblarining ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida ularga tashqaridan aralashishganlik uchun ma'muriy jazo xam belgilangan.

Vodoprovod tarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ulanish hamda vodoprovoddan foydalanish qoidalarini boshqacha tarzda buzish, yer ishlari va boshqa ishlarni bajarayotganda vodoprovod tarmoqlarini muhofaza qilish qoidalarini buzish, basharti bu hol ularning shikastlanishiga sabab bo'lsa yoxud sovuq yoki issiq suvni hisobga olish asboblariga, shu jumladan ularning plombalariga qasddan shikast yetkazish, xuddi shuningdek bunday hisobga olish asboblarining ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida ularga tashqaridan aralashganlik uchun javobgarlik.

Yetkazilgan moddiy zararning o'rni qoplangan taqdirda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi. Undan tashqari, birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u jinoyat aniqlangan kundan e'tiboran 30 kunlik muddatda yetkazilgan moddiy zararning o'rni qoplangan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladi.

## **KAZUSLAR**

1. Namangan viloyati "Mega Tekstil" xorijiy korxonasi vakili A. Namangan viloyati Pop tumani elektr ta'minoti korxonasi, ustidan sudga murojlat qilib, ogohlantirishsiz elektr energiyadan uzilishlar

bo'layotganligi, natijada ishlab chiqarish hajmi pasayib ketganli, Namangan viloyati Pop tumani elektr ta'minoti korxonasi ushbu zararni to'lashi lozim ekanligi yuzasidan Sudga da'vo kiritdi. Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 22 avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan "Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari"ning 128-bandida hududiy elektr tarmoqlari korxonalariga elektr energiyasini elektr tarmoqlarining balans bo'yicha mansublik chegarasiga elektr ta'minoti shartnomasida ko'rsatilgan hajmda uzluksiz yetkazib berish, elektr tarmog'i xo'jaligi ob'ektlarining rejali ta'mirlanishi tufayli elektr energiyasi bilan ta'minlashdagi mumkin bo'lgan uzilishlar to'g'risida kamida qancha oldin ogohlantirishi kerak. Javobgar, Pop tumani elektr ta'minoti korxonasi uzilishlar bo'lganligini tan oldi. Lekin, zararni qoplash masalasi yuzasidan kelisha olmadi. Sud qanay masalalarga yana e'tibor qaratishi lozim deb hisoblaysiz.

Ushbu holatga huquqiy baho bering.

2.Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarosi S. Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida energetika to'g'risidagi qonunchilikni buzganligi uchun, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha javobgarlikka tortilgan.

Fuqaro S. sud qaroridan norozi bo'lib, apellyatsiya shikoyati keltirgan. Fuqaro S. ning vajlariga ko'ra, unga nisbatan amaldagi qonunchilik noto'g'ri qo'llanilgan, chunki u Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarosi va unga nisbatan Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha qaror qabul qilinishi kerak edi. Shuning uchun, ushbu qaror noqonuniy qabul qilingan deb hisoblab, uni bekor qilishni so'ragan.

– Amaldagi qonunchilikka ko'ra (aniq qonunchilik, qonun, moddani keltirib) Qoraqalpog'iston Respublikasi sudining xatti-harakati to'g'rimi yoki yo'qmi?

– Mazkur holat bo'yicha qonunchilikka tayangan holda o'z fikringizni bildiring.

3.Toshkent viloyati Chirchiq "OTAYOR" MCHJ pishiq g'isht ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanar edi. U o'z faoliyatini qonun hujjatlari asosida gaz hisoblash uskunasini o'rnatgan va gaz tarmog'iga ulangan holda olib borardi. Oradan 6 yil o'tgandan keyin tuman gaz ta'minoti korxonasi xodimlari kelib gaz hisoblash uskunasini har 5 yilda muvofiqlik sertifikatini bo'yicha ko'rikdan o'tkazilishi kerakligini alohida uqtirib gaz tarmog'idan uzib qo'yilishi haqida ogohlantirdilar."OTAYOR" MCHJ esa bu talabga rioya qilmasdan

faoliyat olib borganligi uchun uning faoliyati vaqtinchalik gaz tarmogʻidan uzib qoʻyildi.

“OTAYOR” MCHJning gaz tarmogʻidan uzib qoʻyilishini tahlil qilib unga huquqiy baho bering.



## TEST

1. MJTKda sanoatdagi, qurilishdagi va issiqlik hamda elektr energiyasidan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik turlari belgilanadi?

A) B, V, G.

B) 1.O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi organlari nazorati ostidagi ob'ektlarda sanoat xavfsizligi talablarini buzish 2.Istirohat bog'larining attraksionlaridan foydalanishda qonun hujjatlari va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablarini buzish 3.Portlovchi hamda radioaktiv materiallarni (manbalarni) hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanish qoidalarini buzish.

V) 1.Shaharsozlik to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish, 2.Elektr va issiqlik energiyasini behuda sarflash

G) 1.Elektr, issiqlik energiyasi, gazdan foydalanish qoidalarini buzish 2.Elektr tarmoqlarini muhofaza qilish qoidalarini buzish 3.Gazdan yoqilg'i yoki xom ashyo sifatida foydalanish bilan bog'liq bo'lgan huquqbuzarliklar

2.O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi organlari nazorati ostidagi ob'ektlarda sanoat xavfsizligi talablarini buzish, - fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa... .

A) - uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

B) - ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

V) - to'rt baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

G) - besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

3.O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi organlari nazorati ostidagi ob'ektlarda sanoat xavfsizligi talablarini buzish, - fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilgandan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, -

A) fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - besh baravaridan oʻn baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi.

B) fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - besh baravaridan oʻn baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi.

V) mansabdor shaxslarga esa - besh baravaridan oʻn baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi.

G) fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - besh baravaridan oʻn baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi.

4. MJtKda Elektr va issiqlik energiyasini behuda sarflash, yaʼni elektr dvigatellaridan, elektr pechlari va boshqa elektr hamda issiqlik uskunalaridan muntazam ravishda, ishlab chiqarish zarurati boʻlmagan holda toʻliq foydalanmaslik yoki ularni bekorga ishlatib qoʻyish, zichlangan havo, suv va issiqlikning muntazam ravishda nobud boʻlishi, energiya bilan taʼminlovchi tashkilotlarning ruxsatisiz xizmat binolari va boshqa binolarni isitish uchun, shuningdek ishlab chiqarish jarayonida nazarda tutilmagan boshqa maqsadlar uchun elektr energiyasidan foydalanish, yoritish uchun elektr energiyasidan xoʻjasizlarcha foydalanish, -

A) mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan oʻn besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi.

B) mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining oʻn besh baravaridan oʻttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi

V) mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining oʻn besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi.

G) mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining oʻn besh baravaridan oʻttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi

5. MJtKda Elektr va issiqlik energiyasini behuda sarflash, yaʼni elektr dvigatellaridan, elektr pechlari va boshqa elektr hamda issiqlik uskunalaridan muntazam ravishda, ishlab chiqarish zarurati boʻlmagan holda toʻliq foydalanmaslik yoki ularni bekorga ishlatib qoʻyish, zichlangan havo, suv va issiqlikning muntazam ravishda nobud boʻlishi, energiya bilan taʼminlovchi tashkilotlarning ruxsatisiz xizmat binolari va boshqa binolarni isitish uchun, shuningdek ishlab chiqarish jarayonida

nazarda tutilmagan boshqa maqsadlar uchun elektr energiyasidan foydalanish, yoritish uchun elektr energiyasidan xo'jasizlarcha foydalanish, - Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, -

A) mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

B) mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

V) mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

G) mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

6. Umumiy foydalanishdagi elektr, issiqlik, gaz tarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ulanish yoki ulardan foydalanish qoidalarini boshqacha tarzda buzish yoxud elektr, issiqlik energiyasi, tabiiy gazni hisobga olish asboblariga, shu jumladan ularning plombalariga qasddan shikast yetkazish yoki bunday hisobga olish asboblarining ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida ularga tashqaridan aralashish, -

A) fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

B) fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

V) fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

G) fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

7. "Elektr tarmog'i xo'jaligi ob'ektlarini muhofaza qilish Qoidalari" qaysi davlat hokimiyati organi qabul qilgan va maqsadi nima ?

A) VM 2018 yil 26 dekabrda 1050-son, "Elektr energetikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda elektr tarmog'i xo'jaligi ob'ektlarini muhofaza qilish, shuningdek, kizil liniyalarga tutashgan zonalarda va ob'ektlarning muhofaza zonalarida ob'ektlar qurilishidagi mezonlar va cheklashlarni aniqlash tartibini tartibga soluvchi talablarni aktuallashtirish.

B) VM 2019 yil 26 dekabrda 1050-son, “Elektr energetikasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda elektr tarmog‘i xo‘jaligi ob‘ektlarini muhofaza qilish, shuningdek, kizil liniyalarga tutashgan zonalarini aktuallashtirish.

V) VM 2020 yil 26 dekabrda 1050-son, “Elektr energetikasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda elektr tarmog‘i xo‘jaligi ob‘ektlarini muhofaza qilish, shuningdek, kizil liniyalarga tutashgan zonalarida va ob‘ektlarning muhofaza zonalarida ob‘ektlar qurilishidagi mezonlar va cheklashlarni aniqlash tartibini tartibga soluvchi talablarni aktuallashtirish.

G) AV 2021 yil 26 dekabrda 1050-son, “Elektr energetikasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda elektr tarmog‘i xo‘jaligi ob‘ektlarini muhofaza qilish va cheklashlarni aniqlash tartibini tartibga soluvchi talablarni aktuallashtirish.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 09.03.1994 y. 124-son “Yoqilg‘i-energetika resurslaridan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun iqtisodiy jazolarni qo‘llash to‘g‘risida”gi qarorning maqsadi ?

A) Yoqilg‘i-energetika resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, neft mahsulotlari, gaz, elektr va issiqlik energiyasini behuda sarflash va ulardan boshqa maqsadlarda foydalanishning, noqonuniy sotish (berish)ning, o‘zlashtirib olishning va ularning sifati buzilishining oldini olish

B) noqonuniy sotish (berish)ning, o‘zlashtirib olishning va ularning sifati buzilishining oldini olish

V) noqonuniy sotish (berish)ning, o‘zlashtirib olishning va ularning sifati buzilishining oldini olish

G) Yoqilg‘i-energetika resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, noqonuniy sotish (berish)ning, o‘zlashtirib olishning va ularning sifati buzilishining oldini olish.

9. Elektr va issiqlik energiyasidan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun quyidagi iqtisodiy jazolarni qo‘llash nazarda tutiladi?

A) sanoat korxonalarini va tashkilotlarining isitish tarmoqlaridan suvning to‘kib yuborilishi, izolyatsiyaning buzilishi va issiqlik-bug‘ quvurlari, issiqlik tarmoqlaridan, issiqlik ishlatiladigan asbob-uskunalaridan izolyatsiyasiz foydalanish issiqlik energiyasi hajmining asbob-uskunalar yoki normativ usullar bilan aniqlangan isrof bo‘lgan

hajmi qiymatini ulardan 3 baravar miqdorda undirib olishga sabab bo'ladi.

B) kondensatning shartnomada ko'rsatilgan miqdorlar doirasida qaytarilib berilmasligi qaytarilmagan miqdor qiymatini 30 foiz miqdorida, shartnomada ko'rsatilgan me'yorlardan kam qaytarib berilgan taqdirda esa qaytarilmagan kondensat miqdorining qiymatini, tarif qiymatini ham qo'shib hisoblagan holda 50 foiz miqdorida undirib olishga sabab bo'ladi, iste'molchilar tomonidan elektr qurilmalarining yagona elektr energetikasi tizimi tarmoqlariga yoki issiqlikdan foydalanuvchi qurilmalarning issiqlik ta'minoti korxonalari tarmoqlariga tegishli shartnoma tuzmasdan o'zboshimchalik bilan ulab qo'yilishi korxonalar va tashkilotlardan ishlatilgan elektr va issiqlik energiyasi qiymatining 10 baravari miqdorini undirib olishga sabab bo'ladi

V) korxonalar va tashkilotlar tomonidan elektr energiyasidan xonalarni isitish va issiq suv ta'minoti maqsadlarida tegishli ruxsatlarsiz foydalanish bu maqsadlarda foydalanilgan elektr energiyasi tarifini ulardan 5 baravar miqdorda undirib olishga sabab bo'ladi;

G) Barcha javoblar to'g'ri

10. Neft mahsulotlaridan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun quyidagi iqtisodiy jazolarni qo'llash nazarda tutiladi?

A) Barcha javoblar to'g'ri

B) korxonalar va tashkilotlarga qarashli neft mahsulotlarini noqonuniy o'zlashtirib olish va xo'jasizlik bilan sarflash, shuningdek, ularni neft omborlaridan va davlat transport vositalaridan noqonuniy sotish aybdor yuridik shaxslardan noqonuniy ravishda sarflangan neft mahsulotlarining 3 baravar qiymatini undirib olishga sabab bo'ladi

V) neft mahsulotlarini maqsadga nomuvofiq ishlatish, shuningdek ularni qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlangan normalardan ortiqcha sarflash sarflangan neft mahsulotlarining 50 foiz qiymatini aybdor yuridik shaxslardan undirib olishga sabab bo'ladi

G) neft mahsulotlarini asossiz ravishda ishlab chiqarish nobudgarchiliklari, tabiiy kamayish yoki qo'shib yozilgan ish hajmi hisobiga hisobdan chiqarish aybdor yuridik shaxslardan noqonuniy ravishda hisobdan chiqarilgan neft mahsulotlarining 3 baravar qiymatini undirib olishga sabab bo'ladi;



## NAZARIY SAVOLLAR

1. Energetik qonunchilik talablarini buzishga qarshi kurashish va uning o'ziga xos xususiyatlari sohasidagi siyosat va taraqqiyot bosqichlari. Elektr energetikasi to'g'risidagi qonun xujjatlarini buzgan uchun javobgarlikning o'ziga xos xususiyatlari va turlari qanday? Amaliyotda qanday o'z ifodasini topgan?

2. Energetik barqarorlikni ta'minlash sohasida tabiiy resurslardan nooqilona foydalanganlik uchun yetkazilgan zararni qoplash masalalari haqida qarashlaringiz? Energetika va energiyadan noto'g'ri foydalanganlik uchun yetkazilgan zararni qoplash, tiklash va qaytarish hamda ularni qo'llashning yuridik tabiati deganda nimani tushunasiz?

3. O'zR FK 14-moddasi jabrlangan tomon uchun, huquqi buzilganda, huquqbuzardan o'ziga yetkazilgan zararining to'la qoplanishini talab qilish huquqini beradi hamda to'liq qoplashning turlari va umumiy tamoyilini belgilaydi. Mazkur qoida asosida O'zR FKga zararlarni qoplashda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi normalar kiritilgan (masalan, O'zR FK 15, 324, 325, 456-moddalari). Energetika sohasidagi qonun talablarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik masalalarini tasniflang? Energetika va energiyadan noto'g'ri foydalanganlik uchun ma'muriy javobgarlikni qo'llash muammolari?

4. Energetika huquqida energetika va energiya ob'ektlardan oqilona foydalanish umumiy va maxsus foydalanish huquqini ko'zda tutadi. Energiya ob'ektlaridan umumiy va maxsus foydalanish huquqini mohiyat mazmunini ochib, ularni huquqiy tahlil qiling.

5. Energiya resurslaridan oqilona foydalanish huquqini taminlash standartlash, davlat tekshiruvi, sarflash normativlari, sertifikatlash va metrologiya kabi talablarni o'z ichiga oladi. Energiyadan oqilona foydalanish huquqini taminlashdagi standartlash, davlat tekshiruvi, sarflash normativlari, sertifikatlash va metrologiya, kabi tushunchalarga huquqiy baho berib, ularni ahamiyatini tushuntirib bering.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 75-сессиясидаги нутқи.//Халқ сўзи, 2020 йил 23 сентябрь.

2. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 508 б.

3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараккиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.

4. Мирзиёев Ш.М. Танкидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017 йил 14 январь. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.

5. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз//Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. Халқ сўзи. 2016 йил 16 декабрь.

6. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // «Халқ сўзи» газетасининг 2018 йил 29 декабрдаги, 271-272-сон (7229-7230) сони.

7. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // <http://uza.uz>

8. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: ҳавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараккиёт қафолатлари.- Т.:Ўзбекистон, 1997. -113-бет.

9. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.-Т.:2020.-Б.36.

10. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси.-Т.,2019.-Б.376.

11. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси. Расмий нашр – Т., 2018 й. –Б.496.

12. Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат қонунчилиги бўйича меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами. – Т.: Ўзбекистон, 2018. –Б. 256.

13. Ўзбекистон Республикасининг 01.06.2017 й. ЎРҚ-432-сон «Қайта тикланувчи энергия бўйича Халқаро агентлик Уставини (Бонн, 2009 йил 26 январь) ратификация қилиш ҳақида»ги Қонуни (Қонунчилик палатаси томонидан 25.05.2017 й. қабул қилинган, Сенат томонидан 27.05.2017 й. маъқулланган)

14. Ўзбекистон Республикасининг 09.010.2019 й. ЎРҚ-565-сон «Атом энергиясидан тинчлик мақсадларида фойдаланиш тўғрисида»ги Қонуни (Қонунчилик палатаси томонидан 02.07.2019 й. қабул қилинган, Сенат томонидан 23.08.2019 й. маъқулланган)

15. Ўзбекистон Республикасининг 21.05.2019 й. ЎРҚ-539-сон «Қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланиш тўғрисида»ги Қонуни (Қонунчилик палатаси томонидан 16.04.2019 й. қабул қилинган, Сенат томонидан 03.05.2019 й. маъқулланган)

16. Қайта тикланувчи энергия манбалари қурилмаларининг ва улардан ишлаб чиқариладиган энергиянинг давлат ҳисобини юритиш тўғрисида Низом (ЎЗР ВМ 23.07.2020 й. 452-сон қарорига илова)

17. Ўзбекистон Республикасининг 25.04.1997 й. 412-І-сон «Энергиядан оқилона фойдаланиш тўғрисида»ги Қонуни. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 4-5-сон, 118-модда.

18. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 18.06.2020 й. ПФ-6010-сон «Табиий газ ва электр энергиясини сотиш механизмини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Фармони.

19. Электр энергиясидан фойдаланиш Қоидалари (ЎЗР ВМ 12.01.2018 й. 22-сон қарорига 1-илова)

20. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 08.11.2017 й. ПҚ-3379-сон «Энергия ресурсларидан оқилона фойдаланишни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори.

21. Ўзбекистон Республикасининг Вазирлар Маҳкамасининг «Республиканинг чорвачилик ва паррандачилик хўжаликларида биогаз қурилмалари қуришни рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори (25.11.2015 й. 343-сон).

22. Ўзбекистон Республикасининг 16.04.2018 й. ЎРҚ-475-сон «Ўрмон тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш

ва кўшимчалар киритиш ҳақида»ги Қонуни (Қонунчилик палатаси томонидан 01.12.2017 й. қабул қилинган, Сенат томонидан 29.03.2018 й. маъқулланган) «Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами», 2018 йил 23 апрель, 16-сон, 325-модда

23. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 11 июн 2019 йил 484-сон «2019-2028 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасида биологик хилма-хилликни сақлаш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида»ги Қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)), 2019 йил 13 июнь.

## II. MONOGRAFIYA, ILMIIY MAQOLA, ILMIIY TO‘PLAMLAR

1. Атроф табиий муҳитни муҳофаза қилиш: Қонунлар ва норматив ҳужжатлар/ У.Т.Аюбов, Т.С.Тиллаев. -Т.: Адолат, 2002.- Б.310.

2. Аюбов У.Т. Лишение ограничение и приостановление права природопользования.:Автореф... канд. юрид. наук/ У.Т.Аюбов; Ташкентского государственного юридического института-Т.: 1999. - С.22.

3. Бринчук М.М.Принципы экологического права: Монография. М., 2013. С.360.

4. Быков А.Г. О проекте Энергетического кодекса Российской Федерации // Энергетическое право. 2013. N 2. С. 6 - 8.

5. Вершинин А.П. Энергетическое право: Учебно-практический курс. СПб.: Издательский дом С.-Петербур. гос. ун-та:Издательство юридического факультета СПбГУ, 2007. С. 27.

6. Жўраев Й.О. Энергетика ҳуқуқининг шаклланиши: назарий ва ҳуқуқий муаммолар Энергетика қонунчилигини ривожлантириш ва такомиллаштириш масалалари: Илмий-амалий конференция материаллари. – Т.: ТДЮУ нашриёти, 2015. Б-7-12.

7. Лахно П.Г. Энергетическое право в XXI в.: опыт России и зарубежных стран // Предпринимательское право. 2012. N 2. С. 15 - 20.

8. Романова Э. П., Куракова Л. И., Ермаков Ю. Г. Природные ресурсы мира. Учеб. пособие. — М.: Изд-во МГУ, 1993. — 304 с.

9. Свирков С.А. Основные проблемы гражданско-правового регулирования оборота энергии: монография. М.: Статут, 2013.- 479 с.



10. Ўзбекистонда қайта тикланадиган энергия манбаларидан фойдаланишни ҳуқуқий тартибга солиш. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. –Т.: ТДЮУ. 2018. –130 б.

11. Файзиев Ш.Х. Энергетика соҳасида атроф муҳитни муҳофаза қилишга оид экологик талабларнинг ҳуқуқий асослари: тизимли таҳлили. Энергетика қонунчилигини ривожлантириш ва такомиллаштириш масалалари: Илмий-амалий конференция материаллари.. – Т.: ТДЮУ нашриёти, 2015. – 15 б.

12. Файзиев Ш.Х. Қонун ҳужжатлари: миллий, хорижий ва халқаро тажриба. Илмий-амалий қўлланма. – Тошкент: Адолат, 2016. – Б.248;

13. Файзиев Ш.Х. Экологик хавфсизлик концепцияси. Давлат ва ҳуқуқ 2001. 2-сон. –Б.28.

14. Холмўминов Ж.Т., Сафаров Ж.И. Хорижий мамлакатларда табиий ресурслар ҳуқуқи. Монография / Масъул муҳаррир: проф. М.Б.Усмонов. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти, 2011. – 169 б.

15. Ҳамроев С.С. Ўзбекистонда табиий бойликлардан фойдаланиш шартномалари (концессия)нинг ҳуқуқий тартибга солиниши. –Т.: НПО “Восток”, 1999. Б-178.

16. Энергетическое право ЕС: Учебно-методический комплекс. - Москва: Московский государственный институт международных отношений. 2008, С.319.

17. Яковлев В.Ф. Правовое регулирование топливно-энергетического комплекса России // Энергетика и право: Выпуск 2 / Под ред. П.Г. Лахно. М., 2009. С. 12.

18. Bradbrook A. Energy Law as an Academic Discipline / A. Bradbrook // Journal of Energy & Natural Resources Law. – 1996. – Vol.14. – P. 194.

19. Ekologiya huquqi. Darslik // Bozorov U.B., Xolmo‘minov J.T., Juraev Y.O., Usmonov M.B. va boshqalar. Mas’ul muharrir yu.f.d., prof. J.T.Xolmo‘minov. – T: TDYU, 2019. - B 369.

20. Ekologiya huquqi. Darslik. Usmonov M.B., Rustamboyev M.H., Xolmuminov J.T. va boshq. Mas’ul muharrir: M.B.Usmonov.-Toshkent: TDYI, 2006. - B. 361.

21. Energy Law in Europe / M. Roggenkamp, A. Ronne, C. Redgwell, I. Del Guayo (eds.) – Oxford: Oxford University Press, 2001, p.87.



22. Environmental and Energy Law as a Field of Research: A Structural Overview Jorge E. Viñuales and Emma Lees./ University of Cambridge, UK. Cambridge University Press, 2017.

23. Mommer B., Global Oil and the Nation State / B. Mommer – Oxford: Oxford University Press, 2002, p.167.

### **III. ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI**

1. <http://www.hs-mittweida.de>
2. <http://www.hu-berlin.de>
3. <http://www.lex.uz>
4. <http://www.mq.edu.au>
5. <http://www.ox.ac.uk>
6. <http://www.rug.nl>
7. <http://www.tsul.uz>
8. <http://www.uza.uz>
9. <http://www.uzbekenergo.uz/uz/about/uzbekenergo/>
10. <http://www.uznature.uz/uz/node/1008>